

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI

SHO-AKBAR SHORAXMETOV

**FUQAROLIK ISHLARINI SUDDA
KO`RISHGA OID PROTSESSUAL
HUJJAT NAMUNALARIGA
SHARH**

*O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan universitetlarning
yuridik fakultetlari, yuridik institut va kollejlarning talabalari, shuningdek,
fuqarolar uchun mo`ljallangan*

TOSHKENT-2008

Sh.Shorahmetov

Fuqarolik ishlarini sudda ko`rishga oid protsessual hujjat namunalari ga sharh. –T.: TDYI nashriyoti. 2008. –327 bet.

Sarlavhada: O`zbekiston Respublikasi Adlyia vazirligi, TDYI.

Taqrizchilar: O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o`rinbosari **Baxtiyor Jamolov**
Fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent viloyati sudining raisi **Karimjon Saidov**
TDYI “Fuqarolik protsessual huquqi” kafedrasida dots.,
yu.f.n.**Muzaffarjon Mamasiddiqov**

Qo`lingizdagi ushbu kitob bir muncha murakkab hisoblangan fuqarolik protsessual huquqini o`zlashtirishga mo`ljallangan bo`lib, unda fuqarolik sud ishlarini yuritishga oid protsessual hujjatlarni bilib, to`g`ri, qonun talablari asosida yozishga ko`maklashadi. Kitobda protsessual hujjatlarning namunalarini keltirilishi bilan har bir turkum ishlarni o`zlashtirishni engillashtirish maqsadida sharh berilgan.

Sudda ish yuritishga oid protsessual hujjatlarni qonuniy tarzda tuzish fuqarolarning, shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlarining qonuniy huquq va manfaatlarini o`z vaqtida himoya qilish va bu borada manfaatdor shaxslarni nimalarga ahamiyat berishlari lozimligi haqida ham tavsiyalar berilgan.

Kitob huquqshunoslik Oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlari talabalariga, sud, prokuratura, advokatura, notariat, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idoralari xodimlariga va keng kitobxonlarga mo`ljallangan.

© **Sh.Shorahmetov.**

© Toshkent davlat yuridik instituti, 2008-yil.

MUALLIFDAN

Fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunlar fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizoli ishlarni, organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari)ga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan va alohida tartibda yuritiladigan ishlarni ko'rish tartibini belgilaydi. Shuningdek, bunday qonunlar ishlarni apellatsiya, kassatsiya va nazorat sudlarida ko'rish, sud hal qiluv qarorini ijro etish tartibini ham belgilaydi. Zotan, har bir huquqshunos mutaxassis ish ko'rish bilan bog'liq bo'lgan protsessual harakatlarni bajarishda moddiy va protsessual huquq normalarini qanchalik to'g'ri tadbiiq etsa, ishlarning shunchalik qonuniy va asosli hal etilishi ko'maklashgan bo'ladi. Ayni chog'da ishi ko'rilayotgan shaxslar o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish usullarini aniq bilib olsalar, ishni to'g'ri hal etish ham ancha osonlashadi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovlikni amalga oshirishda sud bir-biri bilan mantiqan bog'liq bo'lgan qator protsessual harakatlarni amalga oshiradi. Bunday harakatlar qonunda belgilangan talablar asosida, ya'ni ariza, da'vo arizasi, shikoyat, e'tiroz (protest), sudning hal qiluv qarorlari, qarorlar va ajrimlari shaklida o'z ifodasini topadi.

Fuqarolik ishlarini sudda ko'rib hal etish bilan bog'liq bo'lgan protsessual hujjatlarni asosli, savodli, ixcham va mantiqan tuzishish ko'rishni yengillashtiradi, bu o'z navbatida ishni to'g'ri hal etishga yordamlashadi. Aksincha, protsessual qonun talablariga rioya qilinmasdan tuzilgan hujjatlar ish ko'rishni qiyinlashtiradi, qonunda ko'zda tutilgan ba'zi hollarda esa yuqori sudlar tomonidan sud qarorlarining bekor qilinishga ham olib keladi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish qonunchiligi suddagi hamma protsessual hujjatlar uchun qat'iy belgilangan shaklni tavsiiya etmaydi, biroq bir qator hujjatlarni tuzishda Fuqarolik protsessual kodeksi (bundan keyin FPK deb yuritiladi) normalarida ko'rsatilgan talablarga qat'iy rioya qilishga e'tibor berish lozim bo'ladi.

Ko'p yillik sud amaliyoti fuqarolik ishlari bo'yicha qator sud hujjat namunalarni vujudga keltirdiki, ushbu kitobda ularning asosiylarini ko'rsatib o'tishga harakat qildik. Masalan, bular-uy-joy, nikoh va oila munosabatlari, aliment undirish ishlari, keltirilgan zararni undirish, mehnat huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar, organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari)ga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar, alohida tartibda yuritiladigan ishlar hamda ishlarni

apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida, yangidan ochilgan holatlar bo'yicha ishni qayta ko'rish, ijro bosqichidagi bajariladigan protsessual harakatlardir.

Mazkur kitobda boshqa shunga o'xshash kitoblardan farqli ravishda ayrim turkumdagi ishlar bo'yicha protsessual hujjatlarning namunalari ish yuritishni qo'zg'atishdan tortib to shu ishning yakunlanishi bilan bog'liq bo'lgan protsessual harakatlarning tartib va mazmunini bayon etishga harakat qildik. Bu hol sud amaliyotida kam tajribaga ega bo'lgan kishilar uchun o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi hamda fuqarolik protsessi tamoyil (prinsip)larining qanday harakatda bo'lishi lozimligini ifodalab beradi, degan umiddamiz.

Protsessual hujjatlarning bu normalari respublikamizdagi sudlar amaliyotida ko'pdan beri foydalanib kelinayotgan, sudlarda ish yuritish to'g'risidagi Nizomda keltirilgan ayrim protsessual hujjat (vasiqa)larning taxminiy namunalari asoslangan holda keltirildi. Shu sababli hujjat namunalari normalar va boshqa ma'lumotlar tasodifdan mos kelib qolgan hollarda fuqarolar va mansabdor shaxslardan uzr so'raymiz hamda bu ishlar xayrli maqsadda qilinayotganligini eslatib o'tamiz.

Ushbu ishning amaliyot uchun qulayliklaridan yana biri-sudga qadar va har bir protsessual harakatni bajarishdan avval bu holat qonunda va yuridik adabiyotlarda qanday ifodalanganligi hamda bu harakatlarni amalga oshirish uchun manfaatdor shaxs nimalarga e'tibor berishi lozimligi haqida ham tushuntirishlar berilganligidadir.

Qo'lingizdagi kitob fuqarolik ishlarini sudda ko'rib hal qilish ishlariga ko'maklashish maqsadida tayyorlangan: ya'ni bir muncha murakkab bo'lib hisoblangan fuqarolik sud ishlarini yuritishni to'g'ri amalga oshirishga ayrim protsessual qoidalarni o'zlashtirishga hamda o'zlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi har bir fuqaro, davlat va jamoat tashkilotiga huquqiy yordam ko'rsatishga qaratilgan. Bu boradagi ikkinchi marta o'zgartirish va qo'shimchalar bilan chop etilayotgan ushbu kitob oliy va o'rta malakali huquqshunoslar tayyorlaydigan o'quv yurtlarining talabalariga, sud, prokuratura, advokatura, notariat, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qiluvchi idoralarning xodimlariga, xolislar sudlariga, qolaversa, o'zlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha fuqarolarga mo'ljallangan.

Kitobni nashrga tayyorlashda o'z maslahatlari bilan yaqindan yordam bergan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining malakali xodimlariga muallif samimiy minnatdorchilik bildiradi.

I. SUD AJRIMI TUSHUNCHASI VA UNI QABUL QILISH ASOSLARI

Birinchi instansiya sudining ishni mazmunan hal qilmaydigan qaroriga ajrim deb aytiladi (FPKning 237-moddasi).

Birinchi instansiya sudida fuqarolik ishlarini ko`rish, odatda, hal qiluv qarori qabul qilinishi bilan tamom bo`ladi. Ajrim esa fuqarolik protsessining yuritilishi yoki uning to`xtalishi, tugatilishi masalalari bo`yicha dalillarni to`plash, protsessga yangi shaxslarni jalb qilish, sudning hal qiluv qarolarini ijro etish, shuningdek, tashkilotlarning ishlaridagi jiddiy kamchiliklar hamda fuqarolar tomonidan qonunning buzilishi va boshqa ba'zi masalalar bo`yicha chiqariladi.

Yuqoridagilarga ko`ra birinchi instansiya sudi tomonidan chiqariladigan ajrimlar ishni mazmunan hal qilmaydigan qaror hisoblanadi.

Ishni yuritish vaqtida sud majlisisigacha chiqariladigan ajrimlar, qoidaga muvofiq, sudyaning yolg`iz o`zi tomonidan taraflarni chaqirmasdan, sud majlisidan tashqari chiqariladi. Ish sud majlisida yoki sudlov hay'atida ko`rilayotganda, ajrimlarni sud hay'ati chiqaradi. Bunday hollarda taraflarning, shuningdek, ishda ishtirok etuvchi prokurorning fikrlari tinglanadi, boshqacha qilib aytganda, bunda taraflarning tortishuvchilik va teng huquqlilik prinsipiga rioya qilinadi.

Ishni mazmunan ko`rib ajrim chiqarish tartibi to`g`risidagi masala, ya'ni sud qanday hollarda maslahatxonaga kirib, sud hujjati sifatida ajrim chiqarishi va qanday hollarda sud majlisining o`zida maslahatlashib ajrim chiqarishi va uning mazmunini bayonnomaga yozish masalasi FPKning 237-moddasida ko`rsatib o`tilgan. Sud hay'ati tomonidan ayrim hujjat tarzida, ya'ni ajrim tariqasida chiqarib, masala hal qilinganda faqat raislik qiluvchigina emas, balki barcha sudyalar ishtirok etadilar va imzo chekadilar.

Shuni ham aytib o`tish kerakki, murakkab masalalarni maslahatxonaga kirmasdan hal qilish mazkur masalalarni hal qilishga jiddiy e'tibor bermasligini ko`rsatadi, bu esa sudning obro`sini ketkazadi. Ana shuning uchun ham ko`riladigan masalaning mazmuni (xarakteri)ga qarab asoslantirilishi lozim bo`lgan ajrimlar birinchi instansiya sudining sud majlisida hamda maslahatxonada chiqariladigan va sudning butun hay'ati tomonidan imzolanadigan ayrim hujjat sifatida yoziladi.

Boshqa ajrimlarning hammasi, masalan, sud majlisini boshqa kunga ko`chirish, dalillarni tekshirish tartibi, qo`shimcha dalillar talab qilib olish va boshqa masalalar to`g`risidagi ajrimlar sud tomonidan ishning holatiga

qarab yoki yuqorida ko`rsatilgan tartibda yoxud maslahatxonaga kirmasdan sud majlisining o`zidayoq kengashgan holda ayrim hujjat sifatida emas, balki sud majlisining bayonnomasiga yozish yo`li bilan chiqariladi.

Hal qiluv qarori singari ajrim ham to`rt qismdan iborat bo`ladi.

FPKning 238-moddasida ko`rsatilganidek, maslahatxonada (alohida xonada) chiqariladigan sud ajrimida quyidagilar ko`rsatiladi: 1)ajrimning chiqarilgan vaqti va joyi; 2)sudning nomi va hay'ati, sud majlisining kotibi;

3)sudda ishtirok etuvchi shaxslar, vakillar;

4)nizoning predmeti va ajrim bilan hal qilinadigan masalaning mazmuni;

5)sud o`z xulosasi uchun olgan asoslar va sud qo`llagan qonunlar;

6)sudning hal qilayotgan masala yuzasidan xulosasi;

7)ajrim ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) tartibi va muddati.

Maslahatxonaga kirmasdan turib sud tomonidan chiqariladigan ajrim FPKning 238-moddasi 4-5-6-bandlarida bayon qilingan ma'lumotlarni o`z ichiga olishi lozim.

Birinchi pog`ona sudi tomonidan chiqarilgan ajrimlarning hammasi ham qonuniy kuchga kiravermaydi. Ba'zi ajrimlar shu ajrimlarni chiqargan sud tomonidan o`zgartirilishi yoki bekor qilinishi ham mumkin. Masalan, agar sud da'voni ta'min qilish, ekspertiza tayinlash, uchinchi shaxslarni ishga jalb qilish va shu singarilar to`g`risidagi iltimosnomasini rad qilgan bo`lsa, keyinchalik ishni ko`rganda aniqlangan holatlarga qarab, sud o`zining ajrimini xoh taraflarning iltimosiga muvofiq, xoh o`z tashabbusi bilan qaytadan ko`rishi mumkin. Boshqa ajrimlarni sud o`zgartira olmaydi, bekor ham qila olmaydi. Bunday ajrimlarni taraflarning xususiy shikoyatiga yoki prokurorning protestiga muvofiq yuqori sud bekor qila oladi.

Qonun bo`yicha shikoyat qilib bo`lmaydi deb hisoblanadigan xususiy ajrimlar yoki xususiy shikoyat va protest berishga yo`l qo`yilmaydigan ajrimlarga qonuniy kuchga kiradi. Bu ajrimlardan avvalgilari ajrim chiqarilishi bilanoq qonuniy kuchga kiradi, ikkinchilari esashikoyat qilish uchun berilgan muddat o`tgandan keyin yoki shikoyat yo protest yuqori sud tomonidan rad qilinganidan keyin qonuniy kuchga kiradi.

Boshqa ajrimlar esa ish yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarori bilan birga qonuniy kuchga kiradi.

Ajrimning qonuniy kuchga kirishi muayyan huquqiy oqibatlariga sabab bo`ladi. Chunonchi: birinchidan, shu ajrim bilan hal qilingan nizoni yangidan ko`rib bo`lmaydi; ikkinchidan, uning ustidan shikoyat qilib bo`lmaydi, lekin uni nazorat tartibida bekor qilish mumkin bo`ladi; uchin-

cludan, shu ajrimga muvofiq, taraflardan biri biror harakatni sodir etishi lozim bo'lsa, ajrim majburiy ravishda ijro etilishi mumkin.

Yuqorida qayd qilingan ajrimlarning ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz.

SUDYANI CHETLASHTIRISHNI RAD ETISH TO'G' RISIDA

Fuqarolik ishini ko'rishda ishtirok etishdan chetlashtirish asoslari va bu masalaga oid boshqa qoidalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 25-30-moddalarida belgilangan. Jumladan, sudya, prokuror, sud majlisining kotibi shaxsan bevosita yoki bilvosita ishning oqibatidan manfaatdor bo'lsalar yoki ularning beg'arazligiga shubha tup diradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa, ular ishni ko'rishda ishtirok eta olmaydilar va ishni ko'rishdan chetlatilishlari lozim.

Chetlatish to'g'risidagi arz asoslantirilgan bo'lishi va bu haqda ishning mazmuni bo'yicha ko'rishdan oldin bildirilishi kerak. Chetlatish to'g'risida keyinchalik arz qilishga, faqat buning uchun asoslar bo'lishi lozim. Sudga yoki kimga nisbatan arz qilinadigan bo'lsa, shu shaxsga ishning ko'rilishi boshlanganidan so'ng ma'lum bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.

Chetlatish uchun asoslar deganimizda, kimga nisbatan chetlatish to'g'risida arz qilingan bo'lsa, o'sha shaxsning ishda ishtirok etuvchi shaxslar bilan do'stlik, qarindoshlik munosabatlarida bo'lishi, xizmat yuzasidan yoki boshqa jihatlardan manfaatdorligi tushuniladi.

FPKning 25-27-moddalarida ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lsa, sudya, prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, vakil, sud majlisining kotibi sudga arz qilishga majbur, ya'ni o'z-o'zini chetlatish to'g'risida masala qo'yishlari kerak.

Shu asoslar bo'yicha ishni ko'rishda ishtirok etuvchi shaxslar ham chetlatish haqida masala qo'yishlari mumkin.

Chetlatish to'g'risida arz qilingan taqdirda sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrlarini, shuningdek, ishni ko'rishdan chetlatilishi talab qilingan shaxsning so'zini (agar u izoh berishni xohlasa) eshitishi kerak.

Sudyani ishni ko'rishdan chetlatish masalasi (shu sudyaning ishtirokisiz) boshqa sudyalar tomonidan hal qilinadi. Chetlatishni yoqlab berilgan ovozlar soni bilan chetlatishga qarshi berilgan ovozlar soni teng bo'lsa, sudya ishni ko'rishdan chetlatilgan hisoblanadi.

Ikki sudya yoki sudning butun hay'atini chetlatishni talab qilish haqidagi arz o'sha sudning to'liq hay'atida oddiy ko'pchilik ovoz bilan hal qilinadi. Ishni yakka tartibda ko'radigan sudyani rad qilish masalasi sud raisi

tomonidan, sud tarkibi bir sudyadan iborat bo`lsa, shu sudya tomonidan hal etiladi.

Prokurorga, vakilga, ekspertga, tarjimonga va sud majlisi kotibiga nisbatan chetlatish to`g`risidagi masalani ishni ko`rayotgan sud hal qiladi. Chetlatish to`g`risidagi masalani hal qilish uchun sud maslahatxonaga kiradi, agar talab qonuniy bo`lsa, qanoatlantirish yoki aksincha, g`ayriqonuniy bo`lsa, rad qilingani to`g`risida (FPKning 29-moddasi) ajrim chiqaradi chetlatish bo`yicha chiqarilgan ajrimga nisbatan xususiy shikoyat keltirish qonunda ko`zda tutilmagan. Masalan:

Toshkent viloyati, Angren shahar sudiga
Fuqarolik ishi bo`yicha da`vogar Yo`ldosh
Eshonovning sudya M.I.Rahimovni ish
ko`rishdan chetlatish haqida

ARIZA

Angren shahar sudida da`vogar Yo`ldosh Eshonovning javobgar R.Eshonovga nisbatan meros mulkini bo`lib berish haqidagi ishi ko`rilayotgan bo`lib, bu ish sudya M.I.Rahimov raisligida ko`rilmoqda.

Sudya M.I.Rahimovni ish ko`rishdan quyidagi asoslarga ko`ra chetlatishni lozim deb hisoblayman: sudya M.I.Rahimov mening akam bo`lmishish yuzasidan javobgar Rahim Eshonov bilan yaqin do`st bo`lib, ular yaqinda Moskvaga sayohat qilganlar va bir necha kun dam olganlar. Shuning uchun ishning odilona hal qilinishiga shubhalanaman. FPKning 25-moddasiga asoslanib,

Arz qilaman:

Mening fuqarolik ishimi ko`rishdan Angren shahar sudining sudyasi M.I.Rahimov chetlatilsin.

- Ilova: 1. Moskva shahridan yozilgan xat;
2. Moskva shahriga sayohatga borganligi haqida ma'lumotnoma;
3. R.Eshonovning ish joyidan ma'lumotnoma.

1999-yil 9-avgust

Y.Eshonov

Sudyani chetlatish haqidagi ariza yuzasidan
Angren shahar sudining harakatlari

AJRM

1999-yil 9-avgust.

Angren shahri.

Toshkent viloyati Angren shahar sudining raisi O`tkir Malikov, sudya M.Rahimovni meros mulkini bo`lish haqidagi ishni ko`rishdan chetlatish to`g`risidagi da`vogar Yo`ldosh Eshonovning arizasini ko`rib, quyidagilarni

Aniqladi:

Da`vogar Yo`ldosh Eshonov javobgar akasi Rahim Eshonovga nisbatan otasidan qolgan meros mulkini bo`lib berishni so`rab sudga da`vo ariza bilan murojaat qilgan.

Sud majlisi boshlanib ishni mazmunan ko`rishga kiringunga qadar, da`vogar Y.Eshonov sudya M.I.Rahimovni ushbu ishni ko`rishdan chetlatish haqida so`rab, ariza bilan murojaat qilib uni quyidagilarcha asoslaydi

Sudya M.I.Rahimov da`vogarning akasi Rahim Eshonov bilan do`stona munosabatda ekanligini, ular 1999-yil Moskva shahriga birga sayohatga borishganini, bu holat esa, ishni uning tomonidan beg`araz va xolis hal qilinishiga shubha tug`dirishini bayon qilgan.

Sud ushbu masala yuzasidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar va prokurorning fikrini hamda sudya M.I.Rahimovning tushuntirishini tinglab, sud Y.Eshonovning iltimosini qanoatlantirish uchun keltirilgan vajlar asossiz ekanligi, sudyaning javobgar va ishga jalb qilingan boshqa shaxslar bilan tanishbilishligini tasdiqlovchi dalillar mavjud emasligi aniqlandi. Yuqoridagilarni e`tiborga olgan holda, sudya M.I.Raximovni mazkur ishni ko`rishdan chetlatish uchun yetarli asos yo`q deb hisoblaydi. Asoslarga ko`ra sud da`vogarning talabini rad etishni lozim deb hisobladi. Yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 25-29-moddalariga asoslanib, sud

Ajrim qiladi:

Da`vogar Yo`ldosh Eshonovning sudya M.I.Rahimovni ushbu fuqarolik ishini ko`rishdan chetlatish to`g`risidagi talabi rad etilsin.

Sudda ishni muhokama qilish shu tarkibda davom ettirilsin.

Sud raisi:

O`tkir Malikov

DA'VOGARNING DA'VOSIDAN VOZ KECHGANLIGI TUFAYLI ISH YURITISHNI TUGATISH TO'G'RISIDA

Amaldagi fuqarolik protsessual qonunchiligi bo'yicha sudda ish yuritishini nizo yuzasidan hal qiluv qarori chiqarmasdan tamomlashning ikki turini: birinchidan, ish yuritishni tugatish; ikkinchidan, arizani ko'rmay qoldirish shakllarini belgilaydi.

Ish yuritishni tugatish deganda-sudning ish yuzasidan faoliyati, da'vogarning xuddi shu ish bo'yicha sudga qaytadan murojaat qilish huquqiga ega bo'lmasligi bilan bog'liq tugatish nazarda tutilgan.

FPKning 100-moddasiga muvofiq, sud quyidagi hollarda:

1)ish sudga taalluqli bo'lmasa;

2)ayni bir taraflar o'rtasidagi, ayni bir predmet to'g'risidagi va ayni bir asoslar bo'yicha chiqqan nizo yuzasidan sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishini qabul qilish to'g'risidagi yoxud taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risidagi ajrimi mavjud bo'lsa;

3)da'vogar arz qilgan talablaridan voz kechgan va sud bu voz kechishni qabul qilgan bo'lsa;

4)taraflar kelishuv bitimi tuzgan bo'lsalar va u sud tomonidan tasdiqlangan bo'lsa;

5)ishni sudda ko'rishga tayyorlash vaqtida javobgar da'vogarning talablarini tan olgan bo'lsa va bu tan olish sudya tomonidan qabul qilingan bo'lsa;

6)nizoni ko'rish uchun hakamlar sudiga topshirish haqida taraflar o'rtasida shartnoma tuzilgan bo'lsa;

7)ish bo'yicha taraflardan biri bo'lgan fuqaroning vafotidan so'ng nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ymasa-ish yuritishni tugatadi.

Ish yuritishning yuqorida sanab o'tilgan asoslari qat'iy bo'lib, kengaytirilgan ma'noda talqin qilinishi mumkin emas va unga boshqa asoslar qo'shilmasligi kerak. Ish yuritish sudning ajrimi bilan tugatiladi. Agar ish yuritish ishning sudga taalluqli bo'lmaganligi sababli tugatilsa, sud ariza beruvchiga qaysi organga murojaat qilish kerakligini ko'rsatishga majbur (FPKning 101-moddasi).

Arizani ko'rmay qoldirish chog'ida esa ishni yuritish tamomlanmaydi chunki da'vogarga arizaning ko'rilmay qoldirilishiga asos bo'lgan to'sqinliklar bartaraf qilingach, xuddi shu ish bo'yicha qonun taraflarga qaytadan murojaat qilish huquqini beradi.

Sud quyidagi hollarda arizani ko`rmasdan qoldiradi:

1) ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo`lsa;

2) manfaatdor shaxs nomidan arizani ish yuritishga vakolati bo`lmagan shaxs bergan bo`lsa;

3) sud ayni bir taraflar o`rtasidagi, ayni bir predmet to`g`risidagi va ayni bu asoslar bo`yicha chiqqan nizo yuzasidan ish yuritayotgan bo`lsa;

4) ishni o`zlarining ishtirokisiz ko`rishni iltimos qilmagan taraflar ikki tomonli chaqiruv bo`yicha ham uzrli sabablarsiz sudga kelmasalar, sud esa ehtiyoj o`ldirilgan mavjud materiallar asosida ishni hal qilish mumkin emas, deb hisoblasa;

5) ishni o`zining ishtirokisiz ko`rishni iltimos qilmagan da`vogar ikki tomonli chaqiruv bo`yicha sudga kelmasa, javobgar esa, ishni mazmunan ko`rishni talab qilmasa.

Yuqorida ko`rsatilgan besh asosdan tashqari yana boshqa ba`zi hollarda ham, chunonchi: sudda qo`zg`atilgan ishning FPKning 279-moddasini bo`yicha alohida tartibda ko`rilishi lozimligi aniqlanganida, ish hal qiluv qarori chiqarilmasdan tamomlash hisoblanadi va arizachiga ishning sud majlisida ko`rilmay qoldirilishiga va alohida yuritish tartibida ko`rilishi tushuntiriladi.

Sud qonunda ko`rsatilgan hollarda arizani ko`rmasdan qoldirish to`g`risidagi ajrimni bekor qilishi mumkin. Agar taraflar sud majlisiga kelmaganlik sabablarining uzrli ekanligini tasdiqlovchi dalillar taqdim etmasalar bunga yo`l qo`yiladi.

Ariza ko`rmay qoldirilgan hollarda ish yuzasidan, yuqorida qayd qilinganidek hal qiluv qarori chiqarilmasdan ishning ko`rilmay qoldirilishi to`g`risida ajrim chiqarish bilan tamom qilinadi. Ajrimda ishni hal etishga to`sqinlik qiladigan FPKning 97-moddasida ko`rilgan holatlarni bartaraf etish kerakligi bayon qilinadi.

Arizani ko`rmasdan qoldirishga asos bo`lgan holatlar bartaraf etilganidan keyin manfaatdor shaxs sudga ariza bilan yana umumiy tartibda murojaat qilishga haqli (FPKning 99-moddasi).

Namangan viloyati, fuqarolik ishlari
bo'yicha Namangan shahar sudiga
Namangan shahri, G'ishtko`prik
ko`chasing Visol berk ko`chasi, 10-uyda
yashovchi Parpi Xushvaqtovdan

ARIZA

(Da'vodan voz kechganlik sababli ish yuritishni tugatish haqida)

Men javobgar Iso Boqiyevga nisbatan da'vo ariza bilan sudga murojaat qilgan edim.

Ushbu fuqarolik ishi yuzasidan quyidagi asoslarga ko'ra ish yuritishni tugatishni so'rayman:

1. Qo'shnim Iso Boqiyev mendan vaqtincha foydalanish uchun 4000 so'mlik 4X3 metr kvadratlil yangi turkman gilamini olgan edi. Gilamni qaytarish muddati o'tib ketganligiga qaramay, uni bermay keldi va o'rtamizda nizo paydo bo'ldi. Bu haqda sudga ariza berganimni eshitgan javobgar gilamni 1999-yil 16-avgust kuni qaytarib berdi. Shunga ko'ra da'vodan voz kechdim. Da'vodan voz kechganligimni qabul qilish bilan O'zbekiston Respublikasi FPKning 118-moddasiga asosan javobgardan ish qo'zg'atish bilan bog'liq bo'lgan 24 so'm miqdordagi sud xarajatlarini undirib berishingizni so'rayman.

Da'vodan voz kechish oqibatlarini to'g'risidagi FPKning 100-103-moddalari menga ma'lum.

2002-yil 7-avgust.

P.Xushvaqtovdan

AJRIM

2002-yil 18-avgust.

Namangan shahri

Namangan viloyati, fuqarolik ishlari bo'yicha Namangan shahar sudining ochiq sud majlisida sudya S.M.Mirqosimovning raisligida, O.Ernazarovning kotibligida da'vogari Parpi Xushvaqtovdan da'vo arizasiga ko'ra Iso Boqiyevdan bir dona gilamni undirib berish to'g'risidagi fuqarolik ishi ko'rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

P.Xushvaqtovdan sudga da'vo ariza bilan murojaat qilib, qo'shnisi javobgar Iso Boqiyev tomonidan vaqtincha foydalanish uchun bir dona qizil rangli (4X3 metrli 4000 so'mlik) turkman gilamini olib, asossiz rav-

chida qaytarib bermayotganligini, buni tasdiqlash uchun asos qilib javobning 1999-yil 10-aprelda bergan tilxatni taqdim qilgan edi.

Sud majlisida da'vogar P.Xushvaqto'v da'vosidan voz kechganligini, bunga sabab tariqasida 2000-yil 16-avgust kuni Iso Boqiyev olgan gilamni qaytarib berganligini bildiradi. Shu bilan bir qatorda javobgardan talab qilingan 24 so'm miqdordagi bojni undirib berishni so'radi.

O'zbekiston Respublikasi FPK 40 moddasiga binoan sud tomonidan ushbu masala muhokama qilinib, P.Xushvaqto'vning da'vo talablaridan voz kechganligi xaqidagi arizasini quydagi asoslarga ko'ra qabul qilish mumkin deb hisoblaydi.

Sud tomonidan P.Xushvaqto'vga FPKning 102-moddasida nazarda tutilgan da'vodan voz kechish oqibatlarini tushuntirdi.

Sudda Parpi Xushvaqto'vning da'vodan voz kechishi qonunga xilof kelmasligi hamda biron-bir shaxsning qonuniy huquq va manfaatlariga zid kelmasligi aniqlandi.

Da'vogarning sud xarajatlarini javobgardan undirish to'g'risidagi iltimosini ham qanoatlantirish lozim, chunki FPKning 118-moddasiga muvofiq, agar da'vo qo'zg'atilgandan so'ng da'vo talablarini javobgar o'z ixtiyori bilan bajarsa, da'vogar shu tufayli o'z da'vosini quvvatlamasa, da'vogarning iltimosi bo'yicha uning ish yuzasidan qilgan hamma xarajatlari javobgardan undiriladi. Shunga ko'ra, FPKning 105-106-moddalariga asosan 4000 so'mdan 6 foiz boj undirilib, u 24 so'mni tashkil qiladi.

Yuqoridagilarga ko'ra va FPKning 40- 118- 180 va 102-moddalariga asoslanib sud

Ajrim qiladi:

Parpi Xushvaqto'vning da'vodan voz kechish to'g'risidagi arzi qabul qilinsin va da'vogarning da'vosi bo'yicha javobgar Iso Boqiyevdan bir dona 4000 so'mlik gilamni undirish to'g'risidagi da'vo arizasi bo'yicha ish yuritish tugatilsin.

Javobgar Iso Boqiyevdan 24 (yigirma to'rt) so'm sud xarajatlari P.Xushvaqto'v foydasiga undirilsin.

Ajrimdan norozi tomon 10 kun muddat ichida xususiy shikoyat yoki xususiy protestni shu sud orqali Namangan viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha sudiga berishga haqli.

Sudya:

S.M.Mirqosimov

ISHGA TEGISHSIZ TARAFNI ALMASHTIRISH HAQIDA

Fuqarolik sud jarayonida shunday holatlar ham bo`ladiki, ishni sud majlisida ko`rish uchun tayinlashda ariza bilan murojaat qilgan shaxs (fuqaro yoki tashkilotning) huquqi yoki qonun bilan himoya qilinadigan manfaati javobgar sifatida ko`rsatilgan shaxs tomonidan buzilganligini aniq bilmaydi, faqat bunday holatning bo`lishi faraz qilinadi va kimning javobgar bo`lishi taxminan belgilanadi.

Da'vogar shaxs huquqining buzilganligi va shu munosabat bilan uning o`zi da'vogar bo`lishi va bu nizoli huquqni buzuvchi javobgar sifatida ko`rsatilgan shaxsning aynan o`zi javobgar bo`lishi sud majlisida atrof-licha, xolislik bilan tekshirish natijasida aniqlanadi.

Ishning ko`rilishida aksariyat hollarda da'vogar ham, javobgar ham da'vo arizasida ko`rsatilgan shaxslar hisoblanadi.

Ammo ba'zi hollarda sud jarayonida yo da'vogar, yo javobgar taraf, yoki har ikki tomon ham noto`g`ri ishga jalb etilishlari tufayli tegishsiz taraf (tarafklar) bo`lib chiqishi, ya'ni da'vogar da'vo ishi qo`zg`atishga haqli bo`lmagan taraf, javobgar esa mazkur da'vo yuzasidan javob berishga majbur bo`lmagan shaxs bo`lib topilishi mumkin. Shunday holatlarni nazarda tutib, qonun ishga tegishsiz tarafni sudning tashabbusi bilan yoki prokurorning talabi bo`yicha yoki tarafdardan birining iltimosiga ko`ra boshqa tegishli taraf bilan almashtirishga yo`l qo`yadi.

FPKning 42-moddasida ko`rsatilishicha, sud ishni tekshirish vaqtida da'voni talab qilish huquqiga ega bo`lmagan shaxs tomonidan qo`zg`atilganini yoki javob berish lozim bo`lmagan shaxsga nisbatan qo`zg`atilganligini aniqlasa, da'vogarning roziligi bilan ishni tugatmasdan, dastlabki da'vogarni yoki javobgarni tegishli-daxldor da'vogar yoki javobgar bilan almashtirishga yo`l qo`yishi mumkin. Sud bu haqda ajrim chiqaradi.

Ishga tegishsiz tarafni ishga tegishli taraf bilan almashtirish to`g`risida

AJRIM

1999-yil 10-avgust.

Sirdaryo shahri.

Sirdaryo viloyati, Sirdaryo shahar sudining ochiq sud majlisida raislik qiluvchi sudya A.K.Karimov sud kotibi G.Egamovanning ishtirokida da'vogar Anorboy Beknozovning javobgar Rahim Abdullayevga nisbatan

Keltirilgan moddiy zararni undirish to`g`risidagi fuqarolik ishi ko`rib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da'vogar A.Beknozov da'vo ariza bilan murojaat qilib o`ziga qarashli tomonlardagi ekinlarni R.Abdullayevning chorva mollari payxon qilganligi natijasida, mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, 2850 so`mlik moddiy zarar ko`rganligini bayon qilgan.

Da'vogar arizasida R.Abdullayevni javobgar deb topishni, chunki bu ishning beparvoligi tufayli, ya'ni mollarni nazoratsiz qoldirishi natijasida yuzdagi kelgan deb hisoblagan.

Sud majlisida R.Abdullayev yetkazilgan zararni to`lamasligini, bunga asos qilib ikki kun ilgari shu chorva mollarning hammasini ukasi Bo`ron Abdullayevga sotganligini va bu ishga aloqasi yo`qligini bayon qildi.

Da'vogar esa bu holatdan xabari yo`qligini, iloji bo`lsa, tegishli (daxldor) javobgar bilan almashtirishga rozi ekanligini bildiradi.

Sud taraflarning tushuntirishlarini eshitib, ishda to`plangan materiallarni o`rganib chiqqan holda ishga tegishsiz tarafni tegishli taraf bilan almashtirishni lozim topadi. Bunday qoida FPKning 42-moddasida qayd qilingan.

Yuqoridagilarga ko`ra, sud FPKning 42-moddasiga asosan

Ajrim qiladi:

Javobgar sifatida sudga jalb etilgan Raxim Abdullayev ishga tegishsiz bo`lganligi sababli almashtirilsin. Keltirilgan zararni undirish bo`yicha Bo`ron Abdullayev da'vogar Anorboy Beknozovning da'vo ishiga tegishli javobgar sifatida jalb qilinsin.

Rahim Abdullayev ishda javobgar sifatida qatnashishdan ozod qilinsin.

Ish ko`rishning vaqti va soati haqida da'vogar tilxat orqali, javobgar esa chaqiruv xati bilan da'vo arizasining bir nusxasi va ushbu ajrimdan nusxa yuborib, xabardor qilinsin.

Sudya:

A.K.Karimov

DA'VOGAR NOMIDAN ISH YURITISHGA VAKOLATI BO'LMAGAN SHAXSNING BERGAN ARIZASINI KO'RMASDAN QOLDIRISH TO'G'RSIDA

Sud majlisida arizani ko`rmay qoldirish asoslari FPKning 97-moddasida belgilangan. Bu moddada ko`rsatilgan besh asosdan tashqari, yana boshqa hollarda ham, chunonchi: sudda qo`zg`atilgan da'vo ishning (FPKning 279-280-moddalari bo`yicha) alohida tartibda ko`rilishi lozimligi aniqlanganda ish hal qiluv qarori chiqarilmasdan tugatilgan hisoblanadi va arizachiga ishning sud majlisida ko`rilmay qoldirilishi va alohida ish yuritish tartibida ko`rilishi tushuntiriladi..

Sud arizani ko`rmay qoldirgan hollarda, ish yuzasidan yuqorida qayd etilgandek, hal qiluv qarori chiqarmay, ishning ko`rilmay qoldirilishi to`g`risida ajrim chiqarish bilan tamom qiladi. Ajrimda ishni hal etishga to`squinlik qiladigan, FPKning 97-moddasida ko`rsatilgan holatlarni qanday bartaraf etish kerakligi ko`rsatiladi.

Ishni ko`rmay qoldirish uchun asos bo`lgan shart-sharoitlar bartaraf etilgandan so`ng manfaatdor shaxs umumiy tartibda ariza bilan yana sudga murojaat qilishga haqlidir. Bu qoidada, shuningdek agar taraflar sud majlisiga uzrli sabablarga ko`ra kela olmaganliklarini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etsalar, da'vogar yoki javobgarninig iltimosnomasiga binoan sud ushbu Kodeks 97-moddasining 4 va 5-bandlariga asosan arizani ko`rmasdan qoldirish to`g`risida chiqargan o`z ajrimini bekor qiladi. Sudning bunday iltimosini qanoatlantirishni rad etish haqida ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilishi va xususiy protest keltirilishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Fuqarolik ishlarini ko`rishda protsessual qonunchilikni sudlarda tadbiq etish haqida»gi hamda 1999-yil 24-sentabrdagi «Fuqarolik ishlarini sudda ko`rishga tayyorlash va ularni ko`rish muddatlari xaqida»gi qarorida ish yuritishni to`xtatish, tugatish, arizani ko`rmay qoldirish masalalari haqida tushuntirishlar berilgan.

Ish qo`zg`atish uchun vakolati bo`lmagan shaxs tomonidan berilgan arizani ko`rmasdan qoldirish haqida

AJRIM

1999 yil 17-avgust.

Chust shahri.

Namangan viloyati, Chust shahar sudining ochiq sud majlisida sudya A. I. Fomov raisligida, L. Eshonovning kotibligida da'vogar K. P. Hamidov nomidan uning vakil S. Yu. Qahhorov tomonidan keltirilgan da'vosi bo'yicha javobgar Chust shahar maishiy xizmat kombinatidan yetkazilgan zarar undirish to'g'risidagi fuqarolik ishi ko'rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Chust shahar sudiga da'vogar K. P. Hamidov nomidan uning vakili sifatida qo'shuisi S. Yu. Qahhorov da'vo ariza bilan murojaat etib, K. P. Hamidovning sog'lig'iga yetkazilgan 490 so'mlik zararni Chust shahar maishiy xizmat ko'rsatish kombinatidan undirib berishni so'ragan. Bunda vakillik qiluvchi S. Yu. Qahhorov vakolat beruvchi da'vogar kasalligi sababli ishda qatnasha olmasligini, shuning uchun ham notarial idora tomonidan tasdiqlangan ishonchnomaga asosan sudga da'vo ariza berib, ishni ko'rishda da'vogarning qonuniy huquq va manfaatini himoya qilish topshirilganligini bildirdi.

S. Yu. Qahhorov o'z vakolatini tasdiqlovchi ishonch qog'ozini sudga taqdim etadi va shunga asosan da'vo arizasi qabul qilinib, ishni mazmunan ko'rish uchun tayinlangan.

Ishni sudda ko'rish jarayonida da'vogar vakilining vakolati har tomonlama tekshirilganida, vakil Qahhorovga ishonchnoma notarial idora tomonidan 1996-yil avgustda berilgan bo'lib, u qancha muddatga mo'ljallanganligi ko'rsatilmagan. FK (Fuqarolik kodeksi)ning 139-moddasiga ko'ra, agar vakolatnomada muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, u berilgan kundan e'tiboran bir yil davomida o'z kuchini saqlaydi. Mazkur ish bo'yicha esa ishonchnoma ikki yil muqaddam berilganligi aniqlandi. Demak vakolatnoma muddatining o'tishi vakilning vakolatli bo'lish huquqidan mahrum etadi.

Shunga asosan sud da'vo arizasini da'vogar nomidan vakolati bo'lmagan shaxs tomonidan berilgan deb hisoblaydi.

Sud FPKning 97-moddasi 2-bandiga asosan

Ajrim qiladi:

Da'vogar K. P. Hamidov nomidan uning vakili S. YU. Qahhorovning Chust shahar maishiy xizmat ko'rsatish kombinatidan 490 so'mlik yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi arizasi ko'rilmay qoldirilsin.

K.P.Hamidovga ko`rsatilgan kamchiliklar bartaraf qilingach, yana qayta umumiy tartibda ariza bilan sudga murojaat etishi mumkinligi tushuntirilsin.

Ajrimdan norozi tomon shu sud orqali Namangan viloyat fuqarolik sudiga 10 kun ichida xususiy shikoyat (protest) keltirishga haqli.

Sudya:

A.E.Eminov

ISHDA TARAF BO`LGAN FUQARONING VAFOTI TUFAYLI ISH YURITISHNI TO`XTATISH TO`G`RISIDA

Ish yuritishni to`xtatish-fuqarolik ishining sudda hal etilishga to`sqinlik qiladigan muayyan holatlarning ro`y berishi tufayli ish yuritish bo`yicha protsessual harakatlarning ma`lum muddatga to`xtatilishini bildiradi. Ish yuritishni to`xtatish *majburiy* va *fakultativ* asoslarga bo`linadi.

Ish yuritishni to`xtatishning majburiy asoslari FPKning 92-moddasida belgilangan. Bunda ko`rsatilishicha, sud quyidagi hollarda: birinchidan, ishda taraf bo`lgan fuqaro vafot etishi va nizolashilayotgan huquqiy munosabat, huquqiy vorislikka ya`ni boshqalarga o`tkazilishiga yo`l qo`yilsa yoki ishda taraf bo`lgan yuridik shaxs qayta tashkil qilinsa: ikkinchidan, fuqaro (taraf) muomala layoqatini yo`qotsa, uchinchidan, javobgar Qurolli kuchlarning harakatdagi qismida bo`lsa yoki Qurolli kuchlarning harakatdagi qismida bo`lgan da`vogar iltimos qilsa; to`rtinchidan, mazkur ishni fuqarolik, jinoiy yoki ma`muriy tartibda ko`rilayotgan boshqa ish hal qilinmasdan ilgari ko`rish mumkin bo`lmasa- ish yuritishni to`xtatishga majbur bo`ladi.

Ish yuritishning fakultativ, ya`ni qo`shimcha, majburiy bo`lmagan asosi FPKning 93-moddasida belgilangan. Unda ta`kidlanishicha, quyidagi hollarda: da`vogar yoki javobgar Qurolli kuchlar tarkibida muddatli haqiqiy harbiy xizmatda bo`lsa yoki u biror davlat burchini bajarish uchun jalb qilingan bo`lsa; da`vogar yoki javobgar shifoxonada bo`lsa, shuningdek, ularning birida sudga kelishga to`sqinlik qiladigan tibbiyot muassasasining hujjati bilan tasdiqlangan kasal bo`lsa; FPKning 140-moddasida ko`zda tutilgan hollarda javobgar qidirilayotgan bo`lsa; da`vogar yoki javobgar uzoq vaqt xizmat safarida bo`lsa; sud tomonidan ekspertiza o`tkazish tayinlanganida-sud ishtirok etuvchi shaxslarning

ittimosi bo'yicha yoki o'z tashabbusi bilan ish yuritishni to'xtatishga haqli bo'ladi.

Sudda ish yuritilishi qancha muddatga to'xtatilib turilishi FPKning 91 moddasida ko'rsatib o'tilgan. Sudning ish yuritishini to'xtatish to'g'risidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyat qilish yoki xususiy protest keltirish mumkin (FPKning 95-moddasi). Ish yuritish uni to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlar bartaraf qilingach, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasi yoki sudning tashabbusi bilan yana qayta tiklanadi.

Sud ish yuritishni qaytadan boshlanganida ishda ishtirok etuvchi shaxslarni umumiy asoslarga muvofiq chaqiradi (FPKning 96-moddasi).

Ish yuritishni to'xtatishni arizani ko'rmay qoldirishdan FPK ning 97-moddasi) va ish ko'rishni keyinga qoldirishdan (FPKning 177-moddasi) harqalay bilish kerak. Ularning farqi yuqorida keltirilgan qonun normalarida tushunarli tarzda bayon etilgan.

Taraf fuqaroning vafoti tufayli ish yuritishni to'xtatish haqida

AJRIM

1999-yil 13-avgust.

Farg'ona shahri.

Farg'ona viloyati, Farg'ona shahar sudining ochiq sud majlisida raislik qiluvchi sudya N.A.Mahmudova, E.Mo'minov kotibligida B.Azamatovning da'vosiga ko'ra O.Jobirovdan 1210 so'mni undirish to'g'risida fuqarolik da'vo arizasi ko'rilib, quyidagilar:

Aniqlandi:

Da'vogar Barot Azamatov javobgar Olim Sobirovga nisbatan 1210 so'mlik yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi da'vo ariza bilan sudga murojaat etib javobgar O.Jobirov podachi bo'la turib, o'ziga birlashtirilgan mahallaning 30 bosh sigirini yaylovda boqish chog'ida o'z vazifasiga mas'uliyatsizlik bilan qarashi natijasi, mollar da'vogarning tomorqasini payhon qilganligi, oqibatda ekin-polizlarga zarar yetkazgani, keltirilgan zararni ixtiyoriy ravishda to'lamayotgani ko'rsatilgan.

Sud majlisiga javobgar tariqasida chaqirilgan O.Jobirov 1999-yil 10-avgustda vafot etganligi to'g'risida oila a'zolari xabar qiladilar va bu haqda Farg'ona shahar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limining bergan guvohnomasini sudga taqdim etadilar. Quyidagilarga ko'ra mazkur ish bo'yicha ish yuritishni to'xtatib turish lozim FPKning 92 moddasi 1-bandiga binoan, agar ishda taraf bo'lmagan fuqaro vafot etib, nizoli

huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo'l qo'ysa yoki ishda taraf bo'lgan yuridik shaxs qayta tashkil etilishi bayon qilingan.

Aniqlangan holatlarga ko'ra Farg'ona viloyati, Sanzar qishlog'i fuqarolar yig'inining 1999-yil 11-avgustda bergan ma'lumotnomasiga ko'ra marhum O.Jobirov o'z o'g'li bilan birga yashaganligi va uning barcha mol-mulkiga o'g'li Ali Jobirov voris ekanligi tasdiqlangan.

Yuqorida keltirilgan holatlar ish yuritishni to'xtatish uchun asos bo'ladi, bu esa FPKning 92-moddasi 1-bandida o'z ifodasini topgan. FKning 1156-moddasiga asosan merosni qabul qilgan voris meros qoldiruvchining qarzlari yuzasidan o'ziga o'tgan meros mulkining haqiqiy qiymati doirasida javobgar bo'ladi.

Yuqoridagilarga asosan va FPKning 92-modda 1-bandini, 238-modda hamda FKning 1156-moddalarini qo'llab

Ajrim qiladi:

Da'vogar Barot Azamatovga keltirilgan 1210 so'm zararni Olim Jobirovdan undirish to'g'risida qo'zg'atilgan fuqarolik ishi, javobgarning vafot etganligi va protessdan chiqishi munosabati bilan, huquqni qabul qiluvchi shaxs aniqlangunga qadar, ish yuritishdan to'xtatilsin.

Sudning ish yuritishida shunday da'vo bo'yicha fuqarolik ishi borligi haqida marhum javobgarning o'g'li Ali Jobirovga ma'lum qilinsin hamda meros mulkini olgandan so'ng uni javobgar tariqasida protessga jalb qilish mumkinligi tushuntirilsin.

Ajrimdan norozi tomonlar 10 kun muddat ichida shu sud orqali Farg'ona viloyati fuqarolik sudiga xususiy shikoyat (protest) keltirishlari mumkin.

Sudya:

N.A.Mahmudova

Huquq qabul qiluvchi tarafni sudga jalb etish haqida
Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha sudiga.
Toshkent viloyati, Toshkent tumani Yusupov ko'chasi,
73-uyda yashovchi Mirza Baratovdan

XUSUSIY SHIKOYAT
(sudning ajrimiga nisbatan)

Toshkent tuman sudining 1999-yil 20-sentabrdagi ajrimiga ko'ra, mening Nodir Avazovga nisbatan 3050 so'm qarzni undirish to'g'risidagi

da o'ralab ham bo'yicha qo'zg'atgan fuqarolik ishi javobgarning vafoti ta'kidlashi ish yuritilishidan tugatilgan edi. Sud ishini tugatishga nizoli huquqiy munosabatni boshqalarga o'tkazishga yo'l qo'yish imkoniyati yo'qligini ko'rsatib ko'rsatgan.

Javobning ajrimini quyidagi holatlarga ko'ra asossiz deb hisoblayman:

Marhum javobgar Nodir Avazov o'ziga to'q bo'lib, juda badavlat yashagan. Uning butun mol-mulki ikkinchi xotinidan tug'ilgan yakka o'g'li Sobir Avazovga meros bo'lib o'tgan. Men bu haqda sud taftishi jarayonida bayon qilgan bo'lsamda, sud bayonnomasida bu holat qayd qilinmagan, ajrimda esa «javobgarning vafotidan so'ng nizoli huquqiy munosabatni qabul qiluvchi shaxs bo'lmaganligi sababli ish yuritish to'xtatildi» degan xulosaga kelingan. Vaholanki, sud qarzni to'lashga qodir bo'lgan javobgarning merosxo'r o'g'li Sobir Avazovni sud taftishiga jalb qilish bu haqida iltimos qilinsada, biroq bunga sud e'tibor bermadi.

Quyidagilarga ko'ra, FPKning 346-347-moddalariga asosan

So'rayman:

Toshkent viloyati Toshkent tuman sudining 1999-yil 20-sentabrdagi ajrimni bekor qilinishi, shu sudga boshqa tarkibda ishini yangidan ko'rish uchun yuborilishini.

Hovva 1. S.Avazov marhum javobgarning o'g'li ekanligi haqida ma'lumot;

2 Merosni qabul qilganligi haqida ma'lumot;

3 Xususiy shikoyatning nusxasi.

1999-yil 23-sentabr.

M.Baratov

BIR NECHA DA'VO TALABLARINI BIRLASHTIRISH HAQIDA

Qonun da'vogarning bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir necha da'vo talablarini birlashtirib, birga ko'rilishi va hal etilishiga yo'l qo'yadi. Bunday da'volar bir da'vogar tomonidan bir javobgarga yoki bir necha da'vogar tomonidan javobgarlarga nisbatan qilinishi mumkin.

FPKning 155-moddasi bir da'vo arizasida o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha talablarni birlashtirishga haqlidir, deb ko'rsatadi. Bunday hollarda da'vo asoslari va predmetlari umumiy, bir birlari bilan bog'liq bo'lganida, talablar ham bir turda bo'lganida da'volarni obyekt bo'yicha birlashtirish to'g'risida so'z boradi. Misol tariqasida ishga qayta tiklanish va noiloj bekor yurgan vaqti uchun haq to'lanishi to'g'risida da'volarni yoki hovlijoyga (imoratga) bo'lgan egalik huquqining e'tirof etilishi (tan olinishi) va

javobgarning ko`chirilishi to`g`risidagi da'volarni yoinki er-xotinning ajralishi to`g`risidagi ishning ko`rilishida, ularning voyaga yetmagan farzandlari uchun alimentlar undirish to`g`risidagi da'voning boshqa ishga qo`shib hal qilinishi kabilarni ko`rsatib o`tish mumkin.

Bunday hollarda da'voni birlashtirish to`g`risida sudya ajrim chiqaradi.

Sudyaning bir turdagi ishlarini birlashtirish
huquqi haqida

AJRIM

1999-yil 27-iyul.

Namangan shahri.

Namangan viloyati, Namangan shahar sudining sudyasi A.I.Rashidov tomonidan da'vogarlar-Akbar Azimov, Naim Fozilov, Mutal Ishimovlarning javobgar Pyotr Ivanovich Gubkovdan 200, 350, va 175 so`m qarz shartnomasi asosida olingan pullarni undirib berish to`g`risidagi da'vo arizalarining har birini alohida-alohida ko`rib, quyidagilarni

Aniqladi:

Javobgar P.I.Gubkov GAZ-21 avtomashinasi olish uchun da'vogarlar: A.Azimovdan-200 so`m, N.Fozilovdan-350 so`m va M.Ishimovdan 170 so`m qarz olib, har qaysilariga 1998-yil 30-noyabrgacha qaytarib berish majburiyatini o`z zimmasiga oladi. Javobgar olgan qarzni qaytarish muddati o`tganligiga qaramay olgan majburiyatini bajarmagan. Shu munosabat bilan har qaysi da'vogar javobgar P.I.Gubkovdan qarzni alohida undirib berishni so`rab da'vo qo`zg`atganlar.

Sud ishni tez ko`rib chiqish maqsadida hamda har bir da'vo predmetini bir-biri bilan bog`liq bo`lgan uchta talab bilan javobgarga nisbatan qo`zg`atilganligini nazarda tutib, ularni birlashtirish va birga ko`rishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Yuqoridagilarga ko`ra, FPKning 156-moddasiga asoslanib sud

Ajrim qiladi

Da'vogarlar: Akbar Azimov, Naim Fozilov va Mutal Ishimovlarning da'vosiga ko`ra, javobgar Pyotr Ivanovich Gubkovdan 200, 350 va 175 so`mni undirib berish to`g`risidagi da'vo arizalarini birga ko`rish maqsadida bir ish yuritishga birlashtirilsin.

Ajrim qat'iy shikoyat uchun o`rin yo`q.

Sudya:

A.I.Rashidov

II KET TIRILGAN ZARARNI UNDIRISH TARTIBIGA OID HUJJAT NAMUNALARI

1.1.1.1.1 SUDDAN BOSHQA SUDGA O`TKAZISH TO`G`RISIDA

1) Ma'lumot, fuqarolik ishlarining sudlovligini, ya'ni ishning mazkur qoidalar bilan yoki ko`rilmaslgi to`g`risidagi masala (da'vo arizasining qabul qilinishi bilan) sudyaning yakka o`zi tomonidan hal etiladi.

2) Ma'lumot, sudlovlik to`g`risidagi qoidalarga rioya qilib, o`zining ish qoidalariga qabul qilgan ishini, garchi keyinchalik bu ish boshqa sudning sudlovligiga taalluqli bo`lib qolgan hollarda ham, mazmunan hal qilishi mumkin (U.F. m. 146-moddasi).

3) Ammo bu'zan qabul qilingan ishning boshqa sudga ko`rilishi zarur va muvofiq bo`lmay qolishi mumkin deb ham topilishi mumkin. Bunday hollarda qonun qoidalarida hollarda sudyaga ishni ko`rish uchun boshqa teng darajadagi sudga o`tkazish huquqini beradi:

1) Agar shu ish boshqa sudga, xususan, dalillarning ko`pchiligi muvofiq bo`lmay qolgan sudga tez va to`g`ri ko`rilishi mumkin deb topilsa;

2) Agar ilgari turar-joyi ma'lum bo`lmagan javobgar ishni o`zi ko`rilmagan joydagi sudga o`tkazishni iltimos qilsa;

3) Agar sudyalarning bir yoki bir nechitasi chetlatilgandan so`ng, bu hollarda ularni almashtirish mumkin bo`lmay qolsa;

4) Ish muayyan sudga ko`rilayotganida, bu ishning sudlovlik qoidalariga qoidalarni buzgan tarzda, o`z ish yuritishiga qabul qilinganligi ma'lum bo`lib qolsa, ishni ko`rish boshqa sudga o`tkaziladi.

Ishning boshqa sudga o`tkazilishi to`g`risida sud tomonidan ajrim chiqariladi. Ajrimda ishning boshqa sudga o`tkazilishi sabablari, vajlari aniq ko`rsatilmog`i lozim. Bunday ajrim yuzasidan xususiy shikoyat yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

Fuqarolik ishi O`zbekiston Respublikasi cudidan boshqa mustaqil respublika sudiga yoki boshqa respublika sudidan O`zbekiston Respublikasi sudiga, sudning ajrimiga asosan, shu ajrimga shikoyat yoki protest keltirilgan holda esa, shikoyat yoki protestni qanoatlantirmaslik to`g`risida ajrim chiqarilgandan so`ng o`tkaziladi. Bunday tartib tegishli respublika o`rtasida huquqiy yordam shartnomalarida ifodalangan bo`lishi lozim.

Fuqarolik ishini javobgar yashab turgan
joydagi sudga o`tkazish haqida

AJRIM

2001-yil 6-avgust

Uchqo`rg`on shahri.

Namangan viloyati, Uchqo`rg`on shahar sudining binosida ochiq sud majlisi bo`lib sudya A.Azimov raisligida, R.G`aniyevaning kotibligida da'vogar Uchqo`rg`on paxta tozalash zavodi javobgar Aziz Urishevga nisbatan da'vo qo`zg`atib, zavodga keltirilgan 1800 so`m zararni undirish to`g`risidagi da'vo talablari ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

A.Urishev Uchqo`rg`on paxta tozalash zavodida omborchi bo`lib ishlab kelgan. U ish davrida o`z vazifasiga sovuqqonlik bilan qarashi tufayli ombordagi 2 tonna paxta tolasining chirishiga yo`l qo`yilgan. Bu xatti-harakati bilan zavodga moddiy zarar keltiradi. Javobgar o`z harakatlaridan cho`chib, ishdan ham bo`shamay, noma'lum tomonga ko`chib ketadi. Bu Uchqo`rg`on shahar «Guzar» mahalla qo`mitasining 1999-yil 2-avgustda bergan ma'lumoti bilan tasdiqlandi.

Shu bois FPKning 145-moddasi 1-qismiga muvofiq, da'vo ariza javobgarining hozirda doimiy yashab, ishlab turgan joyi noma'lum bo`lganligi sababli u oxirgi doimiy yashab, ishlab turgan joy-Uchqo`rg`on shahar sudiga berilgan.

Fuqarolik ishi Uchqo`rg`on shahar sudida ko`rilishini eshitgan javobgar A.Urushev sudga xat yo`llab, hozirda Buxoro viloyati, G`ijduvon shahri, Markaz ko`hasi, 10-uyda yashayotganligini bildirgan va fuqarolik ishini shu hududdagi sudga yuborishni iltimos qilgan.

Ish bo`yicha da'vogar vakili T.Eshmetov javobgarining talabini qanoatlanirishga qarshi emasligini bildirdi.

Sud yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 145-moddasini 1-qismiga asosanlanib

Ajrim qiladi:

Da'vogar Uchqo`rg`on shahar paxta tozalash zavodining javobgar Aziz Urishevdan 1800 (bir ming sakkiz yuz) so`m zararni undirish to`g`risidagi fuqarolik ishi mazmunan ko`rish uchun javobgar yashab turgan Buxoro viloyati, G`ijduvon shahar sudiga yuborilsin.

Ajrimdan norozi tomon shu sud orqali Namangan viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha sudiga 10 kun muddat ichida xususiy shikoyat, prokuror protest keltirishi mumkin.

Sudya:

M.Azizov

Keltirilgan ziyonni undirish haqida prokurorning boshqa shaxslarning manfaatini ko'zlab ish qo'zg'atish haqidagi protsessual harakati

Prokuratura
shtampining o'rni

Toshkent shahar Shayxantohur
tumani sudiga

Da'vogar-	Toshkent shahar Shayxantohur tumani prokurori (FPKning 5 va 46-moddalariga asosan)
Da'vogar-	Rahima Abilova-Toshkent shahar chilonzor tumani, Qodiriy ko'chasi, 3-uyda istiqomat qiladi.
Javobgar-	Toshkent shahar Shayxantohur tumani 15-taksimotor parki, Xamza ko'chasi, 10-uyda joylashgan.

DA'VO ARIZA

(Boquvchisining o'limi natijasida keltirilgan zararni undirish haqida) Da'voning qiymati 2100 so'm.

1999-yil 19-avgust kuni fuqaro Abror Malikov mast holda 8-mart ko'chasida ketayotgan mutlaqo tanimagan Ixtiyor Abilovni sababsiz urib yiqitadi Shu onda shaharning 15-taksoparkiga qarashli taksi haydovchisi K.Azizov mashinasi bilan o'rnidan turishga arakat qilgan I.Abilovni urib ketadi natijada I.Abilov voqea sodir bo'lgan joyda vafot etadi.

K.Azizov ustidan qo'zg'atilgan jinoyat ishi tuman prokuraturasi tomonidan uning harakatlarida jinoyat alomatlari bo'lmaganligi sababli bekor qilingan. Bundan tashqari, tergov jarayonida K.Azizov harakatida avtotransportni haydash qoidalari buzilganligi ham aniqlangan.

Marhum I.Abilov qaramog'ida 1996-yil 10-mayda tug'ilgan Nodir Abilov ismli balog'atga yetmagan o'g'li tarbiya topmoqda.

Toshkent shahri, Shayxantohur tumani ijtimoiy ta'minot bo'limi boquvchisining o'limi tufayli bolaga nafaqa to'lashni ta'minlamagan, bunga asos qilib I.Abilov yetarli darajada ish stajiga ega emasligi ko'rsatilgan. Mikond zavodi tomonidan berilgan ma'lumotga qaraganda, baxtsiz hodisaga qadar I.Abilov keyingi 12 oy ichida har oyda olgan maoshining o'rtacha miqdori 200 so'mni tashkil qilgan. Oilada marhumning qaramog'ida 1996-yilda tug'ilgan Nodir ismli o'g'lidan boshqa hech kim bo'lmagan. Demak, o'g'liga nafaqa tayinlashning o'rtacha miqdori 100 so'mni tashkil qiladi. FKning 999-moddasida ortiqcha xavf manbai tufayli yetkazilgan zararni javobgardan undirish lozimligi ko'rsatilgan.

Ushbu ish bo'yicha qabul qilinadigan qaror A.Malikov va K.Azizovlarning huquq va majburiyatlariga ta'sir etishi mumkinligini inobatga olib, ularning javobgar tarafida qatnashuvchi mustaqil talabi bo'lmagan uchinchi shaxs sifatida ishga jalb qilinishi lozim.

Yuqoridagilarga ko'ra, FKning 999-moddasiga hamda FPKning 5, 46-moddalariga asoslanib,

So'rayman:

1. Toshkent shahar, Shayxantohur tuman, 15-avtosaroyning hisobidan Rahima Abilova foydasiga 1996-yil 10-mayda tug'ilgan o'g'li Nodir Abilovning tarbiyasi uchun har oyiga 100 so'mdan, 1999-yil 3-sentabridan toki bola 16 yoshga to'lgunga qadar, o'qishni davom ettirgan holda esa 18 yoshga qadar undirishni. Ish bo'yicha sud xarajatlarini javobgardan davlat foydasiga undirishni,

A.Malikov va K.Azizovlarni FPKning 45-moddasiga asosan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi asos sifatida ishga jalb etishni,

Ilova: 1. K.Azizovning tugatilgan jinoiy ishi haqida ma'lumot;

2. I.Abilovning tug'ilganlik haqidagi guvochnomasidan nusxa;

3. I.Abilovning o'rtacha maoshi haqida «Mikond» zavodining bergan ma'lumoti;

4. Nodirning onasi bilan birga yashashi haqida Chilonzor mahalla qo'mitasining bergan ma'lumoti;

5. Nafaqa ta'minlashni rad etish haqida Chilonzor tumani ijtimoiy ta'minot bo'limining bergan ma'lumoti;

6. Da'vo arizasining 5 ta nusxasi;

...Toshkent shahar, Chilonzor tuman prokurori,

katta adliya maslahatchisi

R.Qobulov

1999-yil 3-sentabr.

Yetkazilgan moddiy zararni
undirish haqida

Toshkent viloyati fuqarolik ishlari
bo'yicha Bo'ka tuman sudiga.
Bo'ka tumani Timiryazev shirkat ho'jaligi,
Quduroq uchastkasida
yashovchi Bekmurod Xojimurodovdan

ARIZA

(G'ayriqonuniy ravishda jinoiy javobgarlikka
tortilish natijasida yetkazilgan zararni
undirish haqida)

Men 1996-yil 14-oktabrda Jinoyat kodeksining 118-moddasi 3-qismi bilan aybdor topilib, 3-yil muddatga ozodlikdan mahrum etildim.

Ushbu ayblov yuzasidan 1996-yil 15-martdan boshlab mening ehtiyot choram o'zgartirilib, qamoqqa olindim. 1997-yil 7-iyunda esa ehtiyot choram o'zgartirilib, tilxat orqali ochiqqa chiqarildim. Jami ozodlikdan mahrum qilish jazosi 1-yilu, 2 oy 21 kunga teng bo'ldi.

Keyinchalik mening harakatlarimda jinoyat alomatlarini bo'lmaganligi sababli ish tugatildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan 2001-yil 30-sentabrda yuborilgan xabarnomada men asossiz ravishda yetkazilgan moddiy zarar va yuridik xizmat haqlarini to'liq undirib olishga haqli ekanligim bayon qilgan.

Ish joyimdan berilgan ma'lumotda ko'rsatilishicha, jazoga tortilgunimga qadar o'rtacha ish haqim 287 so'm (ikki yuz sakson yetti so'm)ni tashkil qilgan, 1-yil, 2 oyyu 21 kunni agar oyiga hisoblanganda o'n besh oy, shuningdek, amaldagi tegishli qonun aktlariga asosan 1997-yil iyun oyidan to sentabr oyiga qadar tergov va sud organlariga qatnab yurilgan 3 oy 13 kunlik muddat ham qo'shimcha, o'n sakkiz oyyu o'n besh kunni tashkil etadi. Bu muddat oylik ish haqiga ko'paytirilsa, 5553 so'mdan iborat bo'ladi. Dastlabki tergov davrida mendan beton zavodi hisobiga 783 so'm hamda sud protsessida ishtiroki uchun himoya xizmat haqi sifatida 226 so'm-hammasi bo'lib 1009 so'm undirilgan.U menga yetkazilgan umumiy zarar uchun $5553+1009=6562$ so'mni tashkil qiladi.

Shuningdek, 1997-yil sentabrdan to 2001-yil sentabrga qadar 4-yil, ya'ni 48 oy davomida o'z ishingta tiklanish imkoniyatiga ega bo'lolmay yurgan vaqtim uchun o'rtacha maosh 287 so'm hisobidan shu oylarga ko'paytirilganda 13776 so'm bo'ladi. Ya'ni, men ko'rgan jami zarar 20338 (yigirma ming uch yuz o'ttiz sakkiz) so'mni tashkil etardi.

Jazoni o'tash davrida koloniyada topgan ish haqimdan o'rtacha hisobda 62 so'm shaxsiy hisobimga o'tkazilgan. Bundan tashqari, pensiya pullarim 2000-yil 1-iyuldan har oyiga 113 so'm miqdorda belgilangan, 2000-yil uchun 6 oylik, 2001-yil uchun 9 oylik pensiya pullarim jami (ikki ming ikki yuz o'ttiz bir) so'mni tashkil etadi. Umumiy yetkazilgan zararlardan, ya'ni 20338 so'mdan 2231 so'm olib tashlansa, 18107 (o'n sakkiz ming bir yuz yetti) so'm miqdorda menga moddiy zarar yetkazilgan.

Shunga ko'ra va FKning 991-moddasiga asoslanib,

Talab qilaman:

Menga asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortilishim natijasida bevosita yetkazilgan 18107 (o'n sakkiz ming bir yuz yetti) so'mlik moddiy zarar undirib berilsin.

Ilova: 1. arizamning ikkinchi nusxasi;

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining ajrimi;

3. Advokatlarning xizmat haqi to'g'risida ma'lumot;

4. Koloniyadagi ish haqim haqida ma'lumot;

5. UYA 64G`8 ma'lumot;

6. o'rtacha oylik ish haqida ma'lumot;

7. turar-joydan ma'lumot;

8. Pensiya summasi haqida ma'lumot.

2001-yil 26-noyabr.

B.Xojimurodov

DA'VO ARIZANI HARAKATSIZ QOLDIRISH TO'G'RISIDA

Da'vo arizalari tuman (shahar) sudida sudya tomonidan, boshqa sudlarda esa-sudning raisi, uning o'rinbosari yoki sudya tomonidan qabul qilinadi. Fuqarolik ishi bo'yicha arizani qabul qilish masalasini sudyaning yolg'iz o'zi hal qiladi. Agar ariza pochta orqali yuborilgan bo'lsa, tushgan kunining o'zidayoq (har holda ikki kundan kechiktirmasdan) sudyaga topshirilishi lozim.

Agar da'vo ariza FPKning 149-150-moddalarida belgilangan talablarga rioya qilmasdan yoki davlat boji to'lanmasdan sudyaga berilganligi aniqlansa, sudya arizani harakatsiz qolirish to'g'risida ajrim chiqaradi va bu haqda da'vogar xabardor qilinib, kamchiliklarni tuzatish uchun unga muddat beriladi.

Arizani ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi sudya tomonidan chiqariladigan ajrimda arizadagi kamchiliklar, uni tuzatish yo'llari va mukdlati, sudyaning takliflarini bajarmaslik oqibatlari ko'rsatilishi lozim. Agar da'vogar belgilangan muddatda da'vo arizaning kamchiliklarini tuzatsa, fuqarolik ishi harakatga kiritiladi va bunday holda da'vo mukdatining o'tishi ariza berilgan kunning o'zidayoq uzilgan hisoblanadi. Aks holda sudya da'vo arizani berilmagan deb hisoblanishi to'g'risida ajrim chiqaradi va arizani da'vogarga qaytaradi. Ariza qaytarilganda holda da'vo muddatining o'tishi uzilmaydi. Da'vo ariza keyinchalik-da'vo mukdlati davomida, qonun talablariga rioya qilingan holda qayta berilishi mumkin.

Arizani harakatsiz qoldirish haqida

AJRIM

2001-yil 14-iyul.

Toshkent shahri

Toshkent shahri, Akmal Ikromov tumanlararo fuqarolik sudining raisi M.Azimov tomonidan da'vogar Toshkent shahar «Malika» firmasining javobgar Mahmud Yo'ldoshevga nisbatan uy-joydan ko'chirish haqidagi da'vo arizani ko'rib, quyidagilarni

Aniqlandi:

Da'vogar da'vo arizasini berishda, FPKning 105-moddasiga muvofiq, mulkiy xarakterda bo'lmagan va baholanishi mumkin bo'lmagan arizalaridan 10 so'm davlat boji (poshlinasi) to'lashi lozim bo'lsada, bu qoidaga rioya qilmasdan kam miqdorda to'lagan protsessual qonunda esa, agar arizaga qo'yilgan talablarga rioya qilmay, davlat boji to'lamay bergan arizani harakatsiz qoldirish mumkinligi bayon qilingan. Shunga ko'ra sud FPKning 154-moddasiga asosan

Ajrim qiladi:

Da'vogar Toshkent «Malika» firmasining javobgar Mahmud Yo'ldoshevga nisbatan uy-joydan ko'chirish to'g'risidagi da'vo arizasi harakatsiz qoldirilsin.

Ushbu ajrimning bir nusxasi da'vogarga yuborilsin va 2000-yil 5-avgustdan kechiktirilmasdan qonunda belgilangan 10 so'm davlat bojini to'laganlik haqidagi markani sudga topshirish tavsiya etilsin. Aks holda, da'vo arizasi berilmagan hisoblanib, da'vogarga qaytariladi.

Ajrimdan norozi taraf 10 kun muddat ichida shu sud orqali Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha sudiga xususiy shikoyat yoki protest keltirishi mumkin.

Sudya: M.Azimov

KELISHUV BITIMI TUZILGANLIGI SABABLI ISH YURITISHNI TUGATISH TO'G'RSIDA

Fuqarolik ishining sudda ko'rilishidan avval yoki sud boshlanishida yoxud davom etishida sud raisi har safar taraflardan nizoning o'zaro kelishuv bitimi tuzish yo'li bilan tamomlashini istar-istamasliklarini so'raydi (FPKning 180-moddasi).

Taraflar o'rtasidagi nizoning kelishuv yo'li bilan; sudlashmay, muayyan shartlarda murosaga kelish asosida hal qilinishi ko'p hollarda maqsadga muvofiq va maqbul ishdir. Kelishuv bitimining tuzilishi, ba'zi hollarda arzimagan ish (nizo, da'vo) bo'yicha ko'plab fuqarolarning ishdan qolib, sud idoralariga kelishlaridan ozod qiladi. Shuning uchun ham sud (sudya) taraflar o'rtasidagi nizoni o'zaro kelishuv yo'li bilan tugatilishiga qaratilgan choralarni ko'rishi lozim.

Agar taraflar kelishuv bitimi tuzishga rozi bo'lsalar, sud hamma hollarda bitimni tuzish sabablarini aniqlashi, tekshirishi lozim. Bunday bitimlar g'ayriqonuniy, qalbaki bo'lmasligi, taraflardan birining yoinki uchinchi shaxslarning huquqi va manfaatlarini buzilishiga olib kelmasligi lozim. Agar bitim tuzilishida g'ayriqonuniy harakatlar, maqsadlar mavjudligi aniqlansa, sud bitimni tasdiqlamaydi va sud ishni yuritishni davom ettiradi.

Kelishuv bitimi sud majlisida, sudga qadar, shuningdek ijro bosqichida ham tuzilishi mumkin. Kelishuv bitimining shartlari sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi va ikkala taraf tomonidan imzolanadi.

Agar taraflarning kelishuv bitimi ularning sudga yuborilgan yozma arizalarida ifodalangan bo'lsa, bu arizalar ishga qo'shib qo'yilib, bu haqda sud majlisi bayonnomasida qayd qilinadi.

Kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin sud taraflarga (da'vogar, javobgar)ga bunday harakat natijasida kelib chiqadigan protsessual harakatning oqibatlarini tushuntiradi.

Kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risida sud ajrim chiqaradi, ayni vaqtda shu ajrim bilan ishni yuritilishi tugatiladi. Ajrimda kelishuv bitimining shartlari bayon qilinishi kerak.

Agar sud taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlamasa, bu haqda asoslantirilgan ajrim chiqaradi va ishni mazmunan ko'rishga o'tadi (FPKning 180-moddasi).

Kelishuv bitimi tuzilgandan va tasdiqlangandan so'ng taraflar ish qo'zg'atishga, sud esa xuddi shu ishni ko'rishga haqli emas. Taraflarning o'z xohishlari bilan tuzilgan kelishuv bitimi-sudning hal qiluv qarori kuchiga ega bo'ladi.

Taraflar o'rtasida tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlash haqida

Toshkent viloyati, Angren shahar sudiga
Da'vogar:- I.Ismatov va javobgar T.Ahmedovlar tomonidan fuqarolik ishi yuzasidan tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risidagi arizasi.

ARIZA

Fuqarolik ishi yuzasidan taraflar bo'lmish biz, ya'ni da'vogar A.Ismatov, javobgar T.Ahmedovlar quduq suvidan birga foydalanish haqidagi da'vo bo'yicha kelishuv bitimini tuzdik. Bu bitimning shartlariga ko'ra, javobgar T.Ahmedov to'lashi lozim bo'lgan 110 so'm evaziga hovlidagi bir to'p gilos mevasidan har yili da'vogar bilan birga iste'mol qilishga rozi bo'lganini bildiradi.

Da'vogar A.Ismatov javobgarga quduq suvidan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratadigan bo'ldi.

Yuqoridagilarga ko'ra kelishuv bitimini tasdiqlashni va ish yuritishni tugatishni so'raymiz.

FPKning 100-moddasida ko'rsatilgan kelishuv bitimini tuzishdan kelib chiqadigan oqibatlar bizga ayon. Bu haqda tushuntirildi.

2000-yil 19-avgust.

A.Ismatov
T.Ahmedov

Kelishuv bitimini tasdiqlash haqida sud
ajrimi

AJRIM

2000-yil 19-avgust.

Angren shahri.

Toshkent viloyati, Angren shahar sudining ochiq sud majlisida sudya P.Sherovning raisligida, F.Fayzullayevaning kotibligida Ali Ismatovning da'vosi bo'yicha javobgar To'lqin Ahmedovning quduq suvidan foydalanishni taqiqlash to'g'risidagi fuqarolik ishi ko'rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

A.Ismatov bilan T.Ahmedovlar Angren shahar Bog' ko'chasi, 10-uyda yashab, umumiy hovlidan foydalanganlar. Yoz kunlari shahar suv tarmoqlarida suv kamayib ketishi sababli har ikkisi kelishgan holda o'z hovlisidan quduq qazib suvdan birga foydalanganlar. Quduq qazish uchun sarf qilingan xarajatlarni teng taqsim qilinishiga qaramay javobgar T.Ahmedov to'lashi lozim bo'lgan 110 so'm pulni berishdan bosh tortib kelishi tufayli da'vogar A.Ismatov quduq suvidan foydalanishni taqiqlab qo'ygan va xarajat pulini undirib berishni so'rab da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilgan.

Sud majlisida javobgar A.Ahmedov to'lashi kerak bo'lgan 110 so'm o'rniga o'z hovlisidagi bir tup gilos mevasidan har yili da'vogar bilan birga foydalanishini ko'rsatib, kelishuv bitimi tuzishni taklif qiladi. Da'vogar kelishuv bitimini tuzishga rozi bo'ladi va bu haqda taraflar sudga ariza taqdim etadilar.

Kelishuv bitimining shartlari sud majlisining bayonnomasiga kiritilib, taraflar tomonidan imzolandi.

Kelishuv bitimini tasdiqlash va ish yuritishni tugatish oqibatlari haqida FPKning 100-moddasida ko'rsatilgan qoidalar A.Ismatov va T.Ahmedovlarga tushuntirildi.

Sud taraflar o'rtasida tuzilgan kelishuv bitimi da'vogar va javobgarning manfaatlarini ko'zlab tuzilganligini hamda bitim shartlari boshqa shaxslarning manfaatlariga zid kelmasligini nazarda tutib, FPKning 40, 180-moddalari va 100-moddaning 5-bandiga asosan

Ajrim qiladi:

A.Ismatov bilan T.Ahmedovlar o'rtasida tuzilgan kelishuv bitimi tasdiqlansin, unga ko'ra:

Ali Ismatov Angren shahri, Bog` ko`chasi, 10-uyning hovlisidan quduq qazish uchun sarflagan 110 so`mni undirish hamda quduq suvidan foydalanishni taqiqlash to`g`risidagi nizodan voz kechadi;

T.Ahmedov 110 so`mni to`lamaslik evaziga hovlisidagi bir tup gilos mevasidan har yili Ismatovni bahramand etadi.

A.Ismatov da'vosiga ko`ra, T.Ahmedovdan 110 so`m undirish va quduq suvidan foydalanishni taqiqlash to`g`risidagi fuqarolik ishi ish yuritishdan tugatilsin.

Ajrimdan norozi tomon shu sud orqali Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha sudiga 10 kun muddat ichida xususiy shikoyat berishga, prokuror protest keltirishga haqli.

Sudya: P.Sherov

UZRSIZ SABABLARGA KO`RA SUD MAJLISIGA KELMAGAN GUVOHLARGA JARIMA SOLISH HAQIDA

Guvohning vazifalari FPKning 71-moddasida belgilangan bo`lib unga ko`ra, guvoh sifatida chaqirilgan shaxs sudga kelishga va haqqoniy ko`rsatuv berishga majbur.

Guvoh sud tomonidan asossiz deb topilgan sabablar bilan sudga ko`rsatuv berishdan bosh tortsa yoki bo`yin tovlasa, O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasi bo`yicha, bila turib yolg`on ko`rsatuv bersa, mazkur kodeksning 240-moddasi bo`yicha javobgarlikka tortiladi.

Sudda guvohlik berish ko`pincha fuqaroning ishdan qoldirishi bilan bog`liq bo`ladi. Shunday bo`lsada, qonun fuqarolarning sudda guvohlik berishga burchli ekanliklarini belgilaydi va bunday ijtimoiy burchni bajarishdan bosh tortuvchilarning, yuqorida bayon qilgandek, javobgarlikka tortilishini nazarda tutadi.

Fuqarolik protsessning ishtirokchilari o`zlariga qonun tomonidan yuklatilgan barcha protsessual burchlarni, qoidaga ko`ra, ixtiyoriy ravishda va vijdonan bajaradilar. Agar ishda ishtirok etuvchi shaxslar protsessual burchlarini bajarmasalar, sud ularga protsessual ta'sir etish choralari qo`llashga majbur bo`ladi. Bunday sanksiyalar asosan sud jarimalari shaklida amalga oshirildi.

Sud jarimasi deb, protsessual burchlarni yoki sud majlisidagi tartibni buzishda aybli bo`lgan shaxslarga qonunda ko`rsatilgan hollarda, pul bilan belgilangan protsessual ta'sir etish chorasiga aytiladi.

Sud tomonidan jarima solinish hollari va uning miqdori FPKning 75, 81, 253, 261-moddalarida ko`zda tutilgan. Sud qonunda ko`rsatilgan hollardan tashqari va belgilangan summadan ortiq jarima solishga haqli emas. Jarimaning miqdori, yuqorida keltirilgan qonunlarga binoan, umumiy qoida bo`yicha belgilangan miqdordan oshmasligi kerak. Ammo qarzdorni muayyan harakatlarni qilishga majbur etadigan sud hal qiluv qarorining bajarilmaganligi uchun solinadigan jarima miqdori, FPKning 381-moddasida ko`rsatilishicha, birmuncha yuqori.

Sud majlisiga uzrsiz sabablarga ko`ra kelmagan guvohlarga, sud chaqiruvi bo`yicha kelmagan yoki xulosa berishdan bosh tortgan yoxud atayin yolg`on xulosa bergan ekspertlarga nisbatan qonunda javobgarlik belgilangan.

Sud chaqiruvi bo`yicha kela olmaslikning sababi uzrli bo`lsa sudga avvaldan ma'lum qilinishi kerak, aks holda sudda hozir bo`lmaslik sababi uzrsiz deb qaraladi.

Jarima solish to`g`risidagi sud ajrimlarining nusxasi jarimaga tortilgan shaxsga tezlik bilan yuboriladi. Bu shaxs sud ajrimining nusxasini olishi bilan besh kun muddat ichida jarima solingan suddan jarimani olib tashlash yoki kamaytirish to`g`risida iltimos qilishi mumkin. Bu to`g`risidagi ariza jarima solingan shaxs chaqirilib, ochiq sud majlisida ko`riladi. Lekin bu shaxsning kelmasligi arizani ko`rishga to`sqinlik qilmaydi.

Sudning jarimani olib tashlashi yoki uning miqdorini kamaytirishni rad qilganlik haqidagi ajrimi ustidan xususiy shikoyat berish yoki xususiy protest keltirish mumkin.

Sud majlisiga kelmagan guvohga jarima solish haqida

AJRIM

2001-yil 26-avgust.

Angren shahri.

Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha, Angren shahar sudining ochiq sud majlisida raislik qiluvchi sudya S.I.Mehmonov, sud kotibi V.Bahriyeva prokuror B.Buxorov ishtirokida Qobil O`rmonovning javobgar Qodir Yormatovga nisbatan yetkazgan zararni undirish to`g`risidagi ishini ko`rib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da'vogarning arizasida javobgar Q.O'rmonov Angren shahri, Kosmonavtlar xiyoboni, 10-uyda yashab, o'z hovlisidan o'tadigan ariqdan so'puzlarcha foydalanib kelgan, unda o'rnatilgan suv taqsimlash (to'p on)ga befarq qarashi tufayli qo'shnisi bo'lmish K.Yormatovning tomon-qasini suv bosib ketishi natijasida mutaxassislarning bergan xulosasiga ko'ra, unga 350 so'mlik zarar keltirganligi, bu voqea bo'yicha Kosmonavtlar xiyoboni, 6-uyda yashovchi YU.Fozilov guvohlik berishi mumkinligi bildirilgan. Shu bois sud o'zining tayyorlov majlisining ajrimida ishni mazmunan ko'rish chog'ida Yunus Fozilovni guvoh sifatida chaqirish lozim deb topilgan.

Sud majlisiga kelish to'g'risida guvoh YU.Fozilovga 2001-yil 5-avgust kuni sud chaqiriq qog'ozini yuborilgan, biroq u: sudga bormasligini qayd qilib, chaqiruv qog'ozida buni yozma ravishda ifoda etadi. Ishdagi materiallar guvohni sud majlisiga uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganini ko'rsatadi. Bunday hollarda amaldagi FPKning 176-moddasiga muvofiq, agar chaqirilgan guvoh sud uzrsiz deb hisoblagan sabablar bo'yicha sud majlisiga kelmagan taqdirda, unga eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorida jarima solinishi, mazkur shaxs ikkinchi chaqiriq bo'yicha ham kelmagan taqdirda-majburiy ravishda olib kelinishi bayon qilingan.

Yuqoridagilarga ko'ra, sud FPKning 69, 176, 177-moddalariga asoslanib,

Ajrim qiladi:

Toshkent viloyati, Angren shahar, Kosmonavtlar xiyoboni, 6-uyda yashovchi guvoh Yunus Fozilovga nisbatan 6000 (olti ming) so'm miqdorida jarima solinsin.

Ishni ko'rish 2001-yil 10-avgust soat 10 ga qoldirilsin.

Sudda ish ko'rishni 2001-yilga qoldirilganligi haqida YU.Fozilov chaqiruv qog'ozini orqali xabardor qilinsin. Mazkur shaxs ikkinchi chaqiruv bo'yicha ham kelmagan taqdirda-majburiy ravishda keltirilishi to'g'risida ogohlantirilsin.

Ajrimning bir nusxasi Yunus Fozilovga yuborilsin.

Sudya:

S.I.Mehmonov

YOZUVNING KIMGA TEGISHLILIGINI ANIQLAYDIGAN (GRAFIK) EKSPERTIZANI TAYINLASH TO'G' RISIDA

Ishni tekshirish vaqtida kelib chiqadigan fan, san'at, texnika yoki hunar sohasida maxsus bilim talab qiladigan masalalarni tushuntirish uchun sud taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimoslari bo'yicha yoki o'z tashabbusi bilan ekspertiza tayin qilishi mumkin (FPKning 88-moddasi).

Ekspertiza har turli masalalar bo'yicha tayinlanadi. Chunonchi, fuqaroning ruhiy holatini tekshirish, kriminalistik, buxgalterlik ekspertiza va shu kabi ekspertizalar tayinlanishi mumkin.

Ekspertiza vositasida faktlar tahlil qilinadi. Faktlarni ekspertlar fan nuqtai nazaridan yoki o'zlarining maxsus tajribalariga asoslangan holda tahlil qilib beradilar.

Ekspertning fikri isbotlash vositasi hisoblanadi. Ekspertiza esa bilimdon yoki hunarmand vujudga kelgan muamoli masala bo'yicha maxsus bilim, ilm salohiyatiga ega bo'lgan shaxslarning yordamida dalillarni tekshirish usuli hisoblanadi. Ekspertiza sudda faktlarni tekshirish vaqtida zarur bo'lib qolishi, sudyalar maxsus bilimlarga yetarli bo'lmaganligi tufayli ba'zi faktlar sud tomonidan tekshirilishi va to'g'ri baholanishi ancha murakkab kechishi mumkin.

Ekspertlar o'z xulosasini berish uchun dalillarni tekshirishlari, materiallar bilan tanishishlari, guvohlar va taraflarga savollar berishlari mumkin.

Ekspertlar o'z xulosasini berishda dalillarni tekshirish yo'li bilan belgilangan faktlarga va o'zlarining maxsus bilimlariga asoslanadilar. Ekspertizani ekspertlarning xulosalariga tenglashtirmaslik kerak. Ekspertiza-dalillarni tekshirish jarayoni bo'lsa, ekspertlarning xulosalari esa ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni tekshirish natijasida, isbotlash vositasi (dalil) bo'lib hisoblanadi.

Ekspertiza tayin qilish to'g'risidagi ajrimda qanday masalalar bo'yicha ekspertlarning fikri talab qilinishi va ekspertiza o'tkazish kimga topshirilganligi bayon qilingan bo'lishi lozim.

Ekspertiza o'tkazish uchun tayinlangan shaxs sudning chaqiruvi bo'yicha kelishga va o'z oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha holis xulosa berishga majbur.

Agar ekspert sudning chaqiruvi bo'yicha sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra kelmasa, unga FPKning 68-moddasida belgilangan miqdorida jarima solinadi.

Ekspert xulosa berishdan bosh tortsa yoki bo`yin tovlasa, Jinoyat kodeksining 238-moddasi bo`yicha, bila turib yolg`on xulosa bersa, Jinoyat kodeksining 240-moddasi bo`yicha javobgarlikka tortiladi (FPKning 86-moddasi).

Ekspertning huquqlari FPKning 87-moddasida belgilangan. Unda quyidagilari qilishinicha, ekspert o`zini ekspert sifatida qiziqtiradigan holatlarni aniqlash uchun ish materiallari bilan tanishishga, ishda ishtirok etayotgan shaxslarga hamda guvohlarga savollar berishga, joyni borib ko`rishda ishtirok etishga va o`ziga qo`shima materiallarning berilishi to`g`risida sudidan iltimos qilishga haqlidir.

Ekspert, agar unga berilgan materiallar yetarli bo`lmasa yoki o`z zimmasiga yuklangan vazifani bajarish uchun yetarli bilimga ega bo`lmasa, fikr berishdan bosh torta oladi.

Belgilangan tartibda ekspert o`tkazilgandan so`ng ekspert o`zining xulosasini yozma shaklda beradi va u ishga qo`shib qo`yiladi. Sud ekspertga o`z xulosasini og`zaki tushuntirib berishni taklif qilish huquqiga ega. Og`zaki tushuntirish sud majlisining bayonnomasiga yoziladi, ekspertga o`qib beriladi va uning tomonidan imzolanadi.

Ekspertning fikri o`tkazilgan tekshiruvlarning batafsil bayonidan, ularning natijasida chiqarilgan xulosalar va sudning qo`ygan savollariga asoslantirilgan javoblardan iborat bo`lmog`i lozim. Agar ekspert ekspertiza o`tkazilayotganida sudning qo`ygan savollarida ko`rsatilmagan, lekin ish uchun ahamiyatli bo`lgan holatlarni aniqlasa, u o`zining xulosasiga shu holatlar to`g`risidagi xulosalarni kirtishga haqlidir (FPKning 85-moddasi).

Grafik ekspertiza tayinlash to`g`risida

AJRIM

2000-yil 1-avgust

Qo`qon shahri

Farg`ona viloyati, Qo`qon shahar sudining ochiq sud majlisida sudya E.R.Rahimov raisligida, A.Xudoyberdiyev kotibligida L.M.Agishevaning da`vosi bo`yicha javobgar Mahmud Solihovdan 125 so`m undirish to`g`risidagi fuqarolik ishi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da`vogar L.M.Agishev sudga da`vo ariza bilan murojaat qilib, javobgar Mahmud Solihov 1999-yil dekabr oyida 125 so`m qarz olganini va 2000-yil 1-martga qadar qaytarib berishi lozim bo`lganligini, biroq bu

majburiyatga u amal qilmay kelayotganini bayon qilib o`z, talabini tasdiq`i sifatida javobgarning 1999-yil 4-dekabrda bu xususida yozgan tilxatini sudga taqdim qiladi.

Sud majlisida javobgar M.Solihov o`z navbatida hech kim qarz olmaganligini, hech qanday tilxat yozmaganligini, ko`rsatilgan tilxat qalbaki ekanligini bayon qilib, da'voni tan olmaydi.

Sud ishdagi materiallarni atroflicha tahlil qilib, ish yuzasidan taraflarning bayonotlarini eshitgach, yozilgan tilxatning haqiqiylikini aniqlash yuzasidan maxsus bilim talab qilinishini nazarda tutib, nizoni hal etish uchun grafik (yozuvlarni aniqlaydigan) ekspertiza tayinlashni lozim topadi.

Yuqoridagilarga ko`ra, sud FPKning 84-moddasiga asoslanib, Ajrim qiladi:

Da'vogar L.M.Agishevaning javobgar Mahmud Solihovdan 125 so`m qarzni undirish to`g`risidagi da'vo arizasi bo`yicha ko`rilayotgan ushbu ish yuzasidan grafik ekspertizasi tayinlansin va uning oldiga quyidagicha savol qo`yilsin:

1999-yil 4-dekabrda yozilgan tilxat va qo`yilgan imzo M.Solihovnikimi?

Ekspertizani o`tkazish H.Sulaymonova nomidagi Toshkent shahar sud ekspertiza markaziga topshirilsin.

Ekspert Jinoyat-kodeksining 238-240-moddalari bilan ogohlantirilsin. Ekspertga ekspertiza o`tkazish uchun quyidagi hujjatlardan foydalanish imkoniyati berilsin:

- 1) 2000-yil 4-dekabrda 125 so`mni undirishga berilgan tilxat;
- 2) M.Solihov yozuvlari va qo`yilgan imzolardan namunalar;
- 3) M.Solihovning 1999-yil sentabrda do`sti Andrey Pavlovga yozgan xati;
- 4) M.Solihovning ish joyidan maosh olgan vedomostlaridagi imzosi;
- 5) M.Solihovning ish joyiga moddiy yordam so`rab 1999-yil 20-sentabrda yozgan arizasi.

Shu munosabat bilan ishni ko`rish qoldirilib, 2000-yil 18-avgust soat 10:00 ga tayinlansin.

Sudya:

E.R.Rahimov

III. UY-JOY MUNOSABATLARIGA DOIR AYRIM PROTSESSUAL HUJJATLAR

Turar-joyga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan hamma nizolar fuqarolik-huquqiy nizolari asosan sudga taalluqlidir. Istisno tariqatida, O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 70-moddasida ko'rsatilgan hollarda, ya'ni turar-joylar o'zboshimchalik bilan egallangan hollarda, uying bosib qolish xavfi tug'ilgan taqdirda bunday uylarda yashovchilarni ko'chirish to'g'risidagi ishlar sudlarga taalluqli bo'lmay, ma'muriy organlarga, ya'ni prokuratura organlariga tegishli bo'ladi.

Qoida bo'yicha ma'muriy tartibda ko'chirish uchun prokurorning amaliyoti (qarori) talab qilinadi. Prokuror ma'muriy tartibda ko'chirish to'g'risida sanksiya bermagan taqdirda ham manfaatdor tashkilotlar, muassasalar, korxonalar turar-joyda yashovchilarni ko'chirish to'g'risida sudga murojaat qila oladilar (Uy-joy kodeksining 70-moddasi, FPKning 17/49 moddalari).

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2001-yil 14-sentabrdagi «Uy-joy nizolari bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi qarori va boshqa Plenum qarorlarida uy-joy masalalari oid qanday nizolarning sudga taalluqli bo'lishi va qanday uy-joy masalalarining boshqa idoralarda hal etilishi ko'rsatilgan.

Qonun bilan belgilangan tartibga rioya qilinmagan holda, turar-joyni egallash uchun berilgan order sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin (Uy-joy kodeksining 70-moddasi).

«Davlat va jamoat manfaatlarini ko'zlab fuqarolarga tegishli uy-joylarning buzilishi tufayli yer uchastkalarini olib qo'yishdan kelib chiqadigan nizolarni hal etish to'g'risidagi qonunchilikni tadbiq etish haqida» ilgari ushbu nomda qabul qilingan qarorida o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarga nisbatan egalik huquqini belgilash to'g'risidagi dalvolarning sudlarga taalluqli bo'lmasligi tushuntiriladi.

Turar-joy qurish kooperativi bilan kooperativ a'zolari o'rtasidagi, kooperativ a'zolari bilan ularning oila a'zolari o'rtasidagi fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan boshqa nizolar ham, masalan, turar-joyni almashtirish, kooperativ a'zolidan chiqarish to'g'risidagi va shu kabi boshqa ba'zi nizolar sudlarga taalluqli bo'ladi.

Agar kooperativ a'zolarining umumiy majlisi turar-joyni ayirboshlovchi shaxsni kooperativ a'ziligiga qabul qilishga rozi bo'lsa-yu, hokimliklar ayirboshlash uchun ruxsat bermasa, bunday holda ham, kooperativ a'zosining egallab turgan turar-joyini boshqa turar-joyga ayirboshlash to'g'risidagi nizo sudlarga taalluqli bo'ladi.

Uy-joy qurish kooperativ a'zolidan chaqirish bilan bog'liq bo'lgan nizolar ham sudlar tomonidan hal qilinadi.

Uy-joy nizolariga oid sudda to'xtatilgan fuqarolik ishi ish yuritishni to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlar bartaraf qilingach, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasi yoki sudning tashabbusi bilan yana qayta tiklanishi mumkin.

Sud ish yuritishni qayta boshlaganida ishda ishtirok etuvchi shaxslarni umumiy asoslarga muvofiq chaqiradi.

Ish yuritishni tiklash va uy-joydan ko'chirish haqida ariza

Namangan viloyati, Fuqarolik ishlari
bo'yicha tumanlararo Uchqo'rg'on sudiga
Namangan viloyati, Uchqo'rg'on shahar,
Rahimov ko'chasi, 10-uyda yashovchi
Nodira Abulovadan

ARIZA

(To'xtatilgan fuqarolik ishini yana qayta tiklash haqida)

Sudning ish yuritishida mening da'vo arizam bo'lib, unga javobgar Baxtiyor Abulovni uy-joydan ko'chirish to'g'risida bayon qilgan edim.

Javobgar Baxtiyor Abulov uzoq muddatli xizmat safariga ketganligi sababli sudning 2000-yil 15-yanvar ajrimiga muvofiq ish yuritish to'xtatilgan edi. Hozir javobgar B.Abulov xizmat safaridan qaytganiga bir oydan ortiq muddat o'tishiga qaramay o'zi haqida ma'lumot bermasdan kelmoqda. Men esa nikohdan ajrashgan sobiq erim bilan bir uyda yashab kelmoqdaman, uning har kuni mast holda uyga kelishi esa bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilarga ko'ra, FPKning 94-moddasi 7-bandiga hamda 96-moddalariga asosan

So'rayman:

Javobgar Baxtiyor Abulovga nisbatan qo'zg'atilgan va 2000-yil 15-yanvarda sud ajrimi bilan to'xtatilgan fuqarolik ishi bo'yicha to'sqinlik qilgan holatlar bartaraf bo'lganligi sababli ish yuritishni qayta tiklashni.

2001-yil 12-avgust.

N.Abulova

Tarafni uzoq muddatli xizmat safaridan qaytishi munosabati bilan ish yuritishni qayta tiklash to'g'risida

AJRM

2001 yil 17-avgust.

Uchqo'rg'on shahri.

Namangan viloyati, Uchqo'rg'on shahr tumanlar fuqarolik sudi ochiq shahar majlisida sudya V.Qosimovning raisligida O.Ibrohimova kotibligida Nodira Abulovanning javobgar Baxtiyor Abulovga nisbatan uy-joydan ko'chirish to'g'risidagi muqaddam to'xtatilgan ishini qayta tiklash to'g'risidagi da'vogarning arizasi ko'rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da'vogar N.Abulova sudga ariza bilan murojaat etib, javobgar Baxtiyor Abulovga nisbatan uy-joydan ko'chirish to'g'risida muqaddam to'xtatilgan ish Uchqo'rg'on shahar sudining 2000-yil 15-yanvardagi qaroriga qarshi qo'zg'atilgan muqaddam to'xtatilgan ish qayta tiklanishi bilan javobgarning uzoq muddatli xizmat safariga ketganligi munosabati bilan ish yuritishdan to'xtatilganligini hozirda esa, javobgar xizmat safaridan qaytganligini bayon qilib, ish yuritishni tiklashni so'ragan.

Aniqlangan xolatlarga qaraganda, ya'ni javobgarning ish joyi-Uchqo'rg'on shahar hokimligi moliya bo'limidan ekanligi va 2000-yil 10-avgustda hokimiyatning bergan ma'lumotiga qaraganda, B.Abulov haqiqatdan xizmat safaridan qaytganligi aniqlandi. Shularga ko'ra, ish yuritishni to'xtatish uchun sabab bo'lgan holatlar hozirda mavjud emasligi ko'rinadi.

Sud yuqoridagilarga ko'ra hamda FPKning 94-moddasining 7-bandiga va 96-moddasiga asoslanib,

Ajrim qiladi:

Nodira Abulovanning da'vo arizasi bo'yicha, Baxtiyor Abulovni uy-joydan ko'chirish to'g'risida muqaddam to'xtatilgan fuqarolik ishi bo'yicha ish yuritish uchun qayta tiklansin. Ishni sud majlisida ko'rish 2000-yil 25-avgust soat 10:00 ga tayinlansin va bu haqda taraflar xabardor qilinsin.

Sudya:

V.Qosimov

Uy-joylarga, turar-joylarga, injenerlik uskunalariga, obo-donchilik obyektlariga va uy atrofidagi daraxtzorlarga korxonalar, muassasalar,

tashkilotlar, shuningdek fuqarolar zarar yetkazgan taqdirda ana shu zararining o'rnini qoplashlari shart.

Zarar o'rnini qoplash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni mansabdor shaxslar va boshqa shaxslarning aybi uchun korxonalar, muassasalar, tashkilotlar (yuridik shaxslar) to'lagan bo'lsalar, bunday hollarda mazkur shaxslar va xodimlarga nisbatan qonunda belgilangan (regress da'vo qo'zg'atish) tartibda moddiy javobgarlikka tortish mumkinligi masalasiga ham e'tibor berish lozim.

Toshkent shahar, Fuqarolik ishlari bo'yicha
Chilonzor tumani sudiga

Da'vogar: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor
ko'chasi, 17-uyning 12-xonadonida yashovchi
So'lim Abdazov

Javobgar: Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Chilonzor
ko'chasi, 17-uyning 16-xonadonida yashovchi
Botir Qodirov.

Uchinchi shaxs: Toshkent shahar «Mikond» ishlab chiqarish bir-
lashmasi. S.Rahimov tumani, birlashma ko'chasi,
10-uyda joylashgan

DA'VO ARIZASI

(Turar-joyni suv bosishi natijasida keltirilgan zararni undirish haqida)

Biz yuqorida qayd qilingan manzilda, ya'ni «Mikond» ishlab chiqarish birlashmasiga qarashli 4 xonali kvartirada ijara shartnomasi asosida 1997-yil 20-maydan buyon oilamiz bilan yashamoqdamiz.

Bizdan bir qavat yuqorida 16-kvartirada Botir Qodirov istiqomat qiladi. B.Qodirov bir o'zi yashaydi. U uyga tez-tez mast holda kelib, suv jo'mraklarini ochiq qolishiga yo'l qo'yib kelganligi sababli bir necha marotaba qo'shnilar va uy boshqarmasi tomonidan ogohlantirilgan edi. 2001-yil 10-avgustda shu holat yana takrorlanib, vannaga suv ochib qo'yib, o'zi uxlab qolganligi sababli bizning ikkita xonamizni suv bosgan. Uy boshqarmasi tomonidan tuzilgan komissiya holatni tekshirib, menga 1200 so'mlik moddiy zarar yetkazilganligini aniqladi.

Javobgar keltirilgan zararni tan olishiga qaramasdan, uch oydan buyon xonalarni remont qilish va zarar qiymatini to'lashdan asossiz ravishda bo'yin tovlab kelmoqda.

Yuqoridagilarga ko`ra Uy-joy kodeksining 138-moddasi hamda Fuqarolik Kodeksining 989-990-moddalariga asoslanib,

So`rayman:

Javobgar Botir Qodirovdan mening foydamga turar-joyimni suv ta`minlash natijasida keltirgan 1200 (bir ming ikki yuz) so`m miqdoridagi zarar tuzatilib berilishi.

1. 1/3 yuzasidan quyidagi guvohlar chaqirilsin:

1. Sobir Abulov-uy boshqarmasining boshlig`i: Chilonzor tumani, Chilonzor ko`chasi, 20-uyda yashaydi.
2. Do`rmon Bakirov-uy-joydan foydalanish idorasining bosh muxandisi: Chilonzor tumani, Chilonzor ko`chasi, 70-uyda yashaydi.

Hlova: 1. Uyni suv bostirganligi to`g`riligi haqidagi tilxat;

2. Uyning rejasi;

3. Keltirilgan zararni qoplash haqidagi tilxat;

4. Davlat boji to`langanligi haqida chipta;

5. Da`vo arizasining nusxasi.

2001-yil 20-oktabr.

S.Abdazov.

Toshkent shahar, Chilonzor tumanlararo fuqarolik sudiga

Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Chilonzor ko`chasi, 17-uyning 12-xonadonida yashovchi So`lim Abdazovdan

ARIZA

(Ish yuritishni tugatish va kelishuv bitimini tasdiqlash haqida)

Men ariza bilan javobgar Botir Qodirovga nisbatan fuqarolik da`vosi qo`zg`atish haqida murojaat etgan edim. Da`vo arizamda bizdan bir qavat yuqoridagi kvartirada yashovchi B.Qodirovning beparvoligi tufayli ya`ni (suv jo`mraklarini ochiq qoldirib, uxlab qolishi natijasida) shu yilning 10-avgustida men yashayotgan kvartiramni suv bosganligi va shunga ko`ra menga 1200 so`mlik zarar yetganligini ko`rsatgan edim. Endilikda esa, fuqarolik ishini sudda da`vo tariqasida ko`rishga xojati qolmadi, bunga sabab biz ushbu ish bo`yicha sudga qadar o`zaro kelishuv bitimini tuzdik, uning shartlariga ko`ra, men turli rangdagi bo`yoqlarni javobgar hisobidan olib berishni javobgar B.Qodirov esa barcha qolgan xarajatlarni o`z

zimmasiga oldi va bir oy mobaynida, ya'ni 2001-yil 30-noyabrga qadar hamma ishlarni to'liq bajarish lozimligi shartnomada ko'rsatildi.

Shularga ko'ra ushbu kelishuv bitimini tasdiqlab ish bo'yicha ish yuritishni tugatishini so'raymiz.

FPKning 100 va 102-moddalarida ko'zda tutilgan ya'ni (kelishuv bitimini tuzish tufayli kelib chiqadigan) oqibatlardan xabardormiz va bu qoidalar bizlarga tushuntirildi.

2001-yil 25-oktabr

Taraflar:

S.Abdazov
B.Qodirov

ORDERNI HAQIQIY EMAS DEB TOPISH TO'G' RISIDA

Davlat yoki jamoat uy-joy fondiga qarashli uydan turar-joy berish to'g'risidagi qarorga asosanib, mahalliy hokimiyat idoralari fuqaroga turar-joyga ko'chib kirish uchun birdan-bir asos hisoblangan order beradi.

Order faqat bo'sh bo'lgan alohida turar-joy uchun, yangi qurilgan turar-joy binolarida esa davlat komissiyasining uyni qabul qilib olish to'g'risidagi akti hokimiyat qarori bilan tasdiqlanganidan keyingina berilishi mumkin.

Orderning shakli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yilgan.

Harbiy shaharchalarda turar-joy olish orderlari amaldagi qonunlarda ko'zda tutilgan tartibda beriladi.

Fuqarolar o'z uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtojligi to'g'risida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar topshirgan, boshqa fuqarolar yoki tashkilotlarning orderda ko'rsatilgan turar-joyni olish huquqi buzilgan, mansabdor shaxslar tomonidan turar-joy berish tartibi va shartlari buzilgan boshqa hollarda turar-joy olish orderi sud yo'li bilan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Orderni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talab order berilgan kundan boshlab uch yil mobaynida qo'zg'atilishi mumkin. Bunday talab, agar order uni olgan shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari natijasida berilgan bo'lsa, order berilgan kundan uch yil o'tganda ham qo'zg'atilishi mumkin.

Toshkent shahar, Chilonzor tuman sudiga

Da'vogar: Azim Xo`jayev-Toshkent shahar, Chilonzor tuman, Hamza ko`cha, 10-uy, 40-xonadonda yashaydi.

1-javobgar: Burxon Azimov-Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Hamza ko`cha, 10-uy, 41-xonadonida yashaydi.

2-javobgar: Toshkent shahar, Chilonzor tuman hokimiyati

DA'VO ARIZA

(O`lderni haqiqiy emas deb topish, turar-joydan ko`chirish va turar-joyga bo`lgan huquqni tan olish haqida)

Men-Azim Xo`jayev Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Hamza ko`chasi, 10-uyning 40-xonadonidagi 18 metr kvadrat metrli ikki xonali turar-joyda oila a'zolarim bilan istiqomat qilaman. Bu xonadonda men bilan birga: 1)Lola Xo`jayeva-onam; 2)Aziza Xo`jayeva-xotinim; 3)Nodir Xo`jayev-1970-yilda tug`ilgan o`g`lim; 4)Gulnora Xo`jayeva-1972-yilda tug`ilgan qizim; 5)Qodir Xo`jayev-1978-yilda tug`ilgan o`g`lim istiqomat qiladilar.

2000-yil 20-mayda qo`shnim Yu.Odilov ish joyidan uch xonali kvartira olganligi sababli oilasi bilan boshqa joyga ko`chib ketdi. Bo`sh qolgan ushbu bir xonali 12 metr kvadratli xonadonga Chilonzor tuman hokimiyati Burxon Azizov degan shaxsga order beribdi.

Muqaddam uch marotaba yozma ravishda Chilonzor tuman hokimiyatiga yashash sharoitimni yaxshilash haqida ariza bilan murojaat qilishimga qaramay 12 metr kvadratli bir xonali turar-joyni boshqa shaxsga berilishidan juda taajjubdaman. Biz yashab kelayotgan turar joyda oddiy bir sharoit yo`q. Balog`atga yetgan farzandlarim, 2-toifa nogironi, urush qatnashchisi 70 yoshga kirgan kasalmand onam-hammamiz ikki xonada yashashni, mutlaqo g`ayritabiiy hol deb hisoblayman.

Yuqoridagilarga ko`ra Uy-joy kodeksining 46-47-moddalariga asoslanib,

So`rayman:

1. Toshkent shahar, Chilonzor tuman hokimiyati tomonidan Burxon Azizovga 2000-yil 20-sentabrda berilgan 210-order haqiqiy emas deb topilishini;

2. Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Hamza ko'chasi, 10-uyning 41-xonadonidagi 12 metr kvadratlil turar-joyini egallab turgan Burxon Azizov ko'chirilishini;

3. Ushbu nizoli turar-joyga bo'lgan huquq menga tegishli deb topilishini;

Ilova: 1. Orderning nusxasi;

2. turar-joyning plani (rejasi);

3. hokimiyatga murojaat qilganligim haqidagi arizamning nusxalari;

4. Davlat boji to'langanligi haqidagi chipta;

5. Da'vo arizadan nusxa.

2000-yil 10-sentabr.

A.Xo'jayev

TURAR-JOYDAN KO'CHIRISH HAQIDA

O'zbekiston Respublikasi uy-joy qonunchiligida belgilanishicha, turar-joyda vaqtincha yashovchilar quyidagi huquqlarga ega: Turar-joyini ijaraga oluvchi va u bilan birga yashovchi oila a'zolari, o'zaro kelishilgan holda, o'zlari foydalanib turgan turar-joyini ijaraga qo'yish shartnomasi tuzmasdan va turar-joydan foydalanganlik uchun haq olmasdan boshqa fuqarolarga (turar-joydan vaqtincha yashovchilarga) vaqtincha yashab turish uchun berishlari mumkin.

Turar-joyda vaqtincha yashovchilarni bir yarim oydan ortiq muddatga ko'chirib kiritishga Uy-joy kodeksining 45-moddasi 1-qismida belgilangan uy-joy maydoni normasiga rioya qilish sharti bilangina yo'l qo'yiladi.

Turar-joyda vaqtincha yashovchilar ijaraga oluvchi yoki u bilan birga yashaydigan oila a'zolari talabi bilan darhol mazkur turar-joyini bo'shatib berishlari shart. Aks holda turar-joyda vaqtincha yashovchilar boshqa turar-joy berilmaslik sharti bilan sud yo'li bilan ko'chirib chiqariladilar.

Ijaraga oluvchining turar-joyiga ijaraga qo'yish shartnomasi asosida yoki vaqtincha yashovchilar sifatida yashab kelayotgan fuqarolar, bu turar-joyda qancha vaqt yashab kelayotganliklaridan qat'iy nazar, unga mustaqil egalik qilish huquqiga ega emasdir.

Turar-joyini ijaraga olish shartnomasi bekor qilingan zahoti ijaraga qo'yish shartnomasi ham bekor bo'ladi. Ijaraga qo'yiluvchilar, shuningdek, vaqtincha yashovchilar ham turar-joyini bo'shatib berishdan bo'yin tovlaganlari taqdirda, ular (boshqa turar-joy berilmasdan turib) sud yo'li bilan ko'chirib yuboriladilar.

Toshkent viloyati, fuqarolik ishlari bo'yicha
Chirchiq shahar sudining raisiga
Da'vogar: Sobiq Sobirov-Chirchiq shahar, Bobur ko'cha, 15-
uyning 15-xonadonida yashaydi.
Javobgar: Murod Aliyev-Chirchiq shahar, Bobur ko'cha, 15-
uyning 15-xonadonida yashaydi.

DA'VO ARIZA
(Turar-joydan ko'chirish haqida)

Menga Chirchiq shahar hokimligi tomonidan 2001-yil 12-may kuni berilgan 411/5-raqamlik orderga asosan yuqorida ko'rsatilgan turar-joy berilgan. Bu xonadonda men, turmush o'rtog'im Karimaxon Sobirova va o'g'lim Soyibjon Sobirovlar yashab kelmoqdamiz. 2001-yil 4-iyulda oila a'zolarimizning hammasi ta'tilda chiqishi munosabati bilan Andijonda yashovchi o'rtog'im Nosirjon Muhitdinovning uyiga oilaviy mehmonga borib, 25 kun turib qaytdik. Ketish oldidan uyni yolg'iz qoldirmaslik uchun men (xotinim bilan kelishgan holda) Murod Aliyevni bir oy muddatga vaqtincha yashab turish uchun uyga kiritgan edik. Qaytib kelsak, bizning mol-mulklarimizni ikkita xonaga kiritib, qolgan ikki xonaga esa, o'zlarining buyumlarini joylashtirib olibdi. Bunga asos shu emishki, bizning besh kishidan iborat oilamiz ikkita xonada yashasa bo'larmish, qolgan ikki xonada esa Murod Aliyevning oilasi yashashi kerak ekan. Uning bu xatti-harakati g'ayriqonuniy ekanligini uy-joy xodimlari tushuntirishlariga qaramay, egallab turgan turar-joyini bo'shatib bermasdan kelmoqdalar.

Yuqoridagi holatlarga ko'ra hamda Uy-joy kodeksining 69, 70-moddalariga asosan

So'rayman:

Chirchiq shahar, Bobur ko'cha, 15-uy, 15-xonadonida vaqtincha yashab turuvchi javobgar Murod Aliyevni majburiy tartibda ko'chirilishini.

- Ilova: 1. Shahar hokimligi tomonidan berilgan orderning nusxasi;
2. Yuqoridagi turar-joyda men va oila a'zolarimni uy ro'yxatida (propiska) bo'lganligimiz haqida ma'lumot;
3. Men va xotinim bilan tuzilgan nikoh guvohnomasidan nusxa;
4. Farzandlarimning tug'ilish guvohnomasidan nusxalar.

2001-yil 12-avgust.

S.Sobirov

Davlat yoki jamoat uy-joy fondiga qarashli uylarni egallab turganlarni turar-joydan ko`chirishga faqat qonunda belgilangan asoslar bo`yicha yo`l qo`yiladi.

Ko`chirish sud yo`li bilan amalga oshiriladi. Turar-joyni o`zboshimchalik bilan egallab olgan yoki bosib qolish xavfi bo`lgan uylarda yashovchi shaxslarnigina prokurorning ruxsati bilan ma`muriy tartibda ko`chirishga yo`l qo`yiladi.

Turar joylaridan ko`chirilayotgan fuqarolarga ayni vaqtda boshqa turar-joy beriladi. Uy-joy to`g`risidagi qonunlarda ko`rsatilgan hollar bundan mustasnodir.

Davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalari olib qo`yilishi munosabati bilan fuqarolarning xususiy mulkidagi uy-joylar buziladigan bo`lsa, unday fuqarolarga va oila a`zolariga, shuningdek, ana shu uylarda doimiy istiqomat qiluvchi boshqa fuqarolarga davlat yoki jamoat uy-joy fondi uylaridan belgilangan normalarda turar-joy beriladi. Bundan tashqari, uy-joy egalariga, ularning xohishiga qarab buzilayotgan uyning qiymati, imoratlar va qurilmalar qiymati to`lanadi yoxud ularning istagi bilan mazkur uylar, imoratlar va qurilmalardan chiqqan materiallardan foydalanish huquqi beriladi. Fuqarolarning xohishiga qarab, mahalliy hokimiyat idoralari ularga turar-joy berish o`rniga uy-joy qurish kooperativlari a`zoligiga navbatsiz kirish va bu kooperativlardan kvartira olish imkoniyatini yaratib beradilar.

Uy-joy to`g`risidagi qonunlarga muvofiq, kvartira berish tartibi, buziladigan uy, imorat va qurilmalar qiymatining miqdori va uni to`lash tartibi belgilab qo`yilgan.

Toshkent shahar, A.Ikromov tuman sudiga

Da`vogar: Toshkent shahar, «Malika» firmasi-U.Yusupov ko`chasi, 20-uda joylashgan.

Javobgar: Mahmud Yo`ldoshev-Toshkent shahar, A.Ikromov tumani, Qora tol ko`chasi, 15-uyda yashaydi.

DA'VO ARIZA

(Xususiy uyning buzilishi sababli uydan ko`chirish haqida)

Toshkent shahar hokimiyatining 2000-yil 15-maydagi 217-raqamli qaroriga asosan A.Ikromov tumani, Qoratol ko`chasi Qorasuv bo`yidagi ochiq yer maydoni «Malika» firmasi ishchi-xizmatchilarining ixtiyoriga ko`p qavatli imorat qurish uchun ajratilgan edi. M.Yo`ldoshevning ana shu ajratilgan yerda xususiy uyi bo`lib, u yuqoridagi sabablarga ko`ra buzilishi

boʻlmaydi. Biroq javobgar uying qiymatini olsada, buzilishi lozim boʻlgan boʻydan toʻchmasdan boʻyin tovlamoqda, bunga asos qilib U.Yusupov koʻchasi joylashgan 9 qavatli 5-uyning 3-qavatidan berilgan 15 metr kvadrati xona alohida boʻlmaganligini koʻrsatib, u yerga koʻchmasligini talabpan.

«Malika» firmasi M.Yoʻldoshevning bu talabini gʻayriqonuniy deb hisoblaydi. Amaldagi qoidalarga binoan, davlat va jamoat tashkilotlarining manfaatini uchun yer uchastkasini ajratishda fuqarolarga tegishli uy-joylarning buzilishi tufayli ularning qiymatini qoplash haqidagi qaroriga asos deb hisoblaydi.

Yuqoridagilarga koʻra hamda FPKning 5, 149, 241-moddalariga va Uy-joy kodeksining 104, 151-moddalariga asoslanib,

Soʻrayman:

Mahmud Yoʻldoshevni Toshkent shahar, A.Ikromov tumani, Qorator koʻchasi 15-uydan shu tuman U.Yusupov koʻchasidagi 9 qavatli 5-uyning 3-qavatidan ajratilgan 15 metr kvadrati 17-xonadonga koʻchirishni.

Hova: 1. Toshkent shahar hokimiyatining 2000-yil 15-may qaroridan koʻchirma;

2. Koʻchish toʻgʻrisida yozilgan xatlardan nusxa;

3. Qorator koʻchasi 15-uyning plani va roʻyxatga oʻlinganlik toʻgʻrisida kommunal xoʻjalik boʻlimidan maʼlumotnoma;

4. Daʼvo arizasidan nusxa.

2000-yil 30-iyul.

«Malika» firmasining direktori B.M.Olimov

ORTIQCCHA TOʻLANGAN DAVLAT BOJINI QAYTARISH HAQIDA

FPKning 108-moddasiga va davlat boji toʻgʻrisidagi yoʻriqnomaga muvofiq, davlat boji daʼvogarga quyidagi hollarda: yaʼni amaldagi qonun boʻyicha talab qilinganidan koʻp miqdorda davlat boji toʻlagan boʻlsa; ariza (shikoyat)ni qabul qilish rad etilsa; FPKning 154-moddasida nazarda tutilgan asoslar boʻyicha daʼvo arizasi qaytarib berilsa; FPKning 100-moddasi 1 va 2-bandlarida nazarda tutilgan asoslarga koʻra ish sudda koʻrilmaydigan boʻlib, bu ishni sudda koʻrish tugatilgan boʻlsa, shuningdek, ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilganligi sababli (FPKning 97-moddasi 1-bandi) koʻrmasdan qoldirilgan boʻlsa; FPKning 100-moddasi 1 va 2-bandlarida nazarda tutilgan asoslarga koʻra ariza koʻrilmay qoldirilsa, toʻla yoki qisman qaytariladi (FPKning 108-moddasi).

Davlat bojini qaytarish haqida

Toshkent shahri, A.Ikromov tuman sudiga
Toshkent shahri, A.Ikromov tuman, Usta Shirin
ko'chasi, 20-uyda istiqomat qiluvchi Sobir
Qosimovdan

ARIZA

(Davlat bojining bir qismini qaytarib berish haqida)

Toshkent shahar, A.Ikromov tuman, Usta Shirin ko'chasi, 20-xonadonni men bilan ukam Qosimov o'rtasida bo'lish to'g'risida sudga da'vo ariza bergan edik. Butun uyning umumiy narxi 10,000 so'm bo'lib, biz shu summa hisobidan 1000 so'm davlat boji to'lagan edik. Aslida arizada uyning ikkidan bir qismi, ya'ni yarmini taqsimlash nazarda tutilgan.

Agar bir butun uyning ikkidan bir qismi 5000 so'm bo'lsa, unda shu summa hisobida 10% davlat boji to'lansa, 500 so'mni tashkil qilishi lozim bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, men 500 so'm ortiqcha boj to'lagan ekanman.

Yuqoridagilarni inobatga olib, FPKning 119-moddasining 1-bandiga asosan

So'rayman:

Ortiqcha to'langan 500 so'm miqdoridagi sud bojni menga qaytarib berish to'g'risidagi masala ko'rib chiqilib, hal etilishini.

- Ilova: 1. Uyning bahosi haqida ma'lumot;
2. Davlat bojining to'langanligi haqida ma'lumot;
3. Yashash joyimdan ma'lumotnoma.

2000-yil 10-oktabr.

S.Qosimov

TURAR-JOYDAN FOYDALANISH HUQUQINI YO'QOTGANLIK HAQIDA

Uy-joy kodeksining 52-54-moddalarida shaxsning belgilangan muddatlardan tashqari uyda bo'lmasligi oqibatida turar-joydan foydalanish huquqi ijaraga beruvchining yoki mazkur turar-joyda yashab qolib, unda doimiy foydalanuvchilarning da'vosi bo'yicha sud yo'li bilan yo'qolgan deb topilishi mumkin.

Agarda ijaraga oluvchi yoki uning oila a'zosi uzrli sabablar bilan uy-joydan ko'proq bo'lmagan bo'lsa, bu muddat ijaraga oluvchi yoki uy-joydan ko'proq bo'lmagan oila a'zosining arizasi bo'yicha ijaraga beruvchi tomonidan uzaytirilishi mumkin, nizo chiqqan taqdirda esa sud tomonidan hal qilinadi.

Toshkent shahar, hamza tuman sudiga

Da'vogar: Iroda Hamidova-Toshkent shahar, hamza tuman, Jukovskiy ko'chasi, 50-uy, 106-xonadonda yashaydi.

Javobgar: Anvar Hamidov-Toshkent shahar, Xamza tuman, Hamza ko'cha, 30-uyda yashaydi.

Uchinchi shaxs: Toshkent shahar, Hamza tuman hokimiyatining uy-joy boshqarmasi, Nukus ko'chasi, 3-uyda joylashgan.

DA'VO ARIZA

(Turar-joydan foydalanish huquqini yo'qotgan deb topish haqida)

Javobgar Anvar Hamidov men yashayotgan Jukovskiy ko'chasi, 50-uy, 106-xonadonning uy daftarida ro'yxatda tursa-da, biroq u mazkur xonadonda 1985-yil 10-yanvaridan boshlab yashamasdan keladi. U kishi bilan men 1975-yilda nikohdan o'tgan holda oilaviy turmush qurgan edik. Sobiq erim nikohdan ajrashmasdanoq boshqa ayolga uylanib, oilaviy turmush qurgan. Men mazkur turar-joyda 1985-yil 10-yanvardan boshlab 1978-yilda tug'ilgan o'g'lim Vali bilan yashab, turar-joydan doimiy foydalanib kelmoqdamiz. Javobgar turar-joydan 1985-yildan buyon foydalanmasada, shu kunga qadar uy ro'yxatida bo'lib, ro'yxatdan chiqish xohishi yo'qligini bildirmoqda. Bu haqda bir necha bor ogohlantirishimga qaramay, javobgar bo'yin tovlab kelmoqda.

Javobgarning turar-joydan foydalanmaganlik holatlari meni ijara haqini to'laganligim, elektr energiyasi va boshqa xarajatlarni o'z vaqtida to'lab kelganligim haqidagi hujjatlar bilan tasdiqlanadi.

Men 20-yildan buyon maktabda o'qituvchi bo'lib ishlab kelmoqdaman. Hukumatimizning keyingi qaroriga asosan o'qituvchilarga berilgan imtiyozlarga ko'ra o'zim yashayotgan turar-joyni xususiy uy-joyga o'tkazishga harakat qilmoqchi edim, lekin yuqoridagi holatlar bunga to'sqinlik qilmoqda.

Shu bois uy-joy kodeksining 68-69-moddalariga asosan

So`rayman:

Javobgar Anvar Hamidovning Toshkent shahar, Hamza tuman, Jukovskiy ko`cha, 50-uyning 106-xonadoniga nisbatan foydalanish huquqi yo`qolgan deb topilishini.

Ushbu da'vo ishi bo`yicha quyidagi guvohlarning chaqirilishini so`rayman:

1. R.Qodirov-JEK boshlig`i, Hamza tumani, Jukovskiy ko`chasi, 70-uy, 10-xonadonda yashaydi.

2. Olim Hamidov-javobgarning otasi, Hamza tumani, Besharik ko`chasi 3-uyda yashaydi.

3. Palina Semenovna Ivanov-qo`shnim, shu manzilning 107-xonadonida yashaydi.

Ilova: 1. turar-joydan foydalanish uchun olingan hujjatdan ko`chirma;

2. Javobgarning turar-joyda 1985-yildan buyon yashamasligi haqida tuzilgan akt;

3. Turar-joyni mening nomimga o`tkazishga roziligi haqida muqaddam berilgan xat;

4. Da'vo arizasi, javobgar va uchinchi shaxsga berish uchun nusxalari.

2002-yil 10-yanvar.

I.Hamidova

Turar-joydan ko`chirish haqida

O`zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qaror

2001-yil oktabr oyining 15 kuni fuqarolik ishlari bo`yicha Termiz shahar sudi binosida ochiq sud majlisi bo`lib sudya Z.S.Kattayevaning raisligida Z.Rahimovanning kotibligida da'vogar Tesha Eshonovning javobgar Mavjuda Vohidovaga nisbatan turar-joydan ko`chirish haqidagi da'vosi bo`yicha fuqarolik ishi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da'vogar sudga da'vo ariza bilan murojaat qilib, 1982-yildan Mavjuda Vohidova bilan qonuniy nikohdan o`tib, oilaviy turmush qurib, Termiz shahri, Narimonova ko`chasi, 50-uyda yashab kelganligini, oilaviy kelishmovchiliklar tufayli ular o`rtasidagi nikoh 1987-yil shahar sudining

bol qiluv qarori bilan bekor qilinganligini, nikohdan ajrashganidan keyin Termiz shahar, Xiyobon ko'chasi 10-uydan javobgarga ikki xonali turar-joy olib berganligini so'ngra M.Vohidova bilan bir mahalla va uyda turar-joy bo'lmish iloji bo'lmagach, yangi oila qurib, boshqa joyda yashab kelganini, javobgar da'vogarga tegishli uydan chiqmay, 3-yildan buyon nizoli uyni berib bermayotganligini u esa 5 kishi bilan 2 xonali bir eshikdan kirib-chiqadigan sharoiti og'ir uyda yashab kelayotganligini shu sababli o'ziga tegishli uy joydan sobiq xotini M.Vohidovani ko'chirishni so'raydi.

Javobgar M.Vohidova sudga qadar da'vo arizaga keltirgan muvazinasida haqiqatan ham nizoli uy-joyda 2-yildan buyon yashamayotganligini, hozirda esa shu ko'chadagi ota-onasining uyida istiqomat qilayotganini, undan tashqari yana ikki xonali turar-joyi borligini, nizoli uydan da'vogarga nisbatan qasdma-qasdlik qilish maqsadida bo'shatib bermayotganligini bildirgan.

Da'vogar Tesha Eshonov sud majlisida o'z da'vosini quvvatlab, M.Vohidovaning turar-joyi bo'lishiga qaramay, nizoli turar-joyni berib bermayotganligini egallab turganligini ko'rsatadi va uni uydan ko'chirishni so'raydi.

Javobgarning turar-joyda uzoq muddat yashamayotganligi va uning bo'lqin uy-joyi borligi shahar uy boshqarmasining 2001-yil 10-avgustda bergan ma'lumoti va qo'shnilari R.Abilov, G.Azizovlarning bergan ko'rsatmalari bilan ham tasdiqlanadi.

Javobgar M.Vohidova 2001-yil 10-oktabrda chaqiruv qog'ozi bilan sudga chaqirilishiga qaramay, uzrsiz sabablarga ko'ra kelmagan va sudga vat yo'llab: «Mening sudga qiladigan ishim yo'q», deb ko'rsatgan. Shu sud majlisiga ham uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaganligi ish materiallaridan aniqlanadi.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olib sud FPKning 174-moddasiga asosan ishni javobgarning ishtirokisiz ko'rishni lozim topadi.

Sud da'vogarning vajlarini eshitgach, ish materiallarini chuqur tahlil qilgan holda, guvohlarning ko'rsatuvlarini tinglab da'voni qanoatlantirishni lozim topadi.

Qaror qiladi:

Da'vogar Tesha Eshonovga tegishli Termiz shahar, Narimonov ko'chasi, 50-uydan javobgar Mavjuda Vohidovani boshqa turar-joy berilmagan holda ko'chirilsin.

Qarordan norozi tomon 20 kun muddat ichida fuqarolik ishlari bo'yicha Termiz shahar sudi orqali fuqarolik ishlari bo'yicha Surxondaryo

viloyat sudiga shikoyat ariza bilan murojaat qilishi, prokuror protest keltirish huquqiga ega.

Raislik qiluvchi sudya:

Z.S.Kattayeva

Fuqarolik ishlari bo'yicha Surxondaryo viloyat sudining rayosatiga

Fuqarolik ishlari bo'yicha Termiz shahar sudining da'vogar Tesha Eshonovni, javobgar Mavjuda Vohidovani uy-joydan ko'chirish to'g'risidagi 2001-yil 15-oktabrda chiqarilgan hal qiluv qaroriga nisbatan

PROTEST

(Nazorat tartibida)

Da'vogar Tesha Eshonov javobgar Mavjuda Vohidova bilan qonuniy nikohdan o'tib, turmush qurishgan va Termiz shahar, Narimonov ko'chasi, 50-uyda yashab kelishgan. 1998-yilda ular o'rtasidagi nikoh sud tomonidan bekor qilingan.

Da'vogar Tesha Eshonov sudga da'vo ariza bilan murojaat qilib, Mavjuda Vohidovani Narimonov ko'chasi, 50-uydan ko'chirishni so'ragan. Termiz shahar sudining 2001-yil 15-oktabrdagi hal qiluv qaroriga binoan Mavjuda Vohidova bolalari Shoira va Diloromlar bilan Narimonov ko'cha, 50-uydan boshqa turar-joy berilmagan holda ko'chirish belgilangan.

Ushbu ish apellatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rilmagan.

Quyidagi asoslarga ko'ra ish bo'yicha chiqargan sudning hal qiluv qarori FPKning 314-moddasi 2 bandiga binoan bekor qilinib, ishni yangidan ko'rish uchun yuborishni lozim deb hisoblayman.

Ish materiallariga ko'ra, sud tomonidan M.Vohidovaga bir necha marotaba chaqiruv qog'ozlari jo'natilganligi ta'kidlangan bo'lsa-da, ammo bu chaqiruv qog'ozlarini javobgar M.Vohidovaning olganligi haqida biron-bir asos keltirilmagan va FPKning 132-136-moddalariga havola qilingan. Shunga qaramay, sud fuqarolik ishini javobgarning ishtirokisiz ko'rib, FPKning 34-moddasida ko'rsatilgan taraflarning huquq va burchlari qo'pol ravishda buzilgan.

Da'vogar T.Eshonov arizasida javobgar M.Vohidovani Narimonov ko'chasi, 50-uydan chiqarilishini so'ragan bo'lsa-da, sud M.Vohidovani bolalari bilan shu uydan ko'chirilishi to'g'risida hal qiluv qarori chiqargan.

Bunday holatda ish bo'yicha chiqarilgan sudning qarorini qonuniy deb bo'lmaydi.

Ishni yangidan ko`rish chog`ida yuqorida ko`rsatilgan kamchiliklar butunlab etilib, qonun talablari asosida hal qilinishi lozim deb hisoblayman. Yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 349 va 351-moddalariga asosan

So`rayman:

Fuqarolik ishlari bo`yicha Termiz shahar sudining 2001-yil 15-oktabrda ushbu fuqarolik ishi bo`yicha chiqargan hal qiluv qarori bekor qilinib, ish yangidan boshqa hay'atda ko`rish uchun shu sudga yuborishni.

Hova: 1. fuqarolik ishi 1 (bir) tomdan iborat, 30 bet;

Fuqarolik ishlari bo`yicha Surxondaryo viloyat sudining raisi:

M.S.Jo`rayeva

IV. NIKOH VA OILA HUQUQIY MUNOSABATLARIDAN KELIB CHIQUADIGAN NIZOLAR BO'YICHA HUJJAT NAMUNALARI

NIKOH DAN AJRATISH ISHLARINI KO'RISH

Nikoh er-xotinning hayotligida ulardan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq, ajralish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin. Sud ajralish to'g'risidagi ariza bergan er va xotinni yarashtirish uchun barcha choralarni ko'rishga majbur. Sud er va xotinning kelgusida birgalikda oilaviy turmushni davom ettirish va oilani saqlab qolish imkoniyati yo'q deb topgandagina ularni nikohdan ajratish mumkin.

Voyaga yetmagan farzandlari bo'lmagan er va xotinning ajralishga o'zaro roziliklari bo'lgan taqirda, shuningdek agar ular o'rtasida mulk to'g'risida va bir-birlarining ta'minoti uchun aliment undirish to'g'risidagi da'vo bo'lmasa, ular fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idorasi tomonidan (FHDYO) nikohdan ajratilishi mumkin.

Belgilangan tartibda bedarak yo'qolgan deb topilgan shaxslar, ruhiy kasallik yoki aqli zaif bo'lganligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar, shuningdek, kamida uch yil muddatga ozodlikdan mahrum etilishiga hukm qilingan shaxslar bilan bo'lgan nikoh ham fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idoralari tomonidan nikohdan ajratiladi. Ammo nizo bo'lgan taqirda bunday nikohdan sud orqali ajratiladi.

Oila kodeksining 39-moddasida belgilanganidek, xotinning homiladorlik vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida er nikohdan ajralish to'g'risidagi ishni xotinning roziligisiz qo'zg'atishga haqli emas.

Umumiy qoidalarga binoan nikohdan ajratish to'g'risidagi nizoli ishlar javobgarning turar-joyidagi sudga tegishli bo'ladi.

FPKning 243-moddasiga ko'ra, ajralish to'g'risidagi nizoli ishlar er va xotinning o'zaro kelishuvi bo'yicha har qaysilarining turar-joyidagi sudda ko'rilish mumkin.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi ariza o'zining mazmuni bo'yicha da'vo ishi sifatida ko'riladi, binobarin protsessual qonunchiligida ko'rsatilgan istisno va qo'shimchalar bilan har qanday da'vo arizasiga nisbatan tadbiiq etiladigan FPK 149-150-moddalarining talablari to'la ravishda bu arizaga nisbatan ham tadbiiq etiladi.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi ariza faqat er-xotinning har ikkisi tomonidan yoinki ularning biri tomonidagina berilishi mumkin.

Ajralish to'g'risidagi ariza sudya tomonidan qabul qilinishi paytidan o'tiboran, ajraluvchi er va xotin fuqarolik ishi jarayonida taraflar bo'lib hisoblanadilar va qonun bilan belgilangan hamma protsessual huquqlarni o'zlashtiradilar.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi ariza yozma shaklda bayon etilishi lozim. Arizaning mazmunida er yoki xotinning ajralishni xohlashlarigina ko'rsatilmay, balki ajralish sabablari ham, shuningdek, ajrashuvchilarning bo'liq ism-shariflari, tug'ilgan yillari va turar-joylari ham ko'rsatilishi lozim. Arizada bu ma'lumotlarning ko'rsatilishi ishning taalluqliligini to'g'ri belgilash va taraflarni sudga chaqirish uchun zarur.

Ajralish sabablarining arizada ko'rsatilishi ikkinchi tarafning sud majlisiga qadar bu sabablar (vajlar) bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun va ajralishga rozi bo'lmaganida yoki ajralish sabablari bilan kelishmaganida, ularni rad qiladigan dalillarni sudga keltirishi mumkin bo'lishi uchun kerak.

Ajrashuvchilarning farzandlari bo'lgani taqdirda, arizada ularning bolalari, yoshlari, shuningdek, kimning tarbiyasida bo'lishlari, er-xotindan qaysi biri bolalarni o'z qaramog'iga va tarbiyasiga olishi ko'rsatiladi. Bundan tashqari, bolalarni kelgusida boqish va tarbiyalash to'g'risidagi ma'lumotlarni yuzasidan o'z takliflarini ko'rsatadilar.

Agar ariza beruvchi o'zining nikohga qadar bo'lgan familiyasini o'zgartirishni xohlasa, u o'zining bu to'g'risidagi iltimosini arizada bayon etilishi mumkin.

Ariza nikohdan ajralish to'g'risida murojaat qilgan er yoki xotin tomonidan imzolanishi shart. Arizaga bolalar to'g'risidagi va ularning boqilishi to'g'risidagi masalani hal qilish uchun zarur hujjatlar: fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idoralaridan tug'ilganlik haqida olingan ruvohnomalar, bolalarning kim bilan birga yashashlari va haqiqatda kimning qaramog'ida bo'lishlari to'g'risida uy boshqarmasining bergan ma'lumotlari, bolalarning ota-onalari oladigan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa hujjatlar ilova qilinadi. Oilaviy mulkni bo'lish talab qilinganida, mulkning ro'yxati, baholari da'vogarning arizasida ko'rsatiladi.

Ajralish to'g'risidagi ariza sudga berilishida eng kam ish haqining 50 lo'izi miqdorida davlat boji olinadi.

Nikohdan sud tartibida ajratish haqida

Toshkent shahar, Hamza tumani sudiga
Da'vogar: Yoqubjon Mirzamahmudovich Rahmonov-1950-
yilda tug`ilgan, Toshkent shahar, Oqdaryo
ko`chasining 2-tor ko`chasi, 2-uyda yashaydi.
Javobgar: Adolat Abduvaliyevna Rahmonova-1952-yilda
tug`ilgan, shu manzilda yashaydi.

DA'VO ARIZA

(Nikohnidan ajratish to`g`risida)

Men Adolat Rahmonova bilan 1984-yil 10-martda Toshkent shahar, Hamza tumani «Baxt uyi»da 210-raqamli nikohni qayd ettirib, turmush qurganmiz. U bilan birga yashagan davrimizda-1985-yil 19-martda Umida, 1988-yil 7 -yanvarda Munojat, 1989-yil 10-sentabrda Marg`uba ismli qizlarimiz tug`ildi. 7-yil birga yashagan davrimiz faqat janjal bilan o`tdi. Bittagina onam borlar, shu kishini chiqishtirmaydi, uying tozaligiga qaramaydi. Oiladagi kamchilikka ko`nika olmaydi, u yo`q, bu yo`q deb janjal qilgani qilgan. Ishxonamda berib turadigan tanqis oziq-ovqat mollarini har oy ozmi-ko`pmi olib turibman. Mening kiyimlarimni 70 yoshdan oshgan onam, kelinoyilarim yoki jiyalarim yuvishadi. Vaqti kelsa, hovli ham supurilmaydi. Ishdan kelishimga janjal tayyorlab turadi. Men shu paytgacha jondan aziz farzandlarim uchun yashadim. Uning gapiga kirsam, onamdan voz kechishim kerak ekan. Qaysi farzand o`z onasidan voz kechadi?

Menga ham farzandlarim shirin, men ham ularning kelajagini o`ylayman. Lekin bu vaziyatda yashay olmayman. Qildan qiyiq axtarib, oyisidikiga 1-2 oyga ketib qolardi. Bir ketganda, 4 oyga ketdi va o`z ixtiyori bilan ajralish uchun sudga ariza berdi, so`ng yana o`zi arizasini qaytarib oldi. Har haftada 2-3 marta onasidikiga yoki opasidikiga ketib qoladigan bo`ldi. Bizning oilamizni buzayotgan opasi ekanligini o`zi aytgan va u bilan ham janjallashib qolganmiz, chunki u o`zidan katta opasining hayotini ham buzmoqchi bo`lgan.

Oxirgi ikki oy ichida hech narsaga qaramay qo`ydi, na uy-joyga, na idish-tovoqqa, umuman hech narsaga. Farzandlarimga qonun bo`yicha nafaqa to`lashga va moddiy yordam berishga roziman. Mol-mulkka nisbatan nizoli ishimiz yo`q. Yuqoridagilarni hisobga olib hamda Oila kodeksining 37-40-moddalariga asoslanib,

So`rayman:

Javobgar Adolat Rahmonova bilan o`rtamizda Toshkent shahar, Hamza tuman fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idorasi tomonidan tuzilib, 1994-yil 10-martdagi 210-raqamli berilgan guvohnomada qayd qilingan nikoh bekor qilishni

Ilova: 1. Nikoh guvohnomasi;

2. Bolalarning tug`ilganlik haqidagi guvohnomalari;

3. Mahalla qo`mitasida arizaning muhokama qilingani haqidagi qaydnomasi;

4. Maoshim haqida ma'lumot;

5. Davlat boji to`langanligi haqida;

6. Arizaning nusxasi.

1999-yil 10-dekabr.

Yo.Rahmonov

NIKOH DAN AJRATISH TO`G`RISIDAGI ISHLARNI SUDDA KO`RISHGA TAYYORLASH HAQIDA

Nikohdan ajratish to`g`risidagi ishlarni sudda ko`rishga tayyorlash FKning 158-moddasiga muvofiq o`tkaziladi.

Agar er va xotin bir shaharda, bir aholi punktida yashasalar, sudya tubundagicha protsessual harakatlarni amalga oshiradi:

1) da'vo arizasini bergan tarafdin ajralishning sabablarini aniqlaydi, umuman ajralish to`g`risidagi berilgan arizaning mazmuni bo`yicha so`roq qiladi, ajralish vajlarini asoslash uchun va ajralish to`g`risida qo`ygan talablarning qanday asoslanganligi to`g`risida qanday dalillar borligini aniqlaydi va da'vogar uning protsessual huquq va burchlarini tushuntiradi;

2) agar ajraluvchilarning voyaga yetmagan bolalari bo`lsa, ajralish to`g`risida ariza bergan er yoki xotinning bolalarni o`zida qoldirish yoki o`ziga topshirilishi to`g`risida talabi bo`lish-bo`lmasligi, bu masala er va xotin o`rtasida nizoli bo`lish-bo`lmasligini va bunday kelishuvning nimadan iborat bo`lishini belgilaydi;

3) da'vogarning aliment undirish to`g`risidagi talablari nimadan iborat bo`lishi va o`rtada orttirilgan mulkni bo`lish to`g`risida qanday talablari borligi to`g`risida so`rab oladi;

4) da'vogardan uning arizasida ko`rsatgan talablari yuzasidan javobgarning qanday e'tirozlari borligini va sudga da'vogar tomonidan chiqarilishi lozim bo`lgan guvohlarni aniqlaydi;

5) da'vogardan tegishli hujjatlarni: bolalarning tug`ilishi to`g`risidagi guvohnomalarni, bolalarning er va xotinning qaysi biri qaramog`ida

bo`lishi to`g`risida uy boshqarmasining, qishloq kengashining, mahalla qo`mitasining ma'lumotini, er va xotinning har qaysilari oladigan ish haqi miqdori to`g`risidagi, er va xotinning turmush davomida mulklari ro`yxatini, har qaysi buyunning qiymatini va hamma mulkning umumiy qiymatini ko`rsatib, topshirishini talab qiladi. Mulkning qiymati (bahosi) to`g`risida er va xotin o`rtasida kelishmovchilik bo`lgani holda-sudya tovarlarni tekshirish ekspertizasini tayinlaydi;

6) sudya javobgar tarafni ajralish to`g`risida berilgan ariza bilan tanishtirish va arz qilingan da`voga munosabatini aniqlash maqsadida so`roq qilish uchun chaqiradi. Javobgarning ajralish vajlari yuzasidan e`tirozlari bo`lish-bo`lmasligini, ajralishga rozi bo`lish-bo`lmasligini, bolalarning taqdiri to`g`risidagi masalalar bo`yicha qanday e`tirozlari borligini, aliment talablari, mulkni taqsimlash masalalari yuzasidan qanday e`tirozlari borligini va bu e`tirozlar nimalar bilan isbotlanishini so`raydi. Sudya javobgarga uning qanday protsessual huquq va burchlarga ega bo`lishini tushuntiradi;

7) sudga javobgar tomonidan chaqirilishi lozim bo`lgan guvohlarni aniqlaydi va javobgardan uning e`tirozlarini tasdiqlaydigan boshqa dalillarni talab qiladi;

8) ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasini belgilaydi, prosessga vasiylik va homiylik idoralari vakillarini, prokurorni, jamoatchilik vakillarini jalb qilish to`g`risidagi masalalarni hal qiladi.

Sudya, odatda, ishning sudda ko`rilishidan avval suhbatlashish uchun er va xotinning har ikkisini bir vaqtda chaqiradi. Agar er va xotin har qaysilari boshqa-boshqa tumanlarda yashasalar, ajralish to`g`risidagi ish esa da`vogar tarafning turar-joyidagi sudning ish yuritishiga qabul qilingan bo`lsa, javobgarni ajralish to`g`risida berilgan ariza bilan tanishtirish, javobgarni so`roq qilish va undan e`tirozlarini tasdiqlaydigan dalillarni talab qilish yuzasidan sudda ko`rishga tayyorlash bo`yicha qilinadigan hamma harakatlar javobgar turgan sudya tomonidan amalga oshiriladi. Buning uchun ishni qabul qilgan sud boshqa tuman (shahar) sudiga alohida topshiriq beradi.

Toshkent shahar, Hamza tuman sudiga
Da'vogar: Zafar Narzullayevich Samiyev-1955-yilda tug'ilgan, Toshkent shahar, Hamza tumani Ko'kcha-Qoraboyev ko'chasi, 17-uyda yashaydi.
Javobgar: Gulchehra Bekmurodova-1958-yilda tug'ilgan, Toshkent shahar Hamza tumani Ko'kcha-Qoraboyev ko'chasi, 17-uyda yashaydi.

DA'VO ARIZA
(Nikohdan ajratish haqida)

Men 1996-yil 20-avgustda Gulchehra Bekmurodova bilan qonuniy nikohdan o'tgan holda oilaviy turmush qurganman, bu Toshkent shahri, Hamza tumanining nikohni qayd qilish bo'limida rasmiylashtirilib, 2867-raqamli nikoh guvohnomasi berilgan. Birgalikdagi hayotimiz davrida 1997-yil 23-mayda tug'ilgan Jamila ismli bir nafar farzand ko'rdik.

Yuqoridagi holatlarni e'tiborga olib, Oila kodeksining 40-41-moddalariga asosan

So'rayman:

Toshkent shahar, Hamza tumani nikohni qayd qilish bo'limi tomonidan 1996-yil 20-avgustda berilgan 2867-raqamli guvohnomada qayd etilgan men va javobgar Gulchehra Bekmurodova bilan o'rtamizda tuzilgan nikoh bekor qilinishini.

Shuningdek, javobgar bilan amalda ajrashganimizni va mening yangi oila quriganimni inobatga olinib, yarashish to'g'risidagi masala muhokama qilinmasligini so'rayman.

1. nikoh guvohnomasi;
2. Bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi;
3. Turar-joydan ma'lumotnoma;
4. Ish joyimdan ma'lumotnoma;
5. To'langan boj haqida chipta;
6. Da'vo arizasi nusxa.

1998-yil 10-oktabr

Z.N.Samiyev

Toshkent shahar, A.Ikromov tuman sudiga
Da'vogar:-Jamol Samatov-1938-yilda tug`ilgan, yashash joyi: Toshkent shahar Chilonzor tumani, Qo`chqor Isoqov ko`chasi, 44-uy.
Javobgar:-Hayot Samatova-1940-yilda tug`ilgan, Toshkent shahar A.Ikromov tumani, Furqat ko`chasi, 35 uyda yashaydi.

DA'VO ARIZA (Nikohdan ajratish haqida)

Biz 1952-yil 10-martda Toshkent shahar, A.Ikromov tumani fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idorasida nikohdan o`tib oilaviy turmush qurganmiz, u bilan turmushimizdan 2 nafar farzandimiz bor: o`g`lim Toji Samatov-1954-yilda va qizim Rahima Samatova-1956 yilda tug`ilgan. 1958-yildan beri oilaviy munosabatimiz kelishmay qolganligi sababli men o`z uyimdan hech narsa olmay chiqib ketganman.

Farzandlarimga o`z ixtiyorim bilan voyaga yetguncha nafaqa berib kelganman. Shu sababdan ham birinchi nikohimdagi farzandlarim bilan doimo uchrashib turaman, ular ham mendan tez-tez xabar olib turishadi.

1958-yildan buyon men Muharram ismli ayol bilan turmush qurib, shu kunga qadar u bilan oilaviy turmush qurib kelmoqdaman. Ammo Hayot Samatova bilan hanuzgacha nikohimiz bekor qilingan emas. Mana, 20-yildan ko`proq vaqt o`tibdiki, bu masala qonuniy hal etilmagan. Mol-mulk to`g`risida hech qanday da'vo talablarimiz yo`q. Bizni yarashtirish haqida fikr ham bo`lishi mumkin emas.

Yuqoridagilarni e'tiborga olib, Oila kodeksining 40-41-moddalariga asosan

So`rayman:

Javobgar Hayot Samatova bilan o`rtamizda 1952-yil 10-martda A.Ikromov tumani nikohni qayd qilish idorasi tomonidan rasmiylashtirilgan 2230-raqamli nikohni bekor qilishingizni.

Ilova: 1. Nikoh guvohtomasidan nusxa;

2. Mol-mulk to`g`risida javobgarning hech qanday da'vosi yo`qligi haqida tilxat;

3. Davlat bojining to`langanligi haqida chipta;

4. Da'vo arizasining nusxasi.

2000-yil 10-may

J.Samatov

1996-yil 19-yanvar kuni sudlarga zarur hollarda ajralish to'g'risidagi qonun bilan o'zgarishlar boshqa vaqtga qoldirish hamda er va xotinga yarashish muhlati muayyanlash huquqini berdi. Bu muddat da'vo ishining qayta ko'rib chiqilishi sud tomonidan belgilanadi, ammo Oila kodeksining 40-moddasiga ko'ra belgilanganidek, olti oydan oshmasligi kerak, sud bu haqda qaror chiqaradi.

OILAXOTINNING YARASHISHI UCHUN MUHLAT BERISH HAQIDA

AJRIM

1999-yil 19-yanvar

Marg'ilon shahri

1999-yil 19-yanvar kuni Marg'ilon viloyati, fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon shahar hokimligi o'z ichiga olgan sud majlisida sudya F.M.Abayev raisligida etuvchi Murod G'afurovning qo'shilgan kotibligida da'vogar Murod G'afurovning javobgar Jamila G'afurovaga nisbatan nikohdan ajratish haqidagi da'vo arizasi ko'rilib, qaror chiqarildi.

Aniqlandi:

Murod G'afurov bilan Jamila G'afurova 1985-yildan buyon qonuniy nikohda bo'lib, oilaviy turmush davrida-1996-yilda Botir ismli farzand to'radilar.

M.G'afurov sudga da'vo ariza bilan nikohdan ajratish haqida murojaat qilib, uning rafiqasi asossiz ravishda boshqa xotin-qizlarga rashk qilishini hamda do'stlari bilan uchrashsa, janjal chiqarishini aytib, bundan buyon er-xotin bo'lib yashash mumkin emasligini va buning uchun unda hech qanday hafsala qolmaganligini ko'rsatadi.

Javobgar Jamila G'afurova nikohdan ajralishga rozi emasligini bildirib, erini hurmat qilishini, u o'z farzandini yaxshi ko'rishini, haqiqatan ham keyingi vaqtlarda tez-tez spirtli ichimliklar ichib, mast holda keladigan bo'lib qolganligini, shu sababli uyda janjal chiqqanligini bildiradi. Javobgarning yuqoridagi asoslariga ko'ra sud M.G'ofurov tomonidan nikohdan ajralish masalasiga chuqur qaramasdan, o'ylamay-netmay qilingan harakat deb hisoblaydi.

Taraflarning bayonotlarini inobatga olgan sud, Oila kodeksining 40-moddasiga asoslanib, er-xotinning yarashtirish choralarini ko'rishni lozim topadi va buning uchun olti oygacha muhlat berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Sud Oila kodeksining 40-moddasi 2-qismiga va FPKning 237 moddalariga asosan

Ajrim qiladi:

Da'vogar er Murod G`afurovga javobgar xotini Jamila G`afurovaga oilani saqlab qolish maqsadida nikohdan ajratish haqidagi fikrlarini qanchalik asosligini chuqur o`ylab, mulohaza qilishlik uchun olti oy muhlat berilsin.

Shu tufayli ish ko`rish qoldirilsin va 2000-yil 25-iyul soat 10 ga tayinlansin.

Sudya:

F.M.Abayev

YARASHISH UCHUN BERILGAN MUHLATNI QISQARTIRISH TO`G`RISIDA

AJRIM

2001-yil 5-yanvar.

Farg`ona shahri.

Farg`ona viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha Farg`ona shahar sudining ochiq sud majlisida sudya A.A.Iminov raisligida, O.Basharov kotibligida er-xotin R.Q.Qodirov bilan M.H.Qodirovalarning yarashish uchun berilgan muhlatni qisqartirish haidagi arizasi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Farg`ona shahar sudining 2000-yil 3-oktabrdagi ajrimiga ko`ra da'vogar R.Q.Qodirov javobgar M.H.Qodirovaga nisbatan nikohdan ajralish to`g`risidagi fuqarolik ishlari bo`yicha taraflarga yarashish va oilani tiklash uchun olti oy muhlat berilgan edi.

Taraflar sudga ariza bilan murojaat etib, berilgan olti oy muhlatni o`zgartirish, ya'ni uni qisqartirish haqida o`z fikrlarini bildirganlar, bunga asos sifatida o`tgan to`rt oy vaqt ichida er-xotin yarashish to`g`risida biror-bir harakat qilmaganliklari, aksincha, R.Q.Qodirov boshqa ayolga uylanib, oila qurganligi va u hozirda Qozog`iston Respublikasining Oqsuv tumaniga ko`chib ketganligi ko`rsatiladi, hatto u o`zi yashab, ishlab turgan joyidan sudga nikohdan ajratish haqida ariza ham taqdim qilgani aytiladi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi «Nikohdan ajralish to`g`risidagi ishlar bo`yicha sudlar tomonidan qonunchilikni tadbiiq etish amaliyoti haqida»gi qaroriga ko`ra, sud konkret holatlarni hisobga olgan holda tomonlarning yoki ulardan

Ushbu qarorga ko'ra yarashish uchun berilgan muhlatni o'zgartirishi va u muhlat o'tmasdan ham ko'rishga haqli ekanligi ko'rsatilgan.

Ushbu qarorga berilgan muhlatni qisqartirish va u muhlat taqdim qilingan boshqa hujjatlarni e'tiborga olib, ularning muvofiqlashtirilishiga asos bor degan xulosaga keldi.

Ushbu QPKning 237-moddasi 1-qismiga asosan

Ajrim qiladi:

Da'vogar Rahim Qodirovich Qodirov va javobgar Malika Halimovna Qodirovaga oilani tiklash maqsadida berilgan muhlat o'zgartirilsin.

Ushbu Qodirovning da'vosi bo'yicha javobgar M.H.Qodirovadan muvofiqlashtirilgan fuqarolik ishini sudda ko'rish uchun 2001-yil yanvar oyining 26 kuni soat 10 ga tayinlansin.

Sudya: A.A.Iminov.

ER XOTIN YARASHGANLIKLARI TUFAYLI NIKOHDAN AJRATILISH BO'YICHA ISH YURITISHNI TUGATISH HAQIDA

AJRIM

2001-yil 21-yanvar.

Angren shahri.

Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Angren shahar sudining mahalliy sud majlisida sudya J.Irisov raisligida, M.Fozilova kotibligida, da'vogar Sanobar Botirova bilan javobgar Nosir Botirovlar o'rtasidagi nikohni bekor qilish to'g'risidagi da'vo arizasi ko'rib quyidagilar

Aniqlandi:

Da'vogar Sanobar Botirova sudga da'vo arizasi bilan murojaat etib, u Nosir Botirov bilan 1985-yilda qayd qilingan nikohlarini bekor qilishni, bunga asos qilib, uyga kech kelishini va asossiz ravishda urush-janjal chiqarishini bayon qiladi.

Javobgar N.Botirov da'voga iqror bo'lmasada, hayotda ayrim nojo'ya harakatlar qilganligini, bundan buyon yo'l qo'ygan kamchiliklarni takrorlamasligini, nikohdan ajralmasligini va xotini bilan yarashib, bundan buyon yaxshi turmush qurishga harakat qilishini bildiradi.

Sudning yarashish to'g'risidagi taklifiga taraflar rozilik bildirishib, yuqoridagi asoslarga ko'ra ish yuritishni tugatishni va fuqarolik ishining

bayonnomasiga bizning fikrimiz kiritilsa, o`z imzolarini qo`yish bilan tasdiqlashlarini bildirdilar.

Sud taraflarning oilani saqlab qolishdan manfaatdor ekanligini va yarashishga rozi bo`lganliklarini hisobga olib, nikohdan ajratish to`g`risidagi fuqarolik ishini tugatish uchun yetarli asos bor deb hisoblaydi.

Sud Oila kodeksining 40-moddasi, FPKning 100-moddasining 4-bandiga asoslanib,

Ajrim qiladi:

Sanobar Botirovaning da`vosi bo`yicha javobgar Nosir Botirovga nisbatan nikohdan ajratish haqidagi da`vo arizasiga ko`ra ko`rilayotgan ish bo`yicha taraflar o`zaro yashaganligi tufayli ish yuritish tugatilsin.

Ajrimdan norozi tomon shu sud orqali fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent viloyati sudiga 10 kun muddat ichida xususiy shikoyat (protest) keltirishlari mumkin.

Sudya:

J.Irisov

MUSTAQIL TALAB BILAN ARZ QILUVCHI UCHINCHI SHAXSLARNING PROTSESSDA ISHTIROK ETISH HUQUQI

Fuqarolik ishining sudda ko`rilishida ikki taraf: da`vogar va javobgar ishtirok etadi, sud ular o`rtasidagi nizoli da`voni hal qiladi.

Ba`zan shunday hollar ham bo`ladiki, nizoning hal etilishida taraflardan tashqari boshqa shaxslar ham manfaatdor hisoblanadilar. Bunday shaxslarning manfaati huquqiy manfaat sanaladi, chunki ish yuzasidan chiqarilgan sud qarori ma`lum darajada ularning fuqarolik huquqiga ta`sir etishi, ishning sudda hal qilinishi natijasida ularga nisbatan muayyan huquq yoki majburiyat vujudga keltirishi mumkin. Shu tufayli bu shaxslar o`z huquqlarini himoya qilish maqsadida boshlangan fuqarolik ishiga aralashishlari yoki boshlangan protsessda ishtirok etish uchun sud tomonidan jalb qilinishlari mumkin. Shuning uchun ular uchinchi shaxs deb ataladilar.

Uchinchi shaxs manfaatining xarakteriga va ish yuzasidan chiqariladigan qaror bilan bog`liq bo`lgan oqibatlariga qarab bunday shaxslar mustaqil talab bilan arz qiluvchi (mustaqil da`vo qiluvchi) uchinchi shaxslarga va mustaqil talab bilan arz qilmaydigan (mustaqil da`volari bo`lmagan) uchinchi shaxslarga ajratadilar.

Da'vogar bilan javobgar o'rtasidagi nizoning predmeti o'ziga tegishli bo'lgan to'g'risida arz qiluvchi shaxs-mustaqil da'vo qiluvchi shaxs deb ataladi.

FPKning 44-moddasiga muvofiq, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar sud hal qiluv qarorini shart-qaroriga qadar ishga kirishlari mumkin.

Uchinchi shaxsning ishga kirishishi umumiy asoslarga (FPKning 110-119 moddalariga) binoan da'vo qo'zg'atish yo'li bilan amalga oshiriladi. Binobarin, mustaqil talab bilan arz qiluvchi shaxs arizasiga tegishli hujjatlarni ilova qilishi, sudga taklif qilinishi kerak bo'lgan yordamlarni ko'rsatish va davlat bojini to'lashdan ozod qilmagan bo'lsa, tegishli boj to'lashi lozim bo'ladi.

Uchinchi shaxsning protsessual holati davogarniki bilan barcha muvofiqdir. Dastlabki da'vogardan uchinchi shaxsning farqi faqat shundaki, da'vogar da'vo qilish yo'li bilan ishni boshlasa, uchinchi shaxs biron tomonidan boshlangan protsessga kirishadi.

Mustaqil da'vo qiluvchi uchinchi shaxsning protsessda ishtirok etishiga yo'l qo'yilishi to'g'risidagi iltimosi agar ishning sudda ko'rishga tayyorlash davrida qilingan bo'lsa, sudyaning yakka o'zi tomonidan ko'riladi (agar ish sudyalar tarkibida ko'rilsa) sudning to'la hay'ati tomonidan hal etiladi.

Uchinchi shaxsni ishtirok etishi lozim bo'lgan fuqarolik ishining barcha manfaatdor shaxslar qatorida hal etilishi, birinchidan: sud va sudlarning vaqtlarini ancha tejashga imkon beradi; ikkinchidan: agar dastlabki mulkiy nizo alohida ko'rilsa, bu to'g'risida chiqarilgan qarorga muvofiq, nizoli mulkning keyinchalik sotilishi yuzasidan qaramaqarshi hal qiluv qarorlarining chiqarilmasligining oldi olinadi.

Ishda ishtirok etishga yo'l qo'yilmagan uchinchi shaxs alohida mustaqil da'vo qo'zg'atish yo'li bilan nizoli predmetga nisbatan bo'lgan huquqni himoya qilishga haqli bo'ladi.

MUSTAQIL TALAB BILAN ARZ QILUVCHI UCHINCHI SHAXS SIFATIDA PROTSESSGA KIRISH TO`G`RISIDA

Toshkent shahar, Chilonzor tuman sudiga
Mustaqil da'vo bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs sifatida
da'vogar tarafidan Po`lat Zaripov-Toshkent
shahri, Chilonzor tumani, Qurbonov ko`chasi,
10-uyda yashaydi.

Da'vogar: Asad Karimov–Toshkent shahri Chilonzor
tumani, Muqimiy ko`chasi, Odil berk ko`chasi, 3-
uyda yashaydi.

Javobgar: Nozik Karimova–Toshkent shahar, Chilonzor
tumani, Chilonzor ko`chasi, 120-uyda yashaydi.

DA'VO ARIZA

(Da'vo qiymati 550 so`m)

Men oilam bilan 1998-yil aprel oyida mutaxassis-muhandis sifatida xorijiy mamlakatlardan biriga 2-yil muddatga ishga yuborilgan edim. Ketish arafasida qo`shnimiz Asal Karimov 800 so`mlik rangli «Elektron» televizorimizdan vaqtincha foydalanib turishni iltimos qildi va bu haqda 1998-yil 10-aprelda B.Azizov ishtirokida tilxat yozib berdi.

Safardan qaytishim bilan televizorni qaytarish to`g`risida gap borganda A.Karimov nikohdan ajralishi to`g`risida sudda ish ko`rilayotganini, xotini A.Karimova televizorni ham boshqa mulklar qatori umumiy oilaviy mulk qatoriga qo`shib, uni ham o`rtada bo`lish to`g`risida sudga ariza berganligi bildiradi.

Shu bois FPKning 44 va 160-moddalariga asosan

So`rayman:

Meni mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs sifatida da'vo arizamni ish yuritishga qabul qilib, uni xatlangan mulklar ro`yxatidan chiqarishi, shuningdek Asad Karimovning da'vosi bilan birga qo`shib ko`rib o`zimga qarashli 800 so`mlik bir dona rangli «Elektron» televizorini olib berilishini va sarflangan 45 so`m sud bojini Asad Karimov va N.Karimovadan undirishni iltimos qilaman.

Sud majlisiga guvoh B.Azizov chaqirilsin.

Ilova: 1. A.Karimovning 1998-yil 10-aprelda televizorni olganligi haqida bergan tilxati;

• sud xarajatlari (muhrona)ni to`langanligi haqida;
• puvoch B.Azizov Toshkent shahar, Chilonzor tuman, Chilonzor
kuchasi, 15-uyda yashaydi.

2000 -yil 10-avgust

P.Zaripov

• Mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi
shaxsning da'vosini qabul qilish to`g`risida

AJRIM

2000-yil 22-avgust.

Toshkent shahar, Chilonzor tuman sudining sudyasi B.V.Valiyev
da'vogar P.Zaripovning da'vo arizasi ko`rib, quyidagilar

Aniqlandi:

Asad Karimov bilan Nozik Karimovalarning ajralish to`g`risidagi
fuqarolik ishini ko`rish jarayonida ularning oilaviy turmush davrida
jamlagan 2500 so`mlik mulklarini bo`lish masalasi ham ko`rib,
to`xtatga olingan mulklar ichida qo`shnisi, ya'ni P.Zaripovga tegishli bir
dan 800 so`mlik rangli «Elektron» televizori ham bo`lgan.

Da'vogarning bu haqda o`z fikrini bildirishiga qaramay, javobgar
N.Karimova televizorni ham umumiy mulk qatorida bo`lishni talab qilgan.
Hundan xabardor bo`lgan televizorning egasi P.Zaripov boshlangan
protsessga mustaqil talab bilan uchinchi shaxs sifatida arz qilib, ishga
ilishishni va televizorni qaytarib olib berishni so`rab ariza berdi.

Sud P.Zaripovning da'vo arizasi FPKning 148-moddasi talablari
asosida berilganligini e'tiborga olib hamda FPKning 44, 160-moddalariga
asosan

Ajrim qiladi.

Po`lat Zaripovning da'vo arizasi sudning ish yuritishiga qabul
qilinsin. Asad Karimov va Nozik Karimovalarning nikohdan ajralish va
oilaviy turmush davrida jamlagan mulklari qatorida televizorni ham
bo`lish masalasida P.Zaripov mustaqil da'vo bilan arz qiluvchi uchinchi
shaxs sifatida qatnashtirilsin.

Ajrim qat'iy shikoyatlarga o`rin yo`q.

Sudya:

B.V.Valiyev

TARAFLARNING SUD MAJLISIGA KELMASLIK OQIBATLARI TO'G'RSIDA

Nikohdan ajratish to'g'risidagi ishning sudda ko'rilishida umumiy qoidaga ko'ra, taraflarning ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo'lib, busiz sud o'ziga oilani mustahkamlash bo'yicha yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydi.

Sud majlisiga chaqirilgan taraflarning kelmasliklari tubandagicha oqibatlarni tug'diradi: birinchidan, taraflardan biri kelmagan taqdirda ishning ko'rilishi boshqa vaqtga qoldiriladi va taraflar qaytadan chaqiriladi;

Ikkinchidan, agar javobgar ikkinchi marotaba chaqirilishida ham uzrsiz sabablar bilan kelmasa, sudda esa unga chaqiruv xatining topshirganligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lsa, ish uning ishtirokisiz ko'rilishi mumkin.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlar bo'yicha esa, agar ariza bergan er, xotin uzrsiz sabablarga ko'ra ikkinchi marotaba chaqirilishda ham sud majlisida hozir bo'lmasalar, agar ish ularning ishtirokisiz ko'rilishi mumkinligi to'g'risida ulardan ariza tushmagan bo'lsa, sud arizani ko'rmasdan qoldiradi (FPKning 97-modda).

NIKOH DAN AJRATISH DA'VOGARNI IKKINCHI MARTA HAM SUDGA KELMAGANLIK OQIBATLARI TO'G'RSIDA

AJRIM

2001-yil 19-yanvar.

Marg'ilon shahri.

Farg'ona viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon shahar sudining ochiq sud majlisida sudya D.G'oipovning raisligida, L.Bo'ronova kotibligida da'vogar M.Sobirovning da'vosi bo'yicha javobgar G.Sobirova bilan tuzilgan nikohdan ajratish to'g'risida fuqarolik ishi ko'rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da'vogar M.Sobirov sudga da'vo ariza bilan murojaat etib, 1996-yil 30-iyunda javobgar G.Sobirova bilan Marg'ilon shahar fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idorasida 278-raqamli nikohlarini bekor qilinishini so'ragan.

Ishni sudda ko`rish 2000-yil dekabrga tayinlangan va taraflar chaqiriq qog`ozlar orqali shaxsan xabardor qilinganlar. Biroq da`vogar va javobgar shu kuni sud majlisiga kelmaganlar, sababini esa sudga xabar qilmaganlar.

Ishni ko`rish takroran 2001-yil 18-yanvar kuniga tayinlanib, tomonlarga chaqiruv qog`ozlari yuboriladi. Ishni ko`rish joyi, vaqti haqidagi tegishlicha shaxsan xabardor qilinishiga qaramay, da`vogar yana sud majlisiga kelmadi. Sud da`vogarni sud majlisiga qanday sabablarga ko`ra kelmaganligi haqida hech qanday ma`lumotga ega emas. Ish bo`yicha da`vogarni ikkinchi chaqiruv bo`yicha ham sudga uzrsiz sabablarga ko`ra kelmaganligi aniqlandi. Shu bilan bir qatorda da`vogar ishni o`zining ixtirokisiz ko`rish to`g`risida sudga ariza bilan murojaat qilmagan.

Sud to`plangan materiallarni tahlil qilib, javobgarning bayonotlarini tinglab, oilani saqlab qolish maqsadida da`vogarning sudda ishtirok etishi zarur deb hisoblaydi.

FPKning 97-moddasiga muvofiq, agar o`zlari hozir bo`lmasalar ham ishni ko`raverishni iltimos qilgan taraflar ikkinchi chaqiruv bo`yicha ham uzrsiz sabablarga ko`ra sudga kelmasalar, sud esa ishga oid materiallar bo`yicha ishni ko`rib hal qilish mumkin emas, deb hisoblasa, sud arizani ko`rmay qoldiradi.

Yuqoridagilarga ko`ra sud FPKning 97-moddasiga asosalanib
Ajrim qiladi:

Da`vogar Mirza Sobirovning da`vosi bo`yicha javobgar Go`zal Sobirovaga nisbatan o`rtalarida tuzilgan nikohdan ajratish to`g`risidagi arizasi ko`rilmay qoldirilsin.

Ajrimdan norozi taraf shu sud orqali fuqarolik ishlari bo`yicha har qanday viloyat sudiga 10 kun muddat ichida xususiy shikoyat berishi, prokuror esa xususiy protest keltirishi mumkin.

Sudya:

D.G`oipov

FUQAROLIK ISHI YUZASIDAN EKSPERTIZA TAYINLASH UCHUN ASOSLAR

Sudya ishni ko`rishga tayyorlash hamda ishni mazmunan ko`rish vaqtida kelib chiqqan fan, san`at, texnika yoki hunar sohasida maxsus bilim talab qiladigan masalalarni tushuntirish uchun taraflarning va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimoslari bo`yicha yoki o`z tashabbusi bilan sud ekspertizasini tayinlashi mumkin.

Ekspertiza turli masalalar bo'yicha chunonchi, fuqaroning ruhiy holati tekshirilganida-ruxiy (psixiatriya) ekspertizasi, yozuvlar, xatlar tekshirilganida-kriminalistik ekspertiza va shu kabi ekspertizalar tayinlanishi mumkin.

Ekspertiza vositasida faktlar tahlil qilinadi. Faktlarni ekspertlar fan nuqtai nazaridan yoki o'zlarining maxsus tajribalariga asoslangan holda tushuntiradilar.

Ekspertning xulosasi isbotlash vositasi hisoblanadi. Ekspertiza esa bilimdon yoki hunarmand shaxslarning yordamida dalillarni tekshirish usuli bo'lib, ekspertiza sudda faktlarni tekshirish vaqtida zarur bo'lib qoladi. Chunki sudyalarda maxsus bilimlar bo'lmaganligi tufayli ba'zi faktlar sud tomonidan tekshirilishi va to'g'ri baholanishi ancha murakkab ko'chishi mumkin.

Ekspertlar o'z xulosalarini berish uchun dalillarni tekshirishlari, materiallar bilan tanishishlari, guvohlarga va tarablarga savol berishlari mumkin.

Ekspertlar o'z xulosalarini berishda dalillarni tekshirish yo'li bilan belgilangan faktlarga va o'zlarining maxsus bilimlariga asoslanadilar. Ekspertizani ekspertning xulosasiga tenglashtirmaslik kerak. Ekspertiza dalillarni tekshirish jarayoni bo'lsa, ekspertlarning xulosalari ish uchun ahamiyatli hisoblangan holatlarni tekshirish natijasi, isbotlash vositasi (dalil) bo'lib hisoblanadi.

Sud ekspertlarni tayinlashda ishda ishtirok etayotgan shaxslarning fikrlarini e'tiborga oladi. Ekspertiza tegishli muassasalarning ekspertlari yoki sud tarafidan tayinlanadigan boshqa mutaxassislar tomonidan o'tkaziladi (FPKning 84-moddasi). Bunday muassasalar, chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud ekspertizasi instituti, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi sud-medsina ekspertizasi va shu kabi boshqa ekspertiza muassasalari bo'lishi mumkin.

Odatda, ekspertizani sud o'z tashabbusi bilan tayinlaydi. Ammo tarafklar sud tayinlagan ekspertlarning tekshirish o'tkazishlariga qarshi chiqishlari mumkin. Tarafklar ekspertlarga savollar berishlari, ularning xulosalari to'g'risida o'z fikrlarini bildirishlari, takror ekspertiza o'tkazilishi to'g'risida iltimos qilishlari mumkin.

Ekspert qilib tayinlangan shaxs sudning chaqiruvi bo'yicha kelishga va o'z oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha xolis xulosa berishga majbur.

Upar ekspert sudning chaqiruvi bo'yicha uzrsiz deb topgan holatiga ko'ra kelmasa, ishni ma'lum muddatga qoldirish to'g'risida qonun chiqariladi.

Ekspert xulosa berishdan bosh tortsa yoki bo'yin tovlasa JKning 249-moddasi bo'yicha, bila turib yolg'on fikr bersa, JKning 238-moddasi bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Ekspertning huquqlari FPKning 87-moddasida belgilangan bo'lib, bunda bayon qilinishicha, ekspert o'zini ekspert sifatida qiziqtiradigan to'rtbaliq aniqlash uchun ish materiallari bilan tanishishga, ishda ishtirok etadigan shaxslarga hamda guvohlarga savollar berishga, joyni borib ko'rib, ishda ishtirok etishga va o'ziga qo'shimcha materiallarning berilishi to'g'risida sudan iltimos qilishga haqlidir.

Ekspertning xulosasi sud uchun majburiy emas va sud unga FPKning 87-moddasida belgilangan qoidalarga binoan baho beradi. Ekspertning xulosasiga sudning qo'shilmaganlik sababi ish bo'yicha chiqarilgan hal qonun qarorida yoki ajrimida asoslantirilgan bo'lishi lozim.

Ekspertlarning xulosasi qat'iy bo'lsagina isbotlash vositasi (dalil) sifatida foydalanishi mumkin. Taxminiy xulosalarni sudning chiqaradigan qaroriga asos qilib olish bo'lmaydi.

Ekspertiza tayinlash tartibi

AJRIM

2002-yil noyabr oyining 25 kuni Toshkent shahar, fuqarolik ishlari bo'yicha Chilonzor tuman sudining ochiq sud majlisida sudya K.Xasanova rahbarligida, sud kotibi O.Ro'ziyevaning ishtirokida da'vogar A.B.Shodiyevning javobgar S.A.Shodiyevaga nisbatan nikohni bekor qilish da'vosi bo'yicha fuqarolik ishi ko'rilib quyidagilar

Aniqlandi:

Da'vogar A.Shodiyev arizasida 1998-yil 20-oktabrda javobgar bilan qonuniy nikohni qayd qildirgan holda turmush qurganliklari, o'rtalarida farzandari yo'qligini ko'rsatgan. Bundan tashqari, javobgar uning otasini hurmat qilmasligini, sababsiz janjal chiqarib uydan ketib qolishini, endi esa turmushni davom ettira olmasligini aytib, shularga ko'ra nikohdan ajratishni iltimos qilgan.

Javobgar O.Shodiyeva esa arizaga e'tiroz bildirib, oila buzilishining sababi boshqa ekanligini, jumladan eri jinsiy tomondan qobiliyatsizligini ma'lum qilib, shu holatni tekshirish uchun ekspertiza tayinlashni so'raydi.

Sud hay'ati da'vogar va javobgarning bayonotlarini hamda javobgar O.Shodiyevaning ekspertiza tayinlash to'g'risidagi talabini muhokama qilib, uning talabini qanoatlantirishni lozim topadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda sud FPKning 84-moddasi va 93-moddasining 5-bandiga asosan

Ajrim qiladi:

Da'vogar A.B.Shodiyevni javobgar O.A.Shodiyeva bilan o'rtalaridagi nikohni bekor qilish haqidagi fuqarolik ishi bo'yicha sud-meditsina ekspertizasi tayinlab, ekspert oldiga quyidagi savollar qo'yilsin:

1. Javobgar Oydin Asilovna Shodiyevaning qizlik iffati buzilganmi, yo'qmi?

2. Da'vogar Akbar Bahriddinovich Shodiyevning jinsiy aloqaga qobiliyati bormi?

3. Ekspertizani o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga huzuridagi sud tibbiy ekspertiza institutiga topshirilsin.

Ushbu fuqarolik ishi ekspertizaning xulosasini olgunga qadar vaqtincha harakatdan to'xtatib turilsin.

Raislik etuvchi sudya: K.Hasanova

DA'VONI TA'MINLASHGA QARATILGAN PROTSESSUAL HARAKATLAR

Da'voni ta'minlashga qaratilgan qoida FPKning 248-moddasida belgilangan. Unda ko'rsatilishicha, sud yoki sudya ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosi bo'yicha yoki o'z tashabbusi bilan da'voni ta'minlash choralarini ko'ra oladi. Da'voni ta'minlash choralarini ko'rmaslik sudning hal qiluv qarorining ijrosini qiyinlashtiradigan yoki uning bajarilmasligiga sabab bo'ladigan bo'lsa, ishning har qanday holatida ham da'voni ta'minlashga yo'l qo'yiladi.

Umumiy qoida bo'yicha da'voni ta'minlash chorasi da'vo qo'zg'atilgandan so'nggina ko'riladi. Bu qoidadan ayrim istisnolar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi qoidalari bilan belgilangan bo'lib, ba'zi sharoitlarda hali qo'zg'atilmagan da'volarni ham ta'minlash choralari ko'rilishi nazarda tutiladi.

Jumladan, Jinoyat protsessual Kodeksining 54-59, 275-278-moddalarida jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash haqida qoidalar berilgan. Masalan, jinoyat orqasidan moddiy zarar yetkazilganligi

to'g'ri va yetarli ma'lumotlar bo'lgan taqdirda tergovchi, prokuror, muvohira qiluvchi shaxs sudda qo'zg'atilgan yoki kelajakda qo'zg'atilishi mumkin bo'lgan fuqarolik da'vosini ta'minlab qo'yish chorasini ko'rishga majbur. Masalan, shaxsiy avtomashinaning egasi tomonidan birovga xabardor yetkazilganida yoki u birovning o'limiga sababchi bo'lganida, kelajakda o'ziga nisbatan fuqarolik da'vosi qilinishini nazarda tutib, qonun kassasidagi pullarni olishi, uyidagi qimmatbaho buyumlarni ta'minlash mumkinligini ko'zda tutib, tergovchi jinoyat sodir bo'lganidan xabardor bo'lgani hamon, hech kechiktirmay, kelajakda qo'zg'atilishi mumkin bo'lgan da'voni ta'minlash chorasini (bu to'g'rida arz bo'lish bo'lmisligidan qat'iy nazar) o'z tashabbusi bilan ko'rishi lozim.

Yuqorida keltirilgan qoidalarga asoslanib, chiqariladigan qarorning qo'q'atilishini ta'minlash uchun sud boshqa vakolatli organ tomonidan choralar ko'rilishiga da'voni ta'minlash deb aytiladi.

Fuqarolik da'vosini ta'minlash, chunonchi, da'vogarga tegishli haqning kelgusida undirilishini ta'minlash yuzasidan bunday choraning bajarilishi-javobgarning g'ayriqonuniy xatti-harakatiga qarshi bo'lib, da'vogarning manfaatini himoya qilish uchun zarur.

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim sudning hal qiluv qarorlarini qo'q'etish uchun belgilangan tartibda darhol ijro qilinadi. Da'voni ta'minlash to'g'risidagi arizani ishni ko'rayotgan sudya yoki sud o'sha tumning o'zidayoq javobgarni yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarni xabardor qilmasdan hal etadi.

Namangan viloyati, Chortoq tuman sudiga
Halim Mannopovdan (Chortoq tumani,
quduq ko'chasi, 15 uyda yashaydi)
Salima Mannopovaga nisbatan mol-mulkni
taqsimlash to'g'risidagi ish bo'yicha
berilgan da'vo yuzasidan

ARIZA

(Da'voni ta'minlash to'g'risida)

Men sobiq xotinim Salima Mannopova bilan oilaviy turmush qurgan davrimizda to'plagan umumiy mol-mulkimizdan bir qismini bo'lib berish to'g'risida shu yilning 10-iyulida sudga ariza bergan edim.

Bizlarni umumiy mol-mulkimiz 2000 so'mni tashkil qilgach bo'lib, shundan faqat bir qismini, ya'ni (kir yuvish mashina-100 so'm, 2x2 metrli

gilam 150 so`m; yangi rangli televizor-650 so`m) jami 900 so`mlik ashyolarni bo`lib berishni iltimos qilgan edim.

Mening da'vo ariza bilan sudga murojaat etganimdan xabardor bo`lgan sobiq xotinim uyga kelib, hech kimdan so`ramasdan yuqorida sanab o`tilgan mulklarni onasining uyiga olib ketib yashirgan.

Ushbu ish bo`yicha da'voni ta'minlash choralari ko`rmaslik sudning hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirilishiga yoki bajarilmasligiga to`squinlik qilishi mumkinligini inobatga olib, FPKning 248-245-moddalariga asosan

So`rayman:

Javobgar Salima Mannopovaga nisbatan mol-mulkni taqsimlash to`g`risida qo`zg`atilgan da'vo arizadagi mulklarni (kir yuvish mashinasi, 2x2 metrli gilam, rangli televizor) ish ko`rib hal etilgunga qadar xatlab qo`yilishini, javobgar ulardan foydalanish huquqidan mahrum etilishini va shu yo`l bilan da'voni ta'minlash choralari ko`rilishini.

Arizaga quyidagilarni ilova qilaman:

- 1) nikoh guvohnomasidan ko`chirma;
- 2) yashash joyimdan ma'lumotnoma;

2000-yil 13-iyul.

H.Mannapov

SUDYANING DA'VONI TAMINLASHGA OID PROTSESSUAL HARAKATLARI

Da'voni ta'minlash to`g`risidagi arizani ishni ko`rayotgan sudya yoki sud o`sha kunning o`zidayoq javobgarni yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarni xabardor qilmasdan hal etadi.

FPKning 249-moddasida belgilanishicha, da'voni ta'minlash choralari quyidagilardan:

- 1) javobgarga tegishli bo`lgan va uning o`zida yoki boshqa shaxslarda turgan mol-mulkka yoki pul summasini xatlash;
- 2) javobgarning muayyan harakatlar qilishini taqiqlash;
- 3) boshqa shaxslarga javobgarning mulkini unga berish yoki unga nisbatan boshqa majburiyatlarni bajarishni taqiqlash;
- 4) mol-mulkni xatlashdan chiqarish to`g`risida da'vo qo`zg`atilgan holda, ro`yxatga olingan mulkni sotishni to`xtatish;
- 5) agar qarzdor ijro hujjati yuzasidan da'vo tartibida nizolashsa va bunday nizoga qonun bo`yicha yo`l qo`yilsa, bu hujjat bo`yicha undiruvni to`xtatishdan iborat bo`lishi mumkin.

Aliment undirish to`g`risidagi, mayib bo`lish yoki sog`liqqa bo`lgan shikast yetishi, shuningdek, boquvchisining o`limi natijasida bo`lgan zararni qoplash to`g`risidagi davlat mulkini talon-taroj qilish, o`zlashtirish va o`zlashtirishdan kelgan zararlarni undirish to`g`risidagi davolduridan boshqa da`volarning ish haqiga, pensiya va stipendiyalarga salohiyat yo`li bilan ta`minlashga yo`l qo`yilmaydi.

Da'voni ta`minlash yuzasidan bajariladigan protsessual harakatlar UFPKning 248-258-moddalarida batafsil berilgan.

AJRIM

2000-yil 31-iyulda Namangan viloyati, Chortoq tuman sudyasi va yoxon Ikromov tomonidan Halim Mannonovning da'voni ta`minlash to`g`risida bergan arizasini ko`rib, quyidagilarni

Aniqladi:

Sudning ish yurituvida Halim Mannonovning Salima Mannonova bilan birga turmush davridagi ortirilgan mol-mulknini bo`lish to`g`risidagi fuqarolik ishi mavjud.

H.Mannonovning shu yil 13-iyuldagi sudga bergan arizasida javobgar Salima Mannonovning o`zboshimchalik bilan da`vogarning uyidan (bir dona rangli televizor-650 so`m, bir dona 2x2 dona metrli gilam 150 so`m hamda bir dona kir yuvish mashinasi-100 so`m) jami 2000 so`mlik buyumni onasining uyiga yashirib qo`yganligini ma`lum qilgan. Shunga ko`ra H.Mannonov javobgar S.Mannonova olgan mollarni xatlab qo`yishni va shu yo`l bilan uning da'vosini ta`minlash choralari ko`rishni, albatta holda bor mol-mulklarini javobgar o`zboshimchalik bilan yo`q qilib yuborishi mumkinligini bildiradi.

Ish holatiga binoan, sud agar da'voni ta`minlash choralari ko`rilmasa, sudning hal qiluv qarorining ijrosi qiyinlashishiga va bajarmay qolishiga sabab bo`lishi ham mumkinligi aniqlandi.

Yuqoridagilarga ko`ra sud FPKning 248-250-moddalariga asosan

Ajrim qiladi:

Namangan viloyati, Chortoq tumani, Baynalmilal ko`chasi, 10-uyda yashovchi Salima Mannonovning ixtiyoridagi bir dona 100 so`mlik kir yuvish mashina, bir dona 1150 so`mlik qizil rangli 2x2 metrli gilam hamda bir dona 650 so`mlik rangli televizor (pasporti 52 890-raqamli) ro`yxatga olib xatlansin.

Ajrimdan norozi tomonlar shu sud orqali Namangan viloyat sudining fuqarolik sudlov hay'atiga 10 kunlik muddat ichida xususiy shikoyat (protest) keltirishlari mumkin.

Sudya:

Ya.Ikromov

ISHNI YOPIQ SUD MAJLISIDA KO`RISH TO`G`RISIDA

Fuqarolik ishlari umumiy qoida bo`yicha oshkora ko`riladi, bu esa o`z navbatida odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilikning nazorat qilishini ta'minlaydi. Qonun bilan belgilangan ayrim istisnolardan tashqari, barcha hollarda, ishlarning hamma sudlarda ochiq ko`rilishi belgilangan. Shunga binoan sudda fuqarolik ishlari oshkora ravishda, ya'ni xalq oldida, fuqarolarning ishtirokida ko`riladi.

Fuqarolik sudi ishlarining ochiq, oshkora ko`rilishida ishda ishtirok etuvchilarga, shuningdek, sud zalida hozir bo`lgan boshqa shaxslarga ham kuchli ta'sir etib, sud jarayonining tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Ishlarning ochiq ko`rilishi fuqarolarga sudyalarning ishlari bilan bevosita tanishish, ularning faoliyatini jamoatchilik nazorati ostiga olish imkonini beradi va ayni chog`da fuqarolik ishlarining to`g`ri hal etilishini ta'minlashga ko`maklashadi.

FPKning 10-moddasida bayon qilingandek, barcha sudlarda ishlarni ko`rish oshkora olib boriladi. Bunda ba'zi istisnolar belgilangan. Chunonchi, voyaga yetmagan shaxslar, ya'ni 16 yoshga to`lmagan fuqarolar, agar ular ishda ishtirok etuvchi yoki guvoh bo`lmasalar sud zaliga kiritilmaydilar.

Yuqorida keltirilgan qonunda belgilanishicha, davlat sirini saqlash manfaatlarini yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning hayot sirlariga oid ma'ulmotlarning fosh qilinmasligi talab qilingan barcha hollarda, sudning asoslangan ajrimiga binoan sudda ish ko`rish butunlay yoki qisman yopiq holda o`tkaziladi.

Sud majlisida ish yopiq ko`rilgan hollarda ishda ishtirok etuvchi shaxslar, ularning vakillari, sudda ish ko`rishda qatnashishga yo`l qo`yilgan jamoat tashkilotlari hamda mehnat jamoalarining vakillari, zarur hollarda esa guvohlar, ekspertlar va tarjimonlar ham qatnashadilar.

Ishning yopiq sud majlisida ko`rilishi to`g`risidagi ajrim sudya, tomonidan chiqarilib, tegishli ravishda asoslantirilgan bo`lishi kerak. Yopiq sud majlisida qabul qilingan sud qarorlari hamma hollarda oshkora e'lon qilinadi.

AJRIM

2000-yil 10-avgust.

Yangiyer shahri.

Sirdaryo viloyati, Yangiyer shahar sudining ochiq sud majlisida sudya M.T.Toshmatov raisligida, YU.Firoqova kotibligida da'vogar Mirza Alimovning javobgar Nodira Alimovaga nisbatan nikohdan ajralish

to'rtinchi qismidagi fuqarolik ishini yopiq sud majlisida ko'rish bo'yicha
to'plangan materiallar ko'rib, quyidagilar

Aniqlandi:

Nikohdan ajralish to'rtinchi qismidagi ishni sud majlisida mazmunan ko'rish
hujjatlarida oila sirlariga oid ko'p holatlar borligini hisobga olib, ularni
yashash uchun qilmashlik maqsadida hamda da'vogar Alimovning shu haqdagi
shartlarini qanoatlantirgan holda sud, ishni yopiq sud majlisida o'tkazish
shartlarining talablariga javob beradi, degan xulosaga keldi.

Sud yuqoridagilarga ko'ra, FPKning 10-moddasiga asosan

Ajrim qiladi:

Mirza Alimovning javobgar Nodira Alimova bilan o'rtalarida
tuzilgan nikohdan ajralish to'rtinchi qismidagi qo'zg'atilgan fuqarolik ishi yopiq
sud majlisida ko'rilin.

M.T.Toshmatov

Nikoh tuzilguniga qadar tarafga tegishli bo'lgan
shaxsiy mulkni qaytarib olish va nikoh davrida
to'plangan umumiy mulkni bo'lish xususida

Toshkent shahar, A.Ikromov tuman sudiga

Da'vogar: Damira Rahmonova-Toshkent shahar, A.Ikromov
tuman, B.Poteskin ko'chasi, 18-uyda yashaydi.

Javobgar: Shokir Rahmonov-Toshkent shahar, A.Ikromov
tumani, Durbek ko'chasi, 4-uyda istiqomat qiladi.

DA'VO ARIZA

(mol-mulkni bo'lish haqida)

Men 1986-yil 11-oktabr javobgar Shokir Rahmonov bilan qonuniy
nikohdan o'tib, oilaviy turmush qurganmiz. Javobgar bilan avval yaxshi
yashardik, keyinchalik javobgarning onasi (qaynonam) bizning
turmushimizga aralasha boshlagandan so'ng, turmushimiz yomonlasha
boshladi va javobgarni menga qarshi bo'lib, janjal chiqarib oilamizning
buzilib ketishiga sababchi bo'ldi.

Javobgar esa oilamiz to'rtinchi qismidagi o'z mustaqil fikriga ega emas edi. U
faqat onasining noto'g'ri va nohaq ko'rsatmalariga amal qilib yashadi.
Oilamizni mustaqil boshqarishga qodir bo'lmadi.

Men, javobgarning fe'l-atvori keyinchalik o'zgarib, oilamizga bo'lgan qarashi mustaqilroq bo'ladi deb o'ylagan edim, ammo buning aksini bo'lib chiqdi. Shu sababli bizning nikohimiz A.Ikromov tuman sudining 2000-yil 30-avgustdagi hal qiluv qarori bilan nikohdan ajratildi. Shu sud majlisida asabiylashganim sababli o'zimning mol-mulklarimni ajratib olish xayolimga ham kelmagan edi. Sud majlisidan keyin bir necha marotaba javobgardan menga tegishli mol-mulklarimni ixtiyoriy ravishda qaytarib berish to'g'risidagi talablarim natijasiz qolmoqda.

Nikoh tuzilgandan avval menga tegishli bo'lgan shaxsiy mulklarim quyidagilardan iborat:

1. mebel-stenka-Chexoslovakiyada ishlab chiqarilgan, narxi 1800 so'm;

2. oshxona jihozlari (Olmaliq shahrida tayyorlangan)-1300 so'm;

Yana javobgar bilan birgalikda, nikoh davomida quyidagi mulklarni orttirganmiz: 140 so'mdan 3 dona palos, jami 420 so'm.

Bu mulklar javobgar bilan mening mulkimizdir.

Yuqorida bayon qilinganlarga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 23-27-moddalariga hamda «Nikohdan ajratish ishlarini ko'rishda sud tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida»gi 1998-yil 11-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenum qaroriga asoslanib,

So'rayman:

Javobgar Shokir Rahmonovdan nikohga qadar menga tegishli bo'lgan quyidagi mulklarni qaytarib olib berishni;

1. Mebel-Chexoslovakiyada tayyorlangan stenka-1800 so'm;

2. Olmaliq shahrida tayyorlangan oshxona jihozlari-1300 so'm;

3. Nikoh davrida jamg'argan umumiy mulklarimizdan 4x3 metrli 3 dona qizil rangli palos-420 so'm

Hova: 1. Nikohdan ajratilganlik haqidagi guvohnomaning nusxasi;

2. Qizimning tug'ilish guvohnomasidan nusxa;

3. Javobgarning ish haqi to'g'risida ma'lumot;

4. Davlat bojini to'langanlik haqida chipta;

5. Umumiy mulklarimizning ro'yxati;

6. Da'vo arizaning nusxasi.

2000-yil 30-sentabr.

D.Rahmonova

SUD XARAJATLARI HAQIDA

Davlat bojining miqdori qonunda ko'rsatilgan hollarda sud bojlarining, da'vo arizalaridan, davlat boshqaruvi organlari va mansabdor shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan berilgan hukmlardan, alohida tartibda ko'riladigan ishlar bo'yicha sudga o'tkazilgan arizalar (shikoyat)lardan, sudlarning qarorlari ustidan yuqori soddaga beriladigan shikoyatlardan, shuningdek, sudlar tomonidan o'tkazilgan hujjatlarning nusxalari uchun quyidagi miqdorda davlat boji olinadi:

A) Da'vo bahosi quyidagicha bo'lgan hollarda da'vo arizasidan:

• eng kam oylik ish haqining 20 baravari-
gacha;

-da'vo bahosining 5 foizi

-da'vo bahosining 10 foizi

• eng kam oylik ish haqining 20 baravaridan
10 baravarigacha;

-da'vo bahosining 15 foizi

-da'vo bahosining 20 foizi

• eng kam oylik ish haqining 40 baravaridan
100 baravarigacha;

• eng kam oylik ish haqining 80 baravaridan
yuqorisi;

B) Davlat boshqaruvi organlari va mansabdor shaxslarning fuqarolarning huquqlarini cheklovchi noqonuniy xatti-harakatlari ustidan beriladigan shikoyatlar (sud hal qiluv qarori chiqarayotganda mansabdor tomondan undiriladi)

-eng kam oylik ish haqin-
ing 5 baravari

V) Nikohni bekor qilish bo'yicha da'vo arizasidan;

-eng kam oylik ish haqin-
ing 50 foizi

• qayta nikohni bekor qilish bo'yicha da'vo arizasidan;

-eng kam oylik ish haqin-
ing 120 foizi

G) Qonuniy tartibda bedarak yo'qolgan deb topilgan shaxslar, ruhiy kasalga chalinganligi, aqli zaifligi oqibatida muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar, shuningdek 3-yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlar bilan nikohni bekor qilish to'g'risidagi da'vo arizalaridan

-eng kam oylik ish haqin-
ing 2 foizi

D) Uy-joyni ijaraga olish to'g'risidagi shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish bilan bog'liq, meros qabul qilish muddatini uzaytirish to'g'risida, mol-mulkni arestdan chiqarish bilan bog'liq va boshqa nomulkiy xarakterdagi da'vo arizalardan (bahosini belgilab bo'lmaydigan);

YE) Alohida tartibda ko'riladigan ishlar bo'yicha beriladigan arizalardan (shikoyatlardan);

J) Sudning hal qiluvchi qarori ustidan beriladigan kassatsiya va nazorat shikoyatlari-jinoiy ishlar bo'yicha fuqarolarning da'volaridan

Z) Sudning hal qiluv qarori, hukmi, ajrimi va qarorlarining nusxalarini, dublikatlarini berish, shuningdek taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomalariga binoan sud tomonidan beriladigan boshqa hujjatlardan

Davlat boji stavkalarining 2-bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 5-mart 120-sonli qarorida bayon etilgan.

Bulardan tashqari, sud yoki sudya fuqaroning mulkiy ahvoriga qarab uni davlat daromadlariga to'lanadigan sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilishga haqli.

Davlat budjetida turgan ba'zi muassasalar o'zlarining xizmat faoliyatlari bilan bog'liq ishlar yuzasidan davlat bojini to'lashdan ozod qilinadilar. Bunday muassasalar jumlasiga: birinchidan, da'vogar yoki javobgar bo'lgan Davlat banki, qurilish banki, Moliya vazirligining qimmatbaho metallar boshqarmasi, o'zlarining muassasalari bilan (ammo bu imtiyoz mazkur muassasalarning xo'jalik hisobi asosida ish ko'ruvchi korxonalar va tashkilotlarga joriy qilinmaydi); ikkinchidan, davlat sug'urta organlari; uchinchidan, davlat jamg'arma banklari; to'rtinchidan, aliment va boshqa to'lovlarni undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha bo'lgan da'vogarlar (masalan, ichki ishlar bo'limlari) kiradi.

Da'vogarlar: O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlari-atrof muhitni ifloslashtirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish oqibatida davlatga keltirilgan ziyonni qoplash uchun pul undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha;

O'zbekiston Narxlar davlat qo'mitasi va uning joylardagi organlarining intizomini buzish oqibatida kooperativ asossiz ravishda orttirgan daromadni budjetga undirib olish va tegishli jarima undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha.

Qonunga binoan sud yoki sudya taraflarning mulkiy ahvoriga qarab, butunlardan biri yoki har ikkalasidan ham davlat daromadiga undiriladigan mulk xarajatlarini to'lashni kechiktirishga yoki bo'lib-bo'lib to'lashga yo'l qo'yishi, shuningdek, bu xarajatlarning miqdorini kamaytirilishi yoxud bu xarajatlarni to'lashdan butunlay ozod qilishi mumkin (FPKning 110-111-moddalari).

Da'vogarning talablari sud tomonidan qanoatlantirilganda, u to'lovchilik ishining yuritilishi tufayli qilgan xarajatlarini to'lashni talab qilishga haqli bo'ladi. Bunday xarajatlar javobgarning oldidagi muvofiqiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarmagani va shu tufayli da'vogar munayyan sud xarajatlarini qilishga majbur bo'lgani uchun xarajatlar javobgar hisobidan undirilishi lozim. Xuddi shuningdek, javobgar ham, agar da'vogarning unga nisbatan qilgan da'vosi rad etilsa, ish yuzasidan qilgan xarajatlarning da'vogar tomonidan o'ziga to'lanishini talab qila oladi.

FPKning 117-118-moddalari mazmuniga ko'ra, sud xarajatlari (davlat boji, sud chiqimlari) sud ajrimi bo'yicha taqsimlanishi ko'rsatilgan.

Poshina summalarining miqdorini belgilashda sud taraflarning moddiy ahvoli, ishning haqiqiy holatini, bajaruvchilarning aybli bo'lish darajalarini e'tiborga oladi. Sud taraflarning ahvoriga qarab, er-xotindan birini yoki har ikkisini davlat boji to'lashdan ozod qilish huquqiga egadir.

Namangan viloyati, Zadaryo tuman sudiga
Namangan viloyati, Zadaryo tuman, Ulug'bek
ko'chasi 73-uyda yashovchi Egam Malikovadan

ARIZA

(Sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilish haqida)

Men javobgar Xudoyor Malikov bilan oilaviy turmush qurgan edim. O'n besh yillik turmush davrimizda bir qancha mol-mulk jamg'arganmiz. Sobiq erim X.Malikov bilan tuzilgan nikohimiz 2000-yil may oyida sud tartibida ajratilgan. Biroq javobgar menga tegishli 1200 (bir ming iki yuz) so'mlik mol-mulkni qaytarib bermayapti. Bu haqda sudga ariza bilan murojaat etgan edim, sud 2000-yil 15-iyuldagi ajrimi bilan ishni ko'rmay

qoldirdi va 120 (yuz yigirma) so`m davlat boji to`lash lozimligini ko`rsatdi.

Bu bojni quyidagi sabablarga ko`ra to`lashga qurbim yetmaydi:

1) mening qaramog`imda besh nafar yosh bolalarim bo`lib, ular hali maktab yoshidadirlar;

2) o`zim kasalligim tufayli ikkinchi toifa nogironi bo`lib qolganman va hozirda hech qayerda ishlamayman.

Yuqoridagilarga ko`ra, moddiy ahvolimni inobatga olib hamda FPKning 110-moddasiga asosan

So`rayman:

Kaminaning ushbu fuqarolik ishi bo`yicha to`lanishi lozim bo`lgan 120 (bir yuz yigirma) so`m miqdoridagi davlat bojini to`lashdan ozod qilinishini.

Hova: 1. Mening qaramog`imdagilar haqida ma`lumot.

2. Nogironligim haqida ma`lumot;

3. Ishlamasligim haqida uy boshqarmasining bergan ma`lumotnomasi.

2000-yil 27-iyul.

E.Malikova

2000-yil 29-iyul.

Zadaryo tumani.

AJRIM

Namangan viloyati, Zadaryo tumani sudining sudyasi A.I.Ikromov raisligida da`vogar Egamoy Malikovning javobgar Xudoyor Malikovga nisbatan mol-mulkni bo`lish to`g`risida qo`zg`atgan da`vo arizasi bo`yicha davlat bojini to`lashdan ozod qilish haqidagi talabi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da`vogar Egamoy Malikova o`z da`vo arizasida X.Malikov bilan oilaviy turmush jarayonida jamg`arilgan 3500 so`mlik mol-mulkning 1200 so`mini unirib berish to`g`risidagi da`vo ariza bilan murojaat qilgan.

Da`vogar Egamoy Malikovani muqaddam, ya`ni shu yil iyul oyining 19 kuni yuqoridagi summani undirish to`g`risidagi da`vo talabini sudya ko`rib, to`lanishi lozim bo`lgan 120 so`m davlat bojini to`lamasdan sudga murojaat etganligi tufayli sudning ajrimiga ko`ra da`vo arizasi harakatsiz qoldirilgan hamda da`vogarga tegishli bojni davlat bankiga to`lash va bu haqdagi hujjat shu yil 25-iyulga qadar ishga qo`shib sudga taqdim etilishi lozimligi ko`rsatilgan edi.

Malikova shu yil 25-iyuldagi ariza bilan sudga yana murojaat etib, o'zining moddiy ahvoli nochor ekanligini (5 ta yosh farzandi borligi va o'zining ehtimollikini) ko'rsatib, davlat bojini to'lashdan ozod qilishni talab qildi. Bu haqda mahalla qo'mitasining ma'lumotnomasini sudga taqdim etib, bunda ishlagi materiallarni tahlil qilib, taraflarning bayonotlarini o'qib, talab davogarning iltimosini qanoatlantirish lozim deb hisoblaydi.

Bund yuqoridagilarga ko'ra FPKning 110-moddasiga asosan

Ajrim qiladi:

Davogar Egamoy Malikovani javobgar Xudoyor Malikovga nisbatan qo'yilgan fuqarolik ishi bo'yicha to'lashi lozim bo'lgan 120 (yuz qirchik) so'm davlat bojini to'lashdan ozod qilinsin.

Ajrimdan norozi tomon shu sud orqali Namangan viloyat sudining fuqarolik sudlov hay'atiga 10 kun muddat ichida xususiy shikoyat (protest) kiritishga haqli.

Sudya:

Ya.I.Ikromov

SUDNING HAL QILUV QARORLARI TO'G' RISIDA

Fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilishda sudning mulohaza va xulosalari muayyan protsessual tartibda chiqariladigan sud qarorlarida o'z ifodasini topadi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha hal etiladigan masalalarga ko'ra sud qarorlari ikki turga: hal qiluv qarorlari va ajrimlarga bo'linadi.

Birinchi instansiya sudining ishini mazmunan hal qiladigan qarori hal qiluv qarori deb aytiladi (FPKning 203-moddasi). Bunday hal qiluv qarori sud tomonidan ko'rilayotgan asosiy masalalarga javob tariqasida taraflarning talablari bo'yicha, organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari ustidan berilgan shikoyatlar, alohida tartibda ko'riladigan ishlar, chunonchi, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni belgilash bo'yicha qabul qilinadi.

Sud o'zining hal qiluv qarori bilan taraflar o'rtasida vujudga kelgan moddiy-huquqiy nizoga javob beradi, buzilgan shaxsiy va mulkiy huquqlarni tiklaydi hamda ba'zi nizosiz ishlarni hal qiladi.

Har bir hal qiluv qarori aniq bo'lsin uchun to'rt qismdan: kirish, bayon qilish, asoslantirish va xulosadan iborat bo'ladi.

Hal qiluv qarorining kirish qismida hal qiluv qarori chiqarilgan vaqt va joy, hal qiluv qarori chiqargan sudning nomi, sud hay'ati, sud majlisining kotibi, protsessda qatnashgan prokuror, taraflar, ishda ishtirok etuvchi shaxslar ko'rsatiladi.

Hal qiluv qarorining bayon qilish qismida da'vogarning talabi, javobgarning e'tirozlari va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning bayonotlari ko'rsatilishi kerak.

Hal qiluv qarorining yuqorida ko'rsatilgan bayon qilish qismi mumkin qadar qisqa yozilib, nizo nimadan iborat ekanligi to'la bayon qilinmog'i lozim. Bu qismda da'vogarning talablari va ularning asoslari shuningdek, da'vogarning talabiga qarshi javobgarning e'tirozlari va bu e'tirozlarga asos bo'lgan materiallari bayon qilinishi lozim. Agar uchinchi shaxs mustaqil talab kiritgan bo'lsa, bu qismda uchinchi shaxslarning ham ishtirok etganliklarini va ularning talablarini ko'rsatish lozim. Agar ish yuzasidan bir marta hal qiluv qarori chiqarilib, apellatsiya kassatsiya yoki nazorat tartibida ish bekor qilingan bo'lsa, muqaddam qarorlar chiqarilganligi va yuqori sud o'zining hal qiluv qaror va ajrimida qanday ko'rsatmalar bergani zikr qilinishi kerak.

Sud amaliyotida hal qiluv qarorining bayon qilish qismini yozishda turli xatolar uchraydi. Ba'zan qarorning bu qismida ishdagi barcha holatlarning mazmuni, taraflarning bayonotlari, hech bir zarurat bo'lmasada, to'la ravishda yozilgan bo'ladi. Qarorda taraflar o'rtasida da'vo qilinayotgan narsani aniqlash uchun zarur bo'lgan fakt va dalillargina bayon qilinishi, ya'ni da'vogarning nimani va qanday asosga binoan o'sha narsani talab qilganligi, javobgar da'vogarning qanday talablariga va nima uchun e'tiroz bildirganligi ko'rsatilishi lozim.

Hal qiluv qarorining asoslantirish qismida ishning sud tomonidan aniqlangan holatlari va keltilgan dalillar to'g'risidagi xulosalar, da'voni qanoatlantirish yoki rad qilish uchun bo'lgan asoslar, sud qo'llagan qonunlar ko'rsatilmog'i lozim.

Hal qiluv qarorining asoslantirish qismida taraflar topshirgan hujjatlarni, sud majlisida aniqlangan faktlarni tahlil qilib, taraflar o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida chiqarilgan xulosa va bu munosabatlarga berilgan yuridik bahoni ko'rsatish lozim. Boshqacha qilib aytganda, sud hal qiluv qarorining shu qismida dalillarga baho beradi, qanday faktlar aniqlangani, javobgarning qanday e'tirozlarini to'g'ri deb topganligi va qanday qonunlarga binoan asosli hisoblaganligi ko'rsatib o'tiladi.

Sudyalar ishdagi hujjatlarga, to'plangan dalillarni chuqur o'rganish asosida to'g'ri baho beradi. Ammo sudyalarning fikri asossiz tegishli dalillatnomalar bilan tasdiqlanmagan bo'lmashligi kerak. Bu xulosa ishning asosiy holatlariga asoslangan bo'lmog'i lozim. Toki, sudning hal qiluv qaroridan taraflarga, ish sudda ko'rilishida hozir bo'lgan fuqarolarga va bu qarorni tekshiruvchi yuqori sudga sudning nima uchun shunday qaror kelganligi va taraflarning talabini to'g'ri yoki noto'g'ri deb topishga qanday asos borligi ochiq ko'rinib turishi lozim. Bundan tashqari, qonun uchun u yoki bu qonunni (moddiy-huquqiy normani) qo'llayotganligini asoslagan bo'lishi kerak.

Hal qiluv qarorining xulosa (qaror) qismida esa sudning da'voni qo'ng'ulantirish yoxud da'voni to'la yoki qisman rad etish to'g'risidagi talablarni sud xarajatlarining taqsimoti hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish muddati va tartibi ko'rsatilishi lozim (FPKning 206-moddasi). Hal qiluv qarorining qaror qismida sud qanday qarorga kelgan bo'lsa, shu qaror yoziladi.

Qarorning bu qismida, agar da'vo qondirilgan bo'lsa, javobgar tomonni bajarishi kerakligi qat'iy, aniq va ravshan ko'rsatadigan buyruq shaklida yozilmog'i lozim. Agar da'vo qisman qondirilsa, sud qanday talablarni qondirilganligi va qanday talablarni rad qilinganligini aniq ko'rsatishi kerak. Agar sud da'voning hammasini rad qilishi zarur deb topsa, qaror qismida «da'vo rad qilinsin» debgina yozib qoldirmasdan, balki qaysi da'vogarning da'vosi rad qilinganligini ham aniq ko'rsatishi lozim. Hal qiluv qarorining yuqoridagi talablarga amal qilmasligi, bu qarorning bajarilishini qiyinlashtiradi.

Sud hal qiluv qarorining qaror qismida qarorni ijro qilish tartibini, shuningdek hal qiluv qarorini ijro qilish usuli va muddatini ham ko'rsatadi.

Hal qiluv qarorining qaror qismi oxirida sud taraflarning hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilishga haqli ekanliklarini va shikoyat qilish tartibi (qaysi muddatda, qayerga topshirish va shu singarilar)ni ko'rsatib o'tishi lozim.

Agar sud ajralish to'g'risidagi ishning ko'zga tashlanishi chuqur o'rganilgan va asoslantirilgan vajlar bo'yicha bo'lganligini va nikohni kelgusida saqlash axloq talablariga zid keladi deb topsa va er-xotinning kelgusida birga yashashlari uchun yetarli sharoitlar yaratilishi mumkin emasligiga va bolalarni tarbiyalash uchun talab darajasidagi sharoitlar bo'lmashligiga ishonsa, nikohni bekor qilish to'g'risida qaror chiqarishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qarori

2001-yil 6-fevral Toshkent shahar, fuqarolik ishlari bo'yicha Shayxontohur tuman sudining ochiq sud majlisida sudya A.I.Jalilova raisligida, L.Temurovaning kotibligida da'vogar Shoira Rahmatovna Boqiyevaning javobgar To'ra Valiyevich Boqiyev bilan tuzilgan nikohdan ajratish, bir bola uchun aliment undirish va mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi fuqarolik ishi ko'rib, tubandagilar

Aniqlandi:

Shoira Rahmatovna Boqiyevaning da'vo arizasida va sud majlisidagi bayonida javobgar To'ra Valiyevich Boqiyevga 1997-yil 10-yanvarda turmushga chiqqani, o'rtalarida 1998-yil 12-noyabrda tug'ilgan Otabek ismli farzandlari borligi, turmush qurganlaridan so'ng javobgar biror joyda yolchitib ishlamaganligini, homilador vaqtida ko'chadan o'rtoqlari uni so'rab kelganida: «Seni notanish kishilar chaqirib keladi», deb rashk qilishini, uyga kirganida javobgar papirosga nasha o'rayotganini ko'rib qolganida: «Sen qilayotgan ishimni ko'rib qolding», deb rosa urganni va uydan haydab chiqarganini, shuning natijasida 1997-yil 30-dekabrda beri birga yashamayotganliklarini, endi oilani tiklashni hecham istamasligini, javobgar doimo uni so'rab, yoshi kattaligini yuziga solavergani, «xunuksan» deb haqoratlab, xo'rlab kelgani uchun undan ko'ngli butunlay sovib ketganini ko'rsatib, nikohdan ajratishni talab etadi. Shuningdek, javobgarning ota-onasi olib qolgan ro'yxatda ko'rsatilgan 52 turdagi molni undirib berishni talab qilib, bu mol-mulklar unga onasi tomonidan qilingan sarpolar va chinnilardan iborat ekanligini, bu mulklar unga sovg'a qilinganligini ko'rsatadi va bolani o'z tarbiyasida qoldirishni so'raydi.

Javobgar da'vo talablariga iqror bo'lgani holda, da'vogarning ota-onasi zo'rlab uylantirganligini, da'vogarga uylanishni istamaganligini, to'ydan avval uni mendan ikki yosh katta deb aytisada, biroq FHDYodan o'tayotganida da'vogar undan yetti yosh katta ekanligi aniqlanganligi, shu bois urush-janjallar bo'lib turganligini, hozirda boshqa ayol bilan oila qurib yashayotganligini, da'vogar bilan esa 1997-yilning dekabr oyidan beri berga yashamayotganligini, sud tomonidan berilgan muhlat davomida bir marta «yarashasanmi» deb borganimda, da'vogarning o'zi «yarashmayman» deganidan so'ng boshqa bormaganligini, hech ham nasha iste'mol qilmaganini ko'rsatib, nikohdan ajratishni so'raydi. Mol-mulk masalasida esa, er-xotin turmush davrida hech narsa olmaganliklarini, to'yga qadar olingan buyumlar ular o'rtada teng olganliklarini, mol-mulk haqida

da'vogarning da'vosi yo'qligi haqida tilxat borligini, uni ishga qo'shib qo'yilganligini bayon qiladi. Javobgar To'ra Boqiyev 1998-yil 12-noyabrda tug'ilgan o'g'li Otabekka moddiy yordam berish to'g'risidagi da'voga rozi ekanligini bildirib, uning tarbiyasi uchun aliment to'lab olinmagan o'g'li Otabekni da'vogar tarbiyasida qolishiga qarshiligi yo'qligini bildiradi.

Sud hay'ati taraflarning bayonini, guvohlar ko'rsatuvlarni eshitib, ish materiallarini muhokama qilib, da'vogar talablarining nikohdan ajratish bo'lagidagi qismini qanoatlantirishni, mol-mulkni undirish haqidagi qismini o'z ko'rmadan qoldirishni lozim topdi.

Sudda aniqlagan holatga qaraganda, taraflar 1997-yil 10-yanvarda nikohdan o'tib turmush qurganlar, ammo 1997-yil 30-dekabrda buyon bitta yashamaydilar. Doimiy urush-janjallar tufayli ularning munosabati o'zlashmay, davogar homilador vaqtidayoq ota-onasining uyiga ketishga majbur bo'lib, farzandi ham o'sha yerda tug'ilgan. Har ikki tarafning ham umuman bir-biriga mehr-muhabbati yo'qligi yuqoridagi ko'rsatuvlardan ko'rinib turadi, buning sababini javobgar boshidanoq da'vogarga majburan aytilganligida deb ko'rsatib, hozirda esa u boshqa oila qurganini ham ma'lum bo'ldi. Sud tomonidan taraflarga oilani saqlash maqsadida muqaddam yarashish uchun berilgan 6 oy muhlat ichida taraflarda ijobiy harakat bo'lmaganligi ham yuqoridagi holatlarni tasdiqlaydi.

Sud bunday hollarda er va xotinning bundan buyon birga yashab ketishiga va oilani saqlab qolishiga imkoniyat qolmagan deb hisoblaydi. Da'vogar SH.R.Boqiyevaning farzandini tarbiyalash masalasi bo'yicha bolaning onada qolishi kerakligi to'g'risidagi talabiga javobgarning roziligini sud asosli degan xulosaga keladi va bu to'g'rida nizo yo'qligini hisobga olib, Oila kodeksining 96-99-moddalariga asosan javobgardan Otabek ismli o'g'lining tarbiyasi uchun barcha daromadlaridan har oyda to'rtidan bir qismini aliment undirishni lozim topadi.

Da'vogar ro'yxatda keltirilgan mol-mulklarining hammasi javobgarning ota-onalari tomonidan nikohga qadar olingan narsalar bo'lib, taraflar birga turmush qurgan vaqtlarida hech narsa sotib olmaganliklari aniqlandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabr qarorida er-xotining nikohgacha bo'lgan shaxsiy va boshqa mulklarini undirish to'g'risidagi talablari nikohdan ajratish ishi bilan ko'rilishi mumkin emasligi qayd etilgan. Shuning uchun da'vogarning bu talabi ko'rilmagan qoldirilishi lozim bo'ladi. Da'vogar nizoni umumiy asoslarda davlat bojini to'lab, alohida da'vo qo'zg'atish huquqiga ega.

Binobarin, sud Oila kodeksining 37, 96-99-moddalari va FPKning 203-205-moddalariga asoslanib

Qaror qiladi:

Da'vogar SH.R.Boqiyevaning nikohdan ajratish haqidagi da'vosi qanoatlantirilsin. Javobgar To'ra Boqiyev bilan da'vogar Shoira Boqiyevaning o'rtalaridagi 9-raqamli yozuv bilan 1997-yil 20-fevralda Toshkent viloyati, Zangiota tumani nikohni qayd qilish bo'limi tomonidan ro'yxatga olingan nikohlaridan ajratilgan deb hisoblansin. Nikohdan ajratish vaqtida T.Boqiyevdan 150 (bir yuz ellik) so'm davlat boji undirilsin. SH.Boqiyeva boj to'lovidan ozod etilsin. 1998-yil 12-fevralda tug'ilgan Otabek ismli o'g'li da'vogar SH.Boqiyeva tarbiyasida qoldirilsin. Javobgar-1960-yilda Toshkent viloyati, Zangiota tumanida tug'ilgan, Toshkent shahri, Chilonzor tumanidagi Aviasozlar zavodida duradgor bo'lib ishlab, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Chuvalachi ko'chasining 10-berk ko'chasi, 10-uyda yashovchi To'ra Valiyevich Boqiyevning barcha daromadlaridan 1998-yil 12-noyabrda tug'ilgan Otabek ismli o'g'li ta'minoti uchun to'rtidan bir qismi, miqdorda Shoira Rahmatovna Boqiyevaning foydasiga undirilsin.

Aliment 2002-yil 6-fevralda boshlab har oyda bolaning balog'at yoshiga yetguniga qadar undirilsin.

T.V.Boqiyevdan 47 so'mdan davlat boji davlat ixtiyoriga undirilsin.

Mol-mulkni undirish to'g'risidagi da'vogar SH.R.Boqiyevaning da'vosi bu ishga tegishli bo'lmaganligi sababli ko'rmasdan qoldirilsin va alohida da'vo qo'zg'atish huquqidan foydalanish imkoniyatiga ega ekanligi tushuntirilsin.

Qarordan norozi tomonlar 20 kun muddat ichida shu sud orqali Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha sudga apellatsiya shikoyati bilan murojaat etishlari, prokuror apellatsiya protesti keltirishga haqli.

Raislik qiluvchi sudya:

A.I.Jalilova

NIKOHDAN AJRATISH HAQIDA

O'zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qarori

2002-yil 2-dekabrda Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Ohangaron tuman sudining ochiq sud majlisida raislik etuvchi sudya A.K.Umarov, sud kotibi da'vogar G.Tojiyevning ishtirokida da'vogar

H.M. Normatovning javobgar Hadiya Normatova bilan tuzilgan nikohdan qonun to'g'risidagi arizasi bo'yicha fuqarolik ishi ko'rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da'vogar SH.X.Normatov javobgar-xotini bo'lmish H.M.Normatova bilan 1999-yil 27-sentabrda Toshkent viloyati, Ohangaron tuman nikohni tuzilish bo'limida 5276-raqamli guvohnomada ko'rsatilganidek, qonuniy nikohdan o'tib, oilaviy turmush qurganlar. Birgalikdagi bolalarida 2001-yil 23-fevralda Asadulla, 2002-yil 23-martda Anvar ismli o'g'illari tug'ilgan. Er-xotinning murosalar kelishmay qolganligi sababli tez-tez janjallar bo'lib turgan va shu bois 2002-yildan boshlab bolalar birga yashamaydilar. Da'vogar SH.Normatov nikohdan otmasdan Muhabbat Qurbonova ismli ayolga uylangan, u bilan birgalikdagi turmush davrida Nargiza ismli farzandli bo'lishgan.

Ushbu ish birinchi marta 2002-yil 27-mayda sudda ko'rilib, ularga oilani tiklash uchun 6 oy muhlat berilgan. Bu davrda er-xotin oilani tiklash uchun hech qanday ijobiy ish qilmaganlar, aksincha, da'vogar nikohsiz oylanib olgan.

Sud majlisida so'ralgan da'vogar SH.X.Normatov bilan javobgar H.M.Normatova bundan buyon birgalikda turmushlari bo'lmasligini bildirib, ikkalasi ham nikohdan ajratishlarini iltimos qildilar. Javobgar Normatova ham yaqin kunlarda turmush qurajagini bildirdi. Taraflar turmush davrida mol-mulk orttirmaganliklarini, sudga qadar bu masalani er-xotin odilona hal etganliklarini bayon qiladilar.

Da'vogar farzandlari Asadulla va Anvarlarni javobgarda qoldirish masalasida sudga qadar o'zaro kelishganliklarini hozirda ixtiyoriy ravishda aliment to'layotganini, bu masala bo'yicha ham nizo yo'qligini, bu holatni javobgar ham tasdiqlashini bayon qildi. Voyaga yetmagan bolalar ta'minoti berish uchun aliment to'lash tartibi va shakli qonunda belgilangan ya'ni Oila kodeksining 98-99-moddalariga zid emasligi aniqlandi.

Sud tomonlarning bergan bayonlarini tinglab, ish materiallarini atroflicha tekshirgach, sud bundan buyon tomonlar o'rtasida oilaviy turmushni tiklab bo'lmasligini inobatga olib, ularni nikohdan ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Yuqoridagilarga ko'ra, sud Oila kodeksining 37-moddasiga hamda FPKning 203-206-moddalariga asosan

Qaror qiladi:

Shuhratilla Xolmurodovich Normatov bilan Hadiya Mirhamidovna Normatovalarning o'rtalaridagi 1999-yil 27-sentabrda Toshkent viloyati,

Ohangaron tumani fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish bo'limida 5276-raqamli tuzilgan nikohdan ajratilsin.

SH.X.Normatovdan davlat foydasiga 200 so'm davlat boji undirilsin
T.M.Normatova davlat bojini to'lashdan ozod etilsin.

Qarordan norozi tomonlar 20 kun muddat ichida fuqarolik ishlari bo'yicha Ohangaron tumanlararo sudi orqali fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent viloyat sudiga apellatsiya shikoyati bilan murojaat qilishga, prokuror apellatsiya protesti keltirish huquqiga egadirlar.

Sudya:

A.K.Umarov

NIKOHDAN AJRATISH HAQIDAGI DA'VO ARIZANI RAD ETISH TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qarori

2000-yil oktabr oyining 29 kuni Toshkent shahri, Hamza tuman sudining binosida ochiq sud majlisi bo'lib raislik qiluvchi sudya R.Usmonov, U.Safarovning kotibligida, da'vogar Yoqubjon Mirzamahmudovich Rahmonovning javobgar Adolat Abduvaliyevna Rahmonova bilan tuzilgan nikohlarini ajratish haqidagi fuqarolik ishi ko'rilib, tubandagilar

Aniqlandi:

Da'vogar Yo.M.Rahmonov 1993-yilda A.A.Rahmonova bilan qonuniy nikohdan o'tgan holda oilaviy turmush qurganlar, turmushlari davomida 3 nafar farzand ko'rishgan. Da'vogar YO.M.Rahmonov sudga da'vo ariza bilan murojaat etib, oilaviy turmush davrida xotining fe'latvori juda ham yomonlashib borganini, arzimagan ishdan janjal chiqarishini va xotining uy-ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanmasligini ko'rsatadi. Oilaviy munosabatlari 2000-yil avgust oyidan boshlab to'xtaganligini bildirib, nikohni bekor qilishni so'raydi.

Javobgar Adolat Rahmonova da'vo talablarini tan olmay, uch nafar farzandi borligi uchun oilani saqlab qolishni iltimos qilish bilan birga nikoh munosabatlari shu yil avgust oyining oxirlaridan da'vogarning aybi bilan uzilganligini, eri o'z bolalarini yaxshi ko'rishini, shuning uchun da'vogarning keltirgan mayda-chuyda vajlari nikohni bekor qilish uchun asos bo'la olmasligini bayon qilib, da'voni rad etishini so'raydi va erini yaxshi ko'rib turmush qurganni, hozir ham hurmat qilishini bayon qiladi.

javobgar bo'lganini, shunga qaramay, farzandlari otasini juda ham qayg'inchilik bilan ko'rsatadi.

Sud tomonlarning bayonlarini, ish materiallarini har tomonlama tekshirib, guvohlarning ko'rsatmalarini tinglagach, Oila kodeksining 37-41-moddalariga asoslanib, da'vogarning nikohdan ajratish to'g'risidagi bayonot uchun yetari asoslar yo'q deb hisoblaydi, chunki er va xotin nikohidagi o'ltinchi mayda gaplar nikohdan ajralish uchun asos bo'la olmaydi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining «Nikohni bekor qilish ishlarini ko'rishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida»gi 1998-yil 11-sentabrdagi Plenumi qarorida bayonot o'atilgan. Bundan tashqari, sud da'vogarning arizasida «javobgar tomonning yolg'irligi va uy-ro'zg'or ishlarini o'z vaqtida bajarmasligi, onasiga yordam bermasligi» kabi vajlarni sud majlisida o'z isbotini topmadi. Albatta sud majlisida da'vogarning qo'shnilari-guvohlar V.Asqarov, B.Hotirovlar o'z ko'rsatmalarida er-xotinning juda ham inoq yashashligini, javobgar nihoyatda odobli, xushmuomala ekanligini, da'vogar onasining va o'g'illarining hurmatini saqlab yurishini bayon qildilar. Da'vogar guvohlarning ko'rsatmalariga hech qanday e'tiroz bildirmadi.

Javobgarning farzandlari o'z otasini juda sevishlari to'g'risidagi bayonot ish materiallari va da'vogarning tan olishi bilan ham tasdiqlanadi, bunday hollarda sud farzandlarni ota mehridan judo qilish uchun asos yo'q deb hisoblaydi. Shularga ko'ra, sud da'vogarning keltirgan vajlari nikohdan ajratish uchun asos bo'la olmaydi hamda Oila kodeksining 41-moddasidagi talablar yo'q degan xulosaga keldi.

Sud yuqoridaga holatlarni e'tiborga olib, Oila kodeksining 37-41-moddalariga hamda FPKning 203-206-moddalariga asosan

Qaror qiladi:

Da'vogar Yoqubjon Rahmonovning javobgar Adolat Rahmonova bilan tuzilgan nikohlaridan ajratish haqidagi da'vosi asossiz bo'lganligi sababli rad etilsin.

Qarordan norozi tomonlar 20 kun muddat ichida shu sud orqali Toshkent shahar sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga apellyatsiya shikoyati bilan murojaat qilishlari, prokuror apellyatsiya protesti keltirishi mumkin.

Sudda raislik qiluvchi:

R.Usmonov

SUD MAJLISI BAYONNOMASI

2000-yil aprel oyining 14 kuni Toshkent shahar, Sobir Rahimov tuman sudining binosida sud majlisi bo`lib, sudya S.A.Hoshimov raisligida, S.Hamidovanning kotibligida da`vogar Gulnora Abdumalikovaning javobgar Maqsud Abdumalikov bilan tuzilgan nikohdan ajratish haqidagi fuqarolik ishi ko`rildi.

Sud majlisi soat 10:00 da boshlanib, 12:00 da tamom bo`ldi.

Raislik etuvchi sud majlisini ochib, ko`riladigan ishni e`lon qildi.

Kotibning ma`ruzasi:

Sud majlisiga tarafdarda`vogar Gulnora Abdumalikova, javobgar Maqsud Abdumalikov ishtirok etmoqdalar. Guvoh Abdurazzoq Qayumov sud zalidan chiqarildi.

Raislik etuvchi sud hay`atini, sud kotibi va prokurorning e`lon qildi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarga chetlatish huquqi va ularni boshqa protsessual huquq va majburiyatlari tushuntirildi.

Raislik etuvchi tomonlarning shaxsini aniqladi.

Taraflar sudlov xay`atiga raddiya yo`q ekanligini bildiradilar.

Da`vogar: Gulnora Abdumalikova: 1969-yilda Toshkent shahrida tug`ilgan, millati o`zbek, «Guliston» restoranida oshpaz bo`lib ishlaydi.

Toshkent shahri Chilonzor tumani, Muhabbat ko`chasi, 22-uyda yashaydi.

Javobgar: Maqsud Abdumalikov-1962-yilda Toshkent shahrida tug`ilgan, o`zbek, O`zbekiston Respublikasi fuqarosi, 3-avtokombinatda haydovchi bo`lib ishlaydi. Toshkent shahar, S.Rahimov tuman 1-Sputnik ko`chasi, 84-uyda yashaydi.

Da`vogar Gulnora Abdumalikova: «Sud hay`atiga qarshiligim yo`q, qonuniy huquqlarim tushunarli».

Javobgar ham sud hay`atiga qarshili yo`qligini bildiradi.

Raislik qiluvchi da`vo arizani o`qib eshittirdi va tarafdarga quyidagi savollar bilan murojaat etdi: «Da`vogar da`voni quvvatlaydimi? Javobgar da`vogar iqrorimi?».

Da`vogar- da`vo arizasini to`liq quvvatlayman.

Javobgar-men da`vogarni talablarini qisman tasdiqlayman.

Da'vogar G.Abdumalikovning bayoni: 1982-yili nikohdan o'tib turmush qurganmiz. O'rtamizda 3 nafar farzandlarimiz bor. Turmush o'tatib kelgan bilan boshida yaxshi yashadik. Keyinchalik o'rtamizda turmush muvofiqliklari boshlandi. Janjallar to'xtamaganidan keyin men otamning uyiga ketishga majbur bo'ldim va hozirda ota-onamning uyida yashayman. Javobgar bilan 4-yildan buyon er-xotinlik munosabatida yashaymiz. Javobgar o'pka kasali bilan og'rigan. Birga yashashga harakat qildim, lekin bo'lmadi. O'rtamizdagi nikohimizni muddat bermasdan bekor qilishingizni so'rayman. Chunki erim o'ta-ketgan qo'rqqoq, talabhsala kishi bo'lib, oilaning biri ikki bo'lishi uchun hech harakat qilmaydi. Uning ota-onalari badavlat, agar uyda kamchilik bo'lib qolsa, ota-onasining uyiga ketib qoladi va o'sha joyda qolib ketadi, bolalari bilan ham yo'q.

Raislik qiluvchining savoliga da'vogarning javobi: «Bolalarim uchun javobgar bilan yarashib ketishga bir necha marta harakat qildim, bo'lmadi», yana savolga da'vogarning javobi: «Oila qurishni xohlagan turmush ro'zg'ordagi kamchiliklarga ko'nikadi, bardosh beradi, sabr-toqat qilmaydi. Biroq da'vogar o'zining kasalligini aytib, menga nima qilib bo'lsa ham mol-dunyo topib kelishimni, ishxonadan ortiqcha pul topishimni so'raydi. U hatto meni jinoiy ishlarga ham undaydi, lekin buni men bilmayman».

Javobgar M.Abdumalikov: «Da'vogarning ko'rsatmasini qisman tasdiqlayman». Javobgar M.Abdumalikovning bayoni:

«Men da'vo arizadagi talablarini tasdiqlayman. 1983-yilda fuqarolik holati dalolatnomasini yozish organida ro'yxatdan o'tib nikohni qayd ettirgan holda turmush qurganmiz. Turmushimiz davomida 3 nafar farzand ko'rdik. Da'vogar bilan sakkiz yildan buyon birga yashaymiz, u ota-onasining uyiga ketib qolgan. Men ancha kasal bo'lib yotdim, lekin da'vogar biror marta xabar olmadi. Oilamizni tiklash uchun qanday asos qolmaganligi sababli o'rtalarimizdagi nikohni bekor qilib berishingizni so'rayman».

Raislik qiluvchining savoliga javobgarning javobi: Baribir oilamizni tiklab bo'lmaydi, chunki bunday hol 6-yildan buyon davom etadi».

Da'vogar G.Abdumalikova: «Javobgarning so'zlarini qisman tasdiqlayman, savolim yo'q».

Guvoh Abdurazzoq Qayumov-1961-yilda tug'ilgan, o'zbek, Chilonzor tumani oziq-ovqat tarmog'ida ishchi. Yashash joyi-Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Guruchariq ko'chasi, 83-uy.

Raislik qiluvchi guvohning huquq va majburiyatlarini tushuntirgach, JKning 238-240-moddalari bilan ogohlantirilib, tilxat olindi: «Men da'vogarning akasi bo'laman, javobgar mening kuyovim bo'ladi. Ham ikkalasiga nisbatan ham shaxsiy adovatim yo'q.

Singlim Gulnora ko'pincha uyga kelib, oilasi mustahkam emasligini erining kasalligini, u bilan yashashni xohlamasligini gapirib berardi. Men kuyov bilan bir necha marta gaplashib ko'rdim, u ham yashashni xohlamasligini aytdi. Bularning oilasini tiklab bo'lmaydi, nikohlarini bekor qilishga to'g'ri keladi. Bunga yana shu narsalarni asos qilib ko'rsatish mumkin, kuyovim singlim kasal paytlarida uydan chiqib ketib, allaqayoqlarda yurib keladigan bo'lib qoldi, yurish-turishlari o'zgarib ketdi. Bu haqda singlim yo'qligida gaplashgan edim, u «men ozod yigitman, nima bilan shug'ulansam, mening ishim, xotinim bilan ikki dunyoda ham yarashmayman», deb javob berdi. Uning bu xatti-harakatlarini ko'pchilik biladi, biz gap-so'z bo'lmasin deb yashirib kelmoqdamiz. Aslida ularning oilasi buzilganiga ko'p vaqt bo'ldi».

Raislik qiluvchining savoliga da'vogar G.Abdumalikovning javobi: «Guvohning ko'rsatuvlarini tasdiqlayman, savolim yo'q».

Javobgar M.Abdumalikovning javobi: «Guvohning bergan guvohligini tasdiqlayman, savolim yo'q».

Raislik etuvchi taraflardan qo'shimcha bayonotlari bor-yo'qligini so'radi. Sud taftishida taraflardan qo'shimcha va iltimoslar bo'lmadi.

Taraflardan-da'vogar muzokara so'zida da'vo talablarini qanoatlantirishni javobgar esa, da'vo arizani rad etishni, nikohdan ajrarnasligini bayon qiladi.

Raislik qiluvchi sud majlisi ishtirok etuvchilarga sud taftishi tamom deb hisoblab, sud hal qiluv qarori chiqarish uchun alohida xona (maslahatxona)ga kiradi. Sud maslahatxonadan chiqqach, hal qiluv qarorini raislik qiluvchi o'qib eshittirdi.

Raislik etuvchi shikoyat qilish tartibi va muddatini, sud majlisi bayonnomasi bilan tanishib chiqish muddatlarini tushuntirib, sud majlisini yopiq deb e'lon qildi.

Raislik etuvchi:
Kotib:

S.A.Hoshimova
S.Hamidova

NIKOHDAN AJRATISH HAQIDAGI HAL QILUV QARORIDA BAYON QILINISHI LOZIM BO'LGAN MASALALAR

Nikohdan ajralish to'g'risidagi talabni qanoalantiradigan sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan vaqtdan e'tiboran er va xotin birlashtirilgan nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlarini bekor qiladilar.

Sudning hal qiluv qarorida ajralishning fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ajratish qayd qilinishi chog'ida o'zgartirilishi lozim bo'lgan davlat bojining er va xotinning qaysi biridan qancha miqdorda olinishi kerakligi, shuningdek, hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish tartibi ko'rsatiladi va qaror sudya tomonidan imzolanaadi.

Sudning nikohdan ajratish to'g'risidagi qarori faqat ajralishga bo'lgan huquqning tan olinganligini bildiradi. Taraflar sudning bu qarorini fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organida rasmiylashtiriladi. Nikohni bekor qilish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarilgandan so'ng ham er va xotinlarga o'z xatti-harakatlarining oqibatlarini to'g'risida yana bir marta o'ylab, mulohaza qilish uchun fursat beriladi. Sud tomonidan qaror chiqarilganidan keyin ham er va xotin birga yarashishlari hamda oilani saqlashlari mumkin. Shuning uchun ham er va xotin ajralish to'g'risidagi sud qarorlarini albatta muayyan bir vaqt ichida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organida rasmiylashtirishga majbur qilinmaydilar.

Nikohdan ajralish to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan sudning hal qiluv qarori bo'yicha FPKning 320-moddasiga muvofiq, umumiy masalalarda shikoyat qilinishi mumkin.

a) nikohni bekor qilish haqidagi da'vo arizalaridan -eng kam ish haqining 50 %

b) takroriy nikohni bekor qilish haqidagi da'vo arizalaridan -eng kam ish haqining 120%i miqdorida

v) nikohni bekor qilganlik haqidagi guvohnomani berganlik uchun -eng kam ish haqining 10%i miqdorida

g) nikohning bekor qilinganligini qayd etganlik uchun: -er-xotinlarning biridan yoki har ikkalasidan eng kam ish haqining 150% miqdorida

voyaga yetmagan bolalari bo'lmagan er-xotinlarning o'zaro roziligi bo'yicha d) agar er-xotin birinchi nikohda bo'lsa, sud qaroriga asosan -eng kam ish haqining 150%dan 300 %gacha bo'lgan miqdorda (er-xotinning biridan yoki umuman ikkilasidan)

ye) er-xotindan biri takroriy
nikohda bo`lsa, sud qaroriga asosan

-eng kam ish haqining
300%dan 400 % gacha
bo`lgan miqdorda (er-
xotinning biridan yoki
ularning ikkalasidan)

NIKOHDAN AJRATISH HAQIDAGI SUDNING HAL QILUV QARORINI ER-XOTINNING YARASHGANLIKLARI TUFAYLI IJRO QILISHNI TUGATISH HAQIDA

AJRIM

2001-yil 21-yanvar

Angren shahri

Toshkent viloyati, fuqarolik ishlari bo`yicha Angren shahar sudining ochiq sud majlisida sudya B.Ibratov raisligida, X.Sobirova kotibligida A.Olimov va D. Olimovalarning o`rtalaridagi nikohni bekor qilish haqidagi sudning hal qiluv qarori ijrosi bo`yicha ish yuritishni tugatish to`g`risidagi arizasi ko`rilib, tubandagilar

Aniqlandi:

Toshkent viloyati, fuqarolik ishlari bo`yicha Angren shahar sudining 2001-yil 22-dekabrda hal qiluv qaroriga ko`ra, A.Olimov bilan D.Olimovalar o`rtasida 1997-yil 14-martda tuzilgan nikohdan ajratilgan edilar.

Hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan.

Da`vogar A.Olimov va javobgar D.Olimovalar sudga ariza bilan murojaat etib, muqaddam nikohni bekor qilish to`g`risidagi chiqarilgan sudning hal qiluv qarorining ijrosini ish yuritishdan tugatishni so`rab, bunga asos qilib, ular hayotda bir oz adashganliklarini, bu harakatlarini uylamay-netmay qilganliklarini, eng muhimi-farzandlarini yetim qoldirmasdan birga tarbiyalashlarini, hozir yarashib, birga oilaviy hayot kechirayotganliklarini ko`rsatadilar.

Ajralish haqida ariza bilan nikohni qayd etish idoralariga murojaat qilmaganliklarini bildirishgan.

Nikohni bekor qilish to`g`risidagi ishlarni ijro bosqichida tugatish uchun taraflar kelishgan bo`lsalar, «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to`g`risida»gi qonunining 37-moddasida, shuningdek nikohdan ajratish to`g`risidagi ishlarni sudlarda ko`rish amaliyoti haqidagi 1998-yil 11-sentabrda Oliy sud Plenum qarorining 20-bandining 2-

qoʻllab va shu qarorga kiritilgan oʻzgartirishlarda agar nikohni bekor qilish ishlari boʻyicha sudning hal qiluv qarori chiqarilgandan keyin, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idoralarida roʻyxatdan oʻtmasdan oʻzlarini yarashsalar, sud FPKning 100-moddasiga asosan, taraflarning oʻzlarini bogʻliq boʻlgan taqdirda ijro harakatlarini ijro bosqichida tugatish ekanligi haqida koʻrsatilgan.

Yuqoridagilarga asosan sud A.Olimov bilan D.Olimovalarning oʻzlarini qanoatlanirishni lozim topadi.

Sud FPKning 100-moddasini hamda Ijro qonunining 37-moddasini qoʻllab

Ajrim qiladi:

Ali Olimov bilan Dono Olimovalar oʻrtasida tuzilgan nikohni bekor qilish haqidagi fuqarolik ishlari boʻyicha Angren shahar sudining 2000-yil 11 noyabrda chiqargan hal qiluv qarorini ijro qilish bilan bogʻliq boʻlgan harakatlar ijro bosqichida tugatilsin.

Ajrimdan norozi tomonlar 10 kun muddat ichida shu sud orqali fuqarolik ishlari boʻyicha Toshkent viloyati sudiga xususiy shikoyat (protest) keltirishlari mumkin.

Sudya:

B.Ibratov

Yuqori sudlarda hay'at tarkibida koʻrilgan ishlar boʻyicha qabul qilinadigan protsessual akt

AJRIM

2000-yil yanvar oyining 10 kunida Toshkent shahar sudining fuqarolik ishlari boʻyicha sudlov hay'atining ochiq sud majlisida raislik etuvchi V.U.Norov, hay'at sudyalari K.U.Saidov va S.A.Kamilovlarning ishtirokida Toshkent shahar prokurorining yordamchisi K.Burxanbekova, advokat SH.Narimanovalarning ishtirokida Toshkent shahar, S.Rahimov tuman sudining 1999-yil 7-dekabrda koʻrgan 1552-raqamli fuqarolik ishi boʻyicha chiqargan hal qiluv qaroriga norozi boʻlib, javobgar G.Fayzullayeva tomonidan keltirilgan shikoyat arizasiga koʻra, ish boʻyicha hay'at sudyasi S.A.Komilovning ma'ruzasi tinglanib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da'vogar Ravshan Nomozovich Fayzullayev bilan javobgar Gulshahnoz Abdukarimovna Fayzullayeva oʻrtalaridagi nikoh 1996-yil 7-

sentabrda qonuniy qayd qilingan. Turmushlari davrida 1997-yil 30-avgustda o'g'il farzand ko'rishgan. Er-xotin 1996-yil 30-noyabrdan beri birga yashamasligi aniqlandi.

Da'vogar R.N.Fayzallayev sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, o'rtalaridagi nikohdan ajratishni so'ragan, ular bunga asos qilib bir-birlarini tushunmasliklari, fe'l-atvorlarini (xarakterlarini) to'g'ri kelmasligi oqibatida javobgar o'z ota-onasining uyiga ketib qolganligini, natijada ularning munosabatlari sovib ketganligini, umuman ularning er-xotinlik munosabatlari 1996-yil noyabr oyidan beri yaxshi bo'lmaganligini, shu vaqtdan beri birga yashamasliklarini va oilani bundan keyin saqlab bo'lmashligi bilan asoslashga harakat qiladi.

Javobgar G.A.Fayzullayev nikohni bekor qilish haqidagi da'vo arizasini tan olib, oilani tiklab bo'lmashligini, bunga sabab da'vogar va uning oila a'zolari bilan bo'lib o'tgan janjallar natijasida birga yashash mumkin bo'lmagan holatlar vujudga kelganligini bildirgan. Shu bilan birga u o'zining qarshi da'vo arizasida, da'vogardan 1887 so'm miqdorda pul va da'vogar tomonidan qilingan mol-mulk yaroqsiz holda bo'lib, uning ham pulini undirishini so'ragan.

Toshkent shahri, S.Rahimov tuman sudining 1998-yil 7-dekabrda chiqargan hal qiluv qaroriga ko'ra, taraflar nikohdan ajratilgan bo'lib, G.A. Fayzullayeva foydasiga 375 so'mlik mol-mulk undirib berilgan.

Javobgar G.Fayzullayeva tomonidan yozilgan shikoyat arizasida sudning hal qiluv qarorining mol-mulkni taqsimlash qismidan norozi bo'lib, sud tomonidan uning da'volari to'la qanoatlantirilmaganligi ko'rsatilgan.

Ushbu shikoyat arizasiga da'vogar R.N.Fayzullayev tomonidan keltirilgan e'tiroz arizasida sudning chiqargan qarorini to'g'ri hisoblab, javobgarning shikoyat arizasini qanoatlantirmaslikni so'ragan.

Fuqarolik sudlov hay'ati ish materiallarini tekshirib, taraflarin bayonatin tinglab, shikoyat arizasida keltirilgan vajlarga baho berib ko'rib chiqib, quyidagilarga ko'ra sudning chiqargan hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirishini lozim topadi.

Sud har ikki tarafning nikohdan ajratish haqidagi vajlarini atroflicha ko'rib chiqib, kelgusida ularning oilasini tiklab bo'lmaydigan holat yuzaga kelganini, ular er-xotin sifatida bir-birlarini tushunmasliklarini, oqibatda doimiy ravishda janjal bo'lib kelganini va javobgarning o'zi oila qilishni istamay, 1996-yil noyabr oyidan boshlab ota-onasining uyiga ketib qolganini, shundan so'ng oilani tiklash haqida hech qanday harakat bo'lmaganligi aniqlangan. Sud tomonidan taraflarga berilgan yarashish

holatini ham ijobiy hal bo'lmagan. Shu holatlarni hisobga olib sud hal qiluv qarorida kelgusida taraflarning oilasini tiklab bo'lmaydi degan topiri xulosaga kelgan.

Davogbar G.Fayzullayevaning mol-mulkni undirish haqidagi da'vosi ham sud tomonidan to'g'ri hal qilingan, ya'ni sud majlisida aniqlangan holatga ko'ra G.Fayzullayeva o'ziga tegishli mol-mulkni 1997-yil 24-iyunda ota-onasi bilan birgalikda olib ketgan. G.Fayzullayevaning sudga berilgan da'vo arizasida, davogbar R.Fayzullayev tomonidan unga 35 muddan (predmetdan) iborat kiyim-bosh sovg'a qilingan bo'lib, shu mollarni davogbar bermagan deb ko'rsatiladi. Lekin sudda aniqlanishicha, davogbarning ota-onasi tomonidan faqat 375 so'mlik kiyim bilan 1000 so'm pul to'y davrida Fayzullayevalar oilasiga kelinga sovg'a qilish uchun berilganini taraflar sudda inkor etishmagan. Shuning uchun sud qarshi davogbar arizasini qisman qanoatlantirib, G.Fayzullayeva tomonidan berilgan qarshi da'vo arizasidagi mol-mulk da'vosi o'z tasdig'ini to'la topmagan, deb sud rad etgan. Sudning qarorida mol-mulk qismi ham to'g'ri hal qilingan bo'lib, haqiqatan G.Fayzullayeva o'ziga tegishli mol-mulkni olib ketayotganida unga sovg'a qilingan mol-mulklar davogbar tomonidan berilmagani to'g'risida hech qayerda qayd qilinmagan. Haqiqatda davogbarlar tomonidan 35 predmetdan iborat kiyim-bosh qilingan yoki qilinmaganligini Fayzullayeva sudda isbot eta olmagan.

Yuqoridagilarga ko'ra, sudlov hay'ati G.Fayzullayevaning shikoyat arizasidagi vajlar dalillanmagan deb hisoblab, birinchi instaniya sud qarorini o'zgarishsiz qoldirishni lozim topadi.

Ko'rsatilgan holatlarga asos qilib, FPKning 34815-moddasini qo'llab, fuqarolik sudlov hay'ati

Ajrim qiladi:

Toshkent shahar, S.Rahimov tuman sudining davogbar R.N.Fayzullayevning G.A.Fayzullayevaga nisbatan nikohni bekor qilish va mol-mulkni qaytarib berish haqidagi da'vo arisasi bo'yicha ko'rilgan fuqarolik ishi yuzasidan 1997-yil 7-dekabrda chiqargan hal qiluv qarori o'zgarishsiz qoldirilsin. Ish bo'yicha G.A.Fayzullayeva keltirgan kassatsiya shikoyati esa qanoatlantirilmay qoldirilsin.

Raislik etuvchi:

V.U.Norov

Hay'at sudyalari:

K.U.Saidov,
S.A.Komilov

V. BUYRUQ TARTIBIDA ISH YURITISH HAQIDA

Buyruq tartibida ayrim fuqarolik ishlarini yuritish fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan yangi institut bo`lib, uning maqsadi fuqarolik ishini sudga ko`rishni ixchamlantirishga qaratilgan.

Sud buyrug`ini chiqarish uchun sudga murojaat etilgan talab nizosiz bo`lishi lozim.

Sud bunday tartibda ish yuritishda fuqarolik protsessual huquqida belgilangan ish ko`rish bilan bog`liq qoidalarni tatbiq etmaydi, ish qo`zg`atilmaydi.

Sud buyrug`iga oid huquqiy me`yorlarda nizosiz tartibda unduruvchining pul mablag`larini undirish, shunindek ko`char mol mulkini qarzdordan talab qilish to`g`risidagi talablar ko`rilishi belgilangan. Nizosiz tartibda-degan so`zni, alohida tartibda ko`riladigan ishlardan farqlay olish lozim.

Sud buyrug`i tartibida ko`riladigan talablar qonunda belgilangan. Manfaatdor shaxs quyidagi xollarda sud buyrug`ini chiqarilishini talab qilishi mumkin:

- 1) agar talab notarial bitimiga asoslangan bo`lsa;
- 2) agar talab yozma bitimga asoslangan va javobgar tomonidan tan olingan bo`lsa;
- 3) agar voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirilishi haqidagi, otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarning jalb etish zaruriyati bilan bog`liq bo`lmagan talablar arz qilinmagan bo`lsa.

Fuqarolik protsessual qonunlarida ko`rsatilgandek, sud buyruqlarini chiqarish maqsadida sudga ariza bilan murojaat etadigan shaxs uning shakli mazmuniga rioya etishi talab etiladi. Sud buyrug`ini chiqarish to`g`risidagi ariza bilan sudga murojaat etgan manfaatdor shaxs taalluqlilik va sudlovlikka oid umumiy qoidalarga amal qilishi lozim. Sud buyrug`ini chiqarish to`g`risida talab qilinayotgan arizaning mazmuni fuqarolik ishining tarkumiga asoslanib yoziladi.

Aliment undirishga oid sud buyrug`i fuqarolik protsessual kodeksining umumiy qoidalari asosida ayrim istisnolarga rioya qilgan holda chiqariladi. Sud buyrug`i chiqarish to`g`risidagi ariza bo`yicha: ish qo`z`atilmaydi, sud maslahatxonaga kirmaydi, guvohlar so`roq qilinmaydi, ishda ishtirok etuvchi shaxslar qatnashmaydi va xokazolar. Sud buyrug`ini chiqarishda sudya umumiy qoidalarga rioya qilish bilan arizani ko`rishda ayrim turkumdagi ishlarni o`ziga xos xususiyatlariga ham e`tibor berishi lozim. Masalan, voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirishda

qarzdorni tug`ilgan sanasi va joyi, ta'minoti uchun aliment undirish qarzdorni tug`ilgan sanasi, qarzdorning har oyda undirilgan to'lovlar miqdori va ularning undirish muddati ko`rsatilgan bo`lishi lozim. Bunday tartibda aliment kimdan, qaysi vaqtdan boshlab, qaysi vaqtgacha undirish bo`limligi nazarda tutilgan.

Sud buyrug`ini chiqarishga oid ayrim protsessual xujjatlar

Aliment undirish to`g`risida sud
buyrug`ini chiqarish haqida
ariza namunasi

Fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar Mirzo Ulug`bek tumanlararo sudiga

Undiruvchi- Odilova Farida Ikromovna
Toshkent shahar, M.Ulug`bek tumani
Ayniy ko`chasi 2-uyda yashaydi.

Qarzdor- Odilov Maqsud O`rinovich 1980
yilda tug`ilgan, Toshkent shahar
M.Ulug`bek tumani, Xamza ko`chasi
10-uyda yashaydi

A R I Z A

(Aliment undirish to`g`risida sud buyrug`ini chiqarish)

Men, Odilova Farida 1988-yilda qarzdor Maqsud Odilov bilan qonuniy nikohdan o`tganman.

O`rtamizda 1999-yil 25-oktabrda tug`ilgan Ozod ismli farzandimiz bor.

Turmush o`rtog`im bilan 2001-yil yanvar oyiga qadar birgalikda yashab kelganmiz. Voyaga yetmagan farzandim mening qaramog`imda, lekin qarzdor, uning ta'minotiga hech qanday moddiy yordam ko`rsatmaydi va xolidan xabar olmaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, hamda FPKning 238/1-238/2-moddalariga asosan

S O' R A Y M A N

Qarzdor Odilov Maqsud O'rinovichdan mening foydamga voyaga yetmagan farzandim ta'minoti uchun u voyaga yetgunga qadar qonunda belgilangan miqdorda 2003-yil 10-yanvar (ya'ni ariza topshirilgan kundan boshlab), aliment undirish haqidagi sud buyrug`ini chiqarishingizni.

Ilova:-Arizadan nus'ha;

Nikoh guvohtomasidan nus'ha;

Bolaning tug`ilgani haqidagi guvohtomadan nus'ha;

Turar joydan ma'lumotnoma;

Qarzdorning ish joyidan ish haqi to`g`risidagi ma'lumotnoma.

2004-yil 15-iyun

Arizachi: F.Odilova

Voyaga yetmagan bolalar uchun
aliment undirish to`g`risida
sud buyrug`i

S U D B U Y R U G` I

2004-yil iyun oyining 24-kunida fuqarolik ishlari bo`yicha Samarqand viloyat Siyob tuman sudining sudyasi S.Obidov tomonidan, undiruvchi Siyob tumani, S.Tursunov shirkat xo`jaligi, Chandir qishlog`ida yashovchi Abduvaliyeva Nozimaning arizasi bo`yicha qarzdor Samarqand viloyati, Siyob tumani, Xuvaydo ko`chasi, 15-uyda yashovchi Komil Aliyevdan aliment urdirish to`g`risidagi arizani ko`rib quyidagilarni

A N I Q L A D I

Undiruvchi N.Abdullayeva arizasida K.Aliyev bilan qonuniy nikohdan o`tib turmush qurganliklarini, birga yashash vaqtlarida uch nafar

1. Aliyev Qodir -1997-y
2. Aliyev Nazar- 2000-y
3. Aliyeva Zaynab 2002-yil 30-iyunda tug`ilgan farzandlari borligi turmushlari boshida yaxshi yashaganligi, keyinchalik turmush o`rtog`i uni xurmat qilmay qo`yganligini, bo`lar-bo`lmas narsalarni bahona qilib urish janjal qiladigan odat chiqarib olganligini, u shu paytgacha farzandlarini kelajagini o`ylab chidab yashab kelganligini biroq turmush o`rtog`i bundan o`ziga tegishli xulosa chiqarmay janjalni davom ettirib kelayotganligini, uy-ro`zg`or ishlari bilan umuman ishi yo`qligini, moddiy tomondan yordam bermasligini, 2004-yil mart oyida uydan farzandlari bilan birgalikda xaydab chiqarib yuborganligini, shundan buyon ota-

... uyida yashayotganligini, shuning uchun, farzandlarning ta'minoti
... aliment undirish haqida sud buyrug`ini chiqarib berishini so`ragan.

Yuqoridagilarga ko`ra sud O`zbekiston Respublikasi FPK ning 238-
... moddasining 3-bandiga asosan, 238-1-moddasini qo`llab:

Buyuraman:

Qarzdor Samarqand viloyati Siyob tumani 15 uyda yashovchi, 1975
... tug`ilgan Komil Aliyevdan undiruvchi Nozima Abduvaliyevaning
loydasiga:

1. Aliyev Qodir 10-may 1997-yilda

2. Aliyev Nazar 20-aprel 2000-yilda

3. Aliyeva Zaynab 30-iyun 2002-yilda tug`ilgan farzandlarining
... tabiyasi uchun ular voyaga yetganlariga qadarli har oyida ish haqi va
boshqa daromadlardan $\frac{1}{2}$ qismi miqdorida aliment undirilsin.Undirish
... yil 20-iyundan boshlab hisoblansin.

Qarzdor K.Aliyevdan 1306 so`m miqdorida davlat boji davlat
loydasiga undirilsin.

Qarzdor buyruqni olgan kundan e'tiboran talab qilingan ariza
yuzasidan e'tiroz bildirishi uchun o`n kun muddat ichida shu sudga
yuborishga haqli.

Sudya

S.Obidov

Agar sud buyrug`ini chiqarish to`g`risidagi ariza FPKda belgilangan
talablarga javob bermasa yoki davlat boji to`lamagan bo`lsa, sudya mavjud
kamchiliklarini bartaraf etish uchun muhlat belgilashga haqli. Agar
undiruvchi sudyaning ajrimida ko`rsatilgan kamchiliklarini belgilangan
muddatda bartaraf etsa, ariza sudga dastlab taqdim etilgan kuni berilgan
hisoblanadi.Aks holda, sud`ya arizani qabul qilishini rad etish,
undiruvchini ana shu talab bo`yicha da`vo tartibida ish qo`zg`atish
huquqidan mahrum etyadi.

Sud buyrug`ini chiqarish
to`g`risidagi arizani qabul
qilishni rad etish xususidagi
ajrim namunasi

A J R I M:

2004-yil 14-avgust kuni Toshkent shahar, M.Ulug`bek tumanlararo sudining ish yurituvdagi 30-sonli ishini sudya A.Mexmonov raisligida undiruvchi, Toshkent shahar, M.Ulug`bek tuman Xuvaydo ko`chasi 10 uyda yashovchi Q.Zokirovning, qarzdor Toshkent shahar, M.Ulug`bek tuman Shalola ko`cha 5 uyda yashovchi Umar Abzalovdan 25.000 (yigirma besh ming) so`m qarzni undirish haqidagi arizasini ko`rib quyidagilarni

A N I Q L A D I:

Undiruvchi Q.Zokirovning arizasida qarzdor U.Abzalovga 2004-yil 12-may kuni 25.000 (yigirma besh ming) so`m qarz berganligini lekin bu qarzni to`liq qaytarmasdan 20.000 so`mni pul hisobida, qolgan 5.000 so`m e`vaziga bir dona "Xiva" gilamini berganligini, u bundan norozi ekanligini bunga asos qilib keyinchalik aniqlasa, olgan gilami yuqoridagi narxdan ham arzon ekanligi, uni haqiqiy narxi 3.500 (uch ming besh yuz) so`mligini ko`rsatib qolgan 1500 (bir ming besh yuz) so`mni undirish to`g`risida sud buyrug`ini chiqarib berishini so`ragan.

Qarzdor U.Abzalov arizachi talablarini rad etib bunga asos qilib haqiqatdan 5.000 (besh ming) so`m qarzni qoplash uchun bir dona Xiva gilamini berganligini, gilamni baholashda magazinga birga borib shunday gilamni ko`rganligini, uni bahosi ham xuddi shunday bahoda sotilyotganligini, shularga ko`ra undiruvchi rozi bo`lganligini, keyinchalik qandaydir sabablarga ko`ra, o`z so`zidan qaytganligini bildiradi.

Yuqoridagilarga ko`ra sudya undiruvchi tomonidan qo`yilgan talab O`zbekiston Respublikasi FPKning 238/2-modasida nazarda tutilmaganligini hamda ishda taraflar o`rtasida nizo mavjudligini e`tiborga olib, O`zbekiston Respublikasi FPKning 238/8-moddasi 4-bandini qo`llab:

A J R I M Q I L A D I

Undiruvchi Qodir Zokirovning qarzdor Umar Abzalovdan 1.500 (bir ming besh yuz) so`m undirish to`g`risidagi arz talabini ish yuritishga qabul qilish rad etilsin.

10 langan 100 (yuz) so`m davlat boji arizachiga qaytarilsin. Arizachi umumiy tartibda da'vo qo`zg`atishga haqli ekanligi tushuntirilsin.

Ajrimdan norozi qarzdor o`n kun muddat ichida shu sudga e'tiroz bildirishga haqli.

Sudya:-

A.Mexmonov

Fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar, Mirzo Ulug`bek tumanlararo sudiga

Undiruvchi- Abdulla Aliboyev, Toshkent shahar M.Ulug`bek tuman, Katushev ko`cha 10-uyda yashaydi

Qarzdor- Qodirjon Azimov,
Toshkent shahar, M.Ulug`bek tumani,
Yaxyo G`ulomov ko`cha, 30- uyd a yashaydi.

A R I Z A

(qarzni undirish haqida)

Men, qarzdor tanishim Q.Azimovga uning iltimosiga ko`ra, 2003-yil 15-dekabrda 100.000 (yuz ming) so`m to`y harajatlari uchun qarz bergan edim. Olgan qarzini notarial tartibda 2003-yil 15-dekabrda tasdiqlatib qo`yganmiz unga ko`ra Q.Azimov qarzni 2003-yil 30-dekabrda qaytarishini ko`rsatgan edi. Biroq qarzdor olgan pulini mana olti oy bo`libdiki qaytarishni ham o`ylamaydi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, hamda FPKning 238/2-moddastga asosan

S O ` R A Y M A N :

Qarzdor Qodirjon Azimovdan meni foydamga 100.000 (yuz ming) so`m qarzini undirib berish haqida sud buyrug`ini chiqarishingizni.

Ilova:- 1) Notarial tasdiqlangan tilxat

2) Yashash joyidan ma'lumotnoma.

Arizachi:

A.Aliboyev

S U D B U Y R U G` I

2004-yil oktabr oyining 26-kunida M.Ulug`bek tumanlararo sudining ish yurituvida 30-sonli fuqarolik ishi, tuman sudining sudyasi A.Ashurovning raisligida, undiruvchi Toshkent shahar M.Ulug`bek tumani Katushev ko`cha, 10-uyda yashovchi Abdulla Aliboyevning qarzdor Toshkent shahar, Mirzo Ulug`bek tumani Yaxyo G`ulomov ko`cha 30-uyda yashovchi Qodirjon Azimovdan qarz shartnomasi asosida 15-dekabr 2003-yilda olgan 100.000 (yuz ming) so`mni undirish haqida sud buyrug`ini chiqarib berish haqidagi arizasi ko`rib quyidagilar aniqlandi:

Undiruvchi A.Aliboyev arizasida qo`shnisi Q.Azimovga to`y bilan bog`liq bo`lgan sarf-xarajatlar uchun 2003-yil 15-dekabrda 100.000 (yuz ming) so`m olganligini, bu xolat qarzdor tomonidan berilgan tilxat notarial idora tomonidan tasdiqlangan bo`lib, unga ko`ra qarz 2003-yil 30-dekabr kuni qaytarilib berishi lozim ekanligi ko`rsatilgan.

Undiruvchi qarzni qaytarish to`g`risida talab qilishiga qaramasdan "bugun-erta" deb, o`n oydan ko`p vaqt o`tganini bayon qiladi.

Yuqoridagilarga ko`ra, O`zbekiston Respublikasi FPKning 238/2-moddasi 1-bandiga, hamda 238/8-moddalarini qo`llab;

B U Y U R A M A N

Qarzdor Toshkent shahar, M.Ulug`bek tumani Yaxyo G`ulomov ko`cha 30-uyda yashovchi Qodirjon Azimovdan, undiruvchi-Toshkent shahar, Mirzo Ulug`bek tumani, Katushev ko`cha, 10-uyda yashovchi Abdulla Aliboyev foydasiga 100.000 (yuz ming) so`m undirilsin.

Qarzdor Q.Azimovga 5.000 (besh ming) so`m miqdorida davlat boji davlat foydasiga undirilsin.

Qarzdor buyrug`ni olgan muddatdan e`tiboran talab qilgan ariza yuzasidan e`tirozini o`n kun muddat ichida shu sudga yuborishga haqli.

Sudya:-

A.Ashurov

VI. SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQUARISH HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Fuqarolik protsessual huquqi qonunchiligi sirdan hal qiluv qarorini chiqarish tartibi yangi institut bo`lib xisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik protsessual kodeksi qabul qilgunga qadarsud amaliyotida fuqarolik ishlarini sirdan ko`rib, hal qiruv qarori chiqarilmaganligini ta`kidlab o`tish joizdir. O`zbekiston mustaqillikka erishib, dunyo hamjamiyatlari o`rtasida o`zining munosib o`rnini egallashi tufayli, qonun ijodkorligi masalalari ham rivojlana boshladi shu bilan taraqqiy etgan davlatlarning tajribalaridan foydalanishmaqsadga muvofiqligi hech kimga sir emas. Shu ma'noda fuqarolik ishlarini sirdan ko`rib hal etish qator xorijiy davlatlarda, shu jumladan, Rossiya Federatsiyasida ham amalga oshirilmoqda.

Sirdan ish ko`rish institutining kiritilishdan maqsad fuqarolik protsessida tortishuvchilik ta'moyilining qo`shimcha ravishda kafolatlanishini mustahkamlash, taraflarning harakati (harakatsizligi) uchun javobgarlik darajasini oshirishlik, nizoli masalani hal etishni tezlashtirish, mohiyatini yo`qotmasdan belgilangan vaqtda ko`rib hal etish bilan manfaatdor shaxslarning qonuniy huquqlarini himoya qilishga qaratilganligidir.

Bundan tashqari sirdan ish ko`rish va hal qiluv qarorini chiqarish uchun oddiy va ixcham protsessual harakatlarni amalga oshirishdan foydalanish imkoniyati yuzaga keladi.

Sirdan hal qiluv qarorini chiqarish uchun ikkita shart vujudga kelgan bo`lishi kerak.

Birinchidan, javobgar qonunda belgilangan tartibda sudmajlisida ko`riladigan ish haqida xabardor qilingan va bu haqli ishda tegishli ma'lumot bo`lishi talab qilinadi. Bunday talab FPKning 2240moddasida belgilangan, unga ko`ra, sud majlisining vaqti va joyi to`g`risida tegishli tartibda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmagan taqdirda, da'vogar e'tiroz bildirmasa, sud ish bo`yicha sirdan hal qiluv qarorini chiqarish mumkin. Ishni bunday tartibda ko`rish haqida ajrim chiqaradi. Javobgar tegishli tartibda xabardor qilgani haqida ishda ma'lumot bo`lishi lozim.

Ikkinchidan, agar ishda bir nechta javobgar ishtirok etib, sud majlisiga ular kelmagan taqdirda, sirdan hal qiluv qarori chiqarilishiga yo`l qo`yiladi.

Demak, bu qoidaning mazmuniga ko`ra, sud'ya qanday sabablarga asosan javobgar sud majlisiga kelmaganlik sababini aniqlashi lozim, chunki bu sirdan ish ko`rib, hal qiluv qarorini chiqarish uchun bog`liq bo`ladigan hisoblardan biri hisoblanadi.

Agar sudga kelmaslik sababi uzrli bo`lib, sud bu haqida voqif bo`lsa, taraflar ularning ikkinchi chaqiruv bo`yicha kelmagan bo`lsalar, sirdan hal qiluv qarorini chiqarishga yo`l qo`yilmaydi.

Sirdan hal qiluv qarorini chiqarish uchun da'vogarning o`zi sirdan hal qiluv qarorini chiqarishga rozi bo`lmog`i talab qilinadi.¹

Yuqoridagilarga ko`ra, sirdan hal qiluv qarorini chiqarish uchun : 1) javobgarlarning sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko`ra kelmaganliklari: 2) javobgarning ishtirokisiz ishini sirdan ko`rish haqida iltimosi bo`lmasligi: 3) sud majlisida ishtirok etuvchi da'vogar javobgarning ishtirokisiz ish ko`rishga rozi bo`masligi va nihoyat 4) ish ko`rish jarayonida da'vogar ish bo`yicha da'vo predmeti, asoslarini o`zgartirish, da'vo miqdorini ko`paytirish to`g`risida qo`yilgan talablar bo`yicha sirdan ish yuritishga yo`l qo`yilmaydi.

Sirdan ish yuritish tartibning yana o`ziga xos xususiyatlari shundaki, agar fuqarolik ishini umumiy tartibda ko`rishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish yuritilayotgan vaqtda o`z manzilini o`zgartirganligini haqida sudga ma'lum qilishi lozimligi, aks holda chiqaruv qog`ozi sudga ma'lum bo`lgan oxirgi manzili bo`yicha yuborilishi, chaqiriluvchi bu manzilda yashayotgan bo`lsada, chaqiruv qog`ozi unga topshirilgan hisob lanishi haqidagi qoida (FPKning 138-moddasi) sirdan ish yuritish tartibiga tatbiq etilmaydi, chunki bunday tartibda ish ko`rish uchun qonunda javobgarni shaxsan xabardor qilinganligi haqida ishda aniq-tiniq ma'lumot bo`lmog`i lozim.

Javobgarning yashash joyining noma'lum bo`lishi ham sirdan ish ko`rishda tatbiq etilmaydi (FPKning 139-moddasi).

Agar sirdan ish yuritish tartibiga, da'vogar e'tiroz bildirgan taqdirda, bu haqda sud majlisining bayonnomasida o`z aksini topgan bo`lishi lozim.

Sirdan ish yuritish uchun yetarli asoslar mavjud bo`lgan taqdirda, sud bu haqda ajrim chiqaradi.

¹ Qarang: O`zbekiston Respublikasi Oliy sudning 1998-yil 17-apreldagi Plenum qarorlari – T.,1998, 58 bet.

**Sirtidan ish ko`rishga oid ayrim protsessual hujjatlardan
na'munalar.**

**AJRIM
Ishni sirtidan ko`rish haqida**

24-aprel

Toshkent shahri

Toshkent shahar Mirzo Ulug`bek tumanlararo sudi raislik etuvchi Abdulla Jabborov, R.Nazimovanning kotibligida, prokuror X.Xalilov, advokat Nodirov Ummatlarning ishtirokida da'vogar Said Alimovning javobgar Sanam Aliyevaga nisbatan uy-joydan ko`chirish to`g`risidagi fuqarolik ishini ko`rib chiqib, quyidagilarni

ANIQLADI:

Javobgar Sanam Alimovaga tegishlitartibda sud majlisini vaqti va joyi haqidagi xabar qilingan bo`lishiga qaramay, sud majlisiga uzrsiz sabab bilan kelmadi.

AJRIM

Da'vogar Said Alimovning, javobgar Sanam Alimovga nisbatan uy-joydan ko`chirish haqidagi fuvarolik ishini sirtidan ish yuritish tartibida ko`rilsin.

Sud'ya:

E.M.Maxmudov.

Sirtidan chiqarilgan hal qiluv
qaroriga prokurordan protest
keltirishini so`rab beriladigan
arizani namunasi

Toshkent shahar M.Ulug`bek tumani
prokurori yustitsiya katta
maslahatchisi R.Olimovga

A R I Z A

(Protest keltirish haqida)

Toshkent shahar M.Ulug`bek tuman sudi 2005-yil 2-aprelda 10-sonli tuzilgan shartnomani haqiqiy emasligi haqida shu tuman ijro ishlari

bo`yicha departamentining sud ijrochisi M.Norovning 2005-yil 30-apreldagi taqdimnomasi menga ko`rsatildi.

Unda qo`shnim R.Rustamovdan olgan 10.000 (o`n ming) so`m qarzni belgilangan vaqtda to`lamaganligim bayon qilingan.

Tasdiqnomada bunga asos qilib M.Ulug`bek tuman sudining 2005-yil 25-apreldagi 21-sonli sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarori ko`rsatilgan.

Sudning chiqargan hal qiluv qarorini g`ayriqonuniy deb hisoblayman va quyidagi holatlarga ko`ra asoslantiraman.

Menda mavjud xujjatlarning nus'halariga qaraganda hal qluv qarori 2005-yil 25-aprelda qabul qilingani ko`rinadi. Men sud majlisida qatnashmaganman va undan xabardor bo`lmaganman vaholanki shu vaqtda hech joyga ketmaganman, bu haqda tegishli dalillarim mavjud.

Sud meni ish ko`rishga jalb etishi majbur bo`lsa-da meni ishtirkimsiz ish ko`rgan.

Sud majlisida qatnashish uchun sud chaqiruv qog`ozini olmaganman.

Men haqiqatdan ham qarz olganman biroq uni qaytarish muddati 2005-yil 10-iyulga belgilangan edi.

Hozirgi vaqtda olgan qarzimni moddiy tomonidan qiynalغانligim tufayli muddatdan ilgari qaytarishga qurbim yetmaydi.

Yuqoridagilarga ko`ra, O`zbekiston Respublikasi FPKning 310-moddasiga asosan

S O` R A Y M A N

1. Toshkent shahar M.Ulug`bek tuman sudining 21-sonli 2005-yil 25-aprelda sirtidan chiqarilgan hal qiluv qaroriga oid ishni talab qilib olib bekor qilish haqida protest keltirishingizni.

Arizachiga ilova:

1. M.Ulug`bek tuman sudining 2005-yil 21-aprelda chiqarilgan hal qiluv qaroridan nus'ha;
2. Sud ijrosining taqdimnomasidan nus'ha;
3. Qarz shartnomasining nus'hasi.

Arizachi:

R.Olimov.

Sirtidan chiqarilgan hal qiluv
qarorini qayta ko`rish haqida
ariza

Toshkent shahar Shayxontoxur
tumanlararo sudiga

Javobgar: Abdulla Azizov, Toshkent
shahar, Shayxontoxur tumani,
Bekzod ko`cha 10-uyda
yashaydi.

A R I Z A

(hal qiluv qarorini qayta ko`rish haqida)

Toshkent shahar, Shayxontohur tuman sudining ish yuritishda da'vogar Axror Azizovning ukasi Abdulla Azizovga nisbatan uy-joydan ko`chirish haqidagi ishi bo`yicha 2005-yil 2-martda sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarorini g`ayriqonuniy deb hisoblayman, chunki sud ishni ko`rishda protsessida ishtirok etmagan edim. Bu uzrli bo`lib, birinchidan: men o`sha kunlari bemor bo`lib bulletendan bo`lganman, ikkinchidan, ish ko`rish kuni vaqtdan xabardor bo`lmaganman. Shularga ko`ra, bu holatlarni uzrli deb topishingizni so`rayman.

Bulardan tashqari hal qiluv qarorini qayta ko`rish uchun muhim asoslar mavjud bo`lib akam Abdulla Azizovga uyni bir qismini berganligi evaziga men "Jiguli" avtomashinamni berganligim haqida asosli dalillarim ham mavjud. Keltirilgan bu dalillar da'vogarning talabini o`rinsiz deb topish uchun asosli bo`ladi, deb hisoblayman.

Da'voli ishni holisona va to`g`ri ko`rib hal qilish maqsadida O`zbekiston Respublikasi FPKning 229-moddasiga asoslanib,

S O` R A Y M A N:

Sudning 2005-yil 2-martda sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qilib ishni mazmunan qayta ko`rishni.

Arizaga ilova:

1. Kasalligim haqida ma'lumotnoma;
2. "Jiguli" mashinamni berganligim haqida tilxat.

A.Azizov

2005-yil 10-mart

**HAL QILUV QARORI /sirdan/
O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN**

2003-yil fevral oyining 21 kuni toshkent shahar Shayxontoxur tumanlararo fuqarolik ishlari bo'yicha sudi, o'z binosida ochiq sud majlisida

Raislik etuvchi SH.B.Raxmonov.

M.Shonosirovning kotibligida tomonlardan S.raximov tumani prokurori yordamida B.Jumayevning ishtirokida

Da'vogarning Toshkent shahar S.Raximov tuman xokimiyatining javobgar Karimov Abdullaga nisbatan noqonuniy ko`rilmani buzish haqidagi da'vo arizasi bo'yicha fuqarolik ishini ko`rib quyidagilarni

ANIQLADI:

Da'vogar S.Raximov tuman hokimiyati noqonuniy qurilmani buzish haqidagi javobgar Abdulla Karimovga nisbatan da'vo arizasi bilan murojaat etib, ariza S.Raximov tuman uy-joylarni xisobga olish va nazorat qilish bo`limi xodimlari tomonidan tekshirilganda fuqaro A.Karimov hech qanday xujjatsiz o`zboshimchalik bilan xovlisi yonida 128,7 m kv. yer maydonini qo`shib olgani, bu yerga qurilmalar qurganligi, shu sababli O`zbekiston Respublikasi FKning 212-moddasiga asosan fuqaro A.Karimovdan noqonuniy yer maydonida qurgan qurilmalarni o`z hisobidan buzib tashlab, yer maydonini bo`shatib berishini so`ragan.

Sud majlisida da'vogar vakili X.Tlmuxammedov ishtirok etib, da'vo arizasini qo`llab-quvvatlab, suddan uni qanoatlantirishni so`radi. Javobgar A.Karimov sud majlisi vaqti va joyi haqidagi tegishli tartibda ogohlantirilgan bo`lsada uzrsiz sabablarga ko`ra, sud majlisida hozir bo`lmadi. Shu sababli sud O`zbekiston resublikasi FPKning 224-moddasiga ko`ra, ishni sirdan ko`rib hal qilishni lozim deb topdi. Bu qonunda ko`rsatilishicha, "sud majlisi vaqti va joyi haqidagi tegishli tartibda xabardor qilingan javobgar sud majlisiga kelmagan taqdirda da'vogar e'tiroz bildirmasa sud ish bo'yicha sirdan hal qiluv qarori chiqarishi mumkin" deb ko`rsatilgan. Da'vogar vakili bunga e'tiroz bildirmadi.

Sud da'vogar vakili bayonoti tuman prokurori yordamchisi B.Jumayevning nutqini tinglab, quyidagilarga ko`ra da'vo arizasini qanoatlantirishlozim deb topadi.

Aniqlangan holatlarga ko`ra, S.Raximov tuman BTI xodimlari tomonidan tekshirilganda fuqaro A.Karimov tomonidan o`zboshimchalik bilan 128,7 m kv. Yer mydonini qo`shib olganligini uy yerlariga 3 ta xonasi yerto`la, soyabon, yo`lak, oshxona, darvoza qurilganligi, BTI

vochtumlari tomonidan ogohlantirilgan bo'lishiga qaramay qurilmalarni buzib tashlamaganligi, ularni qurish uchun hech qayerdan ruxsat olmaganligi, S Raximov tuman xokimiyati tomonidan bir nechta marta ogohlantirishga qaramay tegishli qurish ishlarini davom ettirganligi, ogohlantirishlar javobsiz qolganligi, shu sababli sudga murojaat etganliklari suddan ushbu noqonuniy qurilmalarni buzish haqida qaror chiqarib, da'vo arizasini qanoatlantirishni so'raganligi ma'lum bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi FKning 212-modasida –qonun muddatlarida belgilangan tartibda qurilish maqsadlari uchun ajratilmagan yer uchaskalarida, shuningdek imorat qurish uchun zarur ruxsatnoma olmasdan yoki arxitektura va qurilish normalari xamda qoidalarini jiddiy buzgan qurilgan uy-joy, boshqa bino, muhoorat yoki o'zga ko'chmas mulk o'zboshimchalik bilan qurilgan imorat hisoblanadi deb ko'rsatilgan.

Shularga asosan, da'vogarning da'vo talablari o'rinni ekanligini inobatga olgan holda sud da'voni qanoatlantirishni va o'zboshimchalik bilan qurilgan qurilmalarini buzishni javobgarga yuklashni lozim deb topadi.

Binobarin sud yuqoridagilarga ko'ra, hamda O'zbekiston Respublikasining FKning 212-moddasiga O'zbekiston Respublikasi FPKning 224 va 202-206-moddasiga O'zbekiston Respublikasining FKning 212-moddasiga O'zbekiston Respublikasi FPKning 224 va 202-206-moddalarini qo'llab

QAROR QILDI:

Da'vogar Toshkent shahar S.Raximov tuman xokimiyatning javobgar Abdulla Karimovga nisbatan noqonuniy qurilmalarni buzish haqidagi da'vo arizasi qanoatlantirilsin.

Toshkent shahar s.Raximov tuman Tog'li bog' ko'cha 4-uy oldidagi 128,7 m kv. o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer maydonidagi 3 ta yashash xonasi, yerto'la, soyabon, yo'lak, oshxona, darvozalar javobgar Karimov Abdulla tomonidan buzib, yer maydoni ochib tashlansin.

Hal qiluv qaroridan nusxa ishda ishtirok etayotgan javobgarga besh kun muddat ichida yuborilsin. Shuningdek, o'n besh kun muddat ichida shu sudga ishni qayta ko'rish haqida ariza berishga haqli ekanligi tushuntirilsin.

Qarordan norozi taraflar 20 kunlik muddat ichida ushbu sud orqali Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha sudiga apellatsiya tartibida shikoyat berishga, prokuror protest keltirishga haqlidir.

Raislik etuvchi:

Nusxa asliga to'g'ri.

Raislik etuvchi

Hal qiluv qarori 13.03.2003-yil kuni qonuniy kuchga kiradi.
Raislik etuvchi:

HAL QILUV QARORI/sirtidan/

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN

2002-yil aprel oyining 1 kuni Toshkent shahar Shayxontoxur tumanlararo fuqarolik ishlari bo`yicha sudi sud'ya M.A.Abdullayevning raisligida, N.Usmonovning kotibligida, da'vogar Azizova Shoxidani, javobgar Xusniddin va Azizova Ibotdatxonlarga nisbatan uyg'a kiritish to`g`risidagi fuqarolik ishini ko`rib, sud quyidagilarni

ANIQLADI:

Da'vogar SH.Azizova da'vo arizasida, javobgar X.Azizova bilan 1993-yilda qonuniy nikohdan o`tib turmush qurganliklarini, birgalikda turmushlaridan ikki nafar farzandlari borligini, kelin bo`lib S.Raximov tuman Xursand ko`chasi 58 uyg'a tushganligini keyingi vaqtlarda javobgar arzimagan baxonalar bilan urish janjal qilishligini shu sababli farzandlari bilan birgalikda ota-onasini uyiiga ketishga majbur bo`lganligini, ammo uy-joy tor bo`lganligi sababli, farzandlari bilan qiynalib qolganliklarini, xozirda yashashga uyi yo`qligini bildirib uni kelin bo`lib tushgan S.Raximov tumani 58 uyg'a kiritib qo`yishini bayon qiladi.

Sud majlisida da'vogar o`z da'vosini quvvatlab, uni qanoatlantirishni so`raydi.

Sud majlisida da'vogar o`zi da'vosini quvvatlab, uni qanoatlantirishni so`raydi.

Sud majlisiga javobgar tegishli tartibda bir nechta rasmiy ravishda chaqirilishiga qaramasdan kelmaganligi sababli sud O`zbekiston Respublikasi FPKning 224-moddasiga asosan, ishni javobgarlarning ishtirokisiz sirtidan ko`rib hal etishni lozim topadi.

Sud ishdagi to`plangan xujjatlarga baho berib, da'vogarning sud majlisida bergan bayonotlarini tinglab, quyidagilarga ko`ra da'voni qanoatlantirishni lozim topadi.

Sud majlisida aniqlanishicha, da'vogar Azizova Shoxida va javobgar Azizov Xusniddin 1993-yilda qonuniy nikohdan o`tib, turmush qurganlar. Ularning birgalikdagi turmushlaridan ikki nafar farzandlari tug`ilgan.

Da'vogar kelin bo`lib Toshkent shahar S.Rahimov tumani Xursand ko`chasi 58 uyg'a tushgan. Ushbu nizoli uy javobgar Azizov Xusniddin egaligida bo`lgan.

Azizova Sh. turmush o'rtog'i bilan o'zaro murosalari kelishmasdan qolganligi sababli, 2001-yilda farzandlari bilan ota-onasining uyiga ketishga majbur bo'lgani, bir necha marta uyga kirish to'g'risida murojaat qilsada javobgarlar ixtiyoriy ravishda uni uyga kirish to'g'risida murojaat qilsada javobgarlar ixtiyoriy ravishda uni kirib yashashga to'sqinlik qilganligi, ota-onasining uyi tor bo'lganligi sababli da'vogar ikki nafar farzandlari bilan qiynalib qolganligi, xozirda uning yashash uchun uy mavjud emasligi aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 32-moddasiga asosan, uy kvartira mulkdorning oila a'zolari, shuningdek u bilan doimiy yashayotgan fuqarolar, agar ularning ko'chirib kelgan paytda yozma ravishda boshqa xol qayd etilgan bo'lmasa, uyidagi, kvartiradagi xonalardan mulkdor bilan teng foydalanishga haqlidir. Turar joy mulkdorning oila a'zolari deb, u bilan doimiy yashayotgan xotin va ularning farzandlari tan olinadi.

Mazkur holatda da'vogar shu nizoli uyda yashovchilarning oila a'zosi bo'lib hisoblanadi, shu bilan u shu nizoli yashovchilar bilan teng ravishda uyda yashash va foydalanish huquqiga egadir.

Aniqlangan holatdan kelib chiqqan holda sud da'vogarning talabini qanoatlantirishni, da'vogarni nizoli uyga kiritib qo'yishni lozim deb topadi.

Yuqoridagilarga asosan va O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 32-moddasi, FPKning 203-206 va 224-moddalariga ko'ra, sud

QAROR QILADI:

Da'vogarning da'vosi qanoatlantirilsin.

Da'vogar Azizova Shoxida ikki nafar farzandi bilan birgalikda Toshkent shahar S.Raximov tumani Xursand ko'chasi 58 uyga kiritib qo'yilsin.

Sud majlisida ishtirok etmagan javobgarlar 15 kun muddat ichida sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorini qayta ko'rish haqidagi shu tuman sudiga, qarordan norozi tomon 20 kun muddat ichida Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha sudiga shu sud orqali shikoyat berishga prokuror protest keltirishga haqli.

Raislik etuvchi:

Abdullayev M.A.

VII. ALIMENT UNDIRISH, OTALIKNI BELGILASHGA OID PROTSESSUAL HUJJATLAR

ALIMENTNI IXTIYORIY TO`LASH XUSUSIDA

Mazkur toifadagi ishlar bo`yicha arizalarni qabul qilishda sudya manfaatdor shaxslarga alimentlarning sud qarori bo`yicha ham, shuningdek, aliment to`lashga majburiy bo`lgan shaxslarning ish joyi (pensiya, stipendiya olish joyi) bo`yicha ham ma`muriyatga berilgan yozma arizasiga muvofiq ixtiyoriy tartibda ham undirilishi mumkinligini tushuntirish lozim. Bunday hollarda ma`muriyat berilgan arizaga muvofiq har oyda qarzdorning ish haqi (pensiya va boshqa summalar)dan alimentni undirishga hamda arizada ko`rsatilgan shaxslarga ijro varaqasi bo`yicha to`lanishi lozim bo`lgan muddatlarda to`lashga majbur. Bu tartib aliment oluvchi shaxslarni aliment undirilishi to`g`risidagi da`volari bilan har qachon sudga murojaat etish huquqidan mahrum qilmaydi (Oila kodeksining 96-moddasi).

Aliment undirish bilan bog`liq bo`lgan fuqarolik ishlari birinchi instansiya sudlarida ko`rib hal etiladi.

Qonun ayrim hollarda aliment undirish to`g`risidagi ishlar bo`yicha nizo bo`lmasa, fuqarolik ishi qo`zg`atilmasdan sudyaning o`zi ishni ko`rishi mumkinligiga yo`l qo`yadi.

Nizosiz tartibda balog`atga yetmagan bolalarning ta`minoti uchun aliment undirishga asos bo`lib, manfaatdor shaxslar (arizachi)ning arizasi hisoblanadi. Birinchi instansiya sudida ko`riladigan bunday nizosiz ishlar bo`yicha sudya qaror chiqaradi. Sudya ishni ko`rishda qarzdor shaxsning aliment to`lash uchun roziligini aniqlaydi va bu haqda xabardor qilinadi.

Agar qarzdor shaxs aliment to`lashi haqida xabardor bo`lishiga qaramay, o`zining noroziligini bildirmasa va bu to`g`rida sudga tegishli ma`lumot bermasa, sudya bunday hollarda ham aliment undirish haqida qaror chiqarishga haqli.

Qarzdor shaxs qarordan norozi bo`lib, noroziligini asoslagan hollarda aliment undirish to`g`risidagi qarorini bekor qilish haqida sudya ajrim chiqaradi. Shu ish bo`yicha nizo paydo bo`lgan holda ham qaror bekor qilinib, fuqarolik ishi sudda umumiy da`vo qo`zg`atish tartibida ko`riladi.

Toshkent shahri, Chilonzor tuman sudiga
Arizachi: Yulduz Mahmudova-Toshkent shahar,
Chilonzor tumani, Muqimiy ko`chasi, 20-
uyda yashaydi.

To`lovchi: Nizom Mahmudov-Toshkent shahar,
Chilonzor tumani, Qiziltepa ko`chasi, 10-
uyda yashaydi.

ARIZA

(Aliment undirish haqida)

Men 1995-yil 10-aprelda Nizom Mahmudovga nikohni qonuniy tasmiylashtirgan holda turnushga chiqdim. Hozirda oilaviy turmushimiz turli sabablarga ko`ra buzilgan, bunda mening ota-onamning ayblari bor. Erim 1999-yil avgust oyida oilani tashlab chiqib ketdi. Oilaviy turmushimiz davrida-1997-yil 1-oktabrda Ulug`bek ismli farzand ko`rdik. O`g`lim mening qaramog`imda tarbiyalanyapti, lekin otasi unga moddiy yordam bermayapti. Erimning boshqa oilasi va farzandlari yo`q bo`lib, ijro hujjatlari bo`yicha topgan daromadlaridan nafaqa miqdori ushlanmaydi.

O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-97-moddalariga asosan

So`rayman:

Toshkent viloyati, Bo`ka tumanida 1958-yil 30-vustda tug`ilgan Nizom Mahmudovdan mening foydamga 1997-yil 1-oktabrda tug`ilgan Ulug`bek ismli o`g`limning ta`minoti uchun 1999-yil 5-oktabrdan to balog`at yoshiga yetgunga qadar har oyda barcha turdagi daromadlaridan to`rtadan bir qismi, lekin 20 so`mdan kam bo`lmagan miqdorda aliment undirib berishni.

- Ilova: 1. Nikoh guvohnomamizdan nusxa;
2. Bolaning tug`ilganligi haqidagi guvohnomadan nusxa;
3. O`g`lim mening qaramog`imda ekanligi haqida mahalla qo`mitasidan ma'lumot.
4. Erimning maoshi haqida ma'lumot;
5. Arizaning nusxasi.

1999-yil 5-oktabr

Yu.Mahmudov

ALIMENTLARNI SUD TARTIBIDA UNDIRISH HAQIDA

Aliment undirish to`g`risidagi ishlar muayyan xususiyatlarga ega, bu xususiyatlarni e'tiborga olmaslik, taraflarning va boshqa manfaatdor shaxslarning qonuniy huquqlarining jiddiy buzilishiga, g`ayriqonuniy va asoslantirilmagan qarorlarning chaqirilishiga olib kelishi mumkin.

Aliment undirish to`g`risidagi da'volar bo'yicha da'vogarlar sud xarajatlarini to`lashdan ozod qilinadilar. FPKning 241-moddasining 3-qismiga muvofiq, alimentlar undirish to`g`risidagi da'volar bo'yicha javobgarning turgan joyi bo'yichagina emas, balki da'vogarning yashash joyi bo'yicha ham sudga murojaat qilishi mumkin. Bu qoidalar shunday turkumdagi ishlar bo'yicha da'vogarlar uchun muhim protsessual imtiyozlar belgilaydi. Ularning maqsadi sud tartibida alimentlar undirishni osonlashtirishdir. Ammo bu qoida aliment majburiyatlari bilan bog`liq bo`lgan barcha ishlarga joriy etilmaydi, xususan, alimentlarning miqdorini kamaytirish va ularni to`lashdan ozod qilish to`g`risidagi ishlarga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Bolalarni asrash uchun alimentlar undirish to`g`risidagi da'volarni nikohdan ajratish to`g`risidagi da'volardan, alohida, shuningdek, bunday da'volarning hal qilinishiga ham, otalikni belgilash to`g`risidagi da'volar bilan birga ham qo`zg`atilishi mumkinligini nazarda tutish kerak.

Alimentlar undirish to`g`risidagi da'vo arizasi yozma shaklda tuzilib, FPKning 139, 148-moddalarida ko`rsatilgan ma'lumotlarni o`z ichiga oladi. Javobgar alimentlar to`lashdan bosh tovlaganida, uni qidirish uchun qanday choralar ko`rilganligi va uning hozirgi vaqtda qayerda yashashi to`g`risida ma'lumotlar ham arizada ko`rsatiladi. Javobgarning yashash joyi noma'lum bo`lsa, bu holat ham ko`rsatilishi kerak.

Da'vo arizasiga tubandagicha hujjatlar ilova qilinadi: bolaning tug`ilishi to`g`risidagi guvoynoma; nikohning qayd qilinishi to`g`risidagi guvoynoma; bolaning ariza beruvchi bilan birga yashashi va uning boqimida bo`lishi to`g`risidagi ma'lumotnoma; javobgarning ishlab turgan joyidan, uning ish haqi to`g`risidagi va uning ish haqidan boshqa shaxslarning foydasiga ijro hujjatlari bo'yicha summa undirilishi to`g`risidagi ma'lumotnoma; javobgarning tomorqa uchastkasidan oladigan qo`shimcha davromadlari o`zini-o`zi boshqarish organlarining ma'lumoti ilova qilinadi.

Yuqorida ko`rsatilgan hujjatlardan birortasi bo`lmasa, da'vogarga bunday hujjatlarni mumkin qadar qisqa muddat ichida topshirish bir

muncha qiyin kechsa, sudya ularni tegishli muassasalardan o`z tashabbusi bo`yicha talab qilib olishga majbur (FPKning 57, 160-moddalari).

Ota-onalardan bolalarning ta`minoti uchun alimentlar undirish to`g`risidagi da`volar, ota-onalar o`rtasidagi nikohdan ajratilgan ajratilmasligidan qat`iy nazar qo`zg`atilishi mumkin.

Sudya ishni sudda ko`rishga tayyorlashga javobgarning boshqa ondan bo`lgan bolalari uchun ham aliment to`lash-to`lmasligini aniqlash va bu onani, lozim holda mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs sifatida ishga jalb qilishi lozim. Da`vo qanoatlantirilgan holda muqaddam yozilgan ijro varaqasi bo`yicha undiriladigan alimentning miqdori birmuncha kamayishi mumkin bo`lganligi sababli bunday ishning hal qilinish oqibati uchinchi shaxslar manfaatiga ta`sir etishi mumkin.

Mazkur turkumdagi ishlar oddiy tartibda, ammo tubanda ko`satilgan xususiyatlar e`tiborga olingan holda ko`riladi. FPKning 131-moddasi bunday ishlarni ko`rish uchun qisqartirilgan muddatlar belgilaydi. Chunonchi, agar taraflar bir shahar yoki tumanda yashasalar, ish 10 kundan kechiktirilmasdan ko`riladi, boshqa hollarda esa ariza qabul qilingan kundan e`tiboran 20 kundan kechiktirilmasdan ko`riladi. Ammo bu qoida shunday da`voning boshqa ishlarga qo`shilib ko`rilishida tadbiq etilmaydi. Masalan, otalikni belgilash to`g`risidagi ishga aliment undirish to`g`risidagi ishlar qo`shilganida tadbiq etilmaydi. Bunday hollarda ish bir oygacha bo`lgan muddatda ko`rilishi mumkin.

Sud tartibida aliment undirish haqida

Toshkent shahar, Hamza tuman sudiga

Da`vogar: Shoira Karimova-Toshkent shahar, Hamza tumani, Uychi ko`chasi, 212-uyda yashaydi.

Javobgar: Anvar Karimov-1960-yilda Toshkent shahar, Hamza tumanida tug`ilgan; hozirda Toshkent shahri, Hamza tuman, Tolzor ko`chasidagi 101-uyda yashaydi va Toshkent shahridagi to`qimachilik kombinatida muhandis bo`lib ishlaydi.

DA`VO ARIZASI

(Aliment undirish to`g`risida)

Men 1994-yil 15-mayda javobgar-erim Anvar Karimov bilan qonuniy nikohdan o`tib, oilaviy turmush qurganman. Nikohimiz Toshkent

shahar, Hamza tumanining fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDIYO) bo'limida qayd qilingan. U bilan birga yashagan davrimizda-1995-yil 10-iyunda qizimiz Dildora Karimova tug'ilib, uning tug'ilganlik guvohnomasida Anvar Karimov «otasi» deb yozilgan. 1998-yil iyulidan boshlab javobgar oilasini tashlab, boshqa ayol bilan yashamoqda, lekin o'z qiziga moddiy yordam ko'rsatmasdan kelmoqda. Bu haqda bir necha marotaba og'zaki aytishimga qaramasdan, u nafaqa to'lashdan bo'yin tovlab kelmoqda. Qizimiz 6 oy kasal bo'lib, shifoxonada davolandi, lekin xabar olmadi.

Yuqoridagilarga ko'ra hamda Oila kodeksining 95-96-moddalariga asosan

So'rayman:

Toshkent shahar, Hamza tumanida 1970-yilda tug'ilgan Anvar Karimovdan mening foydamga 1995-yil 10-iyunda tug'ilgan Dildora Karimova ismli qizimning ta'minoti uchun 1999-yil 5-yanvardan to balog'at yoshiga yetgunga qadar, javobgarning barcha daromadlaridan har oyda 1/4 qismi, lekin 20 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda aliment undirish haqida qaror chiqarib berilishini.

Ilova: 1. Nikoh gumohnomasidan nusxa;

2. Qizimning tug'ilish guvohnomasidan nusxa;

3. Mahalla qo'mitasidan qizimning men bilan yashayotganligi haqida ma'lumot.

4. Javobgarning ish haqi to'g'risida ma'lumot;

5. Da'vo arizasining nusxasi.

1999-yil 5-yanvar.

SH.Karimova

ISHNI SUDDA MAZMUNAN KO'RGUNGA QADAR BOLANING TA'MINOTI UCHUN VAQTINCHALIK ALIMENT UNDIRISH TO'G'RSIDA

Oila kodeksining qator huquqiy me'yorlari bolalarga ta'minot berish masalasiga bag'ishlagan, masalan ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart. Voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota(ona)dan sudning hal qiluv qaroriga asosan aliment undiriladi. Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmaganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lamaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo bilan murojaat qilmagan hollarda (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasi). Voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lash va ularga ta'minot berishda ota-onaning majburiyatlari tengdir. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berishda ota-onaning majburiyatlari tengdir (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 97-moddasi). Yuqorigilardan tashqari Oila kodeksining 112-moddasida yana quydagilar ko'rsatilgan; Bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi guvoxnomasida ota(ona) deb yozilgan shaxsdan aliment undirish to'g'risidagi nizo uzil-kesil hal etilguncha qadar sudya shu nizo bo'yicha undan ushbu Kodeksda belgilangan miqdorda vaqtincha aliment undirish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin. Bu qonunlarga asoslanib sud da'vo arizani qabul qilish bilan birga nizoli ishning sudda hal qilinishiga qadar bolalarning ta'minoti uchun javobgar qanday xarajatlarni ko'tarishi lozimligi to'g'risida ajrim chiqarib, ona va bolalarning manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan choralarni ko'radi. Vaqtincha undirilishi lozim bo'lgan summaning miqdori javobgarning ish haqi (daromadi)ning tegishli qismi miqdorida yoki qat'iy summa bilan belgilanishi mumkin. Bu qoidaning tadbiiq etilishi javobgarning ishni mazmunan ko'rib hal etgunga qadar bola manfaatini ko'zlab amalga oshiriladigan tadbii bo'lib hisoblanadi.

Vaqtinchalik aliment undirish haqida

AJRIM

2000-yil 6-avgust.

Yangi qo'rg'on tumani

Namangan viloyati, Yangiyo`rg`on tuman sudining sudyasi G`.N.Nazirov raisligida, da`vogar Oliya Bolisovaning javobgar Rahim Bolisovdan o`g`lining ta`minoti uchun aliment undirish to`g`risidagi da`vo arizasi ko`rib, quyidagilar:

Aniqlandi:

Oliya Bolisova 1998-yil 10-aprelda tug`ilgan o`g`li Nabining ta`minoti uchun Rahim Bolisovdan aliment undirish to`g`risida sudga ariza bilan murojaat etgan.

Taraflar nikohdan o`tgan bo`lishib, javobgar bolaning tug`ilish guvohnomasida «otasi» deb yozilgan.

Javobgar R.Bolisov uzoq muddatli safar (komandirovka)ga ketganligi sababli sudning 1999-yil 25-maydagi ajrimiga ko`ra ish yuritish to`xtatilgan edi. Da`vogar arizasida moddiy tomonidan qiynalganligi, farzandi tez-tez kasal bo`lib turishini ko`rsatib, ishning sudda ko`rgunga qadar bolaning ta`minoti uchun vaqtinchalik aliment undirib berishni so`raydi.

Da`vogarning talablari asosli bo`lib, bu haqda Oila kodeksining 112-moddasida ko`rsatilgan. Shunga asosan arizani qanoatlantirishni sud lozim deb hisoblaydi.

Yuqoridagilarga ko`ra, Oila kodeksining 112-moddasi hamda FPKning 347-348-moddalariga asosan sud

Ajrim qiladi:

Buxoro viloyati, Navoiy shahrida 1967-yilda tug`ilgan, hozirda Namangan viloyati, Namangan shahrining bosh arxitektori lavozimida ishlab turgan Rahim Bolisovdan Oliya Bolisova foydasiga o`g`li-1998-yil 10-aprelda tug`ilgan Nabi Bolisov ta`minoti uchun har oyiga 200 so`mdan aliment undirilsin.

Aliment 1999-yil 6-avgustdan boshlab ish sudda mazmunan ko`rilgunga qadar vaqtinchalik deb qaralsin.

Ajrimdan norozi tomon shu sud orqali Namangan viloyat sudining fuqarolik ishlari bo`yicha hay`atiga 10 kun ichida xususiy shikoyat berishlari yoki xususiy protest keltirishlari mumkin.

Sudya: G`.N.Nazirov

ALIMENT UNDIRISHDA SUDDA DA'VOGARNING ISHTIROKI HAQIDA

Aliment undirish bilan bog'liq ishlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri javobgarning sud majlisiga kelishini ta'minlashga alohida e'tibor berishdir. Aliment undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha javobgarning sudga kelishi umumiy qoida bo'yicha majburiy hisoblanadi. Agar javobgar sud uzrsiz deb topilgan sabablar bo'yicha sud protsessiga kelmasa, sud javobgarni sud majlisiga kelishini shart deb topgan hollarda, u majburiy tartibda keltiriladi va unga eng kam ish haqining besh barobarigacha miqdorda jarima solinadi (FPKning 261-moddasi).

Javobgar boshqa shaharda yoki tumanda yashasa va uning sudga kelishi qiyinroq bo'lsa, u kasalligi va boshqa uzrli sabablar bilan protsessda qatnasha olmasa, sud uni majlisga kelishdan ozod qilishi mumkin. Ammo bunday holda ishni ko'ruvchi sud javobgardan ishning holatlari va qo'zg'atilgan davoning mazmuni yuzasidan batafsil bayonnomaga olishi kerak.

ALIMENT UNDIRISH ISHLARI BO'YICHA JAVOBGARNI UZRSIZ SABABLARGA KO'RA SUDGA KELMAGANLIK OQIBATLARI HAQIDA

AJRIM

2000-yil 6-avgust.

Kosonsoy shahri.

Namangan viloyati, Kosonsoy shahar sudining ochiq sud majlisida sudya Tohiraxon Karimova raisligida, sud kotibi Muxlisa Aliyevaning ishtirokida da'vogar Nazira Jumayevaning javobgar Bolta Jumayevdan aliment undirish to'g'risidagi ishi ko'rib, quyidagilar

Aniqlandi:

N.Jumayeva 1999-yil 20-avgustda tug'ilgan o'g'li G'ayrat Jumayevning ta'minoti uchun eri Bolta Jumayevdan aliment undirish to'g'risida da'vo ariza bilan sudga murojaat qiladi.

Sudning shu yil 30-iyuldagi ajrimiga asosan javobgarning sud majlisiga kelishi majburiy deb topilishiga va bu haqda u xabardor

bo`lishiga qaramay, bila turib, sud majlisiga kelishdan bosh tortgan (bo`yin tovlagan), bu bilan FPKning 261-moddasini qo`pol ravishda buzganligi aniqlandi.

Sud yuqoridagilarga ko`ra, FPKning 261-moddalarini qo`llab

Ajrim qiladi:

Namangan viloyati, Kosonsoy tumaniga qarashli Ko`kimboy savxozining bosh hisobchisi Bolta Jumayevni sudga uzrsiz sabablarga ko`ra kelmaganligi uchun 3000 so`m jarima solinsin.

Ish ko`rish boshqa kunga, ya`ni shu yil 10-avgust soat 10:00 ga goldirilsin.

Kosonsoy tumani, Ko`kimboy savxozi hududida 1969-yilda tug`ilgan va shu joyning Zafar ko`chasi, 10-uyda istiqomat qiluvchi Bolta Jumayev sud majlisiga majburiy tartibda keltirilsin.

Ajrimning Bolta Jumayevni majburiy tartibda keltirish haqidagi qismi Kosonsoy tuman ichki ishlar bo`limiga ijro qilish uchun yuborilsin.

Sudya: T.Karimova

Sudlar javobgarning turar-joyi noma'lum bo`lganida ham da'vo arizasini qabul qilishini rad qilmay, balki o`z tashabbuslari bilan javobgarning turar-joyini aniqlashga va uni da'vo ishining sudda ko`rilish kuni to`g`risida xabardor qilish choralarini ko`rishi kerak.

Voyaga yetmagan bolalar va muomalaga layoqatsiz shaxslarning manfaatlarini va ularning alimentlar olishga bo`lgan huquqlarini ta'minlashning muhim kafolati FPKning 140-moddasida belgilangan. Bu qonunda javobgarning yashab turgan joyi noma'lum bo`lganida, ichki ishlar organi orqali qidirtirish majburiyati belgilangan. Bu huquqiy me'yorga muvofiq, sudya da'vo arizasini qabul qilishga, uni ro`yxatdan o`tkazdirishga va javobgarni qidirish to`g`risida ajrim chiqarishga majbur. Shu bilan bir vaqtda aliment undirish to`g`risidagi ishning yuritilishini vaqtincha to`xtatish to`g`risidagi masala hal qilinadi (FPKning 93-moddasi).

Sudning hal qiluv qarorini ijro qilishda agar qarzdorning yashash joyi yoki ish joyi noma'lum bo`lsa, sud ijrochisi qarzdorni ichki ishlar organi orqali qidirtirish to`g`risidagi masalani sud oldiga qo`yishi kerak. Qarzdor topilganidan keyin ijro varaqasi uning ish joyiga yuborilib, undiriladigan summaning miqdori va undiruvchining manzilini ko`rsatishi lozim. Shu bilan birga ijro varaqasi qarzdorning ish joyiga yuborilganligi to`g`risida aliment undiruvchi xabardor qilinadi.

**ALIMENT UNDIRISH DA'VOSI
BO'YICHA JAVOGBARNI QIDIRISH
TO'G' RISIDA**

AJRIM

2000-yil 4-avgust.

Uychi tumani.

Namangan viloyati Uychi tuman sudining sudyasi M.K.Mahkamov da'vogar Karima O'sarovaning javobgar Meli O'sarovga nisbatan aliment undirish to'g' risidagi ishni ko'rib, quyidagilarni

Aniqladi:

K.O'sarova nikohdagi ajrashgan sobiq eri M.O'sarovga nisbatan da'vo qo'zg'atib, 1997-yil 26-avgustda tug'ilgan qizi Malikaning ta'minoti uchun aliment undirib berishni so'rash bilan javobgar turli bahonalar bilan ta'minot uchun moddiy yordam berishdan bosh tortib kelayotganligini ko'rsatadi.

Da'vogarning arizasga qaraganda, hozirda javobgar ish joyidan bo'shab, yashash joyidan ro'yxatdan chiqqanligini, ikki yildan buyon u haqda hech qanday ma'lumot yo'qligini bildiradi. Ishdagi hujjatlar uning ishdan bo'shaganligi haqida tuman matlubot jamiyatining 1999-yil 20-iyuldagi ma'lumoti, Uychi tuman, Jiydakapa qishloq yig'ini kengashining 1999-yil 14-iyuldan shu hududda yashamasligi haqida bergan ma'lumoti bilan tasdiqlanadi.

FPKning 140-moddasida aliment undirish da'volari bo'yicha javobgarning haqiqiy yashab turgan joyi noma'lum bo'lsa, javobgarni qidirish lozimligi ko'rsatilgan.

Yuqoridagilarga ko'ra, sud javobgarga nisbatan qidiruv e'lon qilishni lozim deb topib, FPKning 140-moddasiga asosan

Ajrim qiladi:

Namangan viloyati, Uychi tumanining Jiydakapa qishloq hududida 1967-yili tug'ilgan va shu joyda oxirgi vaqtlarda yashab, Uychi tumani matlubot kooperatsiyasida hisobchi bo'lib ishlagan Meli O'sarovga nisbatan qidiruv e'lon qilinsin.

Uning turar-joyi aniqlangan, Uychi tuman sudiga va shu tumandagi Cho'lpon ko'chasi 5-uyda yashovchi K.O'sarovaga xabardor qilinsin.

Ajrimni ijro qilish uchun uning bir nusxasi Uychi tuman ichki ishlar bo'limiga yuborilsin.

Sudya:

M.K.Mahkamov

SUDLOVLILIK QOIDALARIGA RIOYA QILMAGANLIK SABABLI DA'VO ARIZASINI QABUL QILISHNI RAD ETISH

Taalluqlilik deganda, fuqarolik ishlarini ko`rish va hal qilish yuzasidan sudlar bilan boshqa davlat organlari va jamoat tashkilotlari o`rtasidagi huquq doirasi (kompetensiya)ning cheklanishi ya'ni masalani hal qilish qaysi organning vakolatiga taalliligi nazarda tutilsa, sudlovlilikda esa, bir tomondan, hal qilinadigan masalaning sudga taalluqli bo`lishi va ikkinchi tomondan, yagona sud tizimi ichida sudlar o`rtasidagi huquq doirasining belgilanishi tushuniladi.

Sudlovlilik deb sudlarga taalluqli bo`lgan hamma ishlarning sud tizimi bo`g`inlari o`rtasida taqsimlanishiga aytiladi.

Ishning sudlovliligini belgilash-mazkur ishni aynan qaysi sud ko`rishiga va hal etishga vakolatli bo`lishi mumkinligini belgilash demakdir.

Muayyan bir ishni hal qilishga qaysi sud vakolatli bo`lishi mumkinligini belgilashda sudlovlilik ikki tomonlama: birinchidan, turdosh sudlovlilik va ikkinchidan, hududiy (territorial) sudlovlilikka bo`linib chegaralanadi.

Yagona sud tizimi tarkibidagi sudlarning qaysi bir turi tuman, shahar, viloyat sudi, Oliy sud fuqarolik ishlarini birinchi instansiya sudi sifatida ko`rishi mumkinligini qonun belgilaydi.

Ishning qaysi sudga tegishli bo`lishini (sudlovlilikni) belgilashda ko`riladigan ishning turiga ham, nizoning predmeti nimadan iborat bo`lishi va taraflarning kimlar bo`lishiga ham qaraladi, sudlovlilikning bunday chegaralarinishiga turdosh sudlovlilik deb aytiladi.

Demak, turdosh yoki predmetli sudlovlilik deganda, ishning turi yoki xarakteriga qarab har xil turdagi sudlarga ishlarning tegishli bo`lishi tushuniladi. Turdosh sudlovlilik bo`yicha yagona sud tizimidagi turli sudlarning vakolati bir-biridan farqlanadi.

FPKning 141-moddasida ko`rsatilganidek, sudlarga taalluqli hamma fuqarolik ishlari tumanlararo, tuman (shahar) sudlarida ko`riladi. Bu qonunning mazmuniga ko`ra, fuqarolik ishlarini ko`ruvchi va hal qiluvchi birinchi va asosiy sud instansiyasi-tumanlararo, tuman (shahar) sudlari hisoblanadi.

Umumiy qoidalarga ko`ra da'volar javobgar doimiy yashab yoki doimiy ishlab turgan joyidagi (ya'ni tuman yoki shahardagi) sudda ish qo`zg`atiladi (FPKning 145-moddasi).

Agar fuqarolik da'vosi shu sudning sudlovligiga tegishli bo`lmasa, sudya bu haqda quyidagicha ajrim chiqaradi.

AJRIM

2000-yil 25-iyul.

Zadaryo tumani

Namangan viloyati, Zadaryo tuman sudining sudyasi Z.I.Aliyev da'vogar Naimaxon Qodirovaning javobgar Maraim Qodirovdan fuqarolik ta'minoti uchun aliment undirish haqida da'vo arizasini ko`rib, quyidagilarni

Aniqladi:

Da'vogar Naimaxon Qodirova doimiy ravishda Namangan viloyati, Yangi-Qo`rg`on tumanining Zarkent qishlog`ida yashab kelgan bo`lib, Zadaryo tumanida singlisini ko`rgani kelib, bir hafta turib qoladi va shu hududda turib, turmush o`rtog`i ish bo`yicha javobgar Mamaraim Qodirovdan bir nafar farzandining ta'minoti uchun aliment undirish haqida da'vo ariza bilan Zadaryo tuman sudiga murojaat qiladi. Da'vo arizasidan ko`rinishicha, javobgar Maraim Qodirov Uychi tumanining Jiyda-Kapa qishlog`i, Zarkent ko`chasi, 10-uyda yashayotganligi ma'lum bo`ladi.

FPKning 145-146-moddalariga asosan N.Qodirova da'vo arizasi bilan javobgar doimiy yashab turgan hududdagi yoki o`zi doimiy yashab turgan joydagi sudga murojaat etishi lozim edi. Da'vogar N.Qodirovani javobgar M.Qodirovdan aliment undirish haqidagi da'vosi Zadaryo tuman sudining sudlovligiga tegishli bo`lmaganligi ishda to`langan hujjatlardan ham aniqlandi. Shularni hisobga olgan sudya FPKning 142-moddasining 1-bandi hamda 146-moddasiga asosan

Ajrim qiladi:

Da'vogar Naimaxon Qodirovaning javobgar Mamaraim Qodirovdan fuqarolik ta'minoti uchun aliment undirish haqidagi da'vo arizasi Zadaryo tuman sudining sudlovligiga tegishli bo`lmaganligini sababli rad etilsin.

N.Qodirova da'vo ariza bilan javobgar yashab turgan hududdagi sudga murojaat qilishi mumkinligi tushuntirilsin.

Ajrimdan norozi tomon 10 kun muddat ichida shu sud orqali Namangan viloyat sudining fuqarolik bo`yicha sudlov hay'atiga xususiy shikoyat (protest) keltirishga haqli.

Sudya: Z.I.Aliyev

QARSHI DA'VO HAQIDA *****

Da'vo turlaridan biri sifatida qarshi da'vo bir vaqtning o'zida ham da'voga qarshi himoya vositasi, ham javobgarning huquqini himoya qilish vositasi sifatida ko'riladi.

Qarshi da'voni qabul qilish shartlari quyidagicha:

birinchidan, qarshi da'vo dastlabki talabni qoplashga qaratilgan bo'lishi kerak yoki;

ikkinchidan, qarshi da'voni qanoatlantirish dastlabki da'voni qanoatlantirishni butunlay yo qisman istisno qilishi kerak yoki;

uchinchidan, qarshi va dastlabki da'vo o'rtasida bog'lanish va ularni birga ko'rish nizoni tezroq va to'g'ri hal qilishga olib kelishi kerak.

Shu uch shartlardan biri bo'lsa ham sudya qarshi talabni sudda ko'rish uchun qabul qiladi (FPKning 247-moddasi).

Bu qonun sudyaga keng vakolatlar berish bilan birga taraf-larning bir-birlariga nisbatan qilgan da'vo talablarini birga qo'shib ko'rish maqsadga muvofiq bo'lish-bo'lmasligini jiddiy ra-vishda tekshirishni taqazo etadi.

Qarshi da'volar da'vo qo'zg'atish to'g'risidagi umumiy qoidalar bo'yicha qo'zg'atiladi. Qarshi da'vo qo'zg'atilishida, umuman da'voga oid protsessual qoidalarga, chunonchi, da'vo arizaning mazmuni, davlat boji va sud chiqimlarining to'lanishi va hokazolar to'g'risidagi qoidalarga (FPKning 40, 41, 105, 106, 149, 150 va da'vo haqidagi boshqa moddalarga) rioya qilinadi.

Qarshi da'vo qo'zg'atish uchun asoslar
Namangan viloyati, Chortoq tuman sudiga
Da'vogar: Anvar Mirzayev-Namangan viloyati, Chortoq
tumani O'qchi ko'chasi, 10-uyda yashaydi.
Javobgar: Anorxon Mirzayeva-Namangan viloyati, Chortoq
tumani Bobur ko'chasi, 17-uyda yashaydi.

DA'VO ARIZA (Qarshi da'vo)

Ushbu ish bo'yicha javobgar sobiq rafiqam bo'lmish Anorxon Mirzayeva sudga da'vo ariza bilan murojaat etib, 1999-yil 29-oktabrda tug'ilgan Gulnora ismli qizi uchun mendan aliment undirib berishni so'ragan.

Da'vogar o'zining talablarini men bilan nikohdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma hamda Gulnoraning «otasi» deb yozilgan tug'ilish guvohnomasi bilan asoslamochi bo'ladi. Men esa qo'zg'atilgan da'voni tan olmayman, chunki Gulnoraning otasi emasman.

Shuning uchun ham qarshi da'vo qo'zg'atishni lozim topdim va arizamni A.Mirzayevaning dastlabki da'vosi bilan qo'shgan holda ishni mazmunan ko'rib chiqib, meni Gulnoraning «otasi» deb ko'rsatilgan tug'ilish guvohnomasidagi yozuv noto'g'ri deb topilishini so'rayman va buning uchun quyidagilarni asos qilib ko'rsataman:

Men A.Mirzayeva bilan rasmiy ajrashmagan bo'lsam-da, biroq birga yashamaganmizga 13 oy bo'ldi (1998-yil sentabrdan buyon onamning uyida yashayman). Qiz esa da'vogar bilan men yashamagan davrda tug'ilgan. Tabiiyki, bunday holatda men qizning otasi bo'lishim mumkin emas. Bundan tashqari, shu davr ichida men uzoq muddatli komandirovkada bo'lganman, buni ish joyimdagi xodimlar K.Xurramov, N.Bakirov va O.Kimlar tasdiqlashlari mumkin.

Gulnoraning tug'ilish guvohnomasiga onasi mening yo'qligimda, roziligimsiz «otasi» deb yozdirgan.

Shularga ko'ra, Gulnoraning tug'ilish guvohnomasidagi meni «otasi» deb yozilgan yozuv noto'g'ri va shu munosabat bilan A.Mirzayeva mendan aliment talab qilish uchun hech qanday asosi yo'q deb hisoblayman.

Yuqoridagilarga asosan hamda FPKning 244 va 246-moddalariga amal qilgan holda

So`rayman:

1. Men 1999-yil 29-oktabrda tug`ilgan, 25771-raqamli tug`ilish guvohnomasida Gulnora Mirzayevaning «otasi» deb yozilgan yozuv haqiqiy emas deb topilishini.

2. Anorxon Mirzayevaning qizi Gulnora uchun aliment undirish to`g`risidagi menga nisbatan qo`zg`atilgan da`vo talabi rad etilishini.

3. Sud majlisiga guvoh sifatida quyidagi kishilar chaqirilishini so`rayman:

1) Karim Xurramov-Andijon viloyati, Komsomolobod tumani, Qiziltosh ko`cha 10-uyda yashaydi;

2) Nosir Bokirov-Komsomolobod tumani, Matroskaya ko`cha, 15-uyda yashaydi.

3) O.Kim, Noila Bokirova bilan bir joyda yashaydi. Toshkent shahar M.Ulug`bek tuman Ziyorat ko`chasi, 13-uy.

Ilova: 1. Komandirovkada bo`lganligim haqida hujjat;

2. Yashash joyimdan ma'lumotnoma;

2000-yil 10-avgust.

A.Mirzayev

QARSHI DA'VO ARIZANI QABUL QILISH TO`G`RISIDA

Da`vogar buzilgan huquqni himoya qilish maqsadida da`vo qo`zg`atish imkoniyatiga ega bo`lsa, javobgar ham da`vogarga qarshi himoya qilinish vositalariga egadir. Bunday vositalardan biri-e'tiroz bildirish va ikkinchisi qarshi (muqobil) da`vo qo`zg`atishdan iborat.

Javobgar o`ziga nisbatan qo`zg`atilgan da`voni inkor etishi va buning sabablari (vajlarini) ko`rsatishi mumkin. Da`voni bunday asoslantirilgan ravishda inkor etishga e'tiroz bildirish deb aytiladi.

Javobgar manfaatlarini himoya qilishning ikkinchi protsessual vositasi qarshi (muqobil) da`vosidir. E'tirozdan muqobil da`voning farqi shundaki, bunday da`vogarning talabi qarshi boshqa biron-bir moddiy huquqiy talab qo`yiladi.

FPKning 246-moddasida bayon qilinishicha, javobgar sud hal qiluv qarorini chiqargunga qadar dastlabki da`vo bilan birga ko`rish uchun da`vogarga qarshi da`vo qo`zg`atishga haqlidir. Bu qonunning mazmuniga ko`ra, da`vogarning o`ziga qilingan dastlabki da`vo bilan qo`shib ko`rish uchun da`vogarga nisbatan qilgan mustaqil da`vo talabiga qarshi da`vo deb aytiladi. Qarshi da`voni ba`zan muqobil da`vo deb ham yuritiladi.

Agar sud (sudya) qarshi da`voni qabul qilishni lozim topsa, bu haqda ajrim chiqaradi.

Qarshi da'voni qabul qilish tartibi

AJRM

2000-yil 31-iyul.

Chortoq shahri

Namangan viloyati, Chortoq shahar sudining sudyasi Yaxyoxon Ikromov raisligida, A.Qodirovaning kotibligida da'vogar Anorxon Mirzayevaning da'vosiga nisbatan javobgar Anvar Mirzayevni bolaning tug'ilish guvohnomasida «otasi» deb yozilgan yozuvni tan olmasligini ko'rsatib bergan qarshi da'vo arizasi ko'rib, quyidagilar

Aniqlandi:

Shu yil 25-iyul kuni Anorxon Mirzayeva da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilib, javobgar Anvar Mirzayevdan 1995-yil 6-avgustda tug'ilgan o'g'li Alisher Mirzayev va 1999-yil 15-oktabrda tug'ilgan qizi Gulnora Mirzayevalar uchun aliment undirish to'g'risida so'ragan edi.

Da'vogar Anorxon Mirzayeva o'zining da'vo talablariga asos qilib, 1994-yil 20-martda javobgar eri bilan qonuniy nikohdan o'tganliklarini, bu 110-raqamli guvohnoma bilan tasdiqlanishini, Anvar Mirzayev farzandlarining haqiqiy otasi ekanligini va bu haqda «otasi» deb yozilgan ularning tug'ilish guvohnomalarini ham sudga taqdim etadi.

Javobgar Anvar Mirzayev qarshi da'vo bilan sudga murojaat qilib, Gulnora Mirzayevaning otasi emasligini, tug'ilish guvohnomasida «otasi» deb noto'g'ri yozilganligini, bunga asos qilib, 1997-yil sentabr oyidan boshlab u o'z oilasini tashlab uydan chiqib ketganini va bir yildan ortiq vaqt ichida safarda yurganini, Gulnora ismli qiz shu davrda tug'ilganini va bu qiz uning farzandi emasligini ko'rsatib, aliment undirishning shu qizga nisbatan bo'lgan talabi rad etilishini so'raydi.

Sud ishda to'plangan hujjatlarni hamda dastlabki va qarshi da'volar o'rtasida o'zaro bog'lanish mavjudligi tufayli bu da'vo talablarini birga qo'shib ko'rish nizoni to'g'ri va tez hal etish uchun yodam berishini ham qarshi talab dastlabki talabni qisman bo'lsa-da qoplanishini inobatga olib FPKning 246-247-moddalariga asosan

Ajrim qiladi

Anorxon Mirzayevaning dastlabki da'vosiga nisbatan Anvar Mirzayevning qizi Gulnora Mirzayevaning tug'ilish guvohnomasida «otasi» deb yozilgan yozuvni noto'g'ri deb topish to'g'risidagi qarshi da'vo talablari sudning ish yuritishiga qabul qilinsin va dastlabki da'vo bilan birga qo'shib ko'rilsin.

Ajrim qat'iy-shikoyatga o'rin yo'q.

Sudya: YA.Ikromov

SUD TOPSHIRIQLARI HAQIDA

Qonunda ishni ko`rayotgan sud dalillar to`plash maqsadida boshqa sudlarga ayrim topshiriqlar berishi mumkinligi ham nazarda tutilgan. Fuqarolik ishlarini ko`rish protsessining bevosita o`tkazilishi prinsipidan istisno tariqasida, ayrim hollarda, ya`ni dalillarni to`plash va ta`minlash yuzasidan protsessual harakatlarni boshqa shahar yoki tumanda o`tkazishi zarur bo`lgan hollarda, ish ko`rayotgan sud tegishli sudga bu to`g`rida topshiriq berishi mumkin.

Sud topshirig`i ajrim bilan rasmiylashtiriladi va unda ko`rilayotgan ishning mazmuni aniqlanishi zarur bo`lgan holatlar, topshiriqni bajaruvchi sud to`plashi lozim bo`lgan dalillar ko`rsatiladi. Bu ajrim qaysi sud nomiga yozilgan bo`lsa, shu sud uchun majburiydir va 15 kungacha bo`lgan muddat ichida bajarilishi lozim (FPKning 65-moddasi).

Sud topshirig`ini bajarish tartibi FPKning 66-moddasida belgilangan. Unda ko`rsatilishicha, sud topshirig`ini bajarish sud majlisida belgilangan tartibda o`tkaziladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar majlisning vaqti va joyi to`g`risida xabardor qilinadi, lekin ularning kelmasligi topshiriqni bajarishga to`sqinlik qilmaydi. Topshiriqni bajarish vaqtida tuzilgan bayonnoma va yig`ilgan hamma materiallar ishni ko`rayotgan sudga darhol yuboriladi.

Agar ishda ishtirok etuvchi shaxslar yoki topshiriqni bajaryotgan sudga ko`rsatuv berish lozim bo`lgan guvohlar ishni ko`rayotgan sudga kelib qolsalar, ular umumiy tartibda bayonot yoki ko`rsatuv beradilar.

AJRIM

2000-yil 1-avgust

Chortoq shahri.

Namangan viloyati, Chortoq shahar sudyasi YA.I.Ikromov Anorxon Mirzayevaning Anvar Mirzayevga nisbatan bolalar ta`minoti uchun nafaqa undirish to`g`risida hamda Anvar Mirzayevning Anorxon Mirzayevaga nisbatan bolaning tug`ilish guvohnomasida «otasi» deb noto`g`ri yozilganligi haqida qarshi da`vo arizasi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Eraklar 1994-yildan buyon qonuniy nikohda bo'lishib shu davrda 1999-yil 25-avgustda Alisher Mirzayev va 1999-yil 14-oktabrda Gulnora Mirzayeva ismli farzandlar ko'rganlar.

Anvar Mirzayev 1997-yil sentabrda oilasini tashlab, Namangan viloyati Choroq tumanidagi o'z onasining uyida yashab farzandlariga maddiy yordam ko'rsatmasdan keladi. Shu sababli da'vogar A.Mirzayeva o'z onasidan A.Mirzayevdan aliment undirish to'g'risida sudga murojaat qilgan.

A.Mirzayev o'zining qarshi da'vo arizasida Gulnora ismli qizning onasini emasligini, tug'ilish guvohnomasida qizning «otasi» deb noto'g'ri ko'rsatilganligini ko'rsatib, bu haqda da'voning qismiga iqror emasligini bildirdi.

A.Mirzayev qarshi da'vo arizasida hamda da'voni asoslaydigan hujjatlarida Gulnora tug'ilmasidan 13 oy ilgari chiqib ketganligini va shu davr ichida biron marotaba ham turmush o'rtog'i bilan uchrashmaganligini, tug'ilish faktini ro'yxatga olishda esa ishtirok etmaganligini va guvohnomaga uning roziligisiz «otasi» deb yozdirib qo'yganligini, bu guvohlar-Karim Xurramov, Nosir Bokirova, Oleg Kimlarni tasdiqlashlari mumkinligini ko'rsatadi. O'g'li Alisher Mirzayev uchun esa aliment to'lashga rozi ekanligini bildiradi.

Anvar Mirzayevning qarshi da'vo arizasini asoslaydigan guvohlar Namangan viloyatidan uzoqda (Andijon viloyatining Xonobod tumanida) yashayotganligini va sudga chaqirish ularga bir qancha qiyinchiliklar tug'dirishi mumkinligini inobatga olgan sud guvohlarning ko'rsatuvlarini olish uchun ular yashab turgan hududdagi sudga topshiriqlar yuborishni lozim topadi. Shuning uchun ham sud ish bo'yicha guvohlar-Karim Xurramov, Nosir Bokirova va Oleg Kimlarni so'roq qilishni zarur deb hisolab, FPKning 65-moddasi, 160-moddaning 9-bandi hamda Oila kodeksining 96-moddasiga asosan

Ajrim qiladi:

I. Andijon viloyati, Xonobod tumani sudiga quyidagi protses-sual harakatlarni bajarish topshirilsin. Shu tuman Qiziltosh ko'chasi, 10-uyda yashovchi Karim Xurramov va Nosir Bokirovlarni hamda Matrosskaya ko'chasi, 15-uyda yashovchi Oleg Kimlarni guvoh sifatida so'roq qilinish, quyidagi masalalar aniqlansin:

1. Guvohlar Mirzayevlarning oilasini qachondan beri biladilar?

2. Mirzayevlarning (er-xotinlik) munosabatlari qanday bo`lganligi haqidagi kuzatishlari;

3. Er-xotin bir-birlari bilan uchrashib turishganligi haqida ma'lumot;

4. Anvar Mirzayev xotini qiz tuqqanligi haqidagi xabarga qanay munosabatda bo`lganligi?

II. Nizo uzil-kesil hal qilingunga qadar da'voni ta'minlash maqsadida 1972-yilda Namangan viloyati, Chortoq shahrida tug`ilib, hozirda shu tumanda yashovchi Anvar Mirzayevdan 1999-yil 15-oktabrda tug`ilgan qizi Gulnora Mirzayevani hamda 1995-yilda 26-avgustda tug`ilgan o`g`li Alisher Mirzayevning ta'minoti uchun har ikkisiga oyiga 400 so`m Anorxon Mirzayevaning foydasiga undirilsin.

Ajrimning ikkinchi qismiga norozi tomon Namangan viloyat sudining fuqarolik ishlari bo`yicha sudlov hay'atiga shu sud orqali 10 kun muddat ichida xususiy shikoyat, prokuror xususiy protest keltirishga haqlidirlar.

Sudya: YA.Ikramov

JARIMADAN OZOD ETISH HAQIDA

Fuqarolik ishini ko`rish chog`ida raislik qiluvchi sud majlisiga rahbarlik qilib, ishdagi barcha holatlarni, taraflarning huquq va vazifalarini to`liq, har tomonlama va atroflicha aniqlanishini ta'minlaydi, ko`rilayotgan ishga aloqasi bo`lmagan hamma narsani sud tekshiruvidan chiqarib tashlaydi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, vakillar, ekspertlar, tarjimonlar, guvohlarning birortasi raislik qiluvchining harakatiga qarshi e'tiroz bildirgan taqdirda, bu e'tirozlar sud majlisining bayonnomasiga kiritiladi va masala sudning to`la hay'atida hal qilinadi. Raislik qiluvchi sud majlisiga tegishli tartibda ta'minlash uchun zarur bo`lgan choralarni ko`radi (FPKning 165-moddasi).

Ishni tekshirish vaqtida tartibni buzgan shaxsni raislik qiluvchi sud nomidan ogohlantiradi. Ishda qatnashuvchi shaxslar, vakillar, guvohlar, ekspertlar, tarjimonlar tartibni takroran buzsalar, sudning ajrimi bilan, boshqa fuqarolar esa raislik qiluvchining farmoyishi bilan sud majlisi zalidan chiqarib yuborilishlari mumkin. Shuningdek, ishni ko`rishda hozir bo`lgan fuqarolarga agar ular tartibni buzsalar, eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin (FPKning 166-moddasi).

Prokuror yoki advokat raislik qiluvchining farmoyishlariga itoat qilmasalar, ular ogohlantiriladilar. Mazkur shaxslar raislik qiluvchining

tarmoyishlariga yana itoat qilmasalar, agar ular ishiga zarar yetkazmay turib boshqa shaxs bilan almashtirish mumkin bo`lmasa, ishni ko`rishni uning ajrimi bilan keyinga qoldirish mumkin. Ayni vaqtda sud bu haqda to`g`ri shartlar bilan yuqori turgan prokurorga yoki advokatlar hay'ati rayosatiga murojaat qiladi.

Sud majlisida hozir bo`lgan taraflar yoki uchinchi shaxslar tartibni buzmasalar, sud ishni ko`rishni keyinga qoldiradi yoxud tartibni buzuvchi sud majlisi zalidan ish ko`rishning hamma vaqtiga yoki uning bir qismiga chiqarib yuboriladi. Keyingi holda raislik etuvchi sud majlisi zaliga qaytadan qo`yilgan shaxsni uning yo`qligida ro`y bergan protsessual harakatlar bilan tanishtiradi (FPKning 166-moddasi).

Jarimadan ozod etish haqida
Toshkent viloyati, Bekobod shahar sudiga
Bekobod shahri, Oqsaroy ko`chasi, 17-uyda
istiqlomat qiluvchi Erkin Nomozovdan

ARIZA

Shu yil 3-avgust kuni Bekobod shahar sudining sudyasi R.G.Zaripov raisligida Gulnora Mirzayevaning da'vosiga ko`ra Anvar Mirzayevga nisbatan qo`zg`atilgan fuqarolik ishini ko`rishda ish yuzasidan guvoh sifatida qatnashdim. Ishni sudda ko`rish jarayonida sud zalida tartib-qoidalarni buzganligim sababli Bekobod shahar sudining 2002-yil avgustdagi ajrimi bilan menga 3000 so`m miqdorda jarima solingan edi. Bu solingan jarimani quyidagi holatlarga ko`ra asossiz deb hisoblayman:

Da'vogar Gulnora Mirzayevaning arizasiga ko`ra Anvar Mirzayevning otaligini (otasi ekanligini) belgilash to`g`risidagi ish sud majlisida ko`rish jarayonida javobgarning haddan tashqari yolg`on gapirayotganiga chidab tura olmay haqoratlaganim to`g`ri, ammo bu xatti-harakatim jahl ustida qilingan deb hisoblayman, chunki men gipertoniya (xofa qon) kasalligiga mutbalo bo`lganman, shuning uchun tez jahlim chiqadigan bo`lib qolgan.

Hozirda birinchi guruh nogironiman, pensiya olaman. Pensiya tirikchilikka zo`rg`a yetib turibdi. Shuning uchun ham o`z moddiy ahvolimni hisobga olib, FPKning 124-moddasiga asosan

So`rayman:

Toshkent viloyati, Bekobod shahar sudining shu yil 3-avgustdagi ajrimiga ko`ra menga solingan 3000 so`m miqdordagi jarima olib tashlanishi.

1. Moddiy ahvolim haqidagi ma'lumotnoma.
2. Sog`lig`im haqidagi ma'lumotnoma.

2002-yil 4-avgust.

E.Nomozov

Jarimadan ozod qilishni rad etish haqida

AJRIM

2002-yil 8-avgust.

Bekobod shahri.

Toshkent viloyati, Bekobod shahar sudining ochiq sud majlisida raislik etuvchi sudya R.G.Zaripov, sud kotibi B.G`ayratova ishtirokida, fuqaro Erkin Nomozovga nisbatan solingan jarimani olib tashlash to`g`risidagi arizasi ko`rib, quyidagilar

Aniqlandi:

Bekobod shahar sudi da'vogar Gulnora Mirzayevani javobgar Anvar Mirzayevga nisbatan otalikni belgilash to`g`risidagi fuqarolik ishini sud taftishida ko`rish vaqtida guvoh sifatida sud majlisiga chaqirilgan Erkin Nomozov sud zalida tartibni buzganligi uchun shu yil 3-avgustda sudning ajrimi bilan FPKning 166-moddasiga asosan 3000 so`m miqdorida jarima solingan.

Guvoh E.Nomozov sudga arizasi bilan murojaat etib, solingan jarimaning asossiz ekanligini va bunga sabab tariqasida sud majlisi zalida Mirzayevaning yolg`on gapirib, sudni chalg`itganligini ko`rib, jahli chiqib haqorat qilganligini ma'lum qiladi hamda o`zining moddiy ahvoli nochorligini va birinchi toifa nogironi ekanligini aytib, jarimani olib tashlashligini so`raydi.

Sud Nomozovning vaj va talablarini atroflicha muhokama qilib, uning arizasini qanoatlantirish uchun asos yo`q deb topadi, chunki arizachi o`zining moddiy ahvoli og`irligi to`g`risida bayon qilgan bo`lsa-da, sudga taqdim qilgan ma'lumotnomasiga qaraganda unda bu haqda biron-bir asosiy holat o`z aksini topmagan, jumladan, birinchi toifa nogironi ekanligi to`g`risida ijtimoiy ta'minot bo`limidan hujjat keltirmagan.

Sud arizachi Erkin Nomozovga nisbatan FPKning 166-moddasini to`g`ri tadbiq qilgan deb hisoblaydi.

Sud shularga ko`ra hamda FPKning 166-moddalariga asoslanib

Ajrim qiladi:

HeKobod shahar sudining 2002-yil 3-avgustdagi ajrimiga ko`ra Erkin Komozovga nisbatan solingan 3000 so`m miqdordagi jarimani olib tashlash to`g`risidagi arizasi rad etilsin.

Ajrimdan norozi tomon 10 kun muddat ichida shu sud orqali fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent viloyat sudiga xususiy shikoyat berishi qabul qilinmaganligi keltirishga haqli.

Sudya: R.G.Zaripov

JARIMADAN OZOD ETISH TO`G`RISIDA

AJRIM

2002-yil 8-avgust.

Angren shahri.

Toshkent viloyati, fuqarolik ishlari bo`yicha Angren shahar sudining o`sha sud majlisida sudya B.M.Muhammedov raisligida, N.Qirolova kotibligida Gulnora Qoriyevaga solingan 3000 so`m jarimani olib tashlash to`g`risidagi arizasi ko`rib, quyidagilar

Aniqlandi:

Fuqarolik ishlari bo`yicha Angren shahar sudining 2002-yil 5-avgustdagi ajrimiga asosan sud majlisiga guvoh sifatda chaqirilgan Gulnora Qoriyevaga uzrsiz sabablarga ko`ra kelmaganligini uchun 3000 so`m miqdorida jarima solingan.

G.Qoriyeva sudga ariza bilan murojaat etib, solingan jarimani olib tashlashni va sudga kelmaganligini uzrli deb topishni, bunga asos qilib, shu kunlari qon bosimi oshganligi sababli poliklinikada bo`lganligini, shunga ko`ra sud majlisiga kela olmaganligini ko`rsatadi.

Bu vajlar Angren shahar 1-poliklinikasining shu yil 5-avgustdagi sudga taqdim etgan ma'lumotnomasi bilan tasdiqlanadi, shunga ko`ra G.Qoriyeva 2002-yil 3-avgustdan 6-avgust kuniga qadar vrachlar nazoratida davolanganligi, shu sababli ishga ham bora olmaganligi aniqlandi. Bu holatlar Gulnora Qoriyevaning sudga uzrli sabablarga ko`ra kela olmaganligini ko`rsatadi.

Sud shularga ko`ra G.Qoriyevaning sud majlisiga kelmaganligi sababini uzrli deb topishni lozim hisoblaydi.

Yuqoridagilarga asoslangan sud FPKning 124-moddasini qo`llab

Ajrim qiladi:

Fuqarolik ishlari bo'yicha Angren shahar sudining 2002-yil 5-avgustdagi ajrimi bilan Gulnora Qoriyeva 3000 so'm miqdorida solingan jarimani to'lashdan ozod qilinsin.

Sudya: B.M.Muhammedov

Farg`ona viloyati, Farg`ona shahar sudiga
Farg`ona viloyati, Farg`ona shahar, Uyg`ur
ko`chasi, 115-uyda istiqomat qiluvchi, hozirda
Toshkent shahridagi 10-kasalxonada davolanayotgan
Sobir Tadjibayevdan

ARIZA

(Ish yuritishni to`xtatish to`g`risida)

Fuqarolik ishlari bo`yicha Farg`ona shahar sudining ish yuritishida davogar Narzi Tadjibayevaning arizasi bo`lib, unda o`g`limiz Alimga mu`batan meni otalik huquqidan mahrum etishni so`ragan. Bu ish sudning 2001-yil 10-avgustdagi ajrimiga asosan shu yil 18-avgustda mazmunan to`rinish uchun tayinlangan. Ushbu fuqarolik ishini quyidagi asoslarga muvofiq ko`rishdan to`xtatib turishingizni so`rayman:

1. Men 1990-yildan buyon gipertoniya kasaliga muhtalob bo`lganman, ayrim vaqtlarda ko`zimga hech narsa ko`rinmaydi va hushsiz bo`lib qolaman. Hozirda meni Toshkent shahridagi 10-kasalxonaga olib ketilishib, shu yerda davolamoqdalar.

2. Kasalxonada davolanish jarayonida oshqozonimdan ham boshqalardan topishdi. Shuning uchun meni bu yerda uzoq davolamoqchilar.

Yuqoridagilarga ko`ra, FPKning 93-moddasining 2-bandiga asosan shu fuqarolik ish yuritishni to`xtatib turish to`g`risidagi masalani ko`rishingizni so`rayman.

Ilova: 1. Toshkent shahridagi 10-kasalxonadagi ma'lumotnoma.

2. Muqaddam ham shu kasalxonada davolanganligim haqidagi hujjatlar.

2001-yil 14-avgust.

S.Tadjibayeva

SUD TARAFLARNING BIRINING KASALLIGI TUFAYLI ISH YURITISHNI TO`XTATISH TO`G`RISIDA HARAKATLARI

AJRIM

2000-yil 16-avgust.

Farg`ona shahri.

Farg`ona viloyati, fuqarolik ishlari bo`yicha Farg`ona shahar sudining ochiq sud majlisida sudya M.A.Mamedov raisligida, M.Mallayevaning kotibligida, Narzi Tadjibayevaning da`vosi bo`yicha Sobir Tadjibayevni otalik huquqidan mahrum qilish to`g`risidagi fuqarolik ishi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da`vogar N.Tadjibaye va arizasida sobiq eri Sobir Tadjibayevning o`g`li Aliga nisbatan otalik huquqidan mahrum qilish to`g`risida so`ragan.

Fuqarolik ishini sudda ko`rish kuni javobgarning sud majlisiga kelmaganligi aniqlandi va buning sababini S.Tadjibayev arizasida suddan ish yuritishni vaqtinchalik to`xtatib turishni, chunki Toshkent shahridagi 10-kasalxonada qon bosimi yuqori bo`lganligi sababli 2000-yil 13-avgustdan buyon davolanayotganligi, shunga ko`ra sud majlisiga borishning iloji yo`qligini bildirgan. Bu holat 2001-yil 16-avgustda 10-kasalxona tomonidan berilgan ma`lumotnoma bilan tasdiqlanadi.

Sud ish materiallari bilan tanishib, taraflarning bayonotlarini tinglab, Sobir Tadjibayevning arznomasini asosli deb topadi va uni qanoatlantirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Chunki sud ishni to`g`ri hal etish uchun javobgarning shaxsiy fikr va mulohazalari muhim ahamiyatga ega ekanligini nazarda tutadi.

FPKning 93-moddasi 2-bandiga asosan taraflar shifoxonada bo`lsalar, shuningdek, ularning birini sudga kelishiga to`sqinlik qiladigan va meditsina muassasalarining hujjati bilan tasdiqlangan kasalligi bo`lsa, sud ish yuritishni to`xtatishga haqli ekanligi ko`rsatilgan.

Sud yuqoridagilarga ko`ra hamda FPKning 93-moddasi 2-bandiga asosan

Ajrim qiladi:

Da`vogar Narzi Tadjibayevaning sobiq eri-javobgar Sobir Tadjibayevga nisbatan otalik huquqidan mahrum qilish to`g`risida qo`zg`atilgan fuqarolik ishi ish yuritishdan to`xtatilsin.

Ajrimdan norozi tomon 10 kun muddat ichida shu sud orqali Farg`ona viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha sudiga shikoyat (protest) bilan murojaat qilishga haqli.

OTALIKNI BELGILASH TO`G`RISIDAGI ISHLARGA OID UMUMIY TUSHUNCHALAR

Bolalarning ota-onalari qonun bilan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan nikohda bo`lganlarida otalikni belgilash to`g`risidagi masala ko`tarilmaydi. Bolalarning ota-onalari bunday nikohda bo`lmaganlaridagina otalikni belgilash to`g`risidagi masala qo`yilishi (nizo qo`z`p` atilishi) mumkin. Agar nikohlari qonuniy rasmiylashtirilmagan ota-onaning farzandlari bo`lsa, bunday bolalarning nasabi ota-onalarining nikohni qayd qilish idoralariga bergan arizalariga binoan belgilanadi. Haddi-yu, bunday ariza berilmasa (ota bolaning otaligini tan olmasa), bolaga nisbatan otalik sud tartibida da`vo qo`z`g`atish yo`li bilan belgilanishi mumkin.

Otalikni sud tartibida belgilash da`vo ishi va alohida tartibda ko`riladigan ishlarga oid qoidalar bo`yicha amalga oshiriladi.

O`zbekiston Respublikasi Oila qonunchiligi bo`yicha otalikni belgilash to`g`risidagi ishlarning uch xil toifasi ko`zda tutilgan. Birinchisida da`vo ishini yuritish tartibida ko`riladigan otalikni belgilash to`g`risidagi ishlar, ikkinchi va uchinchi esa alohida ish yuritish tartibida ko`riladigan otalik iqror bo`lish faktini belgilash to`g`risidagi ishlar hisoblanadi.

Bolani o`z tarbiyasiga olgan va bolaning otasi bo`lishga iqror bo`lgan shaxs vafot etgani holda otalikni tan olish fakti amaldagi qonunlarga va O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlariga asosan belgilanadi.

Bolaning tug`ilishi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qayd qilinishi, qoida bo`yicha, bolaning muayyan ota-onadan tug`ilganligini isbotlovchi dalil sanaladi.

Nikohda bo`lmagan ota-onalar bolaning tug`ilishida otalikni belgilash to`g`risida birgalikda kelishgan holda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga ariza bermagan bo`lsalar, sud tartibida belgilanishi mumkin. Bunday holat bolaning ota-onalari o`rtasida nizo bo`lganida, ya`ni ota-onalardan birining qarshi bo`lishi yoki otalikni tan olish to`g`risida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga birgalikda ariza berishdan bosh tortganida yuz berishi mumkin.

Aksariyat hollarda otalikni belgilash to`g`risidagi da`vo arizalari alimentlar undirish to`g`risidagi talablar bilan birga qo`shib beriladi. Oila

qonunchiligida otalikni belgilash va alimentlar undirish to'g'risidagi da'volarni ko'rish nazarda tutilmagan, ammo O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2001-yil 1-iyundagi «Otalikni belgilash haqidagi ishlarni ko'rishda sudlar tomonidan qonunlarning tadbiq etilishi haqida»gi qarorida otalikni belgilash to'g'risidagi da'vo bilan bir vaqtda bolaning ta'minoti uchun alimentlar undirish to'g'risidagi da'vo ham birga qo'zg'atilishi mumkinligi tushuntiriladi.

Otalikni belgilash to'g'risidagi da'volar FPKning 241-moddasiga muvofiq javobgarning ham, da'vogarning ham turar-joy bo'yicha, ya'ni xohishiga ko'ra (alternativ) sudlovlik qoidalari bo'yicha qo'zg'atilishi mumkin.

Otalikni alohida ish yuritish tartibida belgilash to'g'risidagi ariza, FPKning 284-moddasiga asosan, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash to'g'risidagi arizalar kabi ariza beruvchining turar-joyidagi sudga beriladi.

Oila kodeksining 68-moddasiga muvofiq, otalikni belgilash to'g'risidagi ariza bilan sudga bolaning ota-onalaridan biri yoki vasiysi (homiysi), bolani tarbiyalab turgan shaxs, shuningdek, bolaning o'zi ham voyaga yetganidan so'ng murojaat qilishi mumkin.

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha
S.Rahimov tuman sudiga

Da'vogar: Amina Is'hoqova-Toshkent shahri, S.Rahimov
tumani, Qodiriy ko'chasining 1-torko'chasi, 3-
uyda yashaydi.

Javobgar: Sobir Isomov-Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek
tumani, Xamza ko'chasining 5-berk ko'chasi, 1-
uyda yashaydi.

DA'VO ARIZA

(Otalikni belgilash va aliment undirish
haqida)

Men, Amina Isxoqova Sobir Isomov bilan 1997-yil oktabr oyidan
boshlab, nikohni qayd qilmay, oilaviy turmush qurdik. Turmushimiz juda
yaxshi kechayotgan edi, shu davrda - 1999-yil 15-iyunda Olim ismli
farzandli bo'ldik.

2000-yil may oyidan boshlab erim uyga kech keladigan bo'lib qoldi,
shu sababli o'rtamizda nizo kelib chiqdi va natijada u shu yilning 5-
sentabrdan boshlab uyga kelmay qo'ydi, aniqlashimcha, boshqa ayolga
uylangan ekan.

Javobgar o'g'limning otasi bo'lishiga qaramay, xabar olmaydi,
moddiy yordam ko'rsatmasdan yashirinib yuribdi. O'g'lim-Olimning
tug'ilish guvohtomasida Isomov «otasi» deb yozilmagan, biroq bu haqda
bir necha bor javobgarni ogohlantirganimda bolaning otasi ekanligi
to'g'risida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga borib
guvohtoma olishi haqida gap borganda, bugun-erta deb bo'yin tovlab
yurdi.

Javobgar o'g'limga ota ekanligini, u bilan umumiy xo'jalik yuritib,
uch yil davomida bir uyda yashaganligimizni, farzandimizga sunnat to'yi
qilib berganimizni va shu yillar davomida men ishlamaganligim va uning
qaramog'ida bo'lganligimni mahalla qo'mitasi, javobgarining ota-onalari
tasdiqlashlari mumkin.

Oila kodeksining 61-62-moddalariga asoslanib

So'rayman:

1. Toshkent shahar, Shayxontohur tumanida 1973-yil 17-mayda
tug'ilgan, millati o'zbek, yuqorida zikr etilgan manzilda yashovchi Sobir

Isomovni, 1999-yil 15-iyunda tug`ilgan Olim ismli o`g`li-mizning otasi deb topilishini.

2. 1973-yil 17-mayda Toshkent shahar, Shayxontohur tumanida tug`ilgan javobgar Sobir Isomovdan mening foydamga 1999-yil 15-iyunda tug`ilgan Olim ismli o`g`limning balog`at yoshiga yetgunga qadar uning barcha daromadlaridan har oyda to`rt dan bir qismini, lekin eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo`lmagan miqdorda nafaqa undirib berishni.

Quyidagilarning guvoh sifatda chaqirilishini so`rayman:

1. Erimning otasi Nodir Isomov-Toshkent shahar, Shayxontohur tumani Hamza ko`chasi 10-uyda yashaydi.

2. Erimning onasi Nuri Isomova-yuqoridagi manzilda yashaydi.

3. Erimning do`sti Mirza Qodirov-Toshkent shahar Yakkasaroy tumani, Lyuksenburg ko`chasi, 19-uyda yashaydi.

4. Ali Asrorov-Beruniy mahallasi qo`mitasining raisi S.Rahimov tumani Beruniy ko`chasi, 5-uyda yashaydi.

Ilova: 1. O`g`limning tug`ilish guvohnomasi.

2. Mahalla qo`mitasining o`g`limni mening qaramog`imda yashayotganligi haqidagi ma'lumotnomasi.

3. Javobgarning maoshi haqida ma'lumotnoma;

4. Erimning o`g`lim bilan tushgan 8 dona surati;

5. Da'vo artzasining nusxasi.

2000-yil 12-dekabr.

A.Is'hoqova

OTALIKNI SUDDA ALOHIDA TARTIBDA KO`RISH ASOSLARI

Otalikni alohida ish yuritish tartibida belgilash to`g`risidagi ariza FPKning 283-moddasiga asosan yuridik ahamiyatga ega bo`lgan faktlarni belgilash to`g`risidagi arizalar kabi arizachining turar-joyidagi sudga beriladi.

Fuqarolik ishi qo`zg`atilishida sudya huquqi himoya qilinishini so`rab murojaat qilgan shaxsning protsessual holatini aniqlashi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning doirasini belgilashi lozim.

Oila kodeksining 62-moddasiga muvofiq, otalikni belgilash to`g`risidagi ariza bilan sudga bolaning ota-onalaridan biri yoki vasiysi (homiysi) bolani tarbiyalab turgan shaxs, shuningdek, voyaga yetganidan so`ng bolaning o`zi ham murojaat qilishi mumkin.

Alohida ish yuritish tartibida ko`riladigan ishlarda manfaatdor shaxslarning ishtirok etishi, ishning holatlarini birmuncha to`la aniqlashga yordam beradi, ammo bunday hollarda ariza bergan shaxs bilan manfaatdor shaxslar o`rtasida sudga taalluqli huquq to`g`risida nizo chiqqanida otalikni belgilash to`g`risidagi ishlar, alohida ish yuritish tartibida ko`rilmasdan, balki da`vo ishini yuritish tartibida ko`riladi.

Namangan viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha
Zadaryo tuman sudiga
Namangan viloyati, Zadaryo tuman, Go'rpeta
qishlog'i, Qizil yulduz jamoa xo'jaligi, Parkent
ko'chasi, 3-uyda yashovchi Mamaraim
Bozorovadan
Manfaatdor shaxs: Toshkent shahar, M.Ulug'bek
tuman ijtimoiy ta'minot bo'limi

ARIZA
(Otalik faktini belgilash haqida)

Men marhum erim Ozod Bagirov bilan 2001-yil mart oyidan boshlab qonuniy nikohdan o'tmay oilaviy turmush qurganmiz. Erim 2001-yil 3-sentabr kuni ishga keta turib to'satdan avtotransport halokatiga uchrab, vafot etgan. U kishining vafotidan so'ng 2001-yil 10-dekabrda o'g'il farzandli bo'ldim.

Erim oilasi bilan ajrashganidan so'ng mening uyimga keladigan bo'ldi. Biz umumiy xo'jalik yuritdik, hatto o'zining ilgari ishlab turgan joyidan bo'shab, men ishlab turgan «Mikond» zavodiga haydovchi bo'lib ishga joylashdi. Erim o'zi haydaydigan mashinada meni ish joyimga olib borar edi, buni ish joyimdagi guvohlar V.Ernazarova, L.Qobulova, N.Karimov va boshqalar tasdiqlashlari mumkin.

Birga yashaganimiz haqida erimning otasi N.Bagirov, qo'shnilarim R.N.Nikifirova, N.F.Orlovalar ham xabardorlar.

Otalik faktini belgilashdan maqsad:

- 1) o'g'lim Fozilning otasi borligini qarindoshurug', do'st-birodalar o'rtasida bildirib, uning keyinchalik ko'nglini o'ksitmaslik;
- 2) erim O.Bagirov vafotidan keyin omonat bankida qolgan 8000 so'm pulni o'g'limning ta'minoti uchun undirish;
- 3) o'g'limni tarbiyalash uchun ijtimoiy ta'minot bo'limida nafaqa tayinlash.

Mening arizam yuzasidan manfaatdor shaxslar tomonidan hech qanday qarshilik ko'rsatilmasligi bildirildi.

Yuqoridagilarga ko'ra Oila kodeksining 68-moddasiga hamda FPKning 274-moddasiga asoslanib,

So`rayman:

Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanida tug`ilgan va 2001-yil 3-
sentabrda fojiali vafot etgan Ozod Bagirovni 2001-yil 10-dekabrda
tug`ilgan o`g`limiz Fozilning otasi ekanlik faktini berilishini.

Hova: 1. O`g`limning tug`ilganlik haqidagi guvohnomasidan nusxa.

2. O.Bagirovning fojiali vafoti haqidagi guvohnoma.

3. Marhumning yozgan 8 ta xati.

4. Guvohlar-Toshkent shahar, S.Rahimov tumani, Usta Shirin
ko`chasi 12-uyda yashovchi V.Ernazarova, L.Qobulova hamda shu
tumandagi Parkent ko`chasi, 3-uyda yashovchi R.G.Nikoforova,
N.F.Olova va erimning otasi-Toshkent shahar, A.Ikromov tumani, Rasta
ko`chasi, 5-uyda yashovchi Nazar Bagirovlar.

2002-yil, 19-yanvar.

M.Bazarova

ALIMENT UNDIRISH ISHLARI BO`YICHA SUDNING HAL QILUV QARORLARI

Sud aliment undirish to`g`risidagi ish bo`yicha hal qiluv qarori qabul
qila turib, bu qarorning FPKning 203-206-moddalari talablariga qat`iy
rioya qilgan holda tuzadi. Qarorning asoslantirish qismida sud tomonidan
belgilangan holatlar, sudning xulosalari qanday dalillarga asoslangan
bo`lsa, bunday dalillar va sud amal qilgan qonunlar bayon qilinadi.
Qarorning xulosa qismida javobgarning to`liq ism-sharifi, tug`ilgan yili va
joyi uning doimiy turar joyi, ish joyi va vazifasi, aliment olish lozim
bo`lgan bolaning ismi va tug`ilgan yili, qancha miqdorda, necha bolaga
aliment undirilishi 052 va olinadigan sud xarajatlarining miqdori aniq va
to`la bayon qilinadi.

Alimentlar da`vo arizasi bilan sudga murojaat qilingan paytdan
boshlab kelgusi vaqt uchun undiriladi. Agar sud da`vogarning aliment
undirishi uchun hamma choralarni ko`rishiga qaramay, javobgar uni
to`lashdan bosh tortgani sababli aliment undira olmaganligini, shuningdek,
da`vogar oilani saqlash maqsadida yoki boshqa uzrli sabablar bilan o`z
vaqtida da`vo qilmaganligini aniqlasa, sud ishdagi holatlariga qarab, o`tgan
vaqt uchun ham ammo uch yilan ortiq bo`lmagan muddatga, aliment
undirish mumkin (Oila kodeksining 136-moddasi).

Bolalarning tarbiyasi uchun alimentlar javobgarning ish haqiga
nisbatan hissalar bilan belgilanib, davriy to`lovlar shaklida undiriladi.
Ammo muayyan holatlarda (Oila kodeksining 101-moddasi) sud

bolalarning ta'minoti uchun mablag` to`lanishini talab qiluvchi shaxsning iltimosi bo`yicha alimentlarni har oyda to`lanishi lozim bo`lgan qat'iy pul summasida ham undirishi mumkin. Favqulotda holatlar tufayli, masalan, bolaning og`ir kasal bo`lishi, mayib bo`lishi va shu kabi holatlar sodir bo`lganida, alimentlardan tashqari, ota-onalardan qo`shimcha xarajatlar ham undirilishi mumkin (Oila kodeksining 103-moddasi).

Sud hal qiluv qarorining xulosa qismida alimentlar undirishni ko`rsatish bilan birga davlat daromadiga javobgardan sud xarajatlarning undirilishi to`g`risidagi masalani ham hal qilishi kerak (FPKning 206-moddasi).

O`zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qarori

2001-yil 5-aprelda Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha Mirzo Ulug`bek tuman sudi binosida ochiq sud majlisi bo`lib, sudya M.Ahmedov raisligida, K.Olimovning kotibligida, prokuror R.Ermatovanning va «Malika» firmasi ishchilari jamoasining vakili X.Mirzayevning ishtirokida da`vogar G.SH.Doniyorovanning javobgar A.X.Doniyorovga nisbatan bolaning ta'minoti uchun aliment undirish haqidagi fuqarolik ishi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da`vogar G.SH.Doniyorova sudga da`vo ariza bilan murojaat qilib, javobgar A.X.Doniyorovning 2000-yil 20-aprel kuni uydan chiqib ketgani va hozirda 2000-yil 12-aprelda tug`ilgan Iroda ismli qiziga hech qanday moddiy yordam ko`rsatmayotgani, shuning uchun ham da`vogar suddan bir nafar bola ta'minoti uchun javobgar A.Doniyorovdan aliment undirib berishni so`ragan va sud majlisida ushbu da`voni quvvatlab, javobgar bilan qonuniy nikohdan o`tib 1990-yildan oilaviy turmush qurganliklarini, shu davr ichida Iroda ismli qizlik bo`lganlarini bayon etadi.

Da`vogarning bu ko`rsatuvlari 1990-yil may oyida Toshkent shahar Mirzo Ulug`bek tuman fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idorasi tomonidan berilgan 234567-raqamli nikoh guvohnomasi bilan ham tasdiqlanadi.

Javobgar A.X.Doniyorov o`z bayonnomasida haqiqatan ham da`vogar bilan 2000-yil 2-apreldan boshlab oilaviy turmushi buzilgani va birga yashamayotganini, bolaning ta'minoti uchun ham yordam

bermayotganini tan olib, bundan keyin oilasi bilan munosabatini yaxshilab, qizining tarbiyasi uchun moddiy yordam berishga tayyor ekanini bildiradi.

Sud ish yuzasidan qatnashgan «Malika» fabrikasining vakili X.Mirzayev da'vogarni ko'p vaqt kasal bo'lganligi va moddiy tomondan qiynalganligi sababli, uning da'vosini qanoatlantirish lozimligi.

Oila kodeksining 98-moddasida bayon qilinishicha ota-ona voyaga yetmagan bolalariga, yordamga muhtoj bo'lsa, ta'minot berishga majbur ekanligi to'g'risidagi qoidaga ko'ra voyaga yetmagan bolalar uchun ot-onalaridan alimentlar ota-onaning ish haqi va boshqa daromadlaridan qonunda ko'rsatilgan tartibda undirish lozimligi belgilangan. (99-bet).

Shularga ko'ra, sud javobgar A.X.Doniyorovning ish haqi va daromadlaridan to'rttdan bir qismini, lekin eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo'lmagan miqdorda qizi Irodaning ta'minoti uchun nafaqa undirishni lozim deb hisoblaydi.

Sud prokurorning da'voni qanoatlantirish to'g'risidagi fikrini tinglab, quyidagi asoslarga ko'ra da'voni qanoatlantirish uchun yetarli asos va dalillar to'plangan deb hisoblaydi. Sud da'vogar G.SH.Doniyorovning moddiy ahvolini nazarda tutib, davlat bojini to'lashdan ozod qilishni va FPKning 110-111-moddalariga asosan, sud xarajatlarini javobgar A.X.Doniyorovdan undirish lozim topadi. Jumladan, ishga guvohni chaqirish uchun ketgan xarajat 200 so'm, davlat boji uchun 117 so'm 50 tiyin, jami-317 so'm 50 tiyin tashkil qiladi.

Sud yuqoridagilarga ko'ra hamda Oila kodeksining 97- va FPKning 203-206-moddalariga asosan

Qaror qiladi:

Javobgar Toshkent «Malika» fabrikasida o'sta bo'lib ishlovchi, 1970-yilda tug'ilgan A.X.Doniyorov hisobidan G.SH.Doniyorovning foydasiga 2000-yil 12-aprelda tug'ilgan qizi Irodaning ta'minoti uchun uning barcha daromad va oylik maoshlarini hisobga olgan holda har oyda to'rttdan bir qismini, lekin eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo'lmagan miqdorda, 2001-yil 10-martdan boshlab farzandi Iroda voyaga yetgunga qadar aliment hamda yo'qotgan vaqti uchun 2000 so'm undirilsin.

Sud xarajatlari uchun sarflangan 317 so'm 50 tiyin javobgar A.X.Doniyorovdan davlat hisobiga undirilsin.

Hal qiluv qarorining aliment undirish haqidagi qismi darhol ijro qilinsin.

Hal qiluv qaroridan norozi tomon 20 kun muddat ichida shu sud orqali fuqarolik ishi bo'yicha Toshkent shahar sudiga shikoyat (protest) qilishlari mumkin.

Sudya: R.A.Akbarov

ALIMENT MIQDORINI KAMAYTIRISH HAQIDA

Agar sud aliment to'lovchi shaxsning boshqa voyaga yetmagan bolalari borligini aniqlasa va undan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirilganda, bu bolalar aliment oluvchi bolalarga nisbatan moddiy jihatdan kamroq ta'minlanadigan bo'lib qolsalar, shuningdek, aliment to'lovchi ota-ona birinchi yoki ikkinchi nogironi bo'lsa, yoxud aliment oladigan bolalar ishlasalar va ularning yetarli ish haqi bo'lsa, undiriladigan alimentlarning miqdori sud tomonidan kamaytirilishi lozim.

Oila kodeksining 105-moddasi 2-qismida ko'rsatilganidek, agar bolalar davlatning yoki jamoat tashkilotlarining to'liq ta'minotida bo'lsalar, sud aliment miqdorini kamaytirishga yoki javobgarni aliment to'lashdan ozod qilishga haqli bo'ladi.

Bir necha sud qarorlari asosida aliment undirish

- Xorazm viloyati, Urganch shahar sudiga
- Da'vogar: Bobojon Bobojonov-Urganch shahar 3-mikrorayon, Labzak ko'chasi, 10-uyda yashaydi.
- Javobgar: Soniya Shokirova-Urganch shahar, Rahimov ko'chasi, 10-uyda yashaydi.
- Javobgar: Reymajon Jumaniyozova-Urganch shahar, Odilov ko'chasi, 35-uyda yashaydi.
- Javobgar: Dilbar Yunusova-Urganch shahar, Asana 40-yilligi ko'chasi, 40-uyda yashaydi.

DA'VO ARIZA

(Aliment miqdorini kamaytirish haqida)

Xiva tuman sudining 1997-yil noyabr oyining 10 kunidagi qiluv qaroriga binoan men Soniya Shokirovaning tarbiyasida qolgan 1995-yil 10 noyabrda tug'ilgan Go'zal ismli farzandim uchun ish haqimning uchdan bir qismi miqdorida aliment to'lab kelmoqdaman.

Bundan tashqari, Urganch shahar sudining 1999-yil 25-sentabrdagi qaroriga asosan sobiq turmush o'rtog'im Reymajon Jumaniyozova to'ldasiga uning tarbiyasida qolgan ikki nafar farzandim-1997-yil 8-martda tug'ilgan Temur Bobojonov va 1998-yil 13-noyabrda tug'ilgan Yulduz Bobojonovalarning tarbiyasi uchun ish haqimning uchdan bir qismi miqdorida aliment to'lab kelmoqdaman. Yana Xiva tuman sudining 1999-yil 16-oktabrda chiqargan hal qiluv qaroriga binoan sobiq turmush o'rtog'im Dilbar Yunusovanning tarbiyasida qolgan 2 nafar farzandim 1997-yil 23-noyabrda tug'ilgan Jahongir Bobojonov, 1999-yil 11-martda tug'ilgan Dilmurod Bobojonovlar uchun yana uchdan bir qism miqdorida mendan aliment undirilmoqda.

1999-yil yanvar oyida Sanobar Nig'matova ismli ayolga uylandim, hozirgi kunda o'rtamizda 2000-yil 5-fevralda tug'ilgan Nilufar Bobojonova ismli farzandimiz bor.

Hozirda men Urganch shahridagi «Xorezturizm» idorasida dispatcher bo'lib ishlab kelmoqdaman, oylik maoshim 12890 so'mni tashkil qiladi. Lekin oylik maoshimning juda katta qismi javobgarlarga aliment tarzida yuborilib turibdi. Hozirgi kunda turmush o'rtog'im farzandimiz yosh bo'lganligi sababli ishlamasdan o'tiribdi, o'zim kasalmandman. Oilamiz moddiy tomondan juda qiynalyapti, javobgarlar

esa yaxshi ta'minlanmaganlar. Meni ham ahvolim og'ir bo'lishiga qaramay undirilayotgan aliment miqdori oylik maoshimning yarmidan ko'pini tashkil qilib, qonunda belgilangan miqdordan oshib ketgan.

Yuqoridagilarga ko'ra va Oila kodeksining 105-moddasiga asosan
So'rayman:

1. Xiva tuman sudining 1997-yil 10-oktabrdagi, Urganch shahar sudining 1999-yil 25-sentabrdagi va Xiva tuman sudining 1999-yil 16-oktabrdagi hal qiluvchi qarorlarida belgilangan aliment miqdorini kamaytirilishini.

2. a) Mendan javobgar Soniya Shokirovaning tarbiyasidagi 1995-yil 30-noyabrda tug'ilgan Go'zal ismli farzandim uchun undirilayotgan;

b) javobgar Reymajon Jumaniyozova tarbiyasidagi 1997-yil 8-martda tug'ilgan Temur Bobojonov va 1998-yil 13-noyabrda tug'ilgan Yulduz Bobojonova ismli farzandlarim uchun undirilayotgan va

v) javobgar Dilbar Yusupovanning tarbiyasidagi 1997-yil 23-noyabrda tug'ilgan Jahongir Bobojonov va 1999-yil 11-martda tug'ilgan Dilmurod Bobojonov ismli farzandlarim tarbiyasi uchun har oyi undirilayotgan aliment miqdorlarining hammasi jamlanganda oylik maoshimning 50 foizi miqdoridan oshirishligi ta'minlanishini.

Ilova: 1. Sanobar Nigmatova bilan nikohimiz to'g'risida nikoh guvohnomasidan nusxa;

2. Bola tug'ilish guvohnomasidan nusxa;

3. Bolaning sog'lig'i to'g'risidagi ma'lumotnoma;

4. Mening ish joyimdan oylik maoshim haqida ma'lumotnoma;

5. Xotinimning homiladorlik ta'tilida eanligi to'g'risida ish joyidan ma'lumotnoma;

6. Yashash joyidan ma'lumot;

7. Xiva tumani sudining 1997-yilgi qarori;

8. Urganch shahar sudining 1999-yil 25-sentabrdagi qarori;

9. Xiva tumani sudining 1999-yil 16-oktabrdagi qarori;

10. Davlat to'lovini to'laganligim haqida chipta.

2000-yil 30-mart.

B. Bobojonov

NIKOHDAN AJRATISHDA BOLALAR ER-XOTINNING QAY BIRIDA QOLISHI VA ULARGA QANCHA MIQDORDA ALIMENT UNDIRISHI LOZIMLIGI HAQIDA

Sud nikohdan ajratish to`g`risida hal qiluv qarorini chiqargan paytda, zarur hollarda, voyaga yetmagan bolalarning va mehnatga layoqatsiz er yoki xotinning manfaatlarini himoya qilish choralarini ko`radi.

Nikohdan ajralgandan keyin er-xotin o`rtasida bolalar qaysi birlari bilan turishi va bolalarning ta`minoti uchun qancha miqdorda nafaqa to`lash haqida nizo bo`lsa, sud nikohdan ajratish to`g`risidagi ishni hal qilish bilan birga bolalardan qaysi biri ota-onaning qaysi biri bilan qolishi, shuningdek, bolalarning ta`minoti uchun ota-onalarning qaysi biridan qancha miqdorda aliment undirish kerakligi masalalarini ham hal qilishga majbur.

Bunday hollarda ishda ishtirok etish uchun vasiylik va homiylik organi jalb qilinishi lozim.

Farg`ona viloyati, fuqarolik ishlari bo`yicha Rishton tuman sudiga

Da`vogar: Sobira Mamatova-Bog`dod tuman Qaqir qishlogi fuqarolik yig`ini, Sho`raquer qishlog`ida yashaydi.

Javobgar: Tohir Mamatov-shu tuman, Ultarma qishloq yig`ini Yangi qishlog`ida yashaydi.

DA'VO ARIZASI **(Bolani olish to`g`risida)**

Men javobgar Tohir Mamatovga 1995-yil 28 iblda Bog`dod tuman fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idorasida nikohni qayd qildirgan holda turmushga chiqqanman.

Oilaviy turmushimiz davomida 1996-yil 22-iyunda tug`ilgan Zamira Mamatova va 1998-yil 25-sentabrda tug`ilgan Go`zal Mamatova ismli farzandlar tug`ildi. Men javobgar bilan o`zaro kelishmay, ota-onamnikiga ketib qolganman va ularnikida yashamoqdaman. Ikki nafar farzandim ham men bilan birga yashamoqda edilar.

1999-yil 15-aprel kuni javobgar nafaqa to`lashdan qochib, uyda mening yo`qligimdan foydalanib, 1996-yil 2-iyunda tug`ilgan Zamira Mamatova ismli farzandimni olib qochib ketibdi.

Qizim Zamira yoshligida sil kasal bilan kasallangan edi. Shuning uchun men uni alohida parvarish qilar edim. Hozirda u javobgarning

qo`lida. Javobgar kunduzi ishga ketadi. Bolamga qaraydigan hech kimi yo`q. Shu kunlari men farzandimning oziq-ovqati, kiyim-boshi, sog`lig`i umuman taqdiri haqida qayg`urmoqdaman, hozirgi daromadlarim bilan farzandlarimni moddiy ta`minlash uchun imkoniyatim mavjud.

Eng asosiysi-har ikki farzandimning onasimanku! Ikkalasiga ham oq sutim bilan mehr berganman. Kechalari ular boshida uxlamay tong ottirganman. Hozirda farzandlarimni bir-biridan ajratib tarbiyalashning o`zi men uchun og`ir ma`naviy zarbadir.

Bola yosh, go`dak, ko`proq onalik mehriga, parvarishga zor. Lekin javobgarning bilib turib farzandimni olib ketgani, mendan yashirib yurgani-men uchun ham, farzandlarim uchun ham og`ir judolikdir.

Farzandlarimga onalik mehri, tarbiyani faqat men bera olaman, chunki javobgarda bunday imkoniyatning o`zi mutlaqo yo`q.

Eshitishimcha, qizim kasal bo`lib yotgan ekan. Men javobgarning farzandimga tarbiya berishiga ishonmayman, chunki oilani boshqara olmagan inson farzandlarini ham tarbiyalay olmaydi, buning ustiga farzandimni tarbiyalash uchun u kishining sharoiti o`zi og`ir.

Hozirda men ota-onamnikida yashamoqdaman, yashash uchun barcha sharoitlar mavjud.

Alohida uy-xonasi va boshqa moddiy sharoitlar muhayyo. Oziq-ovqat va moddiy tomondan ta`minotimizga ota-onam muntazam yordam bermoqdalar, shuningdek, javobgar ham ikki farzandim uchun nafaqa to`lashga majbur.

Yuqoridagilarga va Oila kodeksining 78-moddasiga asosan

So`rayman:

1996-yil 22-iyunda tug`ilgan Zamira Mamatova ismli qizimni otasi Tohirjon Mamatovning tarbiyasidan mening tarbiyamga olib berilishini.

Ilova: 1. Nikoh guvohnomadidan nusxa.

2. Javobgarning yashash va ish joyidan ma`lumotnoma.

3. Yashash va ish joyimdan ma`lumotnoma.

4. Farzandimning tug`ilish guvohnomasidan nusxa.

2002-yil 20-aprel.

S.Mamatova

Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ustidan keltirilgan apellatsiya shikoyatini yuqori sud tomonidan rad etilganligi haqida

AJRIM

2001-yil 11-iyulda fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona viloyati sudining ochiq hay'at majlisi bo'lib, raislik etuvchi S.Sharapov, sudyalari R.Muminov va K.Haydarov hay'atida, prokuror YU.Rajabov ishtirokida, fuqarolik ishlari bo'yicha Rishton tuman sudining 2001-yil iyunda 2-90-nomli ko'rgan fuqarolik ishi bo'yicha bolani olib berishni rad qilganligi haqida chiqargan hal qiluv qarori ustidan javobgar Tohir Mamatov keltirgan apellatsiya shikoyati ko'rildi.

Sudlov hay'atida fuqarolik ishi yuzasidan hay'at sudyasi S.K.Sharapovning ma'ruzasini tinglab, quyidagilar

Aniqlandi:

Sobira Mamatova 1995-yil 27-iyulda javobgar Tohir Mamatov bilan oilaviy turmush qurib to 1999-yil aprel oyiga qadar birga yashaganlar. Oilaviy turmush davrida-1996-yil 22-iyunda Zamira Mamatova va 1998-yil 25-sentabrda Go'zal Mamatova ismli farzandlar ko'rganlar. Oilaviy turmushlari buzilib, sudning 5-apreldagi hal qiluv qaroriga asosan nikohdan ajratilganlar. Zamira ismli qizini esa ona tarbiyasida bo'lganligiga qaramay otasi olib ketgan va qizni o'zi tarbiyalashini birdirgan.

1999-yil aprel oyida Sobira Mamatova sudga da'vo arizasi bilan murojaat etib, Tohir Mamatovdan qizini o'zining tarbiyasiga olib berilishini so'ragan, bunga asos qilib qizi Zamirani kasalmand ekanligini, ikki farzandni bir-biridan ajratib tarbiyalash ruhiy jihatdan salbiy ta'sir ko'rsatilishi mumkinligini hamda uyida tarbiya uchun barcha sharoitlar mavjud ekanligini ko'rsatgan.

Javobgar davoga iqror bo'lmasa-da, o'zining talabini asoslaydigan birorta vaj va mulohazalar keltirmaydi. Askincha, sud tomonidan javobgarning tez-tez spirtli ichimlik ichib, mast holda uyga kelib, janjal-to'polon qilishi tufayli bolalarning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi aniqlangan. Shu sababli sudning 2001-yil 20-apreldagi hal qiluv qaroriga ko'ra Sobira Mamatovanning da'vosi qanoatlantirilgan.

Javobgar Tohir Mamatov keltirgan apellatsiya shikoyatida hozir ishlayotganligini, bolalarini tarbiyalash uchun moddiy va ma'naviy tomondan sharoitlari yetarli ekanligini ko'rsatib, sudning hal qiluv qarori bekor qilinishini, bolalardan birini o'zining tarbiyasiga olib berilishini so'raydi.

Ish materiallaridan da'vogar Sobira Mamatovning ikki nafar farzandini tarbiyalash uchun moddiy va ma'naviy jihatdan sharoiti yetarli ekanligi, tuman maorif bo'limi vasiylik va homiylik idorasining bergan

xulosasi hamda ularning sudda quvvatlab bergan ko`rsatuvlari bilan tasdiqlanadi.

3 yoshli Zamira ona bag`rida, onalik mehri ostida tarbiyada bo`lmog`i, har ikki bolaning bir oilada, bir-biridan ajralmagan holda tarbiyalanishlari maqsadga muvofiqligi sud taftishida tasdiqlanganligi ish materiallarida, o`z irodasini topgan.

Shu sababli fuqarolik ishlari bo`yicha tuman sudi Sobira Mamatovaning da'vosini qanoatlantirib, qizi Zamira Mamatovani javobgar Tohir Mamatovdan olib berib to`g`ri xulosaga kelgan.

Binobarin, fuqarolik ishlari bo`yicha Farg`ona viloyat sudining sudlov hay'ati FPKning 343-moddasin qo`llab

Ajrim qiladi:

Farg`ona viloyati, fuqarolik ishlari bo`yicha Rishton tuman sudining ushbu fuqarolik ishi bo`yicha 2001-yil 8-iyunda chiqargan hal qiluv qarori o`zgarishsiz qoldirilsin. Tohir Mamatovning apellatsiya shikoyati esa qanoatlantirilmay qoldirilsin.

Sudya: S.A.Sharapov

VI. MEHNATGA OID NIZOLARNI SUDDA KO`RISHNING PROTSESSUAL XUSUSIYATLARI

Mehnat huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo`yicha sudi ishlarini yuritishning umumiy qoidalari, da'vo ishlarini yuritish tartibida sudlar tomonidan ko`riladi.

Bu turkumdagi fuqarolik ishlarini ko`rish uchun qonun tomonidan belgilangan qator xususiyatlar mavjud. Bunday xususiyatlar nizoli moddiy huquqiy munosabatlarning xarakteri bilan belgilanib, faqat moddiy huquqiy (mehnat huquqi) normalariga emas, balki protsessual huquq normalari (FPK)da ham nazarda tutilgan. Bu jihatlar sudyalari tomonidan mehnat ishlari bo`yicha da'vo arizalarini qabul qilishlarida, ularni sud majlisida ko`rish uchun tayyorlashda va ish yuritishning boshqa keyingi bosqichlarida ham e'tiborga olinishi kerak.

Sudya bunday ishlar bo`yicha arizalar qabul qilishda FPKning 31-moddasida nazarda tutilgan umumiy qoidaga amal qilib, mazkur ishning sudga taalluqli bo`lish-bo`lmasligini aniqlashi lozim. Nizoning predmetiga va ishda qatnashuvchi subyetlarga qarab, mehnat huquqi normalari ishni hal qilishning har xil tartibi belgilanganligi nazarda tutilishi kerak.

Mehnat kodeksida ko`rsatilganidek, mehnatga oid ishlar mehnat nizolarini ko`ruvchi komissiyalar tomonidan; ikkinchidan, tuman (shahar) sudlari tomonidan ko`riladi. Ba'zi turdagi xodimlarning mehnat nizolari bo`ysunishga qarab yuqori organlar tomonidan ham ko`riladi.

Mehnat nizolarini ko`rish uchun boshqa fuqarolik ishlariga nisbatan birmuncha qisqa muddatlar belgilangan. FPKning 131-moddasiga ko`ra, mehnat nizolari birinchi instansiya sudi tomonidan 10 kun muddat ichida ko`rilishi lozim, agar taraflar boshqa hududda yashasalar, bu muddat 20 kunga belgilangan.

Ishga tiklashga oid tuzadigan da'vo ariza

Toshkent shahar, Sobir Rahimov tuman sudiga

Da'vogari: Nosir Rasulov-Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Shofayzi ko`chasi, 2-berk ko`cha, 10-uyda yashaydi.

Javobgari: Toshkent shahri, Shayxontohur tuman oshxonalar trest, Chkalov ko`chasi, 3-uyda joylashgan.

DA'VO ARIZA

(Ishga tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqt uchun ish haqi undirish to'g'risida)

Men 1996-sentabr oyidan boshlab Shayxontohur tumani oshxonalar trestida omborchi bo'lib ishlab kelaman.

Trest boshlig'i A.Qirg'izboyevning 2000-yil 10-sentabrdagi buyrug'iga asosan, Mehnat kodeksining 41-moddasi 3-bandiga muvofiq «ichki mehnat tartib qoidalariga binoan o'z zimmamga yuklangan vazifalarni uzrsiz sabablar ko'ra doimiy ravishda bajarmayotganlik»da ayblanib, ishdan bo'shatildim.

Trest rahbariyatining buyrug'ida ko'rsatilishicha, meni ishdan bo'shatish uchun asos-10-sentabr kuni ishga kelmaganligim «uzrsiz» deb hisoblaganidadir.

Ishdan bo'shatilganligimni g'ayriqonuniy deb bilaman va buni quyidagilar bilan asoslayman:

1. Buyruqda meni «ishga muntazam kechikib kelgan» deyilgan, lekin asossiz biror marta ham kechikib kelganligim yoki ichki tartib qoidalarini buzganligim haqida jazo olmaganman, hattoki muhokama ham qilinmaganman.

2. Haqiqatdan ham 2000-yil 10-sentabr kuni qon bosimim ko'tarilganligi sababli ishga kelmaganman va bu haqda oshpaz Rustam Aliyevdan xabar berib yuborganman. Bundan tashqari, bu holatni tasdiqlovchi shifoxonadan berilgan ma'lumotnomani ham taqdim etganman, shuning uchun kechikish sababini uzrli deb hisoblayman.

3. Meni ishdan bo'shatish haqida kasaba uyushmasi qo'mitasi rozilik bermagan, buni esa mehnat qonunchiligini qo'pol ravishda buzish deb qaramoq kerak.

Yuqoridagilarga ko'ra, Mehnat kodeksining 268-275-moddalariga asosan

So'rayman:

1. Shayxontohur tumani oshxonalar trestining ishdan bo'shatish to'g'risidagi buyrug'ini bekor qilinib, omborchilik vazifasiga meni qayta tiklashni.

2. Majburan bekor yurgan hamma kunlarim uchun 2000-yil 10-sentabrdan boshlab ish haqim javobgardan undirib berilishini.

3. Sud majlisiga R.Aliyevni guvoh sifatida chiqarilishni u Shayxontohur tumani, Sebzor ko'chasi, 12-uyda yashaydi.

Bulardan tashqari, oshxonalar trestidan agar menga nisbatan qachon muvo berilgan bo'lsa, u berilganligi haqida ma'lumot talab qilib olinishini so'rayman.

Ilova: 1. Shayxontohur tuman oshxonalar trestining 2000-yil sentabrda meni ishdan bo'shatish haqidagi buyrug'i;

2. Shayxontohur tumanidagi 17-poliklinikaning 2000-yil 10-sentabrda kasalligim haqida bergan ma'lumotnomasi.

3. Keyingi uch oy davomida olgan maoshim haqida ma'lumotnoma.

4. Da'vo arizaning 2 nusxasi.

2000-yil 22-sentabr.

N.Rasulov

MEHNAT NIZOLARI YUZASIDAN SUDGA MUROJAAT QILISH TARTIBI

Kasaba uyushmasi tashkiloti va korxonalar, muassasa, tashkilot rahbaridan iborat hay'atdagi mehnat nizolarni ko'ruvchi komissiyada tomonlar bir bitimga kela olmaganlari taqdirda, shuningdek, xodim mehnat nizosi yuzasidan mazkur komissiya chiqargan qaroridan rozi bo'lmagan holda, xodimga unga shu komissiya majlis bayonnomasidan ko'chirma topshirilgan kundan boshlab 10 kunlik muddat ichida mehnat nizosini hal qilib berish to'g'risida tuman (shahar) sudiga ariza bilan murojaat etishi mumkin.

Agarda xodim korxonalar, muassasa, tashkilot kasaba uyushmasi qo'mitasining (sex kasaba uyushmasi qo'mitasining) mehnat nizosi yuzasidan chiqargan qaroridan norozi bo'lsa, u korxonalar, muassasa, tashkilotning kasaba uyushmasi qo'mitasi (sex kasaba uyushmasi qo'mitasi) qarorini olgan kundan boshlab 10 kunlik muddat ichida tuman (shahar) sudiga mazkur mehnat nizosini ko'rib chiqish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

Korxonalar, muassasa, tashkilot ma'muriyati korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning kasaba uyushmasi qo'mitalari (sex kasaba uyushmasi qo'mitalari) mehnat nizosi yuzasidan chiqargan qarorini amaldagi qonunlarga zid deb hisoblagan taqdirda, u mehnat nizosini hal qilib berishini so'rab ko'rsatilgan muddat ichida tuman (shahar) sudiga murojaat qilishi mumkin.

Xodim asossiz ishdan bo'shatilgan yoki g'ayriqonuniy tartibda boshqa ishga ko'chirilgan taqdirda shu mehnat nizosini ko'rib chiquvchi organ tomonidan avvalgi ishiga qayta tiklanishi lozim.

Basharti, xodim korxonasi, muassasa, tashkilot kasaba uyushmasi tashkilotining rozilgisiz ishdan bo'shatilgan bo'lsa, mehnat nizosini ko'rib chiquvchi organ kasaba uyushmasi qo'mitasi xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqquniga qadar nizoni hal etishni kechiktirib turishi kerak. Agar xodimni ishdan bo'shatishga rozilik berish rad etilsa, kasaba uyushmasi qo'mitasi ana shu xodimni ishga qayta tiklash to'g'risidagi qarorni qabul qiladi.

Mehnat nizosini ko'ruvchi organ xodimni qayta ishga tiklash to'g'risidagi hal qiluv qarori chiqarish bilan birga noilojdan bekor yurgan vaqt uchun unga haq to'lash yoki kamroq haq to'lanadigan ishni bajargan paytda olgan haqining farqini to'lash haqida ham qaror chiqaradi, lekin bu haq uch oylik ish haqi miqdoridan ortib ketmasligi shart.

Samarqand viloyati, Bulung'ur tuman sudiga

Da'vogar: Po'lat Parpiyevich Latipov-Bulung'ur shahri,
Zargar ko'chasi, 12-uyda yashaydi;

Javobgar: Bulung'ur shahar qurilish boshqarmasi, Uychi
ko'chasi, 5-uyda joylashgan.

DA'VO ARIZA

(Ishga tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqt uchun ish haqi undirish to'g'risida)

Men Bulung'ur qurilish boshqarmasida 1992-yildan beri duradgor bo'lib ishlab kelganman.

Boshqarma boshlig'ining 2000-yil 4-avgustdagi buyrug'i bilan men Mehnat kodeksining 100-moddasi bilan ichki mehnat tartib-qoidasini doimiy ravishda buzganlikda ayblanib, ishdan bo'shatildim. Buyruqda ko'rsatilishicha, meni ishdan bo'shatishga asos qilib, 1996-yil 2-avgust kuni bir soatu o'ttiz daqiqa kechikib kelganligim bo'lgan.

Quyidagi asoslarga ko'ra meni ishdan noto'g'ri bo'shatgan deb hisoblayman:

1. Buyruqda ichki mehnat tartib-qoidalari muntazam ravishda buzilgan deyilgan vaj asossizdir. Ish davrimda qurilish boshqarmasi tomonidan 1999-yil 2-iyunda 63-buyruq bilan menga intizomiy jazo e'lon qilingan edi. Namunaviy ichki ish tartib qoidasiga ko'ra, bu jazo o'z kuchini yo'qotgan, deb hisoblayman.

2. 2000-yil 2-avgustda 1 (bir) soat 30 (o'ttiz) daqiqa ishga kechikish haqiqatda bo'lgan, lekin bu kechikish uzrli sabablarga ko'ra yo'l qo'yilgan:

1-avgust kuni xotinim og'ir kasal bo'lib qoldi, shuning uchun 2-avgust kuni bir qancha uy ishlarini o'zim qilishga (ovqat tayyorlashga, bolalarni maktab va yasliga olib borib qo'yishga), shuningdek, uyga vrach chaqirishga majbur bo'lgandim. Bu holatni qo'shnilarim A.Tursunov va B.G'aniyevlar tasdiqlashlari mumkin.

3. Yuqorida bayon etilganlarga ko'ra, mening ishdan bo'shatilishim to'g'risidagi boshqarma boshlig'ining shu yil 4-avgustdagi buyrug'i mualdagi qonunchilikka zid ravishda chiqarilgan deb hisoblayman. Shuning uchun Mehnat kodeksining 240-245-moddalariga asoslanib,

So'rayman:

1. Meni o'z ish joyimga Bulung'ur qurilish boshqarmasiga duradgor vazifasiga tiklashingizni.

2. Javobgardan mening foydamga noilojdan 2000-yil 4-avgustdan boshlab bekor yurgan kunlarim uchun ish haqi undirib berishni.

Sud majlisiga guvoh sifatida Bulung'ur shahar, Zargar ko'chasi, 12-uyda yashovchi V.I.Gromovani chiqarishingizni so'rayman.

Bundan tashqari, qurilish boshqarmasidan:

a) 1993-yilda menga intizomiy jazo berilganlik to'g'risida chiqarilgan buyruq nusxasi;

b) mahalliy kasaba uyushmasi qo'mitasining mening ishdan bo'shatilganim to'g'risida bergan roziligi bo'yicha qarorning nusxasi;

v) ishdan bo'shatilishdan oldingi davrdagi uch oylik ish haqimning miqdori to'g'risidagi ma'lumotni so'rab olishingizni iltimos qilaman

Ilova: 1. Bulung'ur qurilish boshqarmasining 2000-yil 4-avgustdagi buyrug'idan nusxa;

2. Shahar poliklinikasining 2-avgustda xotinimning kasal bo'lib qolganligi to'g'risida bergan ma'lumoti.

3. Da'vo arizasining ikkinchi nusxasi.

2000-yil 13-avgust.
P.P.Latipov.

ISHNI DASTLAB SUDSIZ HAL QILISH TARTIBGA RIOYA QILMAGANLIK SABABLI ARIZANI QABUL QILISHNI RAD ETISH TO`G`RISIDA

Ayrim turkumdagi fuqarolik ishlarini ko`rish va hal etish hamda uni qaysi idoraga taalluqli bo`lishini bilish uchun huquq to`g`risidagi nizoning qanday huquqiy munosabatlardan kelib chiqqanligini aniqlash lozim bo`ladi.

Ilgari amalga bo`lgan Mehnat qonunchiligi kodeksida mehnat to`g`risidagi nizolarning ko`pchiligi avval mehnat nizolarini ko`rish komissiyasi tomonidan ko`rilgan bo`lsagina sudga murojaat etish xodimning huquqiga kirgan edi. Amaldagi mehnat kodeksida esa, qaysi organga murojaat etishlik xodimning huquqi bo`lib u, yo mehnat nizoli komissiyasiga yoki to`g`ridan to`g`ri nizoli ish bo`yicha sudga murojaat qilishga haqli. Mehnat qonunchiligida, mehnat nizoli komissiyasining vakolati ko`rsatilgan, bunga ko`ra, basharti xodim kelishmovchilikni mustaqil ravishda, kasaba uyushmasi qo`mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi ishtirokida ish beruvchi bilan bevosita olib borgan muzokaralarida hal eta olmagan bo`lsa, mehnat nizosi mehnat nizolarining komissiyasida ko`rib chiqiladi (Mehnat kodeksining 263-moddasi). Bundan tashqari, bevosita tuman sudlarida ko`riladigan mehnat nizoli ishlar MKning 299-moddasida berilgan, biroq bu moddada sanab o`tilgan qoidalardan boshqa nizolar ham xodimning xohishiga qarab bevosita sudlarda ko`rilishi mumkin. Shuning uchun ham mehnat nizolari mehnat nizolari komissiyasida ko`rilmagan, degan vaj bilan xodimning arizasini sudda ko`rib chiqishni rad etishga yo`l qo`yilmasligi ko`rsatilgan.

Sud amaliyotida qonunning bu talablariga ayrim hollarda rioya qilmasdan hali ham mehnat nizolari mehnat nizoli komissiyalarida ko`rilgandan keyingina ish sudga taalluqli degan fikrlar mavjud. Amaldagi FPKning 97-moddasida arizani sudsiz hal etish tartibiga rioya etmaganlik uchun uni ko`rmasdan qoldirish haqida qoida bo`lmasa-da, ayrim sudyalarimiz o`z kuchini yo`qotgan GPKning 244-moddasi 1-bandiga havola qilish hollari uchraydi, buni quyidagi misolda ko`rish mumkin.

AJRIM
2001-yil 25-oktabr.
To`raqo`rg`on tumani.

Namangan viloyati, To`raqo`rg`on tuman sudining sudyasi O.K.Qosimov raisligida, M.Buzrukova kotibligida da'vogar Ergash Jumayevning javobgar Shahand Vino tayyorlash zavodidan ish haqini undirish to`g`risidagi arizasi ko`rib, quyidagilar

Aniqlandi:

E.Jumayev sudga da'vo ariza bilan murojaat etib, u shu Vino tayyorlash zavodida uzum ezish sehida ishchi bo`lib ishlab, 2001-yilning yozida ma'muriyat tomonidan bir necha marotaba ishdan keyin qolib, 3-4 soatlab ayrim shanba va yakshanba kunlari (jumladan, iyul-avgust oylari to`lig`icha) ishlagani va shu mehnatlari uchun zavod 2285 so`m haq to`lashi lozimligini ko`rsatadi.

Sud ishda to`plangan hujjatlariga asoslanib, arizai sudda ko`rish uchun asos yo`q degan xulosaga keladi.

Mehnat kodeksining 229-240-moddalariga asosan, ish vaqtidan keyin ishlaganlik uchun ish haqini undirish to`g`risidagi nizolar dastlab mehnat nizolarini ko`ruvchi komissiyalarda hal qilinishi, uning qaroridan norozi bo`lgan taraf sudga murojaat etishga haqli ekanligi ko`rsatilgan. Shuning uchun ham da'vogar ishni dastlab sudsiz hal qilish yuzasidan belgilangan tartibga rioya qilmaganligi sababli sud arizani qabul qilishni rad etishni lozim topadi. Sud FPKning 244-moddasi 1-bandiga asosan

Ajrim qiladi:

Ergash Jumayevning To`raqo`rg`on tumanidagi Vino zavodidan ish vaqtidan tashqari ishlagani uchun 2285 so`m ish haqini undirish to`g`risidagi arizasini qabul qilish rad etilsin. Bunday turkumdagi nizolarni hal qilish uchun Ergash Jumayevga avvalo Vino zavodining mehnat nizolarini ko`ruvchi komissiyasiga agar uning qaroridan norozi bo`lgan taqdirda sudga murojaat qilishi mumkinligi tushuntirilsin.

Ajrimdan norozi tomonlar shu sud orqali fuqarolik ishlari bo`yicha Namangan viloyat sudining fuqarolik sudlov hay'atiga 10 kun muddat ichida xususiy shikoyat berishi, prokuror protest keltirishga haqlidirlar.

Sudya: O.K.Qosimov

JAVOBGARNI QIDIRISH TO`G`RISIDA

Ishda ishtirok etayotgan shaxslar ish yuritilayotgan vaqtda o`z manzillarini (adreslarini) o`zgartirganliklari to`g`risida sudga ma`lum qilishga majburlar. Bunday ma`lumot bo`lmagani taqdirda chaqiruv xati sudga ma`lum bo`lgan oxirgi manzilgoh bo`yicha yuboriladi va chaqiriluvchi bu manzilda yashamayotgan bo`lsa, u topshirilgan hisoblanadi.

Javobgarning haqiqiy turadigan joyi noma`lum bo`lgan taqdirda javobgarning ma`lum bo`lgan oxirgi turar-joyidagi pochta bo`limi, uylar boshqarmasi, mahalla (kvartal) qo`mitasi yoxud chaqiruv xatini olinganligi va chaqiriluvchining qayerda ekani noma`lumligi sababli uni topshirish mumkin emasligi haqida yozib yuborgan ma`lumot sudga kelgach, sud ishni ko`rishga kirishadi.

Aliment undirish haqidagi, mayib bo`lish yoki sog`liqqa boshqacha shikast yetishi, shuningdek boquvchining o`limi natijasida kelgan zararni qoplash to`g`risidagi da`volar bo`yicha javobgarning haqiqiy yashab turgan joyi noma`lum bo`lsa, javobgarni qidirish majburiydir.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, kooperativ hamda jamoat tashkilotlarining fuqarolarga nisbatan da`volar bo`yicha javobgarning haqiqiy yashab turgan joyi noma`lum bo`lsa, sud javobgarni qidirishni e`lon qilishi mumkin.

Yuqorida ko`rsatilgan hollarda sud javobgarni ichki ishlar idoralari orqali qidirish to`g`risida ajrim chiqaradi.

AJRIM

2000-yil 5-avgust

To`raqo`rg`on tumani

Namangan viloyati, To`raqo`rg`on tuman sudining ochiq sud majlisida sudya K.M.Alixonov raisligida, N.Valiyeva kotibligida «Namangan» uzumchilik shirkat xo`jaligining da`vosi bo`yicha (da`vogar vakili E.Eminov) shu xo`jalikka keltirilgan 20,000 so`m zararni Samad Aliqulovdan undirish to`g`risidagi fuqarolik ishi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Samad Aliqulov «Namangan» uzumchilik shirkat xo`jaligida ishchi bo`lib ishlab kelgani holda unga biriktirilgan 200 dona uzum solish uchun mo`ljallangan karton qutini o`z vaqtida pana joyga olib qo`ymaganligi sababli qutilar yomg`irda qolib, ishdan chiqishiga sababchi bo`lgan va shu

bilan xo`jalikka 20,000 (yigirma ming) so`m miqdorida zarar keltirgan bo`lib, zararni ixtiyoriy to`lashdan bosh tortib kelgan. Shu tufayli da`vogar- "Namangan" shirkat xo`jaligi zararni javobgardan undirib berish to`g`risida sudga murojaat qiladi.

Javobgar sudning tayyorlov majlisiga chaqirilishiga qaramay, uzrsiz sabablarga ko`ra kelmagan, aniqlanishicha, shu yil 10-iyulda u ish va yashash joylarini tashlab noma'lum tomonga ketib qolgan, bu holat qishloq fuqarolik yig`ini organining 1999-yil 12-iyulda bergan ma'lumotnomasi bilan ham tasdiqlanadi.

Da`vogar «Namangan shirkat xo`jaligining vakili 1970-yilda Farg`ona viloyati, Qo`qon shahrida tug`ilgan Samad Aliqulovga nisbatan ichki ishlar idorasi orqali qidiruv e`lon qilinishi lozimligini so`raydi.

Yuqoridagilarga ko`ra sud da`vogarning talablarini asosli deb hisoblab, FPKning 140-moddasiga asosan

Ajrim qiladi:

Farg`ona viloyati, Qo`qon shahrida 1970-yilda tug`ilgan va oxirgi vaqtda To`raqo`rg`on tumani Shahand qishlog`idagi «O`zbekiston» jamoa xo`jaligi hududida yashagan Samad Aliqulovga nisbatan qidiruv e`lon qilinsin.

Uning yashash joyi aniqlangan taqdirda To`raqo`rg`on tuman sudiga hamda «Namangan» shirkat xo`jaligiga xabar berilsin.

Ajrimni ijro qilish uchun uning bir nusxasi To`raqo`rg`on tuman ichki ishlar bo`limiga yuborilsin.

Sudya: M.K.Alixonov

MEHNAT ISHLARI BO`YICHA DA`VO ARIZASINI QABUL QILISH VA ISHNI KO`RISH UCHUN TAYYORLASH TO`G`RISIDA

Fuqarolik ishlarini sudda ko`rishga tayyorlash fuqarolik huquqiy nizolarining mumkin qadar tezlashtirib, to`la va har tomonlama ko`rilishi hamda hal etilishini ta`minlash maqsadlarini ko`zlagan holda amalga oshiriladi.

Ishlarni sudda ko`rishga tayyorlashda muayyan fuqarolik ishlarining turkumlari, ularning xususiyatlari, shuningdek, ma'lum nizoning xarakteri e`tiborga olinadi, chunki ba`zi turkumdagi ishlarni tayyorlashda amalga oshirilishi lozim bo`lgan protsessual harakatlar boshqa turdagi ishlarni sudda ko`rish uchun tayyorlashda bajarilishi talab qilinmasligi mumkin.

Masalan, mehnat nizolarini ko`rishga tayyorlashda amalga oshiriladigan harakatlar aliment undirish to`g`risidagi ishlarni sudda ko`rishga tayyorlashdan farq qiladi.

Ishni sud majlisida ko`rishga tayyorlash barcha hollarda (prosessual harakatlarning hajmi va murakkabligidan qat`iy nazar) o`tkaziladi va fuqarolik ishlarini sudda ko`rish protsessining har qanday bosqichi kabi maxsus rasmiylashtiriladi.

FPKning 158-moddasida belgilanishicha, sudya fuqarolik ishini sudda ko`rish uchun tayyorlashga bu to`g`rida ariza qabul qilganidan so`nggina kirishadi. Binobarin, arizani qabul qilmasdan avval sudda keyinchalik ko`riladigan ishlar yuzasidan ba`zi xatti-harakatlar qilinishi (chunonchi, biron-bir hujjat, dalil talab qilib olinishi) qonunga xilof bo`ladi. Ammo sudya da`vo arizasini qabul qilishdan avval fuqarolik ishining sudda qo`zg`atilishi uchun zarur bo`lgan ma`lumotlarni da`vogardan so`rab olishi mumkin.

Ishni sudda ko`rishga tayyorlash uchun kirishish bu to`g`risida rasmiy ravishda sudya tomonidan ajrim chiqarilganidan so`ng, ya`ni ishni sud majlisida ko`rish uchun tayyorlashdan avval boshlanadi. Sudya tomonidan chiqarilgan ajrim ishni tayyorlash uchun rasmiy ravishda kirishilganini bildirsa-da, ammo ishni ko`rishga oid ba`zi xatti-harakatlar oldin ham, keyinchalik ham qilinishi mumkin. Chunonchi, da`vogarning nizoni hal qilish uchun hakamlar sudiga yoki boshqa idoralarga murojaat qilishga huquqli bo`lishi to`g`risida tushunirishlar berishi ariza qabul qilingunga qadar ham bo`lishi mumkin.

Mehnat ishlarini sudda ko`rish uchun tayyorlash alohida ahamiyatga molik. Shuning uchun ham birinchi instansiya sudlarida fuqarolik ishlarini ko`rishda protsessual qonunchilikni hamda mehnat nizolari haqida qonunchilikni tadbiiq etish bilan bog`liq bir qancha qarorlarda fuqarolik ishlarini ko`rishga tayyorlash tadbirlari turkum (kategoriya)larni masalan, mehnat, uy-joy, oila va boshqalarni hisobga olgan holda olib borish lozimligi ko`rsatilgan. Sudya ishni sudda ko`rishga tayyorlashga kirishishda FPKning 158-moddasida talablarini aniq bajarishi lozim. Chunonchi, ish yuzasidan aniqlanishi kerak bo`lgan faktlarni belgilashi, barcha dalillarning keltirilgan-keltirilmaganligini tekshirishi, agar zarur bo`lsa, qo`shimcha dalillarni talab qilib olishi kerak.

Ishga tiklash to`g`risidagi da`volar bo`yicha kasaba uyushmasi qo`mitasining mazkur xodimni bo`shatishga rozilik berilganligi to`g`risidagi qarorining nusxasini talab qilib olish lozim. Avvalo mehnat nizolarini ko`ruvchi komissiyada va kasaba uyushmasi qo`mitasida

to'rtinchi talab qilingan ish sudga kelganida, ishning mazkur organlarda qanday ko'rilganligini, ishning ko'rilish vaqti va joyi to'g'risida xodimning xabardor qilinganligini, uning shu majlisida ishtirok etganligini qayta ko'rib chiqiladigan tegishli hujjatlar talab qilib olinadi.

Mehnat jamoalarida mehnat intizomi buzilishining oldini olish va mehnat munosabatlari sohasidagi qonunchilikni mustahkamlash maqsadida, mehnat ishlarini sudga ko'rishga tayyorlashning har bir bosqichida, bunday ishlarining ochiq sud majlisida, xodimning ishxonasida, yuridik va jamoatchilikning ishtirokida ko'rish lozim-lozimmasligini ta'kidlash zarur. Bu masalaga alohida e'tibor berish kerakligi to'g'risida yuqori sudlar tomonidan qayta-qayta ta'kidlangan.

Ish haqini undirish to'g'risidagi va mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa talablar bo'yicha bo'lgan da'volar yuzasidan xodimlar davlat daromadiga sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilinadilar. Bunday talablar qanoatlantirilgan qismiga nisbatan javobgardan undiriladi.

Mehnat ishlari bo'yicha da'vo arizani tayyorlov sud majlisida yuritish uchun qabul qilish haqida

AJRIM

Namangan viloyati, Namangan tuman sudining sudyasi A.A.Bekmirzayeva tomonidan 1999-yil 26-iyulda Alixon Xolmirzayevning ishga tiklash haqidagi da'vo arizasi ko'rib, quyidagilar

Aniqlandi:

1988-yildan buyon Namangan tumani ijroya qo'mitasining ipakchilik bo'limida iqtisodchi sifatida ishlab kelgan A.Xolmirzayev mehnat qonunlarini buzib ishga bir necha marotaba mast holda kelganligi sababli ipakchilik bo'limi ma'muriyatining 1999-yil 10-maydagi buyrug'i bilan Mehnat qonunlari kodeksining 100-moddasining 3-bandiga muvofiq ishdan bo'shatilgan.

A.Xolmirzayev o'z arizasida ishdan asossiz ravishda bo'shatilganligini aytib, sudan o'zini ishga qayta tiklab, ipakchilik bo'limi hisobidan bekor yurgan vaqtlari uchun mehnat haqini undirib berishni so'raydi.

Sud ishni o'z vaqtida va mazmunan to'g'ri hal qilish maqsadida tayyorlov harakatlariga e'tibor berishni nazarda tutib, FPKning 151 va 158-moddalariga binoan

Ajrim qiladi:

1. A.Xolmirzayevning da'vo arizasi ish yuritish uchun qabul qilinsin;
 2. A.Xolmirzayevning da'vo bo'yicha ishga tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqtlari uchun mehnat haqini undirish yuzasidan Namangan ipakchilik bo'limiga nisbatan fuqarolik ishi qo'zg`atilsin;
 3. Ish bo'yicha Namangan tuman hokimiyatining ipakchilik bo'limi mudiri Olimboy Dadaxonov javobgar tarafidan qatnashuvchi mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs sifatida ishga jalb qilinsin;
 4. Da'vogar A.Xolmirzayev bir necha marotaba mast holda ishga kelganligini tasdiqlaydigan hujjatlar va uni ma'muriy tartibda jazolanganligini haqidagi buyruqdan ko'chirma 1999-yil 30-iyulga qadar talab qilib olinsin va ishga qo'shib qo'yilsin;
 5. Da'vogarning oladigan maoshini tasdiqlovchi ma'lumot ishga qo'shilsin.
 6. Da'vogarning FPKning 34 va 40-moddalaridagi protsessual huquqlari tushuntirilsin;
 7. Da'vogar sudga 1999-yil 29-iyul soat 17:30 ga chaqirilib, arz qilingan da'vo talablarining mazmuni bo'yicha so'rov o'tkazilsin;
 8. Da'vo arizasining bir nusxasi javobgarga yuborilsin.
- Ajrim qat'iy-shikoyatga o`rin yo`q.

Sudya: A.A.Bekmirzayev

ISHNI SUDDA KO`RISHGA TAYYORLASH TO`G`RISIDA

Fuqarolik ishlarini sudda ko`rishga tayyorlash yuzasidan qili-nadigan protsessual harakatlarning mazmuni qonunda belgilangan. FPKning 158-moddasida ta'kilanganidek, ishni sudda ko`rishga tayyorlash uchun sudyaning shaxsan o`zi quyidagi harakatlarni amalga oshiradi: ishni sudda tayyorlash yuzasidan tegishli harakatlarni qilish to`g`risidagi ajrimni sudyaning yolg`iz o`zi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni chaqirmasdan chiqaradi va bu ajrim ustidan alohida tarzda apellatsiya shikoyati qilinmaydi.

Yuqorida ko`rsatilgan harakatlar sudyaning shaxsan o`zi tomonidan qilinsa-da, ammo ular sud nomidan amalga oshiriladi.

Bu bosqichda sudya boshqa sudlarning topshirig`ini bajarish uchun belgilangan tartibidagi harakatlarni ham bajaradi. Sudya har holda ishning bir sud majlisida ko`rilib hal qilinishi uchun barcha tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish choralarini ko`rishi lozim. U shu maqsadda taraflarning protsessual huquq va burchlarini to`la tushuntirishga, ba'zi fuqarolik ishlarining, chunonchi, turar-joydan foydalanish, mulkni taqsimlash va shu kabi boshqa da'volarning o`zaro kelishuv bo`yicha tamomlanishi mumkinligini tushuntirishga harakat qiladi.

Da'vogar da'vodan har qachon voz kechishga haqli bo`lgani tufayli mehna bilan bog`liq ishning sudda ko`rilishi kelishuv bitimi bilan tugatilishi mumkin. Bunday hollarda sud kelishuv bitimi xodimning mehnatga oid huquqlarini va korxonaning manfaatlarini buzishga qaratilmaganligini diqqat bilan tekshirishga majbur. Jumladan, noto`g`ri yoki boshqa ishga ko`chirilgan xodimlarni ishga tiklash yoki avvalgi mansablariga qo`yish to`g`risidagi g`ayriqonniy bo`shatilishida aybli bo`lgan mansabdor shaxsni tashkilotga yetkazilgan zararni to`lash burchidan ozod qiladigan bo`lsa, tasdiqlamasligi kerak.

Mehnatga oid ko`p masalalar mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinganligi tufayli bunday masalalar yuzasidan kelishuv bitimlarini tuzish kamdan-kam hollarda uchraydi.

Sudya ishning mazmuni bo`yicha to`g`ri hal etilishida yordam ko`rsatadigan guvohlarnigina sud majlisiga chaqiradi. Ba'zan bu tartibga rioya qilmaslik hollari ham uchraydi. Ayrim sudlar ko`riladigan ishning holatlari to`g`risida hech qanay ma'lumotlar bera olmaydigan guvohlarni chaqirishlari va shu vaqtning o`zida ish holatlarini to`la va obyektiv ravishda tekshirishlari uchun, zarur bo`lgan guvohlarning hozir bo`lishlarini ta'minlash uchun tegishli choralar ko`rmaslik hollari uchraydi.

Ba'zi hollarda ishning sudda ko`rilishiga qadar ishning sudda ko`rishga tayyorlash bilan bog`liq bo`lmagan boshqa harakatlarni ham qilishga to`g`ri keladi. Chunonchi, sudya da'voni ta'minlash to`g`risidagi masalani (FPKning 250-moddasi), sud xarajatlarini to`lashdan ozod qilish masalasini (FPKning 110-moddasi), ularni bo`lib-bo`lib to`lash va miqdorini kamaytirish to`g`risidagi masalani (FPKning 111-moddasi)ga FPKda nazarda tutilgan boshqa ba'zi masalalarni ishni sudda ko`rishga tayyorlashga qadar hal qiladi.

Sudyaning tayyorlov majlisida amalga oshiradigan protsessual harakatlarni bajarishi va ishni mazmunan ko`rish uchun tayinlash haqida

AJRIM

1999-yil 7-avgust

Pop shahri

Namangan viloyati, Pop shahar sudining sudyasi V.Tursunov sud tayyorlov majlisini o`tkazib da'vogar Faxriddin Madaminovning Pop shahar hokimiyatining yo`l qurilish bo`limiga nisbatan qo`zg`atgan da'vosi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Ishni sudda ko`rish uchun tayyorlash to`g`risidagi shu yil 2-avgustda chiqarilgan ajrimda ko`rsatilgan asosiy harakatlar bajarilganligi tufayli, jumladan, F.Madaminovning kasalligi haqida poliklinika bergan ma'lumotnomani ishga qo`shish to`g`risidagi talab xati yo`l qurilish bo`limiga yuborilgani aniqlandi. Shularga ko`ra, ishni sudda mazmunan ko`rish uchun yetarli darajada asos borligini inobatga olgan holda sud FPKning 161-moddasiga asoslanib,

Ajrim qiladi:

1. Da'vogar Faxriddin Madaminovning Pop shahar hokimiyatining yo`l qurilish bo`limiga nisbatan ishga tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqtlari uchun ish haqi undirish to`g`risidagi fuqarolik ishini ko`rish Pop shahar hokimiyatining qurilish bo`limi binosida, prokurorning ishtirokida 1999-yil 10-avgust kuni soat 10:00 ga tayinlansin.

2. Sud majlisiga quyidagilar chaqirilsin:

a) da'vogar Faxriddin Madaminov;

- b) javobgar Pop shahar hokimiyatining yo`l qurilish bo`limining
a. d. III;
v) guvohlar: B.Umarov, R.Tohirov va N.A.Ivanova;
g) ish bo`yicha ekspert.
Ajrım qat'iy-shikoyatga o`rin yo`q.

Sudya: V.Tusunov

SUDYANING BIR TURDAGI ISHLARNI BIRLASHTIRISHGA BO`LGAN HUQUQI

Qonun sudyaga bir turdagi fuqarolik ishlarini birlashtirish huquqini beradi. FPKning 156-moddasida ko`rsatilishicha, sudya shu sudning ish yuritishida ayni bir xil taraflar ishtirok etuvchi bir turdagi bir necha ish borligini yoxud bir shaxsning turli javobgarlarga da'volari bo`yicha yoki bir qancha da'vogarlarning bitta javobgarlar da'volari bo`yicha bir necha ish borligini aniqlasa bu ishlarni nizolarni tezroq va to`g`ri hal qilishni ko`zlab ish yuritishda bir yo`la ko`rish uchun birlashtirishga haqlidir.

Da'voning bir necha da'vogar tomonidan yoki bir necha javobgarlarga nisbatan qo`zg`atishga protsessual ishtirokchilik deb aytiladi.

Sudya bir necha da'vo talablarini birlashtirish huquqiga ega bo`lganidek, talablarni ajratish huquqi ham berilgan. FPKning 157-moddasida aytilishicha, agar da'vo arizasini qabul qiluvchi sudya talablarni alohida ko`rishni maqsadga muvofiq deb topsa, birlashtirilgan talablardan birini yoki bir nechasini alohida ish yuritishga ajratishga haqli.

Talablar bir necha da'vogarlar tomonidan bir necha javobgarlarga nisbatan qo`zg`atilgan, da'vo arizasini qabul qiluvchi sudya agar maqsadga muvofiq deb topsa, bir yoki bir necha talablarni alohida ish yuritish uchun ajratishga haqlidir.

Agar sudning ish yuritishida bir turdagi ishlar bo`lsa, ularni birlashtirish haqida sudya ajrim chiqaradi.

AJRIM

1999-yil 28-iyul.

Chust shahri.

Namangan viloyati, Chust shahar sudining sudyasi T.D.Xalilov tomonidan da'vogar Sergey Ivanovich Lapatovning javobgar Chust badiiy fabrikasidan 1105 so`m mukofot pulini undirish haqidagi da'vo arizasi ko`rib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da'vogar S.I.Lapatov Chust badiiy fabrikasida qo'ruvchi bo'lib ishlab, u ishlagan brigada 1999-yil may oyiga mo'ljallangan rejani ortig'i bilan bajargan. Tuzilgan shartnomaga ko'ra, ortiqcha bajarilgan ish uchun mukofot to'lashga kelishilgan. Shunga binoan javobgar 1105 so'm mukofot berishi lozim bo'lsa-da, uni to'lashni rad etadi, bunga asos qilib mukofotlash to'g'risidagi hisob-kitoblar tayyor bo'lmaganligini ko'rsatadi.

Bulardan tashqari, sudning ish yuritishida S.I.Lapatov ishga qayta tiklash va noiloj bekor yurgan vaqtlari uchun ish haqini undirish to'g'risida ish qo'zg'atilganligi va bu fuqarolik ishi 15-iyunga tayilanganligi aniqlanadi. Har ikki ishda qatnashuvchi taraflarning bir bo'lishi nazarga olinib, mazkur ishlarni bitta ish yuritishga birlashtirish maqsadga muvofiq bo'lib, bu o'z navbatida sudda ishni tez ko'rish va hal qilishga imkon beradi deb hisoblaydi. Yuqoridagilarga ko'ra sud FPKning 156-moddasiga asosan

Ajrim qiladi:

Da'vogar Sergey Ivanovich Lapatovning javobgar Chust badiiy fabrikasidan 1105 so'm mukofot haqini undirish to'g'risidagi da'vosi bilan, shu javobgar tarafga nisbatan Lapatovni ishga tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqtlari uchun ish haqini undirish to'g'risida muqaddam qo'zg'atilgan fuqarolik ishlari birlashtirilsin va birga ko'rihsin.

Ajrim qat'iy-shikoyatga o'rin yo'q.

Sudya: T.D.Xalilov

MEHNAT NIZOLARIGA OID SUDNING HAL QILUV QARORLARI

Mehnat ishlari yuzasidan chiqariladigan hal qiluv qarorining mazmuniga ham alohida e'tibor berilish kerak. Qarorda, odatda, tubandagi holatlar ko'rsatiladi:

Qarorning bayon qilish qismida, agar nizo mehnat nizolarini ko'ruvchi komissiyada ko'rilishi lozim bo'lsanizoiing bu organda ko'rilishining natijalari ko'rsatiladi. Korxonada bunday organlar bo'lmasa, ularning yo'g'ligi qarorda aks ettiriladi. Agar ish FPKning 256-moddasiga binoan mansabdor shaxs jalb qilinib, ko'rilgan bo'lsa, bu to'g'rida qarorning barcha qismlarida yozilishi kerak. Jumladan, qarorning bayon qilish qismida uning bergan tushuntirishi qisqacha ifodalanishi, asoslantirish qismida sudning qanday xulosalarga kelganligi ko'rsatiladi. Xulosa qismida esa, uning korxonada tashkilotga to'lashi lozim bo'lgan zarar haqining miqdori aniq belgilanib ko'rsatilishi kerak.

Ishga tiklanish to'g'risidagi da'vo qanoatlantirilganida, qarorda xodimning qayerda va qanday ishga (mansabga) tiklanishi lozimligi ko'rsatiladi va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun korxonadan undiriladigan summaning miqdori belgilanadi.

Agar korxonaning qaytadan tashkil topgani yoki tugatilishi sababli xodimni avvalgi ishga tiklash mumkin bo'lmasa, sud xodimning noto'g'ri bo'shatilganini ko'rsatib, uning noilojdan bekor yurgan vaqti uchun, ammo uch oydan ortiq bo'lmagan muddatga o'rtacha ish haqini undiradi. Bu to'g'rida Mehnat kodeksining 103-109-moddasida hamda mehnat shartnomasini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish qonunchilikning sudlar tomonidan tadbiq etilishi to'g'risidagi va sudlarda mehnat shartnomalari haqidagi qonunchilikning tadbiq etilishi to'g'risidagi Plenum qarorlari ifodalab berilgan.

Undirilishi lozim bo'lgan zarar haqining miqdori zararining qanday holatda ekanligigiga qarab, shuningdek, xodimning moddiy ahvoli e'tiborga olinib, sud tomonidan kamaytirilishi mumkin.

Sud qonunda ko'rsatilmagan asoslar bo'yicha xodimning ishdan bo'shatilishini to'g'ri deb topolmaydi. Agar sud xodimning ishdan bo'shatilishi sababining ifodalanishini noto'g'ri va mehnat to'g'risidagi amalda bo'lgan qonunchilikka xilof deb topsa, bu formulirovkani (ifodalanishini) o'zgartirib, qarorida ishdan bo'shatilishi asosini qonunga muvofiq ravishda ko'rsatilishi kerak.

Mehnatga oid da'vo qanoatlantirilgani holda ham qiluv qarorining qaror qismida javobgardan davlat foydasiga undiriladigan sud xarajatlarining summasi va qarorni ijro etish tartibi ko`rsatiladi.

Mehnatga oid fuqarolik ishlarining muhim protsessual xususiyatlaridan yana biri ishga tiklash va ish haqini undirish to`g`risidagi ishlar bo`yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlarini darhol ijro etishning mumkinligidir. Shuning o`zidayoq fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya etilishiga qo`shimcha kafolat beriladi.

2001-yil 29-avgustda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to`g`risida»gi qonunning 80-moddasiga muvofiq xodimlarning mehnatga oid huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan talablari birinchi navbatda qanoatlantiriladi.

Xodimni ishga tiklash haqidagi va ish haqini undirish to`g`risidagi ishlar bo`yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlari darhol ijro etilishi lozim bo`lganligi tufayli bunday qarorlarning ijrosi to`xtatilishi mumkin emas.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar yuzasidan pul undirish to`g`risidagi ishlar bo`yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlari nazorat tartibida bekor qilingan hollarda, agar bekor qilingan hal qiluv qarori da'vogarning xodim yolg`on ma'lumotlariga yoki u taqdim etgan qalbaki hujjatlarga asoslangan bo`lsa, qaytarma ijroga yo`l qo`yiladi, ya'ni to`langan pullar qaytarib olinadi (FPKning 382-moddasi).

O`zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qarori

Samarqand viloyati, Bulung`ur tuman sudining binosida 1996-yil 23-avgustda ochiq sud majlisi bo`lib sudya F.E.Mahkamov raisligida, U.S.Alimova kotibligida, prokuror SH.A.Ahrorovning ishtirokida da'vogar Po`lat Parpiyevich Latipovning javobgar Bulung`ur qurilish boshqarmasiga nisbatan ishga qayta tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun ish haqini undirib berish to`g`risida bergan da'vosi bo`yicha javobgarning vakili tariqasida F.Sobirovning va javobgar tomonidan mustaqil talabi bo`lmagan uchinchi shaxs sifatida qatnashuvchi A.Qodirov ishtirokida fuqarolik ishi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

P.P.Latipov Bulung`ur qurilish boshqarmasida duradgor bo`lib ishlab kelgan. Qurilish boshqarmasi boshlig`ining buyrug`iga ko`ra, P.P.Latipov

1996-yil 4-avgustda Mehnat kodeksining 100-moddasiga ko`ra, «ichki mehnat tartib qoidalarini muntazam ravishda buzishda ayblanib», ishdan bo`shatilgan.

Buyruqda ishdan bo`shatishga asos qilib 1996-yil 2-avgust kuni P.P.Latipov ishga uzrsiz sabablarga ko`ra ikki soatu 30 daqiqa kechikib kelganligi ko`rsatilgan.

Da`vogar ishdan bo`shatilganligini noto`g`ri deb hisoblaydi va quyidagi vajlarini keltiradi, jumladan, muqaddam mehnat intizomini buzmagani va intizomiy javobgarlikka umuman tortilmaganligi, shu yil avgust kuni esa, xotini kasal bo`lib qolganligi tufayli ishga uzrli sabablarga ko`ra 2 soatu 30 daqiqa kechikib kelganligi haqida bayonot qiladi.

Shularga ko`ra, da`vo arizasida P.P.Latipov suddan o`zining ishga tiklanishini va javobgardan noilojdan bekor yurgan kunlari uchun ish haqi undirib berilishini so`raydi.

Javobgarning vakili F.Soirov da`vogarning da`vosiga iqror bo`lmay, Latipovni ishdan to`g`ri bo`shatilganligini, chunki u ishga 2 soatu 30 daqiqaga kechikib kelganligini va ishdan bo`shatish to`g`risidagi masala kasaba uyushmasi qo`mitasi bilan kelishilgan holda to`g`ri hal etilganligini hamda da`vogarga muqaddam ham intizomiy chora ko`rilganligini ma`lum qildi.

Uchinchi shaxs sifatida ishda qatnashuvchi A.Qodirov ham qurilish boshqarmasi vakilining fikriga qo`shilib, da`vogarning qonunga asoslangan holda ishdan to`g`ri bo`shatilganligini tasdiqladi.

Sud ish materiallari bilan tanishib, taraflarning bayonlari, ish bo`yicha to`plangan dalillarga tegishli baho berib, prokuror SH.A.Ahrorovning da`voni qanoatlantirish haqidagi fikrini tinglab, quyidagi asoslarga ko`ra Latipovning da`vo talablarini lozim topadi:

Amaldagi mehnat qonunlariga M.K 101-moddasi ko`ra, Latipovni ishdan bo`shatish uchun ma`muriyat birlashma kasaba uyushmasi qo`mitasining roziligini olishi lozim edi.

Biroq ishda to`langan hujjatlar va guvoh sifatida so`ralgan birlashma kasaba uyushmasi raisi R.Tolipovning bayonotiga ko`ra haqiqatan da`vogarni ishdan bo`shatishda ma`muriyat kasaba uyushmasining roziligini olmaganligini va shu tufayli Mehnat kodeksining 101-moddasiga asosan ma`muriyat o`z tashabbusi bilan kasaba uyushmasining rozilgisiz mehnat shartnomasini bekor qilishga yo`l qo`yib, mehnat qonunini qo`pol ravishda buzganligini asoslaydi.

Bundan tashqari, P.Latipovning Mehnat kodeksining 100-moddasi bilan ishdan bo`shatilishining qonuniyligiga javobgar va uchinchi shaxslar

sudga da'vogarni mehnat intizomini muqaddam ham buzganligini asos qilib ko`ratsalar-da, biroq bu hol hech qanday hujjat bilan asoslantirilmagan, intizomiy xayfsan esa og`zaki aytilgan degan sabab bilan sudga buyruqdan nusxa taqdim qilinmaganligi ko`rinadi. P.Latipov 2-avgust kuni 2 soatu 30 daqiqaga kechikkanligi to`g`ri deb ammo buni uzrli ekanligini, ya'ni xotini og`rib qolganligini shahar poliklinikasi tomonidan berilgan ma'lumotnoma bilan tasdiqlanishi, shu sababli P.Latipov 2-avgust kuni ertalab kechiktirib bo`lmaydigan uy ishlarini bajarishga majbur bo`lganligi: vrach chaqirgani, bolalarni ovqatlantirib, bog`chaga joylashtirilganligi asos qilib ko`rsatadi. Bu ko`rsatmalar sudga taqdim qilingan poliklinikaning 5-avgustda bergan ma'lumotnomasi va guvoh sifatida so`ralgan da'vogarning qo`shnisi N.F.G`aniyeva hamda bolalar bog`chasi feldsheri A.Tursunovalarning ko`rsatmalari bilan tasdiqlanadi.

P.Latipovning ishdan bo`shatilishiga qadar 3 oy oldin olgan maoshining o`rtacha miqdori oyiga 300 so`mni yoki kuniga 10 so`mni tashkil etgan. Da'vogar ishdan bo`shatilishi natijasida majburan 14 kun ishlamagani, shu kunlar uchun javobgardan da'vogar foydasiga 140 so`m ish haqi hamda 20 so`m davlat boji va sudga 2 ta guvohni chaqirish uchun sarf qilingan xarajati uchun 400 so`m, jami-342 so`mni davlat foydasiga undirish lozim bo`ladi.

Latipovning ishdan qurilish boshqarmasining boshlig`ining aybi bilan g`ayriqonuniy ravishda bo`shaganini hisobga olgan sud, Mehnat kodeksining 188-moddasiga asosan, korxonaga keltirilgan hamma zarar summasini to`liq miqdorda korxonaga rahbaridan undirish majburiyatini korxonaga yuklanishi lozim deb topadi.

Qurilish boshqarmasining buxgalteriyasidan olingan ma'lumotga qaraganda, boshqarma boshlig`i K.Qodirovning o`rtacha ish haqining miqdori oyiga 210 so`mni tashkil etadi. Demak, undan qurilish boqarmasi foydasiga 9800 so`m va ish bo`yicha 6000 so`m sud xarajatlari: shundan 2000 so`m davlat boji va 4000 so`m guvohlarni sudga chaqirganlik uchun, jami-15800 so`m undirish lozimdir.

Sud mehnat kodeksining 188, 256-moddalari va FPKning 203, 219-moddalarini qo`llab

Qaror qiladi:

Da'vogar Po`lat Latipov 1996-yil 4-avgustdan boshlab Samarqand viloyati, Bulung`ur qurilish boshqarmasiga, o`zi muqaddam ishlab kelgan duradgolik vazifasiga qayta tiklansin.

Latipov P. foydasiga Bulung'ur qurilish boshqarmasining joriy hujjatidan uning noilojdan bekor brgan 14 kunlik ish vaqti uchun 9800 (to'qqiz ming sakkiz yuz) so'm ish haqi, shuningdek, sarflangan 6000 so'm muddardagi sud xarajatlari undirilsin.

K.Qodirovdan Bulung'ur qurilish boshqarmasi foydasiga 9800 (to'qqiz ming sakkiz yuz) so'm yetkazilgan zarar va 6000 so'm sud xarajatlari, jami-15,800 (o'n besh ming sakkiz yuz) so'm undirilsin.

Hal qiluv qarorini P.Latipovni ishga tiklash va uning foydasiga ish haqi undirish qismi darhol ijro etilsin.

Qarordan norozi taraf 20 kun muddat ichida Samarqand viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha sudiga Bulung'ur tuman sudi orqali shikoyat qilishi, prokuror protest keltirishga haqlidirlar.

Sud raisi: F.Mahkamov

QO`SHIMCHA HAL QILUV QARORINI CHIQUARISH ASOSLARI

Hal qiluv qarorni chiqargan sudning o'zi hal qiluv qarorini bekor qilishga yoki o'zgartirishga haqli emas. Bu huquq faqat hal qiluv qarorining to'g'riligini manfaatdor tarafning shikoyati yoki prokurorning protesti bo'yicha tekshiradigan yuqori sudga berilgan. Hal qiluv qarorini chiqargan sud faqat qo'shimcha qaror chiqaradi yoki o'z qaroriga izoh bera oladi.

Ammo sud tashabbusi bilan yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasi bo'yicha hal qiluv qarorini yozishda yo'l qo'yilgan xatolarni va ochiq ko'rinib turgan boshqa arifmetik xatolarni tuzatishi mumkin. Tuzatish kiritish to'g'risidagi masala ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida hal etiladi, lekin bu shaxslarning kelmasligi tuzatish kiritish to'g'risidagi masalani ko'rish uchun to'sqinlik qilmaydi. Hal qiluv qaroriga tuzatish kiritish to'g'risidagi sudning ajrimi ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin (FPKning 214-moddasi).

Sud ishni hal qilganda, o'zining hal qiluv qarorida da'vogarning barcha savollariga to'la javob berishi kerak. Sud o'z fikricha asosli deb topgan talablarni qondirishi va aksincha asossiz talablarni rad etishi lozim. Ammo qandaydir biror sabab orqasida hal qiluv qarori to'liq bo'lmasa, ya'ni bu qarorda da'vogarning barcha talablariga javob bo'lmasa, taraflar qo'shimcha qaror chiqarishni suddan so'ray oladilar. Bunday hollarda ish bo'yicha hal qiluv qarori chiqargan sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning

arizalari bo'yicha yoki o'z tashabbusi bilan quyidagi hollarda qo'shimcha qaror chiqarishi mumkin:

Birinchiidan, agar sud huquq to'g'risidagi masalani hal qilib, undiriladigan summa miqdorini, topshirilishi lozim bo'lgan mulkni yoki javobgar bajarishi lozim bo'lgan harakatlarni ko'rsatmagan bo'lsa (masalan, da'vogar o'zini ishdan g'ayriqonuniy bo'shatilganini aytib, majburan ishsiz yurgan kunlari va oshiqcha qilingan ishlari uchun haq to'lashni so'raganida sud qarorida da'vogarning ishdan bo'shatilishini to'g'ri topib, lekin ortiqcha ishlaganlik uchun haq to'lash masalasi sud majlisida tekshirilgan bo'lsa ham sudning hal qiluv qarorida bu haqda hech nima aytilmagan bo'lsa, yoki masalan, uyga nisbatan bo'lgan umumiy mulk huquqi to'g'risidagi da'voni ko'rganda, sud da'vogarning da'vosini qondirib, uni mazkur uyning sherik egasi deb topadi, lekin uning shu uyning qaysi qismiga ega bo'lganligini ko'rsatmaganida va shunga o'xshash boshqa hollarda), da'vogar qo'shimcha qaror chiqarishni suddan so'rashga haqlidir;

ikkinchiidan, agar da'vo talablarining birortasi bo'yicha ishda ishtirok etayotgan shaxslar dalillar keltirgan va bayonot bergan bo'lsalar-u, ammo uning yuzasidan hal qiluv qarori chiqarilmagan bo'lsa

uchinchiidan, agar hal qiluv qarorida sud xarajatlarini taqsim qilish ko'ratilmagan bo'lsa, qo'shimcha hal qiluv qarori chiqarilishi mumkin.

Qo'shimcha hal qiluv qarori chiqarish haqidagi masala hal qiluv qarori chiqarilgan kundan boshlab o'n kun muddat ichida qo'zg'atilishi kerak.

Qo'shimcha hal qiluv qarori ishda ishtirok qiluvchi shaxslar xabardor qilinib, sud majlisida ko'rilgandan so'ng chiqariladi. Bunday qaror ustidan apellatsiya tartibda shikoyat qilinishi yoki protest keltirilishi mumkin. Qo'shimcha hal qiluv qarori chiqarish to'g'risidagi talabni rad qilish haqida chiqarilgan ajrim ustidan ham xususiy shikoyat qilinishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin (FPKning 214-moddasi).

Sudning hal qiluv qarori shunday yozilishi kerakki, uning mazmuni taraflarga ham, sud qarorini ijro qiluvchiga ham tushunarli bo'lsin. Agar sudning hal qiluv qarorini ijro qilganda qarorning ma'nosi taraflarga yoki sud ijrochisiga anglashilmasa hamda uni ijro qilish uchun qiyin bo'lsa yoki mumkin bo'lmasa, taraflar yoki sud ijrochisi qarorni chiqargan sudga murojaat qilib, hal qiluv qarorini tushuntirishni (sharhlanishni) so'rashlari mumkin (FPKning 215-moddasi).

Hal qiluv qarorni tushuntirishga, agar u ijro qilinmagan bo`lsagina va hal qiluv qarorini majburiy ijro qilish muddati o`tmagan bo`lsagina yo`l qo`yiladi.

O`zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qarori

(Qo`shimcha)

2001-yil 6-avgustda Andijon viloyati, Paxtaobod tuman sudi binosida ochiq sud majlisi bo`lib sudya M.Hasanov raisligida, S.Akbarova kotibligida Paxtaobod tuman prokurorining javobgar A.Aliyevni Paxtaobod tuman qurilish boshqarmasiga ishga tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun ish haqi undirish to`g`risidagi da'vosi bo`yicha qo`shimcha qaror chiqarish to`g`risidagi arizasi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

A.Aliyevning Paxtaobod tuman qurilish boshqarmasiga ishga tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun ish haqi undirib berish to`g`risidagi da'vosi 2001-yilning 2-avgustida Paxtaobod tuman sudi tomonidan ko`rilib, da'vo talabi qondirilgan, biroq sudning hal qiluv qarorida javobgardan ish bo`yicha sud xarajatlarini undirish to`g`risidagi masala hal qilinmagan.

Shunga ko`ra tuman prokurori o`z arizasida ushbu ish bo`yicha qo`shimcha qaror chiqarib, javobgardan davlat foydasiga sud xarajatlarini undirish lozimligi haqida so`raydi.

Ushbu ariza ko`rilib, hal qilish uchun prokuror va tomonlar sudga chaqirtirilganlarida, ular sudga kelmaganlar.

Sud ishdagi materiallar va arizani ko`rib, hal etish uchun yetarli, prokuror va taraflarning ishtirokisiz ko`rish mumkin deb hisoblaydi. FPKning 214-moddasiga binoan prokurorning arizasi to`liq asoslantirilganligi tufayli sud uni qanoatlantirishni lozim topadi. Sudning hal qiluv qarorini asoslantiruvchi qismida javobgardan davlat foydasiga sud xarajatlarini undirish lozimligi va undirish asoslari to`g`ri hisob-kitob qilib ko`rsatilgan bo`lsa-da, biroq hal qiluv qarorining qaror qilish qismida javobgardan davlat foydasiga sud xarajatlari undirish lozimligi o`z ifodasini topmagan.

Sud yuqoridagi holatlarga ko`ra va FPKning 214-moddasiga asosan

Qaror qiladi:

Ish bo`yicha Andijon viloyati, Paxtaobod tuman qurilish boshqarmasi bankdagi 2781-joriy hiobidan davlat foydasiga 1500 (bir ming besh yuz) so`m miqdorida davlat boji undirilsin.

Qaror yuzasidan norozi tomon 20 kun muddat ichida shu sud orqali fuqarolik ishlari bo'yicha Andijon viloyat sudining fuqarolik sudlov hay'atiga shikoyat qilishga yoki protest keltirishga haqli.

Sud raisi: M.Hasanov

SUD CHIQARGAN XUSUSIY AJRIMLAR HAQIDA TUSHUNCHA

Sudning xususiy ajrimlari to'g'risidagi qoidalar FPKning 19-moddasida berilgan. Bu qonunga asosan sud fuqarolik ishini ko'rayotganida ayrim mansabdor shaxslar yoki fuqarolar qonunchilikni, jamiyat turmush qoidalarini buzganligi yoxud korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va boshqa kooperativ hamda jamoat tashkilotlarining ishlarida jiddiy kamchiliklar borligini aniqlasa, xususiy ajrim chiqarib, uni tegishli korxonalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslarga yoki mehnat jamoalariga yuboridi, ular esa o'zlari tomonidan ko'rilgan choralar to'g'risida sudga bir oy mobaynida ma'lum qilishga majburlar. Bu haqda Oliy sud Plenumining bir qator qarorlarida jumladan «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan keltirilgan shikoyatlarni sudlarda ko'rish amaliyoti to'g'risida»gi 1996-yil 19-maydagi, unga 1998-yil 11-sentabrda kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar; «Sudlar tomonidan mehnat shartnomasi (kontrakti)ni bekor qilishni tartibga soluvchi qonunlarning qo'llanishi haqida»gi 1998-yil 17-apreldagi, hamda 1998-yil 11-sentabrdagi «Nikohni bekor qilish ishlarini ko'rishda sudlar tomonidan qonunlarning qo'llanish amaliyoti to'g'risida»gi va boshqa qarorlarda ko'rsatilgan.

Agar sud fuqarolik ishini ko'rayotganida yoki boshqa shaxsning harakatida jinoyat belgilari borligi aniqlaganida bu haqda prokurorga ma'lum qiladi.

Sudning xususiy ajrimi ustidan xususiy protest keltirilishi, shuningdek, jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risidagi xususiy ajrim ustidan esa xususiy shikoyat berilishi mumkin.

XUSUSIY AJRIM

2000-yil 30-avgustda Samarqand viloyati, Bulung'ur tumani sudining binosida ochiq sud majlisi bo'lib raislik etuvchi sudya F.E.Mahkamov, U.Alimovning kotibligida, prokuror SH.A.Ahrorov ishtirokida da'vogar Po'lat Latipovning Bulung'ur qurilish boshqarmasiga ishga tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun ish haqi undirib berishni so'rab bergan da'vo arizasi bo'yicha, javobgar tarafidan da'voga

nisbatan mustaqil talabi bo`lmagan holda uchini shaxs sifatida qatnashuvchi K.Qodirov ishtirokidagi fuqarolik ishi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

P.Latipov Bulung`ur tumani qurilish boshqarmasida duradgor bo`lib ishlab kelgan. 2000-yil 2-avgust kuni ishga 2 soatu 30 daqiqa kechikib kelganligi sababli qurilish boshqarmasining boshlig`i F.Sobirovning buyrug`iga ko`ra ishdan bo`shatilgan. Sud ishdan bo`shash sabablarini atroflicha tekshirib, Latipovni o`z ishiga tiklash va unga noilojdan yekor yurgan vaqti uchun ish haqi undirib berish haqida hal qiluv qarori chiqargan.

Sud majlisida P.Latipovni ishdan bo`shatishda qurilish boshqarmasining rahbari Sobirovning mehnat qonunlarini qo`pol ravishda buzgan holda ish tutgani aniqlandi, P.Latipovning ishga uzrli sabablarga ko`ra kechikkanligini e`tiborga olmaganligi, kasaba uyushmasining roziligisiz o`zboshimchalik bilan ish tutganligi va undan oldin da`vogar P.Latipov hech qanday mehnat qoidalarni buzmagani isbotlandi.

Yuqoridagilardan shu narsa ko`rinadiki, P.Latipov 14 kun ishsiz qolishi qurilish boshqarmasi boshlig`ining aybi bilan bo`lgan. Bu bilan Mehnat kodeksining 100-moddasi 3-qismini va 101-moddasini qo`pol ravishda buzgan.

Yuqoridagilarga ko`ra, sud FPKning 19-moddasini qo`llab

Ajrim qiladi:

1. Bulung`ur tumani qurilish boshqarmasidagi mehnat qonunchiligining buzilishi faktlari haqida ajrimda ko`rsatilgan holatlarning oldini olish va aybli shaxslarga nisbatan tegishli choralarni ko`rish maqsadida Bulung`ur tumani hokimiyati hamda Samarqand viloyati kasaba uyushmasi rahbariyati xabardor qilinsin.

Xususiy ajrimdan norozi tomonlar, shu sud orqali Samarqand viloyat sudining fuqarolik ishlari bo`yicha sudlov 10 kun muddat ichida xususiy shikoyat, prokuror xususiy protest keltirishga haqli.

Sudya: F.E.Mahkamov

Sud xususiy ajrimi

XUSUSIY AJRIM

2000-yil 20-dekabrda Andijon viloyati, Paxtaobod tuman sudining binosida ochiq sud majlisi bo`lib, raislik qiluvchi sudya M.Hasanov,

N.Akbarovanning kotibligida, prokuror A.Omonovning ishtirokida da'vogar Anvar Qobilovning Paxtaobod tuman qurilish boshqarmasiga ishga qayta tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun ish haqi undirib berish to'g'risidagi da'vosi javobgar tarafidan mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs sifatida B.Eshqurbonov ishtirokida nizoli fuqarolik ishi ko'rib, quyidagilar

Aniqlandi:

Anvar Qobilov Paxtaobod tuman qurilish boshqarmasida duradgod bo'lib ishlab kelgan. Ish natijalariga ko'ra 2-kvartal uchun Qobilov ishlagan brigada a'zolariga 35 so'mdan mukofot puli berilgan.

A.Qobilov esa bu mukofotdan mehnat intizomini buzgan degan asosga ko'ra mahrum qilingan.

Shu sababli A.Qobilov boshqarmadan o'ziga tegishli bo'lgan mukofotni undirib berishni so'rab da'vo qo'zg'atgan. A.Qobilovning bu xatti-harakatidan norozi bo'lgan boshqarma boshlig'i B.Eshqurbonov undan o'ch olish maqsadida Mehnat kodeksining 101-moddasi 3-qismiga binoan uni ishdan bo'shatgan.

Paxtaobod tuman sudi tomonidan A.Qobilov oldingi ish joyiga tiklangan, uning foydasiga 18 kunlik noilojdan bekor yurgan vaqti uchun ish haqi undirilgan. A.Qobilovga berilishi lozim bo'lgan mukofot esa B.Eshqurbanovning ko'rsatmasiga ko'ra, ixtiyoriy ravishda ishni sudda ko'rishdan avval hal qilingan.

Mehnat kodeksining 101-moddasi 3-qismiga ko'ra, ishchi-xizmatchini ishdan bo'shatish uchun u muntazam ravishda ichki mehnat tartib qoidalarini buzgan bo'lishi, buning uchun u intizomiy yoki jamoat ta'siri chorasiga tortilgan bo'lishi lozim edi. Qonunning bu talabi A.Qobilov tomonidan buzilmaganligi, intizomiy yoki jamoat ta'sir chorasiga tortilmaganligiga qaramay, uni qurilish boshqarmasining boshlig'i B.Eshqurbonov Mehnat kodeksining 101-moddasi 3-qismiga ko'ra g'ayriqonuniy ravishda ishdan bo'shatgan.

Yuqoridagilarga asoslanib, sud B.Eshqurbonovni o'z xatti-harakatlari bilan mehnat qonuniligini ko'pol ravishda buzganlikda aybli deb hisoblaydi va FPKning 19-moddasiga ko'ra

Ajrim qiladi:

Qurilish boshqarmasida mehnat qonunchiligining buzilishi faktlari to'g'risida Paxtaobod tuman hokimligiga va quruvchilarning viloyat kasaba uyushmasi qo'mitasiga xabar qilinsin va korxonada yo'l qo'yilgan

kamchiliklarni bundan buyon takrorlamaslik maqsadida tegishli choralarni belgilash masalasi ko`rib chiqilsin. Ko`rilgan choralar yuzasidan bir oy muddat ichida shu sudga xabar berilsin.

Ajrim ustidan 10 kun muddat ichida manfaatdor shaxslar Andijon viloyati fuqarolik sudlov hay'atiga shu sud orqali xususiy shikoyat, prokuror xususiy protest keltirishi mumkin.

Sudning raisi: M.Hasanov

AJRIM

2002-yil 27-yanvarda fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar sudining fuqarolik sudlov hay'atining ochiq sud majlisida raislik qiluvchi I.U.Nabixonov, hay'at a'zolari, sudyalar, M.A.Qodirov va K.S.Safarovlardan iborat hay'atda, Toshkent shahar prokurorining yordamchisi O.Xidirovning ishtirokida Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha Sobir Rahimov tuman sudining 2001-yil 30-noyabrda ko`rgan 2094-raqamli fuqarolik ishi bo`yicha chiqargan hal qiluv qaroridan norozi bo`lgan da'vogar R.Saydaliyev tomonidan keltirilgan apellatsiya shikoyat arizasi ko`rib chiqildi.

Fuqarolik sudlov hay'at majlisiga shikoyat beruvchi R.Saydaliyev uzsiz sabablarga ko`ra, 1999-yil 10-yanvardagi, 1999-yil 20-yanvardagi va bugungi hay'at majlisiga kelmagan. Saydaliyev har gal hay'at majlisi bo`lishi haqida chaqiruv qog`ozi yuborish va telegramma berish yo`li bilan ogohlantirilgan. Ish bo`yicha javobgar vakili N.S.Boltun hozir bo`lgan.

Sudlov hay'ati FPKning 337-moddasini qo`llab, ushbu ishni da'vogarsiz ko`rishni lozim deb topadi.

Sudlov hay'ati tomonidan ish bo`yicha hay'at sudyasi M.A.Qodirovning ma'ruzasi, javobgar vakilining bayonoti, Toshkent shahar prokuror yordamchisi O.Xidirovning sudning chiqargan hal qiluv qarorini o`zgarishsiz qoldirish haqidagi fikri tinglanib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da'vogar Rasulxo`ja Saydaliyev 1979-yil 2-apreldan beri 70-harbiylashtirilgan soqchilar bo`limida nazoratchi sifatida ishlab kelgan.

Ma'muriyat tomonidan 1998-yil 2-sentabrdagi 109-buyruqa asosan Mehnat kodeksini 101-moddasi 3-bandi bilan ishdan bo`shatilgan.

Da'vogar Saydaliyev sudga da'vo ariza bilan murojaat qilib, o'zini qayta ishga tiklashni talab etib, 1998-yil 2-avgust kuni o'z xizmat vazifasini bajarish maqsadida 55-ATSda nazoratchi sifatida postga berganini, shu kuni peshin vaqtida komanda boshlig'i A.Kuprikova kelib, «nega postda uxlayapsan» deb uni haqoratlab haydab yuborganini, shundan so'ng uyga ketib qolganini, ertasiga ishga kelganda, unga tuhmat qilib boshqa obyektga yuborganida, ishlashdan bosh tortib uyga ketib qolgani uchun progul qilgan degan ayb bilan ishdan bo'shatishganini ko'rsatgan.

Javobgarning vakili R.X.Muratbekova sud majlisida da'vo arizasini rad etishni so'rab, R.Saydaliyev 1979-yildan beri ularning korxonasida ishlab kelib, avval «strelok» vazifasida, so'ng nazoratchi vazifasida ishlab, belgilangan obyektlarni qo'riqlashi lozim bo'lsa-da, u o'z vazifasini loqaydlik bilan bajarib kelayotgani, ya'ni ish formasini vaqtida kiyib yurmasligi, razvodlarga kechikib kelishi, postni ruxsatsiz tashlab ketishi va boshqa mehnat intizomini buzganligi sababli boshliqlarga raportlar yozilganini, uning yoshini oilaviy ahvoli hisobga olinib, boshqa komandaga o'tkazilgan bo'lsa-da, lekin tegishlicha xulosa chiqarmagani, bulardan tashqari 1998-yil 25-sentabr kuni 55-ATSda postda turgan bo'lishiga qaramay, tekshirish vaqtida uxlab yotgani aniqlanganini, shundan so'ng uni uyg'otib, radiostansiyani qo'riqlashga yuborilsa-da, ujoyga bormay, uyga ketib qolishi natijasida mehnat intizomini buzganligi uchun ishdan bo'shatilganini, ishdan bo'shatishda mehnat qonunlariga to'la rioya qilinganini bildirgan.

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha Sobir Rahimov tuman sudining 2001-yil 30-noyabrda ishdan bo'shatish haqida chiqargan hal qiluv qarori asosli topganligini bildiradi.

Da'vogar R.Saydaliyev tomonidan yozilgan apellatsiya shikoyat arizasida sudning hal qiluv qarorini asossiz deb topib, uni bekor qilinishni so'ragan.

Fuqarolik sudlov hay'ati prokuror yordamchisi O.Xidirovning hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirish to'g'risidagi fikrlarini eshitib hamda ish materiallarni tekshirib, guvohlarning bergan guvohliklarini eshitib, shikoyat arizasida keltirilgan vajlarni atroflicha ko'rib, quyidagilarga ko'ra sudning chiqargan hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirishni lozim topadi:

Sud majlisida aniqlangan holatga ko'ra, da'vogar R.Saydaliyev 1979-yil 2-apreldan 65-harbiylashtirilgan soqchilar otradida «strelok» vazifasiga ishga kirgan. 9 yil mobaynida 6 ta komandada «strelok», kontrolor bo'lib ishlab kelgan. Ma'muriyatning 1998-yil 2-sentabrdagi 109-buyrug'i bilan

Uzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 100-moddasi 3-bandiga asosan ishga kelmaganligi uchun da'vogar bo'shatilgan.

Guvoh A.Kuprikovanning ko'rsatmasida da'vogar uning komandasiga o'tganiga 2 oy bo'lanini, uning ustidan ATS boshliqlari va xodimlar tomonidan shikoyat tushganini, 1998-yil 25-avgust soat 16:00 larda 55-ATSda R.Saydaliyevning postini tekshirganda, u postda bo'lmay qanizatsiyani o'chirib, uxlab yotganini, shunda ham uni ogohlantirib, qo'riqlash osonroq bo'lgan radiostansiyaga yuborib, uning o'rniga boshqa baxchini qo'yganida, da'vogar buyruqqa bo'ysunmay, radiostaniyani qo'riqlashga borishdan bosh tortib, uyga ketib qolgani va bu bilan mehnat qonunini buzganini ko'rsatgan.

Guvoh A.Safuanov bergan ko'rsatuvida o'zi komanda boshlig'i ekanligini, u markazga telefon qilib, Saydaliyev postda uxlab qolganini, shuning uchun uning o'rniga boshqa xodim yuborish lozimligini so'rab, da'vogarni esa radiostaniyani qo'riqlash yuborishganini, ammo u ishni tashlab uyga ketib qolganini ko'rsatgan.

Bulardan tashqari, sudda so'ralgan guvohlar R.Nasatskaya, N.Rixsiyevalar Saydaliyevni postda uxlab yotgani haqida akt tuzishganini, u o'z vazifasini yaxshi bajarmay, ishni tashlab ketganini bildirganlar.

Sud majlisida postda turgan shaxsning majburiyatlari haqidagi buyruqlar oshkor qilingan bo'lib, unda komanda boshlig'ining qorovulni postdan olish va boshqa postga qo'yish mumkinligini, postavoyning postda uxlashi, chekishi, ichishi, ovqatlanishi, narsalarni saqlashi mumkin emasligi ko'rsatilgan.

Shuning uchun sud hal qiluv qarorida ushbu dalillarga baho bergan holda ma'muriyat Saydaliyevni postdan olinib, boshqa postga ishlashga yuborilgan bo'lsa-da, lekin o'z mehnat qonunida belgilangan vazifasini bajarmay, tashlab ketib, progul qilgan deya ishdan bo'shatilganligi to'g'ri baholangan.

Birinchi instansiya sudning chiqargan hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asos yo'qligini hisobga olgan sudlov hay'ati da'vogarning shikoyat arizasida keltirgan vajlarini aossiz deb hisoblaydi.

Sud yuqoridagilarga ko'ra hamda FPKning 343-moddasiga asosan

Ajrim qiladi:

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha Sobir Rahimov tuman sudining 2001-yil 30-noyabrda ushbu ish bo'yicha chiqargan hal qiluv

qarori o`zgarishsiz qoldirilsin. R.Saydaliyevning apellatsiya shikoyati rad etilsin.

Ajrim qat'iy-shikoyatga o`rin yo`q.

Raislik qiluvchi:	I.U.Nabixonov
Hay'at sudyalari:	M.A.Qodirov, K.S.Safarov

O'zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qarori

2001-yil 10-aprel.

Guliston shahri.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sayyor sud majlisi Guliston shahar sudi binosida bo'lib, raislik qiluvchi Oliy sud sudyasi B.A.Nazirov, A.Abdullayevning kotibligida, Respublika Bosh prokuraturasining bo'lim prokuror yordamchisi M.S.Saidovanning, tarjimon G.Muzaffarovanning ishtirokida da'vogar Sharof G'afforovning javobgar Sirdaryo viloyati agrosanoat qo'mitasiga nisbatan ishga qayta tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun haq undirib berish to'g'risidagi, fuqarolik ishi birinchi instansiya tariqasida ko'rib, tubandagilar

Aniqlandi:

Sharof G'afforov 1986-yildan buyon Sirdaryo viloyati agrosanoat qo'mitasining ehtiyot qismlar bilan ta'minlash bo'limida yetakchi mutaxassis bo'lib ishlab kelgan.

1989-yilning noyabridan SH.G'afforov 1998-yil 1-dekabridan Sirdaryo viloyati agrosanoat qo'mitasining ehtiyot qismlari bilan ta'minlash bo'limiga yetakchi mutaxassis vazifasiga o'tkazilgan.

Ushbu viloyat agrosanoat qo'mitasi raisining 1999-yil 17-yanvardagi 9 buyrug'iga ko'ra, SH.G'afforov mehnat shartnomasiga binoan o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni uzrsiz sabablar bilan muntazam bajarmaganligi uchun Mehnat kodeksining 100-moddasi 3-bandi bilan ishdan bo'shatilgan.

G'afforov ishdan bo'shatilganligini qonuniy emas deb hisoblab, ishga qayta tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun haq undirib berish to'g'risida da'vo arizasi bilan murojaat qilgan.

Sud majlisida da'vogar o'z da'vosini quvvatlab, 1998-yilning dekabrigacha, qadar qishloq xo'jalik, chorvachilik mashinalariga ehtiyot qismlar, elektr jihozlari va podshipniklar guruhi bilan shug'ullanib kelganligini, lekin keyin yangi kelgan bo'lim boshlig'i uning bajarilishi lozim bo'lgan ish hajmini qisqartirib, faqat chorvachilik va yem-xashak o'rish texnikalarini ehtiyot qismlar bilan ta'minlash guruhiga rahbarlik qilish vazifasi qoldirganligini, bu bilan da'vogar kelisha olmaganligini, shu sababli bo'lim boshlig'ining bu harakatlarining noto'g'riligini bayon etadi. Bundan tashqari, G'afforov ishdan noto'g'ri bo'shatilganligiga sabab qilib muqaddam hech qanday intizomiy jazo chorasi olmaganligini ko'rsatadi.

Javobgar-Sirdaryo viloyati agrosanoat qo'mitasining vakili A.Qo'ziyev sudda da'vo talablarini tan olmay, 1998-yil dekabrda SH.G'afforov ishlab kelgan agrasanoat qo'mitasining ehtiyot qismlar bilan ta'minlash bo'limida ma'lum o'zgarishlar bo'lganligini, ya'ni avval bo'limda 3 mutaxassis ishlagan bo'lsa, keyinchalik 6 nafar xodim ishlaganligini, bo'limga yangi boshliq kelganligini va u bo'limdagi mutaxassislar orasidagi mehnat taqimotini qaytadan ko'rib chiqib, yechakchi mutaxassis G'afforovga chorvachilik va yem-xashak o'rish texnikalarini ehtiyot qismlar bilan ta'minlash guruhini berkitilganligini, lekin SH.G'afforov bu taqsimotdan norozi bo'lib, o'sha vaqtdan boshlab o'ziga yuklatilgan vazifalarni uzrsiz sabablarga ko'ra bajarishdan bosh tortib kelganligini, shu sababli unga 1989-yil 22-dekabrda ma'muriyatning buyrug'i bilan hayfsan e'lon qilinganligini, shunga qaramay, da'vogar keyin ham o'z xizmat vazifalarini bajarmaganligini, shu tufayli u 1999-yil 17-yanvardagi buyruq bilan Mehnat kodeksining 100-moddasi 3-bandi bilan asosli ravishda ishdan bo'shatilganligini, bu borada qonun bilan belgilangan barcha tartiblar bajarilganligini ko'rsatdi. Javobgar taraf ishni hal qilishda da'vogar tomonidan sudga murojaat qilish uchun belgilangan da'vo muddatining uzrsiz sabablar bilan o'tkazib yuborilganligiga ham sudning e'tibor berishini so'radi.

Qo'shimcha javobgar-yangi tashkil etilayotgan Jizzax viloyat agrosanoat qo'mitasining vakili O.Berdiqulov ham da'voni tan olmay, uni rad etishni so'raydi.

Ish bo'yicha taraflarning tushuntirishlari Respublika bo'lim prokurorining yordamchisi M.S.Saidovanning da'vo talablari asossiz ekanligi tufayli uni rad etish lozimligi haqidagi fikri tinglanib, ishdagi barcha dalillar tekshirib chiqilgach, sudlov hay'ati quyidagilarga ko'ra G'afforovning ishga qayta tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun haq undirish to'g'risidagi da'vo talablarini rad qilish kerak deb hisoblaydi:

Mehnat kodeksining 72-moddasida ko'rsatilganidek, mehnat shartnomasi fuqarolar bilan korxonalar, muassasa, tashkilot o'rtasidagi bitim bo'lib, bu bitimga ko'ra xodimlar muayyan ixtisos, malaka yoki lavozimga oid ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysunmagan holda bajarishni o'z zimmlariga oladilar, korxonalar, muassasa, tashkilot esa ko'zda tutilgan ish haqini to'lab turish va mehnat sharoitini ta'minlab berish majburiyatini o'z zimmasiga olgan, da'vogar bu majburiyatlarni surunkali ravishda uzrsiz sabablar bilan bajarmagan.

Chunonchi, 1988-yilning dekabrda Sirdaryo viloyati agrosanoat qo'mitasining ehtiyot qismlari bilan ta'minlash bo'limida xodimlar

ning ortganligi sababli qayta mehnat taqsimoti bo'lib viloyat agrosanoat qo'mitasining rais muovini M.YE.Eshbekov tomonidan tasdiqlangan bu taqsimotda da'vogarga chorvachilik jihozlari va yem o'zbek o'ruvchi texnikalarga ehtiyot qismlari bo'limi birlashtirilgan. Lekin SH.G'afforov ushbu taqsimot bilan tanishgan vaqtidan boshlab, unda ko'rsatilgan soha bo'yicha ishlashdan bosh tortgan va bu haqda yozma murozilik bildirgan.

Bundan tashqari, sud majlisida so'ralgan guvoh-agrosanoat qo'mitasi ehtiyot qismlari bilan ta'minlash bo'limining boshlig'i YA.Sharofiddinov o'z ko'rsatmasida bo'limning ish rejasiga asosan bo'lim xodimlari 1988-yilning dekabrda 1999-yil uchun xo'jaliklariga zarur bo'lgan ehtiyot qismlar buyurtmasi bo'yicha o'zgartirishlar qilib berishlari lozim bo'lganligini, biroq SH.G'afforovdan boshqa barcha xodimlar o'z sohalari bo'yicha topshiriqni bajarganliklari, u esa, bu ishni qilishdan bosh tortib, mehnat burchini bajarmaganligi, shu sababli rejadagi ishni qilishdan bosh tortganligi uchun uning ustidan bildirishi (raport) berilib, shunga asosan G'afforovga 1988-yil 22-dekabrda hayfsan e'lon qilinganligi, biroq SH.G'afforov unga aytilgan nasihatlariga va olgan jazo chorasiga qaramay, bundan keyin ham o'z vazifasini bajarmaganligini, masalan, 1988-yil 22-dekabrda unga berilgan kundalik topshiriq, ya'ni KSK-100 va YI-281 kombaynlarining ehtiyot qismlari bilan ta'minlanganlik holatini aniqlash haqida ko'rsatmasini 1999-yil 16-yanvargacha bajarmaganligini, umuman hech qanday ish qilmay, kelib-ketib yurganligini, shuning uchun ham ishdan bo'shatilganligini ko'rsatdi.

Bu holatni sudda so'ralgan guvohlar B.To'rayev, E.Turonov, X.Safarovlar ham to'liq tasdiqlaydilar. Ishdagi bir qator aktlar, avvalgi sud majlisida so'ralgan guvohlar M.Eshbekov, R.Hazratqulov, M.Jarlikapov va boshqalarning ko'rsatmalari bilan G'afforov o'z vazifasini uzrsiz sabablarga ko'ra bajarmaganligi tasdig'ini topdi.

G'afforovning 1998-yil 8-dekabrda 1999-yil 16-yanvargacha ish haqi olganligi faktining o'zi uning shu davr mobaynida ishlab, mehnat majburiyatlarini bajarganligi masalasida yetarli dalil deb ko'rsatmoqchi bo'ladi. Bundan tashqari, da'vogar sud hay'atiga boshqa dalillar taqdim qila olmaganini isbotlandi.

Sud da'vogarga 1998-yil 12-dekabrda va 1999-yil 17-yanvardagi buyruqlar bilan e'lon qilingan intizomiy jazo choralarini qo'llash tartibini tekshirib, ular Mehnat kodeksining 182-moddasi talabi asosida qo'llanilgan deb topdi.

Bundan tashqari, sudlov hay'ati SH.G`afforov sudga ushbu da'vo arizasi bilan qonunda belgilangan bir oylik da'vo muddatini uzrsiz sabab bilan o`tkazib murojaat qilganligini aniqladi, chunonchi, o`z menat daftarchasini ishdan bo`shaganligi haqidagi yozuvi bilan 2001-yilning 20-yanvaridan olgan bo`lsa-da, sudga 2001-yilning 5-aprelida murojaat qilgan. Bu masalada G`afforovning prokuratura idoralariga murojaat etganligi da'vo muddatini tiklash uchun yetarli asos bo`la olmaydi.

Yuqoridagilarga ko`ra, sud Mehnat kodeksining 260-261-moddasiga hamda FPKning 203, 206-moddalariga asosan

Qaror qiladi:

Sharof G`afforovning Sirdaryo viloyat agrosanoat qo`mitasiga nisbatan ishga qayta tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun mehnat haqi undirib berish to`g`risidagi da'vosi rad etilsin.

Hal qiluv qarori qat'iy-shikoyatga o`rin yo`q.

Raislik qiluvchi sudya: B.A.Nazirov

VIII. DAVLAT ORGANLARI VA BOSHQA ORGANLAR, SHUNINGDEK, MANSABDOR SHAXSLARNING XATTI-HARAKATLARI (QARORLARI) USTIDAN BERILGAN SHIKOYAT VA ARIZALAR BO`YICHA ISHLARNI YURITISH

Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan beriladigan shikoyatlar fuqarolik qonunda to`g`ridan-to`g`ri nazarda tutilgan hollardagina sudlarga mulluqli bo`ladi.

Umumiy qoida bo`yicha davlat organlari va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari)ga beriladigan shikoyatlar asosan ish yuritish qoidasiga amal qilgan holda ma`muriy tartibda ko`riladi. Amaldagi² fuqarolik protsessual kodeksida bu turkumga kiradigan ba`zi ishlarning hal etilishi sudning vakolatiga kiritilganligini va uning ish ko`rish doirasi kengayganligini ko`ramiz, jumladan, bu masalalarga oid FPKda uch kichik bo`lim ajratilgan, u «Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakat (qaror)lari ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo`yicha ish yuritish» deb nomlangan 26-bobda davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qaror)lari ustidan berilgan shikoyatlarga oid ishlar yoritilgan. Bu ishlarga: 1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlar va qarorlar ustidan berilgan shikoyatlar; 2) notariusning, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarining tegishli harakatlarni bajarishni rad etganligi yoxud ularni noto`g`ri bajarilganligi ustidan berilgan shikoyatlar; 3) prokurorning huquqiy hujjatning g`ayriqonuniy deb topish to`g`risidagi arizasi bo`yicha ishlar kiradi (FPKning 264-moddasi).

Fuqarolarning ishtiroki bilan bo`ladigan bunday ma`muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko`rib hal etishning sud tartibi sudsiz ma`muriy tartibda ko`riladigan ishlarga nisbatan muayyan ustunliklarga ega bo`lishi nizolarning to`g`ri hal qilinishiga katta kafolatlar yaratilganligini, fuqarolar, davlat va boshqa idoralarning huquq va manfaatlarining jiddiy qo`riqlanishi bilan farqlanadi.

Idoralar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar yuzasidan kelib chiqadigan ishlar fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalari bo`yicha, ammo ularning ayrim xususiyatlarini e`tiborga olgan holda sudda ko`riladi. Bunday ishlar

² Izbekiston Respublikasi Ma`muriy javobgarlik tikodeksi. Toshkent., «Adolat», 1995 – yil.

ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqsa ham, biroq qonunda ko`rsatilgan hollarda sud tartibida ko`rishga taalluqli qilib belgilangan.

Shikoyat ma'muriy huquqbuzarlik to`g`risidagi ish yuzasidan qaror qabul qilgan organ (mansabdor shaxs)ga yoki bevosita sudga yuboriladi.

Ish yuzasidan qaror chiqargan organ (mansabdor shaxs) shikoyatni olgach, uni uch kun ichida ish bilan birga shikoyatni ko`rib chiqish huquqiga ega bo`lgan organga (mansabdor shaxs)ga yuboradi.

Qonunga ko`ra qaror ustidan shikoyat bergan shaxs davlat boji to`lashdan ozod etiladi.

Shikoyat, qarorning nusxasini olgan kundan boshlab o`n kun ichida beriladi. Shikoyat muddati uzrli sabablar bilan o`tkazilib yuborilgan taqdirda, bu muddat shikoyatni ko`rib chiqishga vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan tiklanishi qonunda nazarda tutilgan.

Prokuror, tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo`yicha sud`yasining qarori ustidan-tuman (shahar) sudining raisiga yoki yuqori turuvchi sudga, boshqa organ (mansabdor shaxs) qarori ustidan qaror chiqargan organga (mansabdor shaxs)ga protest bildirishi mumkin.

Ma'muriy ish yuzasidan chiqarilgan qarorga nisbatan berilgan shikoyat va bildirilgan protestni vakolatli organlar (mansabdor shaxslar), shikoyat va protest tushgan kundan boshlab o`n kun muddat ichida ko`rib chiqishi lozim.

Berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestni ko`rib chiqish paytida organ (mansabdor shaxs) chiqarilgan qarorning qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini tekshirishi lozim.

Ma'muriy ishlar bo`yicha sud`yaning qarori yuzasidan berilgan shikoyat yoki protest bo`yicha apellatsiya instansiyasi sudida ish yuritish tartibi ayrim istesnolardan tashqari qonunda ko`rsatilgan qoidalarga asosan hal etiladi.

Apellatsiya instansiya sudi ma'muriy ishlar bo`yicha sud`yaning qarori yuzasidan berilgan shikoyatni yoki bildirilgan protest bo`yicha ajrim chiqaradi va u chiqarilgan vaqtdan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

Ma'muriy tartibda solingan jarima yuzasidan shikoyatlar berish mumkinligi O`zbekiston Respublikasi Ma'muriy huquqbuzarlik to`g`risidagi kodeksining 297-307-moddalarida belgilab qo`yilgan. Shahar va aholi punktlari ko`chalarida va yo`llarida harakat xavfsizligi bilan bog`liq bo`lgan qoidalarni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik ham shu kodeksning 130-151-moddalarida va boshqa qonunlarda, ularga kiritilgan o`zgartirishlar va qo`shimchalarda nazarda tutilgan.

Demak, ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar tuzatuvchi sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalari bo'yicha, ammo to'g'ri xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ko`riladi.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni da'vo to'g'ri tartibida ko`riladigan ishlarga aralastirmaslik kerak.

Ajrimdan norozilik haqida shikoyat
Toshkent shahar, Mirzo Ulug`bek tuman
sudiga
Toshkent shahar, Mirzo Ulug`bek tuman,
Michurin ko`chasi, 10-uyda yashovchi Mirza
Karimovdan

SHIKOYAT

(Jarima solish to`g`risidagi qarorni bekor qilish)

Mirzo Ulug`bek tuman hokimiyati huzuridagi savdo bo`limi kompaniyasi 2001-yil 10-mayda savdo qoidasini buzganligim uchun menga nisbatan jarima solib, bu haqda bayonnoma tuzgan edi.

Savdo qoidasini buzishni quyidagi holatda sodir etganman: tirik baliqlarni Buyuk ipak yo`li nomli metro bekatida sotgan edim. Shu tufayli ma'muriy komissiya bayonnoma tuzib, menga 2500 so`m miqdorda jarima qo`ldi. Ma'muriy komissiyaning chiqargan bu qarorini quyidagilarga ko`ra asossiz deb hisoblayman:

Darhaqiqat, savdo qoidasini 2001-yil 10-mayda buzganman, biroq inspektor T.Eshmatovning tuzgan bayonnomasini komissiya 2001-yil 30-mayda, ya'ni 2 oyu 20 kun o`tganidan so`nggina ko`rib, qaror chiqargan. Amaldagi qoidaga ko`ra noqonuniy harakat sodir qilgandan so`ng ikki oydan ko`p vaqt o`tsa, solingan jarimani undirishga yo`l qo`yilmaydi. Bu haqda Ma'muriy huquqbuzarlik to`g`risidagi kodeksning 38-moddasida ko`rsatib o`tilgan.

Yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 266-268-moddalariga asoslanib,
So`rayman:

Mirzo Ulug`bek tuman hokimiyati huzuridagi ma'muriy komissiyaning 2001-yil 30-iyulda menga nisbatan 2500 so`m miqdorda jarima solish to`g`risidagi qarorini bekor qilishni

Ilova: 1. Sodir etilgan nojo`ya harakat yuzasidan tuzilgan bayonnoma;

2. Ma'muriy komissiyaning 2001-yil 30-iyundagi qarori;

3. Mening oylik maoshim haqida ma'lumot

2001-yil 17-iyul

M.Karimov

DAVLAT ORGANLARI VA BOSHQA ORGANLAR, SHUNINGDEK MANSABDOR SHAXSLARNING XATTI- HARAKATLARI (QARORLARI) USTIDAN BERILGAN SHIKOYAT VA ARIZALARNING SUDGA TAALLUQLILIGI

Fuqarolik ishlarining bu turkumi FPKning 264-278-moddalariga muvofiq hal etiladi. Shuningdek FPKning 2-moddasiga binoan, sudlarga FPKning 264-moddalaridan kelib chiqadigan ishlarning ham taalluqliligi ifodalangan.

Shikoyat qilishga asos bo`lib-ma'muriy tartibda jarimalarning noto`g`ri solinishi to`g`risida taraflarning bildirgan noroziliklari hisoblanadi. Ma'muriy tartibda solingan jarima to`g`risida shikoyatlar berish mumkinligi Ma'muriy huuqbuzarlik to`g`risidagi kodeksning 113-241, 297-307-moddalari va ularga kiritilgan o`zgarish, qo`shimchalarda, shuningdek shahar aholi punktlari ko`chalarida va yo`llarda harakat xavfsizligini, transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi qoidalarda nazarda tutilgan.

Ikkinchisi-transport vositalarini haydash huquqidan mahrum etilishi to`g`risida berilgan shikoyatlardir. Ba'zi hollarda transport vositalarini haydash huquqidan mahrum qilish to`g`risidagi qoidalar tegishli organlar chiqargan qarorlar ustidan shikoyat berilishi mumkinligini belgilaydi (Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 113-156-moddalari).

Yuqorida keltirilgan huquqiy me'yorning mazmuniga ko`ra, ma'muriy organlar qo`llaydigan boshqa ma'muriy choralar, chunonchi: ogohlantirish, jamoat izzasi va shu kabilar to`g`risidagi ma'muriy organlarning chiqargan qarorlari ustidan sud organlarga shikoyat berib bo`lmaydi.

Mansabdor shaxsning jarimadan boshqa turdagi choralar ko`rish to`g`risidagi qarorlari ustidan shu tashkilot yoki mansabdor shaxsning yuqori turuvchi organiga shikoyat berilishi mumkin.

Ma'muriy organlarning xatti-harakatlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko`rish va tekshirishda ham sudning vakolati muayyan xususiyatlarga ega. Bunday vakolatlarning tafsiliy sanog`i normativ aktlarda keltirilgan. Chunonchi, sud jarimalarni noto`g`ri solish ustidan berilgan shikoyatlarni ko`rishda: jarima solingan shaxs jarima solishga

uzi qanday xilof harakat qilgan-qalmaganligini, uning harakatlarida qonun bilan belgilangan tartibda jarima solish uchun aybi bor-yo`qligi, jarima soladigan vakolatli organ yoki mansabdor shaxslar tomonidan solinganligi, jarimaning miqdorini belgilashda xatti-harakatning og`irligi, xilof ish qiluvchining shaxsiy va mulkiy ahvoli e`tiborga olinganligi, solingan jarimaning summasi belgilangan eng ko`p miqdordan oshib ketmaganligi, jarima solish muddati o`tib ketmaganligi, ma`muriy tartibda solinadigan jarima tariqasidagi javobgarlikka tortishning qonunda belgilangan boshqa shartlariga rioya qilingan-qilinmaganligi kabi jihatlarini aniqlashga majbur.

Majburiy jarima solish to`g`risidagi qaror ustidan tushgan shikoyat bo`yicha sudning hal qiluv qarori turlicha mazmunda bo`lishi mumkin, chunki, sud jarima g`ayriqonuniy ravishda solinganligini yoki jarima solish uchun belgilangan muddat o`tib ketganligini aniqlasa, solingan jarimani bekor qilish to`g`risida hal qiluv qarori chiqaradi. Agar sud jarima to`g`ri solinganligini aniqlasa, shikoyatni qanoalantirishni rad etish to`g`risida hal qiluv qarori chiqaradi.

Agar solingan jarimaning summasi qonunda belgilangan miqdordan ortiq bo`lsa, sud bu summani qonunda belgilangan miqdordagicha kamaytiradi.

Sudning ma`muriy tartibda jarima solish to`g`risidagi qarori ustidan berilgan shikoyat yuzasidan chiqargan hal qiluv qarori qat`iy bo`lib, shu qaror chiqarilgan paytdan boshlaboq kuchga kiradi va bu qaror ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

Sud shunday hal qiluv qarori chiqargach, uning nusxasini uch kundan kechiktirmay shikoyatchiga yetkazish va ma`muriy tartibda jarima solgan idora yoki mansabdor shaxsga yuborish kerak bo`ladi.

Jarima solish to`g`risidagi ma`muriy komissiyaning qarori ustidan sudga shikoyat berish

O`zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qarori

2001-yil iyul oyining 25 kunida Toshkent shahar Mirzo Ulug`bek tumani sudining ochiq sud majlisida sudya V.Oqyulov raisligida, R.Nishonov kotibligida, Mirza Karimovning Mirzo Ulug`bek tumani huzuridagi ma`muriy komissiyasining qarori ustidan bergan shikoyati ko`rilib quyidagilar

Aniqlandi:

Mirza Karimovga savdo tartib-qoidasini buzib, belgilanmagan joyda baliq savdosini tashkil qilgani uchun savdo inspeksiyasi tomonidan 2001-yil 10-mayda bayonnoma tuzilib, shunga asosan M.Ulug`bek tuman hokimiyati huzuridagi ma'muriy komissiyaning 2001-yil 30-iyulda chiqargan qarori bilan 2500 so`m miqdorda jarima solingan. Shikoyatchi M.Karimov ma'muriy komissiyaning bu qarorini savdo qoidasini buzgan vaqtdan ikki oy o`tgandan keyin chiqarilganligi sababli asossiz deb hisoblab, jarimani olib tashlashni so`raydi.

Sud ish materiallarini atroflicha tekshirib, ma'muriy komissiyaning chiqargan qarorini asossiz deb hisoblaydi, chunki Ma'muriy huquqbuzarlik to`g`risidagi kodeksning 38-moddasiga ko`ra, jarima nojo`ya harakat sodir bo`lgandan keim ikki oy muddat ichida solinishi ko`rsatilgan. Savdo inspeksiyasining bayonnomasiga qaraganda, Mirza Karimov taqiqlagan joyda, ya'ni Buyuk Ipak yo`li metrosi oldida 2001-yil 10-may kuni baliq bilan savdo qilganligi sababli savdo qoidasini buzgan, deb baynnoma tuzilgan, shunga ko`ra ma'muriy komissiyaning 2500 so`m miqdorda jarima solish to`g`risidagi qarori esa 2001-yil 30-iyulda, ya'ni nojo`ya harakat sodir bo`lgandan ikki oy o`tgandan so`ng chiqarilgan.

Sud yuqoridagilarga ko`ra, ma'muriy huquqbuzarlik to`g`risidagi kodeksning 36-moddasiga hamda FPKning 264-272-moddalariga asosan

Qaror qiladi:

Mirza Karimovning shikoyati qanoatlantirilsin, 2500 so`m jarima solish haqidagi Mirzo Ulug`bek tuman hokimiyati huzuridagi ma'muriy komissiyaning 2001-yil 30-iyuldagi qarori bekor qilinsin.

Hal qiluv qarori qat'iy apellatsiya tartibida shikoyat, protest keltirishga o`rin yo`q.

Sudya: V.Oqyulov

O`TKAZIB YUBORILGAN PROTSESSUAL MUDDATNI TIKLASHNI RAD ETISH TARTIBI HAQIDA

Fuqarolik ishlari sudlarda belgilangan muddatlarda ko`riladi va hal qilinadi. Qonunda fuqarolik ishlarini to`g`ri va tez ko`rishi lozimligi ko`rsatilgan.

Huquqni himoya qilish yuzasidan sud faoliyatining sustlik bilan amalga oshirilishi fuqarolik ishida ishtirok etuvchi taraflarning qonuniy manfaatlari buzilishiga olib kelishi mumkin.

FPKning 126-moddasida ko`rsatilishicha, protsessual harakatlar qonunda belgilangan muddatlarda bajariladi. Protsessual muddatlar qonunda belgilanmagan hollarda esa-ularni sud tayinlaydi.

Binobarin, protsessual muddatlar deb fuqarolik ishlarini ko`rish va hal qilish uchun qonun bilan belgilangan yoki sud tomonidan tayinlangan muddatlarga aytiladi.

Protsessual muddatlar, odatda, protsessual harakatlar qilinishi mumkin bo`lgan talab e`tiborga olinib, aniq kalendar kunni bilan belgilanadi. Bundan tashqari boshqacha tarzda ham belgilanishi mumkin. Masalan, FPKning 126-moddasi 3-qismida ko`rsatilganidek, albatta sodir bo`lishi lozim bo`lgan voqeani yoki harakatni ko`rsatib yoki muayyan davrni ko`rsatib belgilanishi mumkin.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar qonunda belgilangan muddatni sud uzrli deb topgan sabablarga ko`ra o`tkazib yuborgan bo`lsalar, bu muddat tiklanishi mumkin.

Muddatning o`tkazilishi sababi ishning holatlariga qarab, sud tomonidan uzrli deb topilishi mumkin. Chunonchi, da`vogar yoki javobgar uchun og`ir holatlarning yuz berishi (bemor bo`lishi, yaqin kishilarining o`limi yoki kasal bo`lishi va shu kabi holatlar) sud tomonidan uzrli deb topiladi. Shuningdek, uzoq muddatga safarga ketgan bo`lishi ham muddatning o`tkazilishida uzrli deb topilishi mumkin. Sud bunday hollarda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning o`tkazilgan muddatni tiklash to`g`risidagi arizalarida ko`rsatilgan holatlarni qanchalik uzoq davom etishini, o`tkazilgan da`vo muddatining qanchalik uzoq bo`lishini ham e`tiborga oladi. Muddatning tiklanishi to`g`risidagi sudning ajrimi tegishli asoslantirilgan bo`lishi lozim.

O`tkazib yuborilgan muddatni tiklash to`g`risidagi ariza protsessual harakatlar qilinishi yoki hujjat topshirilishi lozim bo`lgan sudga beriladi va sud majlisida ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda ko`riladi. Lekin bu shaxslarning kelmasligi sud oldiga qo`yilgan masalani hal qilish uchun to`sqinlik qilmaydi.

O`tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklash to`g`risida ariza berish bilan bir vaqtda qaysi harakatga nisbatan o`tkazib yuborilgan bo`lsa, o`sha harakat qilinishi lozim yoki muddat qaysi hujjatga nisbatan o`tkazib yuborilgan bo`lsa, shu hujjat topshirilishi lozim.

O`tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklashni rad qilish to`g`risidagi sud chiqargan ajrim ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin (FPKning 130-moddasi).

O`tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklash haqida manfaatdor shaxsning harakatlari

Toshkent viloyati, fuqarolik ishlari bo`yicha Angren shahar sudiga
Angren shahar, G`alaba ko`chasi, 10-uyda yashovchi Mahmud Azizovdan

ARIZA
(Muddatni tiklash haqida)

Angren shahar ichki ishlar bo`limining yong`inga qarshi kurashish bo`limi boshlig`i R.Komilovning 2001-yil 10-apreldagi qaroriga ko`ra, men rahbarlik qilayotgan bozorda yong`inga qarshi qaratilgan xavfsizlik ishlari talab darajasida bo`lmaganligi va tegishli qoidalarga rioya qilinmaganligi sababli menga nisbatan 2330 so`m miqdorda jarima solingan edi.

Bu jarimani g`ayriqonuniy tartibda solinganligini asoslashimga qaramay, o`rtoq R.Komilov e'tiborga olmadi. Shu sababli qaror ustidan shikoyat berishni lozim topdim, biroq shikoyat qilishga berilgan 10 kunlik muddatni o`tkazib yuborganligimni tushuntirishdi. Muddatni o`tkazib yuborishimga asosiy sabab-shikoyat qilish qoidasini bilmasligim va ish bilan ovora bo`lib bunga e'tibor bermaganligimdir.

Yuqoridagilarga ko`ra, FPKning 130-moddasiga asosan

So`rayman:

Angren shahar ichki ishlar bo`limining yong`indan saqlash bo`limining 2000-yil 10-apreldagi qarori ustidan shikoyat berish uchun berilgan muddatni tiklab, solingan jarima bekor qilinishini.

Ilova: 1. Qarordan nusxa;

2. Tegishli jihozlarning yo`qligi haqida ma'lumot.

2001-yil 15-avgust.

M.Azimov

AJRIM

2001-yil 20-avgust.

Angren shahri

Toshkent viloyati, fuqarolik ishlari bo`yicha Angren shahar sudining ochiq sud majlisida raislik qiluvchi sudya N.V.Vazirov, L.Minorova

Ushbu qismlarda Mahmud Azizovga nisbatan ma'muriy tartibda solingan jarima to'g'risidagi shikoyat keltirish uchun protsessual muddatni tiklash to'g'risidagi arizasi ko'rib, quyidagilar

Aniqlandi:

Angren shahar ichki ishlar bo'limining o't o'chirish bo'yicha bo'lim boshlig'i B.Kamolovning 2001-yil 10-apreldagi qaroriga ko'ra, bu qarordagi bozor direktori Mahmud Azizovga nisbatan o't o'chirish protsessual muddatiga rioya qilmaganligi sababli 2330 so'm miqdorda jarima solinib, ma'muriy jazoga tortiladi.

M.Azizov shikoyat arizasida solingan jarimani bekor qilishni, buning uchun shikoyat berishga belgilangan protsessual muddatni o'tkazib yuborilganligini uzrli deb topib, muddatni tiklab, ishni sudda ko'rishni so'raydi.

Shikoyat qilish muddatiga rioya etmaganlik sababiga asos qilib, ishi to'g'risida ko'rib o'tilganligi bois shikoyat qilishga vaqt topolmaganligini ko'rsatadi va bu harakatini uzrli sabab deb hisoblashni so'raydi.

Sud majlisining bo'lishi haqida yozma ravishda xabardor qilinishiga qatnashmay, M.Azizov ish ko'rishga qatnashmaydi.

Sudga taqdim qilingan hujjatlar har tomonlama o'rganib chiqilib, sud ko'rib o'tilganligi bois shikoyat qilish muddatini tiklash uchun yetarli asos yo'q deb hisoblaydi.

M.Azizov jarima solinganlik to'g'risidagi qaror nusxasini 2001-yil 10 aprelda olganiga qaramay, shu yil 20-avgustga qadar, ya'ni 4 oydan ko'proq vaqt ichida shikoyat qilmagan va buning uchun uzrli sabablari masalan, kasalligi, uzoq muddat safarda bo'lgani va hokazolar bo'lmagan. Bular tashqari, FPKning 130-moddasida ko'rsatilgan uzrli sabablar keltirilmagan. Bu holatlar arizachining belgilangan muddatda sudga murojaat qilish uchun imkoniyati borligidan dalolat beradi.

Sud yuqoridagilarga ko'ra va FPKning 128-moddasiga asosan

Ajrim qiladi:

Arizachi Mahmud Azizovning shikoyat qilish uchun protsessual muddatni tiklash va solingan jarimani bekor qilish to'g'risidagi iltimosi rad etilsin.

Ajrim ustidan shu sud orqali fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent viloyati sudining fuqarolik sudlov hay'atiga 10 kun muddat ichida xususiy shikoyat yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

Sudya: N.V.Vazirov

MANSABDOR SHAXSLARNING NOJO`YA HARAKATLARI USTIDAN SHIKOYAT BERISH HUQUQI HAQIDA

Amaldagi qonunlarga muvofiq, respublika fuqarolari davlat organlari va jamoat tashkilotlari, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish huquqiga egadirlar. Bu haqda FPKning 26-29-boblarida ham batafsil berilgan. Bu qonunlarga ko`ra, mansabdor shaxslarning qonunni buzuvchi, o`z vakolatlarini suiste`mol qiluvchi, fuqarolarning huquqlarini kamsituvchi xatti-harakatlari ustidan qonunda belgilangan tartibda va muddatda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Davlat boshqaruv idoralari va mansabdor shaxslarning sudga shikoyat qilishga loyiq xatti-harakatlari jumlasiga:

fuqaro qonunda yoki boshqa huquqiy hujjatda o`ziga berilgan huquqni to`la yoki qisman amalga oshirish imkoniyatidan qonunga xilof ravishda mahrum etilishiga;

fuqaro zimmasiga qonunga xilof ravishda qandaydir majburiyat yuklatilishiga sabab bo`lgan kollegial yoki yakka tartibdagi xatti-harakatlar kiradi.

Davlat boshqaruvi organi yoki mansabdor shaxsning xatti-harakatlari ustidan tobelik tartibida yuqori turuvchi va shikoyatni ko`rib chiqish natijalari to`g`risida bir oylik muddat ichida fuqaroga ma`lum qilishi shart bo`lgan organ yoki mansabdor shaxsga shikoyat bilan murojaat qilingandan keyin-sudga shikoyat berilishi mumkin.

Shikoyat sudga huquqi buzilgan fuqaroni, uning vakili, shuningdek, fuqaroning iltimosiga ko`ra-jamoat tashkilotining, mehnat jamoasining tegishli vakolati bo`lgan vakili tomonidan berilishi mumkin.

Shikoyat xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilinayotgan davlat boshqaruvi organi joylashgan yerdagi yoki mansabdor shaxsning ish joyidagi tuman (shahar) sudiga beriladi.

Shikoyat berishda belgilangan tartibda davlat boji to`lanadi.

Fuqaro yuqori organdan yoki mansabdor shaxsdan o`z shikoyati qondirilishi haqida raddiya olgan kundan boshlab yoki yuqori organga yoxud mansabdor shaxsga shikoyat topshirilgandan so`ng, bir oy muddat o`tgan kundan boshlab hisoblanadigan bir oylik muddat ichida, shikoyatchi shikoyatiga javob olmagan bo`lsa, sudga shikoyat berishi mumkin.

Mansabdor shaxsning xatti-harakatlari ustidan
norozi bo`lib berilgan shikoyat

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha Mirzo
Ulug`bek tumani sudiga

Shikoyatchi: Azim Xolmirzayev-Toshkent shahar, Mirzo
Ulug`bek tumani, Traktor ko`chasi, Gulbahor tor
ko`chasi, 10-uyda istiqomat qiladi.

Manfaatdor mansabdor shaxs-Toshkent shahar, Mirzo
Ulug`bek tumani maorif bo`lim mudiri Parda
Rafiqov

SHIKOYAT

(Mansabdor shaxsning harakatlari ustidan)

Men 2001-yil 10-aprelda Mirzo Ulug`bek tuman maorif bo`limi
mudiri Parda Rafiqov nomiga muddatni ko`rsatmasdan mehnat
shartnomasini tuzish haqida ariza bilan murojaat etgan edim. Biroq maorif
bo`limining mudiri bilan uning vakili (yurist-maslahatchining) 2001-yil
10-aprelda menga yozgan xatida, meni ishga qabul qilish, ya'ni men bilan
mehnat shartnomasini tuzish huquqi maorif bo`limi vakolatiga kirmasligini
bunday huquq maktab direktor-larining vakolatiga tegishli ekanligi
ko`rsatilgan.

Men maorif bo`limi mudirining bu xatti-harakatlarini g`ayriqonuniy
deh hisoblayman, chunki u kishiga hamisha imkoniyat bo`li-shiga
qaramay, boshqalarni sarson qilishi, aksincha qarindosh-urug`lari, tanish-
bilishlarini ishga qabul qilganligi sababli Maorif vazirligi tomonidan jazo
berilgan.

Yuqoridagilarga ko`ra, fuqarolarning huquqlariga putur
yekazayotgan dalvat boshqaruvi idoralari va mansabdor shaxslarning
g`ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish mumkinligi
to`g`risidagi huquqdan foydalanib 1995-yil 30-avgustdagi «Fuqarolarning
huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan
sudga shikoyat qilish to`g`risida»gi Qonun hamda O`zbekiston
Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi
«Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va
qarorlar ustidan keltirilgan shikoyatlarni sudlarda ko`rish amaliyoti
to`g`risida»gi qarori, Mehnat kodeksining 75-moddasiga va FPKning 264-
moddasiga asosan

So`rayman:

Mirzo Ulug`bek tuman maorif bo`lim mudiri P.Rafiqovning men bilan nomuayyan muddatga mehnat shartnomasini tuzish haqidagi arizani rad etish haqidagi g`ayriqonuniy xatti-harakatlarini bekor qilinishni.

Ilova: 1). maorif bo`limining xati;

2). mening mehnat faoliyatim haqida ma'lumotnoma.

2001-yil 28-aprel

A.Xolmirzayev

SHIKOYATNI KO`RISH MUDDATI VA TARTIBI

Sud shikoyatni shikoyat bergan fuqaro hamda xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilinayotgan davlat boshqaruvi idorasining rahbari yoki mansabdor shaxsning ishtirokida o`n kun ichida ko`rib chiqadi.

Shikoyat bergan fuqaro ish yuzasidan o`z manfaatlarini himoya qilishni vakilga topshirshga haqlidir.

Shikoyat bergan fuqaroning xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilinayotgan davlat boshqaruvi organi rahbarining yoki mansabdor shaxsning yoxud ular vakillarining uzrsiz sababga ko`ra sud majlisiga kelmaganliklari shikoyatning ko`rib chiqilishiga to`sqinlik qilmaydi, biroq sud shikoyat bergan fuqaroning va davlat boshqaruvi idorasi rahbarining yoki mansabdor shaxsning sudga kelishini majburiy deb topishi mumkin.

Sudda ishni ko`rib chiqish chog`ida jamoat tashkilotlari va mehnat kollektivlarining vakillari, shuningdek, tobelik tartibida yuqori organlarining mansabdor shaxslari yoki ularning vakillari qatnashishlari mumkin.

Sud shikoyat qilinishiga sabab bo`lgan xatti-harakatlarni qonuniy deb topsa bo`ysunuv tartibidagi yuqori mansabdor shaxslarning yoki organlarning materiallarini tadqiq etishi kerak, shuningdek, boshqa shaxslarning tushuntirishlarini tinglashi, zarur hujjatlar va boshqa dalil-isbotlarni tadqiq qilishi mumkin.

Agar, sud shikoyat qilinishiga sabab bo`lgan xatti-harakatlarni g`ayriqonuniy, fuqaroning huquqlariga putur yetkazgan deb topsa, u shikoyatning asosli ekanligi va tegishli boshqaruvi organi yoki mansabdor shaxsning yo`l qo`yilgan huuqbuzarlikni bartaraf etishga majburligi to`g`risida qaror chiqaradi.

Agar sud shikoyat qilinishiga sabab bo`lgan xatti-harakatlar qonunga binoan, davlat boshqaruvi idorasi yoki mansabdor shaxs vakolatlari

idorasida sodir etilgan deb topsa, shikoyatni qondirishni rad etish to'p'risida qaror chiqaradi.

Yo'l qo'yilgan qonun yoki boshqa normativ hujjat buzilish hollarini butaraf etish uchun sudning shikoyat yuzasidan qabul qilgan qarori, xatti-harakatlari xususida shikoyat bildirilgan davlat boshqaruvi idorasining rahbariga yoxud mansabdor shaxsga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori muvchi organga yoki mansabdor shaxsga yuboriladi.

AJRIM

Toshkent shahar, fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudining 2001-yil 25-may kuni ochiq sud majlisida raislik qiluvchi sudya D.Abulov, P.Ma'murova kotibligida Azim Xolmirzayevning arizasiga ko'ra, Mirzo Ulug'bek tuman maorif bo'limi mudir Parda Rafiqovning nojo'ya xatti-harakatlari ustidan bergan shikoyati ko'rib, quyidagilar

Aniqlandi:

Shikoyatchi Azim Xolmirzayev 2001-yil 10-aprel kuni Mirzo Ulug'bek tuman maorif bo'limi mudiri P.Rafiqovga ariza bilan muddat ko'rsatmasdan ishga qabul qilish shartnomasini tuzish bo'yicha murojaat etgan.

Mirzo Ulug'bek tuman maorif bo'limining vakili S.Qodirov tomonidan 2001-yil 26-aprelda A.Xolmirzayevning arizasiga yozilgan javob xati sudga taqdim etilgan, unga ko'ra o'qituvchilarni ishga qabul qilish maktab direktorlarining vakolatiga tegishli ekanligi bildirilgan. Arizani yuqori bo'ysunuvchi organga murojaat etganicha endigina besh kun bo'lsa-da, uni xulosasini olmasdan sudga murojaat etgan.

Sud taqdim etilgan materiallarni har tomonlama tekshirib, avvalo, bu turkumdagi ishlar sudsiz to'liq hal qilishi va ariza bo'yicha yuqori organni xulosasi bo'lishi lozim deb hisoblaydi. Shikoyatchi A.Xolmirzayevning bu ish bo'yicha dastavval yuqori bo'ysunuvchi shahar maorif bosh boshqarmasiga shikoyat qilish, yakuni bo'lishi talab etiladi biroq bu haqda ishda hech qanday hujjat keltirilmagan. Shunga ko'ra, ish sudga taalluqli bo'lmaganligi sababli uni mazmunan ko'rish FPKning 264-moddasiga xilofdir.

Sud yuqoridagilarga ko'ra va FPKning 269-moddasi 2-qismiga asosan

Ajrim qiladi:

Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tuman maorif bo'limining mudiri Parda Rafiqov shikoyatchi Azim Xolmirzayev bilan mehnat shartnomasini

tuzmaganligi va uni ishga olishga qarshilik ko'rsatganligi yuzasidan bergan shikoyati ko'rilmay qoldirilsin.

Shikoyatchi Azim Xolmirzayevga shu ish bo'yicha mansabdor shaxs tobe bo'lgan yuqori tashkilotga, ya'ni Tashkent shahar maorif bosh boshqarmasiga murojaat qilish lozimligi tushuntirilsin. Ajrimdan noroz tomon shu sud orqali fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar.sudiga 10 kun muddat ichida shikoyat qilishi (protest) keltirishi mumkin.

Sudya: D.Abulov

SAYLOV KOMISSIYALARINING XATTI-HARAKATLARI (QARORLARI) USTIDAN BERILGAN SHIKOYATLARNI SUDDA KO'RISH TARTIBI HAQIDA

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risidagi yangi tahrirdagi Qonunida, saylovchilarning huquqlarini sudga himoya qilish masalasiga e'tibor berilgan bo'lib, bunda deputatlikka nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalarning organlari, hokimiyatning vakillik organlari, deputatlikka nomzodlar, ishonchli vakillar, kuzatuvchilar va saylovchilar saylov komissiyalarining qarorlari ustidan yuqori saylov komissiyasiga yoki sudga ana shu qaror qabul qiliganidan keyin o'n kun ichida shikoyat bilan murojaat qilishlari mumkin. Markaziy saylov komissiyasining qarorlari ustidan qaror qabul qilinganidan keyin o'n kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat bilan murojaat qilinishi mumkin. Shikoyat kelib tushganidan keyin uch kun ichida, agar saylovga olti kundan kam vaqt qolgan bo'lsa, darhol ko'rib chiqilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosi saylovchilar ro'yxatidagi xato yoki noaniqlik to'g'risida uchastka saylov komissiyasiga arz qilishi mumkin. Uchastka saylov komissiyasi yigirma to'rt soat ichida bunday arizani ko'rib chiqishi va xatoni tuzatishi yoki arizachiga uning arizasi rad etilishining asoslari ko'rsatilgan holda ma'lumotnoma berishi shart.

Saylov komissiyasining xatti-harakati va qarori ustidan qonunda belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin («Saylov to'g'risida»gi qonunning 34-moddasi).

Saylov komissiyasining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat sud tomonidan shikoyat berilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay ko'rib chiqilishi, agar saylovga olti kundan kam vaqt qolgan bo'lsa, darhol ko'rib chiqilishi lozim.

Shikoyat sud tomonidan arizachini va tegishli saylov komissiyasining vakilini, shuningdek, prokurorni, agar shikoyat arizachiga qarshi boshqa fuqaroga daxldor bo`lsa, o`sha shaxsni ham chaqirgan holda ko`rib chiqiladi. Bu shaxslarning kelmasligi ishni ko`rib chiqishga to`sqinlik qilmaydi.

Sudning hal qiluv qarori chiqarilishi bilanoq darhol tegishli saylov komissiyasiga va arizachiga topshiriladi.

Bunday shikoyatga shikoyatchining arizasi rad qilinganligi to`g`ri bo`lgan ma'lumot ilova qilinadi.

Agar yozma ma'lumot shikoyat bilan birga taqdim qilinmagan bo`lsa, shikoyatni tegishli komissiyadan talab qilib olishga majbur.

Sud shikoyatni qabul qilish uchun shikoyatchi shaxs saylovchilar ro`yxatida bo`lgan noto`g`rilikni tuzatish to`g`risida ilgari ariza bergan bo`lishi va bu arizani rad qilgan bo`lishi kerak.

Agar arz qilgan saylovchi shaxs avval saylov komissiyasiga ariza berganidan turib, sudga shikoyat qilingan taqdirda sudga arz qiluvchiga saylovchilar ro`yxatini tuzatishning qonun bilan belgilangan tartibini talab qilib, shikoyatni tegishli saylov komissiyaga murojaat etishni talab qilmaydi.

Samarqand viloyati, fuqarolik ishlari bo'yicha
Samarqand shahar sudiga
Samarqand shahar, 1-may ko'chasi 10-uyda
yashovchi Gulnora Mamadaliyevna Qodirova
tomonidan Samarqand shahar saylov
komissiyasining qarori yuzasidan

SHIKOYAT

(Saylov ro'yxatidagi noto'g'riliklar xususida)

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga deputatlar saylash bo'yicha o'tkaziladigan saylovlar yuzasidan olib boriladigan tayyorgarlik ishlarida saylovchilar ro'yxatini tuzish muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu ishlarni o'tkazishda saylov komissiyasi ayrim kamchiliklarga yo'l qo'ygan, masalan, saylov ro'yxatiga meni Gulnora Mamadaliyevana Qodirova deb kiritish o'rniga, otamning ismini «Muttaxamovna» deb noto'g'ri kiritilgan, darhaqiqat, mening tug'ilish guvohnomamda xuddi shunday deb ko'rsatilgan edi, biroq shu yil olgan yangi pasportimda «Mamadaliyevna» deb to'g'ri yozilgan.

Bu haqda shahar saylov komissiyasiga murojaat qilsamda, mening iltimosim ijobiy hal bo'lmadi va ro'yxatga o'zgarish kiritish masalasi asossiz rad etildi.

Yuqoridagilarga ko'ra va FPKning 272-moddasiga asosan

So'rayman:

Samarqand shahar saylov komissiyasining saylovchilar ro'yxatiga mening otamning ismini «Muttaxamovna» emas, balki «Mamadaliyevna» deb o'zgartirilishni.

Ilova: 1). Samarqand shahar saylov komissiyasining qaroridan nusxa;
2). tug'ilish guvohnomam va pasportim;

2001-yil 10-mart

G.M.Qodirova

SAYLOV RO`YXATIDAGI NOTO`G`RILIKLAR USTIDAN BERILGAN SHIKOYATLARNI SUDDA KO`RISH TARTIBI TO`G`RISIDA

Saylovchilar ro`yxatidagi noto`g`riliklar haqidagi shikoyat bo`yicha bajariladigan protsessual harakatlar shikoyat berilgan vaqtdan boshlab uch kundan kechiktirilmasdan sudda ko`rilishi lozim. Shikoyatni sud ochiq sud majlisida ariza beruvchini va tegishli mahalliy hokimiyat vakili, agar shikoyat ariza beruvchiga daxli bo`lmasdan boshqa fuqaroga tegishli bo`lsa, o`sha fuqaroni ham kelmasligi, agar sudda ishni ko`rish to`g`risidagi chaqiruv xati ularga topshirilgan bo`lsa, ishni ko`rishga to`sqinlik qilmaydi. Lekin sud bu shaxslarning shaxsiy bayonotlarini zarur deb topsa, ishni ko`rishni keyinga qoldiradi va ular qaytadan chaqiriladi.

Sud saylovchilar ro`yxatidagi noto`g`riliklar to`g`risidagi ishlarni prokurorning ishtirokida ko`radi.

Sudning saylovchilar ro`yxatidagi noto`g`rliklarga o`zgartirish kiritish haqidagi hal qiluv qarori tuman, shahar hokimiyati, o`z-o`zini boshqarish organlari saylovchilar ro`yxatiga o`zgartirish kiritish uchun asos bo`ladi. Binobarin, bu qaror chiqarilishi bilan darhol tegishli saylov komissiyasiga va arizachiga yuboriladi.

O`zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qarori

Samarqand viloyati Samarqand shahar fuqarolik ishlari bo`yicha sudi binosida 2001-yil 13-mart kuni sud majlisi bo`lib sudya V.Qobilov raisligida, O.Razzoqovning kotibligida, shahar prokurori, adliya maslaxatchisi X.Adhamov ishtirokida Gulnora Mamadaliyevna Qodirovaning saylovchilar ro`yxatidagi noto`g`rliklar haqidagi shikoyati ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

G.M.Qodirova shikoyatida va sud majlisida bergan tushuntirishda uning otasining ismi «Mamadali» bo`lishiga qaramay, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov o`tkazish munosabati bilan komissiya tomonidan tuzilgan saylov ro`yxatiga «Muttaxamovna» deb kiritilganligini ko`rsatadi.

G.M.Qodirovaning saylovchilar ro`yxatga tegishli o`zgarish kiritish haqidagi iltimosi saylov komissiyasi tomonidan qanoatlantirilmagan. Shularga ko`ra G.Qodirova sudga murojaat etib, otasining ismini to`g`ri

yozgan holda saylovchilar ro`yxatiga tegishli o`zgarishlar kiritishni so`raydi.

Shahar hokimiyatining vakili D.Jo`rayev shikoyatni rad etishni, bunga asos qilib, saylovchilar ro`yxatiga shikoyatchining familiyasi va otasining ismi uning tegishli hujjatlariga (tug`ilish guvoohnomasiga) asosan kiritilganligini bildiradi.

Sud prokurorning shikoyatni qanoatlantirish lozimligi haqidagi fikrini va ishdagi hujjatlarni tahlil qilib, shikoyatchining arizasi asosli ekanligini ta'kidlaydi.

G.M.Qodirova sudga taqdim etgan hujjatlar qatorida Samarqand shahar militsiya bo`limining 2001-yil 10-mayda XI-YUSH 11223-raqamli pasportida «Mamadaliyevna» deb to`g`ri yozilganligi, tug`ilish guvoohnomasidagi otasining ismi keyinchalik hujjatlarga asoslangan holda to`g`rilanganligi ko`rsatadi.

Bulardan tashqari, G.M.Qodirovaning nikoh guvoohnomasida otasining ismi «Madaliyevna» deb ko`rsatilganligi ham shikoyatchining talabi asosli ekanligidan dalolat beradi.

Sud yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 203, 206, 272-moddalariga asosan

Qaror qiladi:

Gulnora Mamadaliyevna Qodirovaning shikoyati qanoatlantirilsin.

Hal qiluv qaroriga apellatsiya tartibida shikoyat qilish va protest keltirish mumkin emas.

Sudya: V.Qobilov

IX. ALOHIDA TARTIBDA KO`RILADIGAN ISHLAR

Aksariyat hollarda fuqarolik ishlari biron-bir buzilgan shaxsiy yoki mulkiy huquqning himoya qilinishi to`g`risida, da`vo ishlari tarzida qo`z`g`atiladi. Ammo ba`zi hollarda fuqarolik ishlari huquq to`g`risida nizo bo`larning biron-bir da`vosi bo`lmaganida ham sudlarda qo`z`g`atilishi, ko`rilishi va hal etilishi mumkin. Masalan, fuqaro pensiya yoki meros o`lani uchun zarur bo`lganida biron-bir faktning mavjudligini, aytaylik, biron-bir farzandi yoinki boqimida bo`lganligini tasdiqlatish zarur bo`lganida, arizani biron-bir nisbatan da`vo qo`z`g`atmay, balki sudga ariza bilan, muddaosini aytib, murojaat qiladi.

Bunday hollarda fuqarolik ishlari da`vo ishtarini yuritish tartibida ko`rilmasdan, balki alohida ish yuritish tartibida ko`riladi. Sudlarda bunday tartibda ish ko`rilishida ham subyektiv huquqlarni va qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsad qilib qo`yiladi.

Nizosiz ishlar (FPKning 279-moddasi), FPKning umumiy qoidalariga muvofiq ko`riladi.

Sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida ko`riladigan nizosiz ishlar jumlasiga: yuridik ahamiyatga molik bo`lgan faktlarni belgilash to`g`risidagi, fuqaroni bedarak yo`qolgan deb topish va fuqaroning o`limi haqida e`lon qilish: ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi tufayli fuqaroning muomala layoqati cheklangan, muomalaga layoqatsiz deb topish to`g`risidagi: mulkini egasiz deb topish: taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo`qotilgan taqdirda, ularga bo`lgan huquqlarni tiklash (chaqirib ish yuritish), g`ayriixtiyoriy tartibda psixiatriya statsionariga yotqizish to`g`risidagi ishlar kiradi.

Alohida tartibda ko`riladigan ishlarda huquq haqida nizo bo`lmaydi. Shu jihatlari bilan alohida tartibda ko`riladigan ishlar da`vo ishtarini yuritishdan farq qiladi. Alohida tartibda ish yuritishdan maqsad biron-bir huquqni vujudga kelganligi, o`zgarganligi yoinki bekor bo`lganligi, aniqroq qilib aytganda, yuridik faktlarning mavjudligi yoki ularning yo`qligini aniqlashdan iborat.

Da`vo ishtarini yuritishda esa sud faoliyati birmuncha kengroq bo`ladi. Bunda sud yuridik faktlarni aniqlabgina qolmay, shu bilan birga aniqlangan faktlarga moddiy-huquqiy normalarni tadbiiq etishi, taraflarning huquq va majburiyatlari haqida tegishli xulosaga kelishi, ya`ni fuqarolik-huquqiy nizolarni hal etishi lozim.

Alohida tartibda ko`riladigan ishlarda, huquq to`g`risida nizo bo`lmagani tufayli, taraflar, ya`ni javobgar, da`vogar, uchinchi shaxslar

ham bo`lmaydi, faqat o`z muddaosini aytib, sudga murojaat qiluvchi arizachigina va boshqa manfaatdor shaxslarigina bo`lishi mumkin. Shuning uchun ham alohida tartibda ko`riladigan fuqarolik ishlarida ba'zi fuqarolik protsessual huquqiy me'yorning, masalan, qo`shimcha ishtirokchilik, tegishsiz tarafni tegishli taraf bilan almashtirish, kelishuv bitimi va shu kabi protsessual harakatlarga oid normalar qo`llanilmasligi mumkin.

Alohida tartibda ko`riladigan ishlarni sud ariza beruvchi va manfaatdor fuqarolarning, davlat organlari, muassasalar, korxonalar, kooperativ hamda jamoat tashkilotlarining ishtirokida ko`radi (FPKning 281-moddasi).

Sudya bu turkumdagi ishlarni ham sudda ko`rishga tayyorlaydi, ish uchun ahamiyatli hujjatlarni talab qiladi, muhim ko`rsatmalar berishi mumkin bo`lgan guvohlarni, tegishli tashkilot vakillarini sudga taklif qiladi, lozim bo`lsa, ekspertiza tayinlaydi, sudda ko`riladigan ishning xarakterini aniqlashga harakat qiladi va ishni sud majlisida ko`rishga tayinlaydi.

YURIDIK AHAMIYATGA EGA BO`LGAN FAKTLARNI BELGILASH HAQIDA

Yuridik ahamiyatga ega bo`lgan faktlarni belgilashning sud tartibi fuqarolarning Konstitutsiyada mustahkamlangan shaxsiy va mulkiy huquqlarining mehnatga, nikoh va oilaga oid hamda boshqa huquqlarning himoya qilinishini, shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlarining mulkka bo`lgan huquqlarini qo`riqlashga ham xizmat qiladi.

Yuridik faktlarning belgilanishi to`g`risidagi ariza faqat tubandagi hollardagina:

birinchidan, agar bu fakt shaxsiy yoki mulkiy huquqlarni vujudga keltiradigan, o`zgartiradigan yoki bekor qiladigan bo`lsa;

ikkinchidan, bu faktning belgilash sud vakolatiga taalluqli qilingan bo`lsa;

uchinchidan, yuridik faktning belgilash to`g`risidagi hujjatlar boshqa tartibda ariza beruvchi tomonidan olinishi mumkin bo`lmasa (masalan, yo`qolgan fuqarolik holati dalolatnomalarini tiklash ishi, bunday holatlarni qayd qiluvchi idoralar tomonidan, manfaatdor shaxslarning arizalariga binoan tiklanadi va agar bu organlardan rad javobi olinsagina fuqarolik holati dalolatnomalarining, chunonchi: bolaning tug`ilishi, nikohdan o`tganligi, fuqaroni o`limi va hokozolar to`g`risidagi aktning qayd qilinishi fakti sud tomonidan belgilanishi mumkin. Binobarin, sud fuqarolik holati

dalolatnomasining qayd etilganligi to'g'risidagi arizani qabul qilishda ariza beruvchi shaxsning bu to'g'rida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idorasiga murojaat qilgan-qilmaganligini va nima sabablar bo'yicha iltimosi rad etilganligini aniqlashi lozim);

to'rtinchidan, bunday faktni belgilash sudlarga taalluqli bo'lgan huquq to'g'risidagi nizoni hal qilish bilan bog'liq bo'lmasligi kerak. Ya'ni, shu nizo bo'lmasligi talab etiladi. Agar yuridik faktni belgilash ariza beruvchiga keyinchalik chunonchi, merosga bo'lgan huquq yoki yetkazilgan zararni undirish bo'yicha da'vo qo'zg'atish va boshqa fuqarolik da'volari uchun zarur bo'lgan hollarda uning arizasi alohida ish yuritish tartibida ko'rilmasligi kerak.

Fuqarolar yoki tashkilotlarning shaxsiy yoki mulkiy huquqlarining kelib chiqishi, o'zgarishi yoki tugatilishiga sabab bo'ladigan faktlarni sud belgilaydi.

Sud quyidagi faktlarni:

- 1) shaxslarning qarindoshlik munosabatlarini;
- 2) shaxsning bironing qaramog'ida bo'lganligi faktini;
- 3) otalikni tan olish (belgilash) faktini bolaning shu onadan tug'ilganligi faktini va tug'ilgan vaqtini;
- 4) bolalikka olish, nikoh, ajralish va o'limni ro'yxatga olish faktini;
- 5) er-xotindan birining o'limi natijasida fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd etish idoralarida nikohni ro'yxatdan o'tkazish mumkin bo'lmasa, qonunda belgilangan hollarda, haqiqatda er-xotinlik munosabatlarida bo'lganlik faktini;
- 6) shaxsning huquqni vujudga keltiruvchi hujjatlar (jamoat birlashmalariga a'zolik biletleri, harbiy hujjatlar, pasportlar va fuqarolik holatlari aktini qayd qilish idoralari beradigan guvohnomalardan boshqa hujjatlarda) ko'rsatilgan shaxsning ismi, otasining ismi va familiyasi bilan mos kelmagan taqdirda, mazkur hujjatlarning unga tegishli yoki tegishli ekanligi faktini;
- 7) baxtsiz hodisa faktini;
- 8) imoratga xususiy mulk huquqi asosida egalik qilish faktini;
- 9) merosni qabul qilish va merosning ochilish joyi faktini;
- 10) yuridik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa faktlarni, agar qonun hujjatlarida ularni belgilashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa.

Sud yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni ariza beruvchi shu faktlarni tasdiqlaydigan tegishli hujjatlarni boshqacha yo'l bilan olishi

mumkin bo`lmasa yoki yo`qotilgan yoxud yo`q qilingan hujjatlarni tiklash mumkin bo`lmagan taqdirdagina belgilaydi. Bu qoida shaxslarning qarindoshlik faktining belgilanishi-vorislik huquqini olish, boquvchini yo`qotganlik tufayli pensiya olishga bo`lgan huquqni rasmiylashtirish, ko`p bolali onalarga (oilalarga) beriladigan davlat yordamini olish, avtomashinaning hadya qilinishini notariat tartibda rasmiylashtirish uchun va boshqa ba`zi hollarda zarur bo`lishi mumkin. Bu haqda «Yuridik ahamiyatga ega bo`lgan faktlarni belgilash to`g`risida»gi qarorning bajarilishi haqidagi O`zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1991-yil 20-dekabrda va unga 1997-yil 2-maydagi va 1998-yil 11-sentabrda kiritilgan o`zgartirishlar Plenum qarorida ko`rsatilgan.

Farg`ona viloyati, fuqarolik ishlari bo`yicha
Farg`ona shahar sudiga
Farg`ona shahar, Marg`ilon ko`chasi, 15-uyda yashovchi Muhammadjon Alijonovdan
Ish yuzasidan manfaatdor shaxs-Farg`ona shahar hokimiyatining uy-joy boshqarmasi; Farg`ona shahar, Fazo 1-ko`chasi, 20-uyda joylashgan

ARIZA

(Qarindoshlik munosabati faktini belgilash haqida)

Men bilan Ergashboy Rustamov qarindosh bo`lamiz. U kishi mening bobom, ya'ni onam Robiyaxon Omonovanning dadasi bo`ladilar.

Buvam E.Rustamov 1940-yili buvim bo`lmish Hadicha Hakimova bilan nikohdan ajrashgan, nikohlaridan mening onam qolgan, Buvim keyinchalik Omon Xolmatov bilan turmush quradi, shundan keyin onam 6 yoshligida o`gay otaning familiyasiga Omonova bo`lib o`tib, tug`ilganlik haqidagi guvoynomada shu familiya yozilgan. Buvam farzandlari bo`lmaganligi va yolg`iz o`zi qolganligi sababli onam u kishi bilan 1983-yildan 1986-yilga qadar birga yashab, hovli-joylarni birga tuzatishgan. U kishining hayotligida na men, na onam yashab turgan hovli-joyni o`zimizga rasmiylashtirish masalasiga e'tibor bermaganmiz. Endi esa uyni mening nomimga rasmiylashtirish niyatida edim, notarius qarindoshchilikni tasdiqlovchi guvoynomalar talab etmoqda. Farg`ona shahar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) bo`limi 1940-yilgi buvam bilan buvim o`rtalaridagi nikohni qayd qilgani to`g`risidagi hujjat saqlanmaganligi sababli nikoh hamda onamning tug`ilganlik haqidagi guvoynomama-

larning nusxalarini berishni rad etdi. E.Rustamov mening buvamligini omon Rabiyaixon buvamning ukasi Sobir Rustamovlar tasdiqlashlari mumkin bundan tashqari, 10 dona fotosurat hamda men harbiy xizmatda yurgan vaqtlarimda buvamning yozgan xatlari ham qarindoshlik munosabatlarimizga asos bo`la oladi.

Shu bois, FPKning 283-moddasining 1-bandiga asosan

So`rayman:

Mening marhum buvam Ergashboy Rustamovning nevarasi ekanlik hakti belgilashni.

Sud majlisiga quyidagi guvohlar chaqirilsin:

1. Robiyaxon Omonova-Farg`ona shahar, Marg`ilon ko`chasi, 15-uyda yashaydi.
2. Hadicha Hakimova-Marg`ilon shahar, Komissarlar ko`chasi, 10-uyda yashaydi.
3. Alijon Ismoilov-Farg`ona shahar, Bozor ko`chasi, 70-uyda yashaydi;
4. Sobir Rustamov-Marg`ilon shahar, Anhor ko`chasi, 50-uyda yashaydi.

Hova: 1. mahalla qo`mitasidan shu hovli-joyda yashash haqida ma'lumotnoma;

2. 10 dona fotosurat, 21 ta har turli yozishmalar;
3. FDHYO idorasidan berilgan ma'lumotnoma;
4. Davlat bojini to`laganlik haqida chipta.
5. Arizaning nusxasi.

2001-yil 9-oktabr

M.Alijonov

O'zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qarori

2001-yil 27-oktabrda fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona shahar sudining ochiq sud majlisida sudya V.Jumayeva raisligida D.Sobirovaning kotibligida, manfaatdor shaxsning vakili U.Oqilov ishtirokida arizachi Muhammadjon Alijonovning «yuridik faktni belgilash» bo'yicha fuqarolik ishi ko'rilib, tubandagilar

Aniqlandi:

Arizachi Muhammadjon Alijonov sudga murojaat qilib, Ergashboy Rustamov uning onasining dadasi ekanligini, o'ziga esa buva bo'lishini, lekin buvisi Hadicha Hakimova bilan 1940-yilda ajrashganini, buvisi esa qizi, ya'ni arizachining onasi-Robiyaxon Omonovanning o'z tarbiyasida qoldirgan holda Omon Xolmatov bilan nikohdan o'tib, oila qurganini, shu vaqtga qadar arizachining onasiga tug'ilish guvohnomasi olinmagan bo'lib 1953-yili unga tug'ilish guvohnomasi olinib, dadasi sifatida o'gay dadasi Omon Xolmatov ko'rsatilganligini, shunga ko'ra familiyasi ham Omonova deb yuritilganligini, lekin o'zining dadasi bo'lmish Ergashboy Rustamov bilan ham munosabatini buzmagani, u qarib qarovsiz qolganligi va farzandlari bo'lmaganligi uchun uning uyiga ko'chib borib, 1983-yildan 1986-yilgacha yashab, eski xonani buzib yangilaganligini, lekin uyni bobosining nomidan o'zining nomiga rasmiylashtirishga ulgurmay, bobosi Ergashboy Rustamov avariya halokatida vafot etganligini, hozirda shu sababli uy-joyni o'z nomiga rasmiylashtira olmayotganligini ko'rsatadi.

Sud majlisida ham arizachi keltirgan vajlarini takrorlaydi.

Sud ish materiallarini ko'rib va muhokama qilib manfaatdor shaxsning vakili U.Oqilovning arizani qanoatlantirish lozimligi haqidagi so'zini tinglab, quyidagi asoslarga ko'ra arizani asosli hisoblab, uni qanoatlantirishni lozim topadi: Ergashboy Rustamov bilan Muhammadjon Alijonovni bobo-nevara ekanligini guvohlar Robiyaxon Omonova, Hadicha Hakimova, Alijon Ismoilov va T.Maqsudovlar tasdiqlaydilar. Ishda Farg'ona viloyat arxivining bergan ma'lumoti bo'lib, unda 1937-yildagi nikohni qayd qilish jurnali saqlanmagani ko'rsatilgan. Ergashboy Rustamov bilan FHDYO ro'yxatidan o'tganligini H.Hakimova tasdiqlab, ularni remont qilgan bir notanish shaxs tillo uzugi bilan FHDYO guvohnomasini o'g'irlab ketganligini ko'rsatadi va shu sababli ushbu FHDYO guvohnomasining nusxasini olishning imkoniyati bo'lmaganligini aytadi. Sud guvohlarning ko'rsatmalarini rad etish uchun asos yo'q deb topadi va to'plangan materiallarga binoan arizani qanoatlantirish lozim deb hisoblaydi.

Binobarin, sud FPKning 203-206-moddalari va 283-moddasining 1-hujjatiga asosan

Qaror qiladi:

Arizachi Muhammadjon Alijonovning marhum Ergashboy Rustamov bilan qarindosh (bobo-nevara) ekanligi fakti belgilansin.

Qarordan norozi tomon 20 kun muddat ichida shu sud orqali buning ona viloyat sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudiga shikoyat qilishga, prokuror protest keltirishga haqli.

Raislik qiluvchi: V.Jumayeva

BOLALARNING TUG`ILGANLIK FAKTI VA TUG`ILGAN VAQTINI SUDDA BELGILASH HAQIDA

Bolaning shu onadan tug`ilganligi faktini va tug`ilgan vaqtini belgilash meros, nafaqa olish, yetkazilgan zarar haqlarini undirishga oid holatlarida zarur bo`ladi va arizachilarning qo`llarida bu to`g`rida tegishli hujjatlari bo`lmagan taqdirda sudga murojaat qiladilar. Bunday hollarda sud fuqarolik holati dalolatnomalarini qayl qilish organlarida arxivlarning saqlanmaganligi tufayli tug`ilishning qayd etilmaganligi faktini belgilash to`g`risidagi iltimosnomanigina ko`radilar. Chunki arizachining yoshini belgilash to`g`risidagi iltimoslar qoida bo`yicha ma'muriy tartibda, maxsus tuzilgan komissiya tomonidan ko`riladi. Bu fuqarolik holati dalolatnomalaridagi yozuvlarini o`zgartirish, tiklash va bekor qilish tartibini hamda dalolatnoma daftarining saqlanish tartibi va muddatlarini belgilaydigan Asosiy qoidalarning 18-bandida ko`rsatilgan.

Bolaning muayyan onadan tug`ilganligi va tug`ilgan vaqtining qayd qilinganlik faktini belgilash to`g`risidagi sud qarorida mazkur faktning qachon va qayerda sodir bo`lganligi va sudning qanday dalillarga asoslanib, bunday xulosaga kelganligi ko`rsatiladi.

Yuridik faktni belgilash sudga taalluqli bo`lmaganligi tufayli ish yuritishni tugatish haqida

AJRM

(Ish yuritishni tugatish haqida)

2001-yil 16-iyulda Farg`ona viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha Farg`ona tuman sudining binosida ochiq sud majlisi bo`lib, raislik qiluvchi sudya M.J.Jumayeva, D.Sobirovaning kotibligida arizachi Faxriddin Safarovning yuridik faktini belgilash haqidagi fuqarolik ishini ko`rib tubandagilar

Aniqlandi:

Arizachi Faxriddin Safarov sudga murojaat etib, o`zi aslida 1929-yili Gruziyada tug`ilganligini va 1944-yilda Farg`ona viloyatiga majburan ko`chirilganligini, ko`chish chog`ida hamma hujjatlari bilan birga tug`ilganlik to`g`risidagi guvohnomani ham yo`qotib, keyinchalik pasport olishda hech qanday hujjati bo`lmagani uchun tug`ilgan yilini 1933-yilda deb taxminiy yozilganligini, ukasi Faxriddin Safarov 1932-yilda tug`ilgan bo`lib, pasportida ham xuddi shu yil yozilganini arizasida ko`rsatadi. Yoshini aniqlash uchun tug`ilgan joyi-Gruziyadagi Axatsin davlat arxivining 2000-yil 29-fevraldagi ma`lumotini taqdim qilib, unga ko`ra o`zining tug`ilgan yili 1929-yil deb ko`rsatilganligini va shu haqda tug`ilganlik to`g`risidagi guvohnomani yozib berish haqida qaror chiqarishni so`raydi.

Sud ishdagi materiallarni ko`rib, guvohlarning bayontini eshitib, arizani FPKning 100-moddasi 1-bandiga ko`ra sudga taalluqli emas deb hisoblab, rad qilishni lozim topadi. Sud majlisida guvohlar S.Safarov, M.Eminova, R.Oxunov va T.Bayramovlar hamda Gruziya Respublikasi Axatsin rayoni davlat arxivining ma`lumotiga ham Faxriddin Bashir o`g`li 1929-yilda tug`ilgan deb ko`rsatilgan. FPKning 274-moddasining 3-qismiga ko`ra, bu holat fuqarolik holatlarini qayd qiluvchi arizachining talabini rad qiladi va qonunga zid harakat deb topadi.

Shuning uchun sud bu ish sudga taalluqli bo`lmaganligi sababli arizachiga qaytadan shahar FHDYO bo`limiga murojaat qilishni tushuntirish lozim degan xulosaga keladi.

Sud yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 100-moddasi 1-qismiga asosan

Ajrim qiladi:

Faxriddin Safarovning 1929-yilda tug`ilganligi faktini tasdiqlash bo`yidagi arizasi sudga taalluqli bo`lmaganligi sababli ish yuritish tugatildi.

Arizachi Safarovga bu masala bo`yicha Farg`ona shahar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo`limiga murojaat qilish tushuntirilsin.

Ajrimdan norozi tomon shu sud orqali 10 kun ichida fuqarolik ishlari bo`yicha Farg`ona viloyat sudiga shikoyat qilishga, prokuror protest keltirishga haqli.

Raislik qiluvchi: M.J.Jumayeva

ER-XOTINLIK FAKTINI BELGILASH HAQIDA

Er-xotindan birining o`limi natijasida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idoralarida nikohni ro`yxatga olish mumkin bo`lmasa, qonunda belgilangan hollarda, haqiqatda er-xotinlik munosabatlarida bo`lganlik faktini belgilash Oila kodeksining 13-moddasida ko`rsatilganidek, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish davlat idoralarida tuzilgan nikohgina er bilan xotinnig huquq va majburiyatlarini o`z ichiga olib keltiradi. Shu bilan birga qonun (mazkur Kodeksning 13-moddasi 1-qismi) diniy marosimlar bo`yicha tuzilgan nikoh qayd qilingan nikohga tenglashtirmaydi.

Mazkur moddaning mazmuniga ko`ra, nikohlarini rasmiylashtirmagan shaxslar er-xotin hisoblanmasdan, balki birga yashovchilargina bo`ladilar. Bunday shaxslar o`zlari va farzandlarining manfaatlari uchun nikohlarini tegishli tartibda rasmiylashtirishlari zarur.

1944-yil 8-iyul Farmoni chiqarilishiga qadar nikohlarini tegishli tartibda qayd qildirmasdan, er va xotin bo`lib yashovchilar ham bor. Ular har qachon fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idoralariga borib, nikohlarini rasmiylashtirishlari mumkin.

1944-yil 8-iyul Farmoni chiqarilishiga qadar rasmiy nikohda bo`lganlik qonunan tan olingan va bu nikohdagilar huquq va burchlardan foydalanadilar.

Agar 1944-yil 8-iyulga qadar er-xotin bo`lib yashash davrida rasmiylashtirilmagan bo`lsa, er va xotinning biri vafot etgan taqdirda haqiqatan er-xotinlik munosabatlarida bo`lganlik fakti sud orqali belgilanishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1991-yil 20-dekabrda
«Yuridik ahamiyaga ega bo`lgan faktlarni belgilash haqidagi ishlar
bo`yicha sud amaliyoti to`g`risida»gi qarorining 6-bandida
tushuntirilishicha, norasmiy, ammo haqiqatan nikoh munosabatlarida
bo`lganlik fakti, agar bunday munosabatlar 1944-yil 8-iyul Farmoni
chiqarilishiga qadar vujudga kelgan bo`lsa va er-xotinning biri vafot egan
bo`lsa, bunday fakt belgilanishi mumkin.

1944-yil 8-iyuldan so`ng vujudga kelgan norasmiy,
guvohlantirilmagan nikoh munosabatlarida bo`lganlikni belgilashga
amaldagi qonunlar bo`yicha yo`l qo`yilmaydi.

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha
Shayxontohur tuman sudiga

Arizachi:-Nigora Davronovadan-Toshkent shahar
Shayxontohur tuman, Xalqa ko`chasi, 15-
uyda yashaydi.

Manfaatdor shaxs:-Shayxontohur tuman, Sharq ko`chasi, 210-
uyda joylashgan Avtopark

ARIZA

(Nikohni qayd qilganlik faktini belgilash to`g`risida)

Men Tohir Majidovich Davronovga 1939-yil 23-may oyida
turmushga chiqqanman. Nikohimiz Namangan shahar fuqarolik holati
dalolatnomalarini qayd qilish idorasida ro`yxatga olingan. Erim 1999-yil
14-iyunda avtomobil halokati natijasida vafot etdi. Marhum erimning
xazmat vazifasi tufayli 1947-yili Namangan shahariga o`tkazilganligi
sababli biz bu yerga ko`chib keldik va hozirda yuqoridagi manzilda
yashamoqdaman.

Nikohda bo`lganlik faktini belgilashning zarurligi shundaki,
erimning fojiali o`limidan keyin, mendan boshqa merosxo`r bo`lmaganligi
sababli mulkni egallash uchun guvohnoma olish kerak edi.

Shayxontohur tuman notariusi yuqoridagi guvohnomani berish
haqidagi iltimosimni rad etib, marhum erim bilan nikohda bo`lganlik
guvohnomasini taqdim qilishni mendan talab etdi.

Bu talabni bajara olmadim, chunki nikoh guvohnomamiz boshqa
hujjatlar bilan birga urushdan keyin-1947-yili ko`chish vaqtida yo`qolgan
edi. Uning nusxasini olish to`g`risida Namangan shahar fuqarolik holati

belatnomalarini yozish bo`limiga murojaat qilsam, nikohni qayd qilish uchun saqlanmaganligi haqida hujjat berishdi.

Tohir Davronov bilan nikohda bo`lganlik faktini uning yoshlikdan beri do`stlari A.Mirsoatov hamda bir qancha fotorasmlar tasdiqlashi mumkin.

FPKning 283-moddasi 5-bandi hamda 273-moddalariga asosan

So`rayman:

Marhum erim Tohir Davronov bilan mening o`rtamda 1939 yil 23-martda tuzilgan nikoh fakti belgilashni.

Sud majlisiga guvohlar-A.Mirsoatov, B.Qodirov, M.Azizovalarni buqirishni. Ular Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Guobog` tumanlari, 5-uyda yashaydilar.

Hovva: 1. T.Davronovning o`limi haqidagi guvoynoma;

2. Namangan shahar FHDYO bo`limining ma'lumotnomasi;

3. Namangan viloyati arxividan ma'lumotnomasi;

4. Oilaviy turmush davrida tushilgan 10 dona fotosurat;

5. 10 so`m davlat boji to`langanlik haqida chipta;

6. Arizaning nusxasi.

2001-yil 16-oktabr

N.Davronova

O`zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qarori

2002-yil 20-oktabr kuni Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha Shayxontohur tumanlararo sudining ochiq sud majlisida sudya M.Azimov raisligida, S.Qobulova kotibligida Nigora Davronovanning nikohni qayd qilganlik faktini belgilash to`g`risidagi arizasini va shu ishning yakunidan manfaatdor shaxs avtokorxonasi vakili M.Qoriyev ishtirokida fuqarolik ishi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Nigora Davronova sizga ariza bilan murojaat etib 1989 il 14-iyunda avtomobil halokati natijasida vafot etgan eri Tohir Majidovich Davronov bilan nikohni qayd etganlik faktini belgilab berishni so`raydi. Bunga asos qilib nikoh guvoynomasi yo`qolganligi tufayli uni tiklash uchun tegishli arxiv hujjatlarining saqlanmaganligini sabab qilib ko`rsatadi.

N.Davronova bu faktini belgilashdan maqsad vafot etgan eridan qolgan mulkka nisbatan vorislik huquqiga egaligi haqidagi guvoynomani olish deb tushuntiradi.

Ish bo`yicha manfaatdor shaxs vakili M.Qoriyev fakti belgilash to`g`risida qarshiligi yo`qligini bildirib haqiqatan ham M.T.Davronov avtomobil halokati natijasida 1989-yil 14-iyunda fojiali vafot etganligini, bu holat o`lim to`g`risidagi guvohnoma bilan tasdiqlanishini, shuningdek er-xotinlik fakti ishda to`plangan hujjatlar bilan tasdiqlanishini bildiradi.

Sud N.Davronova arizasini quyidagi asoslarga ko`ra qanoatlantirish lozim deb hisoblaydi:

N.Davronova nikoh guvohnomasini urush yillaridan keyin yashash joyini o`zgartirish chog`ida yo`qotganligi, nikohni qayd qilish daftarini fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idorasida saqlanmaganligi, bu holat Namangan shahar fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idorasining bergan ma'lumotnomasi, Namangan viloyati arxividan olingan hujjatlar bilan tasdiqlanishi tufayli arizachiga guvohnomani qayta olish yoki tiklash imkoniyati yo`qligidan dalolat beradi.

N.Davronova marhum eri T.M.Davronov bilan 1939-yil 23-mayda nikohdan o`tganlik faktini oilaviy do`stlari-guvohlar: A.Mirsoatov, B.Qodirov, erining jiyani M.Azizovlarning bergan ko`rsatmalariga muvofiq, ularning nikohi haqiqatan ham muqaddam Namangan shahar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idorasida qayd qilingan. Bulardan tashqari, bu fakt arizachining sudga taqdim etgan oilaviy fotosuratlar va shaxsiy yozishmalari bilan ham tasdiqlanadi.

Sud yuqoridagilarga ko`ra hamda FPKning 283-moddasi 5-bandiga, 273-moddasiga asosan

Qaror qiladi:

Nigora Davronovaning 1989-yil 14-iyunda vafot etgan marhum eri Tohir Majidovich Davronov bilan 1939-yil 23-mayda nikohdan o`tganlik fakti belgilansin.

Hal qiluv qaroridan norozi tomon shu sud orqali fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar sudiga 20 kun muddat ichida shikoyat qilishi, prokuror protest keltirishi mumkin.

Sudya: M.Azimov

HUQUQNI BELGILAYDGAN HUJJATLARNING MUAYYAN SHAXSGA TEGISHLI BO`LISH FAKTINI BELGILASH TO`G`RISIDA

Huquqni belgilaydigan hujjatlarning muayyan shaxsga tegishli bo`lish faktini belgilash, huquq tug`diradigan hujjatlarda ko`rsatilgan shaxsning nomi, otasining ismi va familiyasi shu shaxsning pasportidagi yoki guvohnomasidagi ismi, otasining ismi va familiyasi bilan mos kelmagan taqdirda, sud mazkur hujjatlarning unga tegishli ekanligi faktini belgilaydi. Bu holda sud har turli hujjatlarda har xil nom bilan atalgan shaxslarning ismlari, otalarining ismlari va familiyalarining mos kelishini (aynan o`xshashligini) hal qiluv qarorlarida ko`rsatishga haqli emas (O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1991-yil 20-dekabr qarori).

Kasaba uyushmasi biletleri, harbiy hujjatlar, pasportlar va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlari beradigan guvohnomalarning muayyan shaxsga tegishli bo`lishi faktini belgilash to`g`risidagi ishlar sudda ko`rilmaydi. Agar bunday hujjatlarning berilishida familiya, ism yoki otaning ismi noto`g`ri yozilgan bo`lsa, bunday hujjatlar tegishli idoralar tomondan almashtiriladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idoralari beradigan guvohnomalarda ba'zi ma'lumotlar noto`g`ri yozilgan bo`lsa, ularning noto`g`riligini belgilash to`g`risidagi arizalar FPKning 274-275-moddalarida ko`rsatilgan fuqarolik holati dalolatnomalaridagi yozuvlaridagi noto`g`riliklarni belgilash haqidagi qoidalarga muvofiq sud tomonidan ko`riladi.

PASPORTNING SHAXSGA TEGISHLILIK FAKTINI BELGILASH HAQIDAGI ARIZANI SUDGA TEGISHLI EMASLIGI TO`G`RISIDA

AJRIM

2001-yil 19-oktbrda Sirdaryo viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha Guliston tuman sudyasi B.Rahimova ish bo`yicha arizasi Aziz Qurbonovning pasportining o`ziga tegishli ekanlik faktini belgilash to`g`risidagi arizasni ko`rib, quyidagilarni

Aniqladi:

Arizachi Aziz Qurbonov arizasida o`zining tug`ilish guvohnomasida familiyasi Qurbonov, pasportida esa Quranov deb yozilganligini, shuning uchun ham pasportning unga tegili ekanlik faktini belgilash to`g`risida iltimos qilgan.

Arizada A.Qurbonov pasportni yozish chog`ida pasport stoli xodimlarining aybi bilan uning familiyasi noto`g`ri yozilganligi tufayli 2001-yil may oyida vafot etgan onasidan qolgan merosni rasmiylashtirishning iloji bo`lmayotganligini ko`rsatadi. FPKning 274-moddasi 6-bandiga ko`ra, pasportning shaxsga tegishli ekanlik fakti sudga ko`rishga taalluqli bo`lmasligiga qaramay, A.Qurbonov ariza bilan sudga murojaat qilgan.

Aziz Qurbonovning pasportida yo`l qo`yilgan xatolik pasportlar haqidagi 1974-yil avgust Nizomining 12-moddasi «v» bandiga asosan militsiya idoralarining vakolatiga tegishlidir.

Sud yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 100-moddasining 1-bandi va 283-moddasining 6-bandiga asosan

Ajrim qiladi:

Aziz Qurbonovning pasportida familiyasi noto`g`ri yozilganlik va shu pasportning arizachiga tegishli ekanlik faktini belgilash to`g`risidagi ariza sudga taalluqli bo`lmaganligi sababli ish yuritishga qabul qilish rad etilsin.

Ajrimdan norozi tomon 10 kun muddat ichida shu sud orqali Sirdaryo viloyatining fuqarolik sudlov hay'atiga fuqarolik ishlari bo`yicha xususiy shikoyat bilan murojaat qilishga, prokuror esa protest keltirishga haqli.

Sudya: B.Rahimova

FUQARONI BEDARAK YO`QOLGAN DEB TOPISH VA UNI O`LGAN DEB E'LNON QILISH

Fuqaroni bedarak yo`qolgan deb topish va uni o`lgan deb e'lon qilish shartlari FKning 33-37-moddalarida nazarda tutilgan. Bu moddalarda ko`rsatilishicha, agar fuqaro qayerdaligi haqida o`zining doimiy turar-joyiga bir yil mobaynida xabar qilmasa, u sud orqali bedarak yo`qolgan deb topilishi mumkin. Agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning doimiy turar-joyiga uch yil mobaynida xabar kelmasa yoxud u o`lim xavfi bo`lgan yoki muayyan baxtsizlik hodisasidan halok bo`lganligini gumon qilishga

... beradigan hollarda bedarak yo`qolgan bo`lib, undan olti oygacha to`rt oltmusa, u sud orqali o`lgan deb e`lon qilinishi mumkin.

Ushbu harakatlari munosabatlari bilan bedarak yo`qolgan harbiy va boshqa yoki boshqa biron-bir fuqaro urush harakatlari tamom bo`lgan holatdan boshlab kamida ikki yil o`tgach, sud orqali o`lgan deb e`lon qilinishi mumkin.

Hunday ishlar biron-bir huquq to`g`risida nizo bo`lmagan va shu sababli javobgar bo`lmagani tufayli alohida tartibda ish yuritish qoidalari (Ushbu qonun 283-moddalari) bo`yicha ko`riladi.

Arizaning mazmunida, odatda, ko`rsatiladigan umumiy ma`lumotlardan tashqari, ariza beruvchiga fuqaroni bedarak yo`qolgan deb topish yoki uni o`lgan deb e`lon qilish qanday maqsad uchun zarurligi ko`rsatilishi, shuningdek, fuqaroning bedarak yo`qolganligini tasvirlaydigan holatlar yoxud bedarak yo`qolgan odamga o`lim xavfi bo`lgan xatarli holatlar yoki uni ma`lum baxtsiz voqeaga uchragan deb baholalga tutishga asos bo`ladigan holatlar bayon qilinishi kerak.

Sudya ishni sudda ko`rishga tayyorlashda qanday shaxslar (qarindosh-urug`lar, birga ishlovchilar va shu kabilar) bedarak yo`qolgan odam to`g`risida ma`lumot bera olishlarini aniqlaydi, shuningdek, bedarak yo`qolgan odamning keyingi ma`lum bo`lgan yashash joyi va ishlash joyidagi tegishli tashkilotlardan (ichki ishlar organlaridan, uy bo`shqarmalaridan yoki o`zini o`zi boshqarish organlari) bedarak yo`qolgan odam to`g`risidagi mavjud ma`lumotlarni so`rab oladi.

Fuqarolini bedarak yo`qolgan deb topish haqida

Samarqand viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha Jomboy tuman sudiga

Arizachi:-Mirza Oripovdan-Samarqand viloyati, Jomboy tumani, Safar ko`chasi, 10-uyda yashaydi.

Manfaatdor shaxs:-Oysha Qurbonova Jomboy tuman Safar ko`chasi 10-uyda yashaydi.

ARIZA

(Bedarak yo`qolgan deb topish)

Men Rahima Ashunovna Oripova bilan 1987-yil 31-dekabrda Kattaqo`rg`on shahar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo`limida nikohdan o`tganman (nikoh guvohnomasining raqami 6170). Har ikkimiz

Toshkent shahriga ko`chib borib, traktor zavodida ishlash uchun kelishdik U Toshkentga avval o`zi borib kvartira topib, keyin men boradigan bo`ldim. Shu munosabat bilan xotinim R.A.Oripova 1999-yil mart oyida Toshkentga jo`nab ketdi. Shu ketganicha xotinim to`g`risida hech qanday ma'lumot yo`q. Qayerdaligi noma'lum. Men uch yildan buyon oilasiz yuribman, buning ustiga ko`zi ojiz onam va 1-toifa nogironi otam bor, ular har tomonlama yordamga muhtojdirlar. Men bir necha marotaba traktor zavodi ma'muriyatidan so`radim. Toshkent shahar adreslar byurosi menga R.A.Oripovani shahar propiskasida yo`qligi va zavodda ishlamasligi to`g`risida ma'lum qilishdi. Uning Jomboy tumanida yashovchi ota-onalari ham bezovta, ularga ham hech qanday xabar kelmadi.

FKning 33-moddasi va FPKning 286-moddasiga asosan

So`rayman:

Samarqand viloyati, Jomboy tumanida 1965-yilda tug`ilgan va istiqomat qilgan Rahima Ashurovna Oripova bedarak yo`qolgan deb topilishini.

Ilova: 1. R.A.Oripovani shu hududda yashamasligi haqida mahalla qo`mitasidan ma'lumotnoma; Katta qo`rg`on shahar va Toshkent shahar ichki ishlar idoralaridan, shuningdek O`zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligidan berilgan yozishmalar;

2. Nikoh qayd qilinganlik to`g`risidagi guvohnoma nusxasi.
3. R.A.Oripovaning 1999-yil mart oyida yozgan xati;
4. Davlat boji to`langanligi haqida chipta;
5. Arizaning nusxasi.

2001-yil 23-oktabr.

M.Oripov

O`zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qarori

2001-yil 30-oktabr kuni Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha Sobir Rahimov tuman sudining ochiq sud majlisida sudya I.K.Haydarovning raisligida, G.Umarovanning kotibligida, tuman prokurorining yordamchisi A.Yo`lchiyev va manfaatdor shaxsning vakili S.Abdullayevlarning ishtirokida Adolat Xidirovaning arizasi bo`yicha eri Omon Xidirovni o`lgan deb e`lon qilish to`g`risidagi fuqarolik ishi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Arizachi A.Xidirova eri bo'lmish O.Xidirovni o'lgan deb e'lon qiladi va bunga 1990-yildagi O'sh voqeasini asos qilib ko'rsatadi.

Arizada ilova qilingan nikoh guvohnomasiga qaraganda Adolat bo'limi haqiqatan ham O.Xidirovning xotini ekanligi ko'rinadi.

Arizachi o'lim faktini belgilash uchun zarur bo'lgan holatlarni ko'rib chiqib bu meros mulkiga bo'lgan huquqini guvohlantiruvchi hujjat olishi uchun ketakligini ko'rsatadi. Manfaatdor shaxs S.Rahimov tuman moliya bo'limining vakili S.Abdullayev arizachining talablarini qanoatlantirmaslik uchun asos yo'qligini bildiradi.

Sud arizani qanoatlantirish to'g'risidagi prokuror yordamchisining fikrini eshitib hamda sud ixtiyoridagi dalillarni tekshirib, A.Xidirovning talablarini asosli deb hisoblaydi.

FKning 36-moddasiga ko'ra, agar fuqaro o'lim xavfida bo'lgan yoki boshqa baxtsizlik hodisasidan halok bo'lganligini gumon qilishga asos bo'ladigan hollarda vafot etgan deb e'lon qilinishi mumkin. Bu baxtsiz voqea haqiqatan ro'y berganligi ishda to'plangan dalillar va boshqa dalillar bilan tasdiqlanadi.

Ish bo'yicha guvohlik bergan K.Ermatov va R.Suyarovlar 1990-yil 13-mart kuni Andijon viloyati, Qo'rg'on tepa tumaniga do'stlarining taklifi bilan mehmondorchilikka borganliklari va ertasiga, ya'ni 13-mart kuni ular O'sh viloyati, O'zgan tumaniga do'stlarni ko'rgani borganliklarini va O'zgan qishlog'iga kirib borishlarida to's-to'polon bo'layotganligini ko'rishlari bilan ular o'rmonga qochganlarini va shu joyda bir-birlaridan ajralib qolganliklarini, Omon Xidirovni 10 kun turli yo'llar bilan, hatto vertolyotda ham qidirganliklarini va uni topa olmay, Toshkent shahriga qaytganliklarini ko'rsatadilar. Ular O.Xidirov o'rmondagi vahshiy hayvonlarning qurboni bo'lganligini gumon qilayotganliklarini aytadilar, chunki o'rmonda vahshiy hayvonlar juda ham ko'pligini va o'zlari ham ulardan yashirilib, zo'rg'a qutilib qolganliklarini bildiradilar.

O'sh, Andijon, Toshkent viloyatlari ichki ishlar boshqarmalaridan O.Xidirovning oila a'zolaridan va uning ish joyidan olingan ma'lumotlarda u haqda hech qanday xabar yo'qligi bildiriladi.

Yuqorida qayd qilingan holatlar va ish bo'yicha to'plangan dalillarga ko'ra, sud O.Xidirov O'sh voqeasida fojiali halok bo'lganligiga gumon qilishga imkoniyat borligini va uning vafot etgan kunini FKning 36-moddasi 8-qismiga asosan 1990-yil 13-mart ekanligini taxmin qilishga asos bor deb hisoblaydi.

Sud qoridagilarga ko`ra va FPKning 36-moddasiga va FPKning 286 290-moddalarga asosan

Qaror qiladi:

Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanida 1950-yilda tug`ilgan Omon Xidirov vafot etgan deb e`lon qilinsin va vafot etgan kunini 1990-yil 13-mart deb hisoblansin.

Hal qiluv qaroridan norozi tomon shu sud orqali fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar sudiga 20 kun muddat ichida shikoyat qilishi, prokuror protest keltirishi mumkin.

Sudya: I.K.Haydarov

Bedarak yo`qolgan deb topilgan yoki o`lgan deb e`lon qilingan fuqaro qaytib kelgan yoki uning yashab turgan joyi ma`lum bo`lib qolgan taqdirda, sud yangi hal qiluv qarori chiqarib, o`zining ilgarigi hal qiluv qarorini bekor qiladi. Yangi hal qiluv qarori, mulkka nisbatan belgilangan vasiylikni olib tashlash uchun yoki fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd qilish uchun asos bo`ladi.

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha S.Rahimov tuman sudiga

Arizachi: -Omon Xidirov: Toshkent shahar, S.Rahimov tumani, Proletar ko`chasi, 10-uyda yashaydi.

Manfaatdor shaxs: -Adolat Xidirova yuqoridagi manzilda yashaydi.

ARIZA

(O`lgan deb e`lon qilgan hal qiluv qarorini bekor qilish haqida)

Toshkent shahri, S.Rahimov tuman sudining 2001-yil 30-oktabrdagi hal qiluv qaroriga binoan, meni o`lgan deb e`lon qilinib, o`lgan kunim sudning hal qiluv qarorida 2000-yil 13-mart deb ko`rsatilgan.

Haqiqatdan ham, men do`stlarim bilan O`sh viloyatining O`zgan tumaniga borgan edik, u yerda to`polonga duchor bo`ldik va biz o`rmonga qochdik. O`rmonda do`stlarim K.Ermatov va R.Suyarovlardan ajralib, bir-birimizdan adashib qoldik. Qorong`i tushganda katta yirtqich hayvon menga tashlandi, shu onda o`zimni g`orlikka otdim, o`sha yerda xushdan ketgan ekanman. Meni uch kundan keyin vertolyot yordamida topishib, Bishkekdaagi gospitalga yotqizishdi va 9 oy davomida hushsiz yotdim.

Ushbu jumga kelganda, tildan qolgan ekanman, vrachlar yana 4 oy harakat qilish davoladilar, mana endi o`zimga keldim. Menda hech qanday shaxsiy hujjat bo`lmaganligi tufayli tibbiyot xodimlari uyimga xabar berolmagan.

Uyinga kelsam, ota-onam, xotinim menga aza ochishib, ma`rakalarni tuman o`tkazib bo`lishgan ekan. Gospitaldan davolanib chiqqanimga 25 kun bo`lib Yuqoridagilarga ko`ra, FKning 37-moddasi hamda FPKning 290-moddasiga asosan

So`rayman:

Toshkent shahri, S.Rahimov tuman sudining 2001-yil 30-oktabrdagi hal qiluv qarori bekor qilinishini.

Sud majlisiga xotinim-Adolat Xidirova, otam-Berdi Xidirovlarni haqirlatishini, ular yuqorida qayd qilingan manzilda yashaydilar.

Hova: 1. Gospitalda yotganligim haqida ma'lumotnoma.

2. Tug`ilganligim haqidagi guvohtonmadan nusxa.

3. Davlat boji to`langanligi haqida chipta.

Pasportimni sud majlisida ko`rsataman.

2001-yil 10-noyabr.

O.Xidirov

O`zbekiston Respublikasi hal qiluv qarori nomidan

2001-yil 25-noyabrda Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha S.Rahimov tuman sudining ochiq sud majlisida sudya I.K. Haydarov raisligida, G.Umarovning kotibligida, prokuror yordamchisi A.Yo`lchiyev hamda tuman fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo`limi vakili K.Esonovlarning ishtirokida Omon Xidirovning arizasi bo`yicha uni o`lgan deb e`lon qilish haqidagi sudning hal qiluv qarorini bekor qilish to`g`risidagi talabi ko`rib, quyidagilar.

Aniqlandi:

Toshkent shahar, S.Rahimov tuman sudining 2001-yil 30-sentabrda chiqargan hal qiluv qaroriga ko`ra, Omon Xidirov o`lim xavfi bo`lganligi sababli bedarak yo`qolgan. Sud qarorida 2000-yil 13-mart o`lgan kuni sifatida e`lon qilingan. O.Xidirov arizasida sudning muqaddam 2001-yil 30-oktabrda chiqargan hal qiluv qarorini bekor qilinishini so`raydi.

S.Rahimov tuman fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo`limining vakili K.Esonov O.Xidirov arizasini qanoatlantirishni lozim deb hisoblaydi.

Sud prokuror yordamchisi O.Xidirovning iltimosini qanoatlantirish to`g`risidagi fikrini eshitib, to`plangan dalillarga ko`ra arizachining talabi asosli ekanligini tahlil qilib, uni qanoatlantirishni maqsadga muvofiq deb topadi.

FKning 37-moddasining 3-qismiga asosan, agar o`lgan deb e`lon qilingan fuqaro hozir bo`lganida yoki uning qayerdaligi ma`lum bo`lib qolgan taqdirda, uni o`lgan deb topish to`g`risidagi qaror sud tomonidan bekor qilinadi.

Adolat Xidirovani sudga bergan tushuntirishida, haqiqatan ham Omon Xidirov uning eri ekanligi, u ma`lum vaqt bedarak yo`qolganligi sababli muqaddam suddan o`lgan deb e`lon qilishni so`rganligi va shunga ko`ra 2001-yil 30-oktabrda shu haqda hal qiluv qarori chiqarilganligi bayon qilinadi.

Omon Xidirovning shaxsi sudga ko`rsatilgan pasporti bilan ham to`g`riligi hisoblanadi.

Sud FKning 37-moddasiga hamda FPKning 290-moddasiga asosan
Qaror qiladi:

Toshkent shahar, fuqarolik ishlari bo`yicha S.Rahimov tuman sudining 2001-yil 30-oktabrdagi 1950-yili S.Rahimov tumanida tug`ilgan Omon Xidirovni o`lgan deb e`lon qilish to`g`risidagi hal qiluv qarori 2000-yil 13-martdan boshlab bekor qilinsin.

Hal qiluv qaroridan norozi tomon shu sud orqali fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar sudiga 20 kun muddat ichida shikoyat qilishi, prokuror protest keltirishga haqlidirlar.

Sudya: I.K.Hadarov

FUQARONI MUOMALA LAYOQATI CHEKLANGAN YOKI MUOMALAGA LAYOQATSIZ DEB TOPISH

Qonunda nazarda tutilgan hollar va tartibdan tashqari hech kimning huquq layoqati yoki muomala layoqati cheklanishi mumkin emas (FPKning 38-moddasi).

Fuqaroning muomala layoqatini sud tartibida cheklash yoki muomalaga layoqatsiz deb topish alohida hollardagina va faqat kimlar to`g`risida qo`zg`atadigan bo`lsa, shu shaxslarning va oila a`zolarining huquq va qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishi maqsadlaridagina belgilanadi. Muomala layoqatini cheklash va muomalaga layoqatsiz deb topish hollari FKning 30 va 31-moddalarida ko`zda tutilgan.

Spirтли ichimliklar yoki narkotik moddalarni suiste'mol qilgan fuqaro o'z oilasini og'ir moddiy ahvolda qoldiradigan bo'lsa, uning muomalaga layoqati O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartibda sud tomonidan cheklab qo'yilishi mumkin. Bu holda uning nisbatan homiy belgilanadi.

Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli o'z harakatlarining ahmiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni idora qila olmaydigan fuqaro sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilishi mumkin, shu munosabat bilan unga nisbatan vasiylik belgilanadi. Fuqaroni muomalaga layoqati cheklangan va muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ishlar sudlarda FPKning 291-297-moddalarida belgilangan tartibda ko'riladi.

Spirтли ichimliklarni yoki narkotik moddalarni suiste'mol qilish natijasida fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb topish to'g'risidagi yoki fuqaroni ruhiy kasalligi yoxud aqli zaifligi orqasida muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ish uning oila a'zolarining, vasiylik va homiylik organlarining, prokurorning, shifoxona va boshqa davlat organlarining hamda jamoat tashkilotlarining arizalari bo'yicha boshlanishi mumkin.

Fuqaroning muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risidagi ariza o'sha fuqaro yashab turgan joydagi sudga beriladi, agar bu shaxs shifoxonada bo'lsa, shifoxona joylashgan hududdagi sudga beriladi.

Fuqaroning muomala layoqati cheklangan deb topish haqidagi arizada spirтли ichilikni yoki narkotik moddani suiste'mol qiluvchi shaxs o'z oilasini moddiy jihatdan og'ir ahvolga solib qo'yayotganligini isbotlovchi holatlar ko'rsatilishi kerak.

Fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi arizada shaxsning o'z harakati ustidan hisob bermasligi yoki o'zini idora eta olmasligiga sabab bo'layotgan aqli buzilishini isbotlovchi holatlar bayon qilinishi lozim.

Sudya arizani olgach, ishni sudda ko'rishga tayyorlash tartibida, fuqaroning ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi to'g'risida yetarli ma'lumotlar bo'lganida, uning ruhiy ahvolini aniqlash uchun sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlaydi.

Fuqaroni muomalaga layoqati cheklangan deb topish to'g'risidagi ishni sud albatta shu shaxsning o'zining, prokurorning hamda vasiylik va homiylik idoralari vakilining ishtirokida ko'radi.

Fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish to`g`risidagi ishni sud prokurorning, vasiylik va homiylik idoralari vakilining shitiroki bilan ko`radi. Ishi ko`rilayotgan fuqaroning sog`lig`i imkon bersa, u sudga chaqiriladi.

Sudning fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to`g`risidagi hal qiluv qarori vasiylik va homiylik idorasiga muomala layoqati cheklangan shaxsga nisbatan homiy tayinlash uchun, muomalaga layoqatsiz shaxsga esa-vasiy tayinlash uchun asos bo`ladi.

Agarda fuqaro spirtli ichimlik yoki narkotik moddalarni suiste`mol qilishni tashlasa, sud uning muomalaga layoqatligi cheklanganligini bekor qiladi. Sud qaroriga asosan unga homiy tayinlash haqidagi qaror ham bekor qilinadi (FKning 30-31-moddasi). Ruhiy kasallik sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tuzalgani holda, sud uni muomalaga layoqatli deb e`lon qiladi va unga nisbatan belgilangan vasiylikni bekor qiladi (FKning 31-moddasi).

Fuqaroni muomalaga layoqati cheklangan deb topish haqida

Samarqand viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha Siyob tuman sudiga

Arizachi:-Samarqand shahar, Siyob tumani, «Ravot» mahalla qo`mitasi: Inqilob ko`chasi, 10-uyda joylashgan.

Manfaatdor shaxs:-Nodira Azizova: Samarqand shahri, Siyob tuman, Qo`rg`on qishlog`i, Uyg`ur ko`chasi, 5-uyda yashaydi.

ARIZA

(Muomala layoqatini cheklash)

«Ravot» mahallasida yashovchi Hakim Azizov hech qayerda ishlamasdan, ko`p vaqtlardan beri spirtli ichimlik ichib, oilasini bezovta qilib kelmoqda.

H.Azizov surunkasiga spirtli ichimlik ichib yurishi nafaqat oila a'zolarini, hatto mahalla ahlini ham tashvishga solganligi sababli uning bu xatti-harakati mahalla yig`ilishida bir necha marotaba muhokama qilindi. U bilan tuman ichki ishlar bo`limining boshlig`i va boshqa ichki ishlar

soʻzlari ham suhbatlashishgan. H.Azizov oʻzining harakatlarini nojoʻya natijaligiga hisob berib, har safar boshqa takrorlamaslikka vaʼda bersada, uning bajarilmayotir. Shu sababli u tuman kasalxonasidagi qorovullik ishidan ham boʻshatilgan.

Mahalla ahli H.Azizovga nisbatan hamma tarbiyaviy taʼsir choralarini qoʻllashganiga qaramay, qayta tarbiyalash uchun hech qanday ijobiy natija bermasdan kelmoqda.

H.Azizovning bu xulq-atvori oilasini moddiy ogʻir ahvolga solibgina qolmay, balki 5 farzandlarining tarbiyasiga ham salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Yuqoridagilarga koʻra, FKning 22-moddasiga hamda FPKning 291-moddasiga asosan

Soʻrayman:

Hakim Azizovni muomala layoqati cheklangan deb topilishini.

Sud majlisiga quyidagilarni:

- 1) H.Azizov va uning rafiqasi Nodira Azizova;
- 2) vasiy va homiy idoralarining vakili;
- 3) «Rovot» mahallasi qoʻmitasi raisining muovini YU.Qodirov (manzil yuqorida koʻrsatilgan);
- 4) guvohlar: A.Odilov, U.Noryigitovlar («Rovot» mahallasi Beruniy koʻchasi, 3-uyda yashaydilar) chaqirishni.

Ilova: 1. H.Azizovni nojoʻya xatti-harakatlarini «Rovot» mahallasida muhokama qilinganligi haqidagi bayonnomadan koʻchirma.

2. H.Azizovning oilaviy turmushini tekshirilganligi haqida dalolatnoma.

3. «Rovot» mahallasi qoʻmitasining bergan tavsiyanomasi.

4. Azizovning oila aʼzolari haqidagi maʼlumotnoma.

5. «Rovot» mahallasi qoʻmitasining X.Azizovni muomala layoqatini cheklash haqidagi iltimosnomasi.

6. Tibbiyot xushyorxonasidan olingan maʼlumotnoma.

«Rovot» mahalla qoʻmitasining raisi: A.Qurbonov
2001-yil 5-noyabr.

Oʻzbekiston Respublikasi hal qiluv qarori nomidan

2001-yil 11-noyabrda Samarqand shahar fuqarolik ishlari boʻyicha Siyob tumanlararo sudining ochiq sud majlisida sudya F.Davidov raisligida, T.Urishev kotibligida, prokuror yordamchimi M.Soʻfiyev ishtirokida, manfaatdor shaxs Nodira Azizovanning ishi boʻyicha arizachi

Siyob tuman, «Rovot» mahalla qo`mitasining Hakim Azizovni muomalaga layoqati cheklangan deb topish to`g`risidagi fuqarolik ishi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Hakim Azizov turmush o`rtog`i Nodira bilan qonuniy nikohdan o`tgan holda oilaviy turmush qurganlar, o`rtalarida 5 nafar maktab yoshidagi farzandlari bo`lib, u mahalla omborxonasida yuk tashuvchi bo`lib ishlab keladi.

«Rovot» mahalla qo`mitasining sudga bergan arizasida X.Azizov bir qancha vaqtdan buyon spirtli ichimliklar suiste'mol qilib kelganligi tufayli oilasini moddiy tomondan og`ir ahvolga solib qo`yganligi, uning xatti-harakatlari farzandlarining tarbiyasi uchun salbiy ta'sir ko`rsatayotganligi bayon qilingan.

H.Azizovga nisbatan barcha tarbiyaviy ta'sir choralari qo`llanilgan bo`lsa-da, ijobiy natija bermaganligi sababli Siyob tuman «Rovot» mahalla qo`mitasi uning oilasi manfaatini ko`zlab, muomala layoqatini cheklash haqida iltimos qilgan.

Nodira Azizova «Rovot» mahalla aholisining arizasida yetilganlarni tasdiqlab, turmush o`rtog`i H.Azizovni spirtli ichimlik ichishni suiste'mol qilganligi sababli muomala layoqatini cheklashni so`raydi. «Rovot» mahalla qo`mitasining arizasi to`g`riligini tasdiqlash bilan bir qatorda H.Azizov, agar tez-tez spirtli ichimlik ichib turmasa, iloji yo`qligini aytib, shunday kasalga muhtalo bo`lganligiga afsuslanayotganini bayon qiladi. Mahalla qo`mitasining vakili YU.Qodirov H.Azizovning harakatlarini noto`g`ri deb hisoblab, uning muomala layoqatini cheklashni so`raydi, bunga asos qilib u maoshini spirtli ichimlik ichishga xarajat qilib, oilasiga moddiy yordam bermayotganligini bayon qildi.

Prokuror yordamchisining arizani qanoatlantirish lozimligi haqidagi fikrini eshitib, sud H.Azizovning muomala layoqatini quyidagi asoslarga ko`ra cheklashni zarur deb hisoblaydi.

FKning 31-moddasiga ko`ra, spirtli ichimliklarni suiste'mol qilib, o`z oilasini og`ir moddiy ahvolda qoldiradigan bo`lsa, uning muomala layoqati sud tomonidan cheklab qo`yilishi mumkinligi aytilgan.

Guvoh sifatida so`roq qilingan A.Odilov va U.Noryigitovlar haqiqatan ham H.Azizov bilan bir devor qo`shni ekanliklarini, u kuniga mast holda uyiga kelishini va oilasining notinchligini, moddiy tomondan qiynalganligi sababli, qo`shni siftida ulardan qarzga tez-tez pul va oziq-ovqat so`rab yurishini aytdilar. H.Azizov spirtli ichimlik ichishni

muqimol qilganligi tufayli xushyorxonada 4-marta bo'lganligi haqidagi muqimotnoma ham bu holatlarni tasdiqlaydi.

Ishdagi 3 ta bayonnoma shulardan dalolat beradiki, H.Azizovning mulki mahallada bir necha marotaba muhokama qilingani va tarbiyaga qaratilgan bu harakatlardan tegishli xulosa chiqarmasdan, oila va muvohatchilik oldidagi vazifalarini bajarmay kelgan. Sud tekshiruvi jarayonida H.Azizovning ruhiy kasalligi haqida hech qanday dalillar topilganligi aniqlandi.

Sud yuqoridagilarga asoslanib, FKning 31-moddasi hamda FPKning 297-moddalarini qo'llab

Qaror qiladi:

Hakim Azizovning muomala layoqati cheklangan deb hisoblanib, u mustaqil ravishda oylik maoshini tasarruf qilish huquqidan mahrum etilsin. Ayrim mulkiy xarakterdagi muammolar homiylarning roziligi bilan muomalga oshirilsin.

Hal qiluv qaroridan norozi tomon shu sud orqali fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand viloyat sudiga 20 kun muddat ichida shikoyat (protest) keltirishi mumkin.

Sudya: F.Davirov

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha
Chilonzor tuman sudiga
Toshkent shahar, Chilonzor tuman, Hamza
ko'chasi, 17-uyda yashovchi Halima
Avazovadan

ARIZA

(Muomalaga layoqatsiz deb topish haqida)

Men, O.Avazov bilan 1995-yildan qonuniy nikohdan o'tib, oilaviy turmush qurganman, 3 nafar farzandimiz bor.

Keyingi uch yil davomida turmush o'rtog'imning yurish-turishi o'zgarib juda ham xayolparishon bo'lib, tez-tez jahli chiqib, asossiz ravishda baqiradigan bo'lib qoldi. 1997-yili uni yalinib-yolvorib roziligini olib, vrachga ko'rsatish uchun uyga do'xtir chaqirdim va erimni har tarafлама tekshirib, ruhiy kasalligini aniqlab, nazoratga oldi va shundan buyon vrachlar nazoratida yuribdi.

Erim O.Azazov o'zining kasalligiga qaramay, qaysi ishga kirmasin, bir-ikki oy ishlab, janjallashib, o'z xohishi bilan bo'shab ketadi. Shunga

qaramay, shu kunlarda u kishi Chilonzor tumanidagi katta oziq-ovqat do`koniga bo`lim boshlig`i bo`lib ishga kiribdi. Mening fikrimcha, erimning sog`lig`i bunday mas'uliyatli savdo ishiga to`g`ri kelmaydi va tezkunda kamomad keltirib qo`yishi mumkin.

Yuqoridagilarga ko`ra hamda FKning 30-moddasiga va FPKning 291-moddasiga asosan

So`rayman:

Toshkent shahar, Chilonzor tumanida 1974-yilda tug`ilgan Olim Avazov muomalaga layoqatsiz deb topilishini.

Ilova: 1. Nikoh guvohtomasidan nusxa.

2. Arizamdagi aytilganlarni tasdiqlash uchun quyidagi guvohlarni chaqirilishini so`rayman: R.Boqiyevaerimning singlisi, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Chilonzor ko`chasi, 5-uyda yashaydi; R.Salimov-erimning yoshlikdan do`sti; Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Chuvalachi ko`chasi, 25-uyda yashaydi.

2001 yil 25-avgust.

H.Avazov

AJRIM

Toshkent shahri fuqarolik ishlari bo'yicha Chilonzor tumani sudining audiyasi R.Qodirova tomonidan 2001-yil 2-sentabr kuni Halima Avazovaning eri Olim Avazovni muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi arizasi ko'rib, quyidagilar

Aniqlandi:

H.Avazova arizasida turmush o'rtog'i O.Avazov keyingi uch yil davomida o'zgarib, xayolparshon bo'lib qolganligini, tez-tez asossiz davishda jahli chiqib, hammaga baqiraverishini, o'zi bilan o'zi nimalarnidir papirib yurishini, shuning uchun ham hozirda ruhiy kasalliklar dispanseri hisobida turishini, lekin shunga qaramay, o'zini sog' bilib, Chilonzor tumanidagi katta oziq-ovqat do'koniga bo'lim boshlig'i sifatida mas'ul bo'lib kirganligini ko'rsatadi. H.Avazova eri ruhiy kasallikka muhtalabo'lib qolganligi sababli o'z xatti-harakatlaridan kelib chiqadigan oqibatga hisob bera olmasligini, shuning uchun ham vasiy tayinlab, uni muomalaga layoqatsiz deb topishni iltimos qiladi.

Sudning so'roviga ko'ra, Toshkent shahar ruhiy kasalliklar shifoxonasidan olingan ma'lumotga qaraganda, O.Avazov haqiqatan ham 1998-yildan buyon ularning hisobida turishi va Chilonzor tuman dispanserining nazoratida ekanligini bildiradi.

Sud yuqoridagilarga va FPKning 293-moddasiga asosan

Ajrim qiladi:

Ushbu ish bo'yicha ruhiy kasalliklar sud ekspertizasi tayinlansin va uning oldiga quyidagi savollar qo'yilsin:

1. Toshkent shahri, Chilonzor tumanida 1974-yilda tug'ilgan va shu tumandagi Hamza ko'chasi, 17-uyda yashovchi Olim Avazov ruhiy xastalik bilan kasallanganmi?

2. Agar kasallangan bo'lsa, o'z xatti-harakatlarini idrok qilib, baho bera oladimi?

3. Agar O.Avazov ruhiy kasal hisoblansa, u holda sog'lig'i tufayli vasiy tayinlashga muhtojmi?

Ekspertizani o'tkazish Toshkent shahar sud ruhiy kasalliklar ekspertizasi byurosiga topshirilsin.

Ekspertning ixtiyoriga H.Avazova arizasidan, O.Avazovga Chilonzor tuman ruhiy kasalliklar dispanseri bergan varaqasidan bir nusxadan berilsin.

Ajrim qat'iy-shikoyatga o`rin yo`q.

Sudya: R.Qodirova

Majburiy tarzda ruhiy kasalliklar sud ekspertizasiga yuborish haqida

AJRIM

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha Chilonzor tuman sudining zalida 2001-yil 10-sentabrda ochiq sud majlisi bo`lib, raislik qiluvchi sudya R.Qodirova, B.Norjixonovanning kotibligida, prokuror yordamchisi X.Ilyosova ishtirokida hamda ruhiy kasalliklar vrachi Z.Aliyevning qatnashuvida H.Avazovning arizasiga ko`ra O.Avazovni muomalaga layoqatsiz deb topish to`g`risidagi ish ko`rilib, quyidagilar.

Aniqlandi:

Toshkent shahar Chilonzor tuman sudining 2001-yil 2-sentabrdagi ajrimiga ko`ra, ushbu fuqarolik ishi yuzasidan sud-ruhiy kasallik ekspertisasi tayinlangan bo`lib, uni o`tkazish Toshkent shahar ruhiy kasalliklar sud ekspertisasi byurosiga topshirilgan edi.

Ekspertiza byurosi 2001-yil 8-sentabrdagi xat bilan sudga murojaat etib, O.Avazov ekspertizadan o`tish uchun bir necha marotaba chaqirilishiga qaramay kelmayotganini bildiradi.

Ruhiy kasalliklar bo`yicha vrach Z.Aliyevning fikricha, bu dard bilan ko`pdan buyon kasallangan O.Avazovning ekspertizadan o`tishga qasddan bo`yin tovlayotganligini inobatga olib, uni majburiy tarzda ruhiy kasalliklar sud ekspertizasiga keltirishni lozim deb hisoblaydi.

O.Avazovni ruhiy kasalliklar sud ekspertizasiga majburiy keltirish haqidagi ekspertning fikriga prokuror yordamchisi qo`shilganligini sud asosli deb hisoblaydi, chunki O.Avazov sud yekspertizasining chaqiruv xatini ikki marta shaxsan olgan bo`lsa-da, kelmaganligi aniqlandi. Bu holatni arizachi H.Avazova ham sudga bergan ko`rsatuvida haiqatan ham erini ruhiy kasalliklar dispanseriga bormay, turli bahonalar bilan yurganligini va u kundan-kunga yanada asabiylashayotganini aytadi.

O.Avazov ekspertizadan o`tishdan bo`yin tovlayotganligi har tomonlama asoslanganligi sud taftishida o`z isbotini topdi.

Shularga ko`ra, sud FPKning 291 va 297¹-moddalariga asosan

Ajrim qiladi:

Toshkent shahar, Chilonzor tumanida 1974-yilda tug`ilgan, hozirda bu tumandagi Hamza ko`cha 17-uyda yashovchi Olim Avazov Toshkent bahar ruhiy kasalliklar sud ekspertizasi byurosiga majburiy ravishda ta`lirlilishi ta'minlansin.

Ajrimning ijrosi Chilonzor tuman ichki ishlar bo`limiga yuklatilsin.

Sudya: R.Qodirova

O`zbekiston Respublikasi hal qiluv qarori nomidan

2001-yil 30-sentabr kuni Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha Chilonzor tumani sudining ochiq sud majlisida sudya R.Qodirova raisligida, G.Iminovaning kotibligida, prokuror Z.Orifovni vasiylik idorasining vakili N.Safarovaning ishtirokida Halima Avazovning arizasi bo`yicha Olim Avazovni muomalaga layoqatsiz deb topish haqidagi ishi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Arizachi H.Avazova 1995-yildan buyon eri Olim Avazov bilan qonuniy asosda oilaviy turmush qurib kelganligi, keyingi yillarda turmush o`rtog`i ruhiy kasallikka muhtalo bo`lib qolganligi sababli vasiylikka muhtojligini ko`rsatib, Oliy Avazovni muomalaga layoqatsiz deb topishni to`raydi. Bunga asos sifatida turmush o`rtog`ining tez-tez spirtli ichimlik iste'mol qilib, kuni bilan boshini burkab, «hech kimni ko`rmayin» deb yotishini, bolalarini asossiz ravishda haqoratlashini hamda ayrim hollarda o`zidan o`zi kulib yurishi kabi holatlarni ko`rsatadi.

Sud majlisiga O.Avazovning o`zi chaqirilmagan, chunki davolayotgan ruhiy kasalliklar dispanseri vrachining bergan zabarnomasiga ko`ra hozirgi paytda uning salomatligi sudda bayonot berish darajasida emasligi ko`rsatilgan.

Chilonzor tumani hokimiyatining vakili N.Safarova bemor O.Avazovni muomalaga layoqatsiz deb topishni va uning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida vasiy tayinlashni zarur deb hisoblaydi.

Sud prokurorning H.Avazovaning arizasini qanoatlantirish haqidagi fikrini, taraflarning bayonotlarini tinglab hamda to`plangan hujjatlarni

e'tiborga olgan holda Olim Avazovni muomalaga layoqatsiz deb topishi lozim deb hisoblaydi.

Ruhii kasalliklar sud ekspertizasining shu yil 20-sentabrdagi bergan meditsina xulosasiga qaraganda, haqiqatan ham O.Avazov shizofrenik kasaliga duchor bo'lganligi va salomatligiga ko'ra vasiy tayinlash zarurligi ko'rsatilgan. Sud ekspertiza xulosalarini rad etish uchun hech qanday asoslar yo'q degan xulosaga keladi. O.Avazovni davolash to'g'risidagi sudda keltirilgan fikr va mulohalar arizadagi holatlarga to'g'ri kelganligi tasdiqlandi. Bu dalolatlarni sudda guvoh sifatida ko'rsatuv bergan YU.Abdazov va M.Soqiyevlar ham tasdiqladilar.

Yuqoridagilarga asoslangan sud FKning 30-moddasiga hamda FPKning 297-moddasiga binoan

Qaror qiladi:

1974-yilda tug'ilgan Olim Avazov muomalaga layoqatsiz deb topilsin.

Hal qiluv qaroridan norozi tomon 20 kun muddat ichida shu sud orqali fuqarolik ishi bo'yicha Toshkent shahar sudiga shikoyat arizasi bilan murojaat qilishlari, prokuror protest keltirilishi mumkin.

Sudya: R.Qodirov

O'zbekiston Respublikasi hal qiluv qarori nomidan

2001-yil oktabr oyining 15 kunida Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha Chilonzor tumani sudining ochiq sud majlisi bo'lib, sudya R.Qodirova raisligida, D.Qurbonova kotibligida, prokuror R.Inog'omov hamda homiylik idorasining vakili K.G'ulomovning ishtirokida Toshkent shahar ruhiy kasalliklar dispanserining arizasiga ko'ra Olim Avazovni muomalaga layoqatli deb topish to'g'risidagi fuqarolik ishi ko'rib quyidagilar

Aniqlandi:

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha Chilonzor tumani sudining 2000-yil 30-sentabrdagi hal qiluv qaroriga ko'ra Olim Avazov muomalaga layoqatsiz deb topilgan edi. Sud bunga asos sifatida Toshkent shahar ruhiy kasalliklar dispanserida Olim Avazovning 3-yil davomida davolanishini va uning kasali tez-tez qaytarilib turishi sababli o'zining harakatlariga javob bera olmasligini asos sifatida keltirgan.

Toshkent shahar ruhiy kasalliklar dispanseri sudga iltimosnoma bilan murojaat etib, O.Avazovning salomatligi ancha yaxshilanganligi tufayli,

muomalaga layoqatli deb topish haqidagi masalani ko`rib chiqishini ko`rsatgan.

Ruhiiy kasalliklar dispanserining arizasida va ishdagi keltirilgan hujjatlarda hozirgi vaqtda yangi dori-darmonlarning ishlab chiqarilishi va shular bilan O.Avazov davolanaganligi uchun tez vaqt ichida sog`ayib ko`rsatilgan.

Ishdagi shahar dispanserining vakili sifatida qatnashgan ruhiy kasalliklar vrachi K.G`ulomovning bergan bayonotida arizada keltirilgan hujjatlarning to`g`riligini, haqiqatan ham shu kunlarda O.Avazov ijobiy tomonga o`zgarib tez sog`aya boshlaganini, endi oilasi bilan yashasa, muhit o`zgarishi natijasida butunlay sog`ayib ketishini bildiradi.

Ishning yakunidan manfaatdor bo`lgan shaxs-O.Avazovning xotini H.Avazova shahar dispanserining xulosasiga qo`shilgan holda, dispanser hujjatlarini qanoatlantirishga qarshiligi yo`qligini bildirib, shu bilan birga mu`ayyan yaxshi davolanaganligini va hozirda kasalligidan asorat ham qolmaganligini, endi vasiylik qilish uchun asos ham yo`qligini ta`kidlaydi.

Prokuror R.Inog`omov ish yuzasidan fikr bildirib, ruhiy kasalliklar dispanserining arizasida O.Avazovni muomalaga layoqatli deb topish to`g`risidagi xulosasi har tomonlama asoslantirilganligi tufayli bu taklifni qanoatlantirish lozimligini aytadi.

Sud prokurorning fikrini va ishdagi materiallarni o`rganib, ruhiy kasalliklar dispanserining arizasini asosli deb hisoblaydi.

Bu qoida FKning 30-moddasida berilgan bo`lib, bunga ko`ra mu`ayyan fuqaroni muomalaga layoqatli deb topish hamda uning ustidan belgilangan vasiylikni bekor qilish haqida sud hal qiluv qarorini chiqarishi ko`rsatilgan.

Sud yuqoridagilarga ko`ra FKning 30-moddasi 3-qismiga, FPKning 306-moddasiga asosan

Qaror qiladi:

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha Chilonzor tuman sudining 2000-yil 30-sentabrdagi 1974-yilda tug`ilgan, Toshkent shahrida yashovchi Olim Avazovni muomalaga layoqatsiz deb topish to`g`risidagi hal qiluv qarori bekor qilinsin.

Ushbu hal qiluv qarorining bir nusxasi Toshkent shahar sog`liqni saqlash boshqarmasi qoshidagi vasiylik va homiylik organlariga Olim Avazovga nisbatan belgilangan vasiylikni bekor qilish uchun yuborilsin.

Hal qiluv qaroridan norozi tomonlar 20 kun muddat ichida shu sud orqali fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudiga shikoyat ariza bilan murojaat qilishlari, prokuror protest keltirishlari mumkin.

Sudya: R.Qodirova

MOL-MULKNI (ASHYONI) EGASIZ DEB TOPISH HAQIDA

FKning 191-moddasiga ko'ra, egasi bo'lmagan yoki egasi noma'lum bo'lgan mulk (egasiz mulk) moliya organining yoki boshqa vakolatli organing arizasi yuzasidan chiqarilgan sud qarori bilan davlat egaligiga o'tkaziladi. Ariza mulk hisobga olingan kundan e'tiboran olti oy o'tgandan so'ng beriladi.

Egasi bo'lmagan yoki egasi noma'lum bo'lgan ashyo zgasiz ashyo hisoblanadi.

Agar bu hol topilma to'g'risidagi, qarovsiz hayvonlar va xazina to'g'risidagi qoidalarda rad etilmagan bo'lsa, egasiz ko'char ashyolarga egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qo'lga kiritilishi mumkin.

Egasiz ko'chmas ashyolar tegishli davlat organining yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining arizasiga muvofiq ko'chmas mol-mulkni davlat ro'yxatiga oluvchi organ tomonidan hisobga olinadi.

Egasiz ko'chmas ashyo hisobga olinganidan keyin uch yil muddat o'tgach, davlat mol-mulkini boshqarishga vakolati bo'lgan organ yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bu ashyoni davlat mulkiga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mulkiga kirgan deb hisoblash to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat etishi mumkin.

Sudning hal qiluv qaroriga binoan davlat mulkiga o'tmagan deb hisoblangan egasiz ko'chmas ashyo uni tashlab ketgan mulkdorning egaligiga, foydalanishiga va tasarrufiga yana qabul qilinishi yoki egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat asosida qo'lga kiritilishi mumkin.

Egasiz ashyolarni aniqlash va hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi.

Egasiz mulk bilan xo'jasizlarcha saqlanayotgan mulkni bir-biridan farq qilish kerak. Mulkning xo'jasizlik bilan saqlanishi to'g'risidagi ishlar sud tomonidan umumiy da'vo ishlarini ko'rish tartibida hal etiladi (FKning 152-153-moddalari).

Mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb hisoblash tartibi to'g'risidagi qoidalar FPKning 298-300-moddalarida berilgan. Bu qonunlarda

Ko`rsatilishicha, mulkni egasiz deb topish haqidagi ariza moliya yoki boshqa organ tomonidan mulk turgan joydagi sudga beriladi. Arizada qanday mulk egasiz deb hisoblanishi lozimligi, mulkning egasini aniqlash muvaffaqiyatli emasligini isbotlovchi dalillar ko`rsatilishi kerak.

Sudya ishni sud majlisida ko`rishga tayyorlashda kim sherik egalar, mulkni haqiqatda egallab turganlar, qo`shnilar va boshqalar mulkning muvaffaqiyatli ekanligi to`g`risida ma`lumot bera olishini aniqlaydi, bundaydek, biron-bir ma`lumot bo`lishi to`g`risida tegishli tashkilotlardan (masalan, boshqarmalari, qishloq, mahalla qo`mitalari, kommunal xo`jalik korxonalaridan) so`raydi. Sud mulkning egasi yo`q yoki nomalum deb aniqlansa, mulkni egasiz deb hisoblash va uni davlatga o`tkazish to`g`risida boshqaruv qarori chiqaradi.

Uyni egasiz deb topish haqida
Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha
Toshkent tuman sudiga
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi «Qizil
tong» shirkat xo'jaligi nomidan
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi Xolmatov
nomli qishloq fuqarolar yig'ini hududida joy
lashgan Sobirov ko'chasidagi 10-uyning egasiz deb
hisoblash to'g'risida

ARIZA

Toshkent tumanidagi «Xolmatov» nomli qishloq fuqarolar yig'ini hududida joylashgan Sobirov ko'cha 10-uy «Qizil tong» jamoa xo'jaligining chegarasida bo'lib, xo'jalik daftarida yozilishi bo'yicha Nodir Ermatovga qarashli deb belgilangan.

1983-yili N.Ermatov oila a'zolari bilan noma'lum tomonga ko'chib, uyini qo'shnisi Qurbon Azizovning ixtiyoriga tashlab ketadi. Q.Azizov avtotransport halokati natijasida vafot etadi. O'tgan 20-yil ichida uy to'g'risida hech kim gap ochgani yo'q, uy egasi esa hozircha noma'lum.

1996-yil noyabr oyidan boshlab uyni egasiz deb hisoblab, «Xolmatov» nomli qishloq fuqarolar yig'ini o'zining hisobiga o'tkazib oldi. Hozirda uyda shu qishloqdagi kasalxonaning bosh shifokori R.Qodirov yashab kelmoqda.

FKning 154-moddasi 2-4-qismlari hamda FPKning 300-moddasiga asosan

So'rayman:

Toshkent viloyati, Toshkent tumani, «Xolmatov» nomli qishloq fuqarolar yig'ini hududida joylashgan Sobirov ko'chasidagi 10-uyning egasiz deb hisoblanib, «Qizil tong» shirkat xo'jaligi ixtiyoriga berilishni.

Ilova: 1. «Xolmatov» nomli qishloq shirkat xo'jaligi 1991-yil 2-fevraldagi uyni o'z hisobiga olganligi haqidagi qarori.

2. Qo'shnisi Q.Azizovning halok bo'lganligi haqida ma'lumotnoma.

3. Xo'jalik daftaridan ko'chirma.

4. Davlat boji to'langanligi to'g'risidagi chipta.

«Qizil tong» jamoa xo'jaligining

raisi:

L.Baratov

2001-yil 3-noyabr

O`zbekiston Respublikasi hal qiluv qarori nomidan

2001-yil 10-noyabrda Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent tumani sudi binosida ochiq sud majlisi bo`lib, sudya X.Qodirov rahbarligida U.Bozorovning kotibligida Toshkent tumani «Qizil tong» shirkat tomonidan jamoaviy arizasi bo`yicha mulkni egasiz deb hisoblash haqidagi ish ko`rib chiqilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Toshkent tumani «Xolmatov» nomli qishloq fuqarolar yig`inidagi «Qizil tong» jamoa xo`jaligi hududida joylashgan Sobirov ko`chasi 10-uy jamoa xo`jaligi xonadoniga tegishli bo`lib, unga Nodir Ermatov egalik qilgan. Xonadon egasi N.Ermatov 1980-yili oilasi bilan noma'lum tomonga ko`chib ketgan bo`lib, boshqa qarindosh-urug`laridan birortasi xonadonga egalik qilish huquqini bildirmaganligi va uy egasiz qolganligi sababli «Qizil tong» shirkat xo`jaligi uyni egasiz deb hisoblashni va uni jamoa xo`jaligi tasarrufiga o`tkazib berishni so`raydi.

Jamoa xo`jaligi vakili A.Imomova jamoa xo`jaligi rahbariyati tomonidan qo`yilgan iltimosni qo`llash bilan yuqorida keltirilgan holatlarni har tarafdin asoslaydi. Sud quyidagi asoslarga ko`ra «Qizil tong» jamoa xo`jaligining arizasini qanoatlantirish lozim deb hisoblaydi.

FKning 191-moddasiga ko`ra, jamoa xo`jaligiga qarashli egasiz mulk, jamoa xo`jaligi arizasi bo`yicha sud tomonidan chiqarilgan qarorga binoan, mulk joylashgan hududdagi jamoa xo`jaligi egaligiga o`tkaziladi. Ariza bu mulkning jamoa xo`jaligi tomonidan hisobga olingan kundan e`tiboran olti oy o`tgandan so`ng beriladi.

Jamoa xo`jaligining iltimosi yuqoridagi qonun talablariga to`g`ri kelishi ishdagi hujjatlar bilan tasdiqlanadi.

«Xolmatov» nomli qishloq fuqarolar yig`ini xo`jalik daftaridan olingan ko`chirmaga ko`ra, N.Ermatov jamoa xo`jaligi a`zosi hisoblanib, u oilasi bilan 20-yil muqaddam o`z uyini qo`shnisi Q.Azizov ixtiyoriga tashlab, noma'lum tomonlarga ko`chib ketganligi, qo`shnisi esa avtotransport halokati natijasida vafot etganligi ishda to`plangan hujjatlar bilan tasdiqlanadi.

Sud yuqoridagilarga ko`ra hamda FKning 191-moddasi va FPKning 300-moddasiga asosan

Qaror qiladi:

Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Xolmatov nomli qishloq jamoa xo`jaligi Sobirov ko`chasidagi 10-uy egasiz deb hisoblansin va uni shu hududdagi «Qizil tong» jamoa xo`jaligi tasarrufiga o`tkazib berilsin.

Hal qiluv qaroridan norozi tomon 20 kun muddat ichida shu sud orqali fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent viloyat sudiga shikoyat ariza bilan murojaat qilishi, protest keltirishi mumkin.

Sudya: X.Qodirov

NOTARIUSLAR VA NOTARIAL HARAKATLARNI BAJARUVCHI IDORALARNING XATTI-HARAKATLARI USTIDAN BERILGAN SHIKOYATLARNI KO`RISH

FPKning 273-moddasi mazmuniga ko`ra, manfaatdor shaxs davlat notarial idorasi yoki mahalliy hokimiyat organi bajargan notarial harakati yoki notarial harakatni bajarish rad etilganligi noto`g`ri deb hisoblasa, bu haqda u shu davlat notarial idorasi yoki mahalliy hokimiyat organi turgan joydagi tuman (shahar) sudiga shikoyat qilishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasining «Notariat to`g`risida»gi Qonunining 19-moddasida sanab ko`rsatilgan mansabdor shaxslar tomonidan noto`g`ri tasdiqlangan vasiyatnomalar va vakolatnomalar to`g`risidagi yoki mazkur shaxslar ularni tasdiqlashni rad etganliklari haqidagi shikoyatlar tegishliligiga qarab-kasalxona va boshqa statsionar davolash profilaktika muassasasi, sanatoriy, keksalar va nogironlar uyi, ekspeditsiya, gospital, harbiy davolash muassasasi, harbiy qism, qo`shilma, harbiy o`quv yurti, qamoqxona joylashgan yerdagi tuman (shahar) sudiga topshiriladi. O`zbekiston bayrog`i ostida suzib yuruvchi dengiz kemasi yoki ichki sud havzalarida bo`lgan kema kapitani tomonidan noto`g`ri tasdiqlangan vasiyatnoma to`g`risidagi yoki kapitan uni tasdiqlashni rad etganligi haqidagi shikoyatlar esa-shu kema ro`yxatga olingan port joylashgan yerdagi tuman (shahar) sudiga beriladi.

FPKning 273-moddasiga muvofiq ravishda shikoyat qilingan ishni ko`rish uchun quyidagi dalillar keltirilishi yoki sud tomonidan talab qilib olinishi kerak:

birinchidan, notarial harakatning bajarilganligi yoki uning bajarilishi rad etilganligi to`g`risidagi hujjat (chunonchi, merosga bo`lgan huquq

to'g'risidagi guvohnoma berishni rad qilganlik, ijro xati berishni rad qilganlik to'g'risidagi notariusning qarori;

ikkinchidan, shikoyat yuzasidan notariusning yoki notarial harakatlarni bajaruvchi organ vakilining yozma bayoni va bunga ilova qilingan tegishli hujjatlar;

uchinchidan, shikoyatda ko'rsatilgan vajlarni isbotlaydigan dalillar, notarial, uy-joyga bo'lgan egalik huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar, vasiyatnoma, avtomashina hujjati, tovarning kreditga berilgan majburiyatnoma va shu kabi dalillar.

Notarius va notarial harakatlarni bajaruvchi organlarning xatti-harakatlari ustidan berilgan shikoyatlar to'g'risidagi ishlar «Notariati to'g'risida»gi Qonunning 31, 32-moddalari, FPKning 31-moddasining 3-bandli, 264-moddasining 2-bandli va 273-275-moddalariga muvofiq to'riladi.

Toshkent viloyati, Angren shahar sudiga
Angren shahar, Nabiyevo ko'chasi, 5-uyda
istiqomat qiluvchi Vosiqa Aydashevadan

SHIKOYAT

(Notariusning harakatlari ustidan)

Angren shahar notarial idorasining notariusi Hamza ko'chasidagi 17-uyini J.Maxsumovdan sotib olish to'g'risidagi oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirishni rad etdi.

Notarius o'zining bu qarorini men bilan birga yashayotgan ota-onamning shaxsiy tasarrufida hovli-joy borligini, mening esa hali to'liq balog'at yoshiga yetmaganligim tufayli ikkinchi uyni olishim qonun talablariga xilof degan mulohaza bilan asoslaydi.

Notarius quyidagi asoslarga ko'ra oldi-sotdi shartnomasini noto'g'ri tasdiqlamagan deb hisoblayman:

Haqiqatan ham menga hali 18 yosh to'lgan emas va men ota-onam bilan birga ularning uyida yashayman.

Angren shahar hokimi tomonidan istisno tariqasida nikoh yoshim Oila kodeksining 15-moddasiga asosan kamaytirilganligi sababli B.Eshmurodov bilan Angren shahar nikohni qayd qilish bo'limi nikohdan o'tgan holda oilaviy turmush qurganmiz.

FKning 22-moddasining 2-qismiga asosan nikohga kirish vaqtdan e'tiboran to'la hajmda muomalaga layoqatli deb topilganman, shuning

uchun ham men o`zimning fuqarolik huquqimni to`liq hajmda amalga oshirishim mumkin. Shularga ko`ra va FPKning 273-moddasiga asosan

So`rayman:

Angren shahar notarial idorasi notariusining men bilan Jo`ra Maxsumov o`rtasida tuzilgan uy oldi-sotdi shartnomasini tasdiqlashni rad etish to`g`risidagi harakatlari noto`g`ri deb hisoblashni.

Ilova: 1. Angren shahar hokimining 2001-yil 19-sentabrdagi qaroridan ko`chirma;

2. Nikoh guvohnomasida nusxa;

3. Shahar kommunal xo`jaligi texnika byurosidan ma'lumotnoma;

4. Notariusning shartnomasini tasdiqlashni rad etganlik haqidagi yozishmasi;

5. Shikoyatning nusxasi.

2000-yil 1-oktabr.

V.Aydasheva

O`zbekiston Respublikasi hal qiluv qarori nomidan

2000-yil 8-dekabr kuni Toshkent viloyati, Angren shahar sudi binosida ochiq sud majlisi bo`lib sudya R.Akramov raisligida, L.Ergasheva kotibligida V.Aydashevaning shikoyati bo`yicha Angren shahar notarial idorasining notariusi tomonidan uy oldi-sotdi shartnomasini tasdiqlash rad etilganligi haqidagi ish ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Jo`ra Maxsumovga qarashli Angren shahar, Xamza ko`chasidagi 17-uyini V.Aydasheva sotib olmoqchi bo`ladi. Biroq Angren shahar notarial idorasining notariusi uy oldi-sotdi shartnomasini rad etadi, bunga asos qilib, V.Aydashevaning ota-onasini Angren shahar, Buzariq ko`chasi, 5-uyda shaxsiy egaligida uy-joy borligini hamda V.Aydasheva balog`atga yetmaganligi sababli ota-onasi bilan bir uyda yashayotganligini ko`rsatadi.

Arizachi V.Aydasheva sudda bergan bayonnomasida notariusning harakatlarini quyidagilarga ko`ra noto`g`ri hisoblaydi, ya`ni: haqiqatan ham o`zi balog`atga yetmagan bo`lsa-da, hozirda nikohdan o`tib, turmush qurganligini shu sababli to`liq balog`atga yetgan deb hisoblanishini va uy sotib olish huquqiga ega ekanligini bildiradi.

Sud ishdagi hujjatlar bilan tanishib, arizachining bayonotini tinglab, quyidagi asoslarga ko`ra arizani qanoatlantirishni lozim topadi:

Oila kodeksining 15-moddasida tegishli mahalliy hokimiyat organlari ayrim uzrlı sabablar bo`lganda nikoh yoshini ko`pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkinligi ko`rsatilgan.

Angren shahar hokimi 2000-yil 10-sentabrdagi qaroridan ko`rinib tashadiki, V.Aydashevaning nikoh yoni bir yilga kamaytirilgan. Shunga asosan V.Aydasheva Angren shahar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo`limida Z.Eshmurodov bilan 2000-yil 20-sentabrda qonuniy nikohdan o`tib oilaviy turmush qurganligi ishdagi nikoh guvoohnomasi bilan tasdiqlanadi.

Qonunda ko`rsatilgan hollarda 18 yoshga to`lmasdan nikohdan o`tgan taqdirda, nikohdan o`tgan vaqtdan boshlab to`liq balog`at yoshiga yetgan hisoblanadi. Shuning uchun ham FKning 22-moddasi 2-qismiga ko`ra V.Aydasheva nikohdan o`tgan vaqtdan boshlab to`la holda balog`atga yetgan hisoblanadi.

Shularga asosan V.Aydashevaning balog`atga yetmaganligi va otasini bilan birga yashashi FKning 10-moddasida belgilangan fuqarolik huquqini amalga oshirishi uchun to`squinlik qilmaydi.

Texnika byurosining bergan ma'lumoti V.Aydasheva va uning otasining shaxsiy uy-joyi yo`qligini tasdiqlaydi.

Sud yuqoridagilarni hisobga olib, FKning 17, 22-moddalariga va FPKning 273, 275-moddalariga asosan

Qaror qiladi:

Angren shahar notarial idorasining notariusiga Vasiqa Aydasheva bilan Jo`ra Maxsumov o`rtasidagi Angren shahar, Hamza ko`chasi, 17-uyning oldi-sotdi shartnomasini tasdiqlash majburiyati yuklatilsin.

Hal qiluv qaroridan norozi tomon 20 kun muddat ichida shu sud orqali Toshkent viloyati fuqarolik sudiga shikoyat ariza bilan murojaat qilishga, protest keltirishga haqli.

Sudya: R.Akramov

Nikohni qayd qilish daftaridagi yozuvda familiyasi noto`g`ri yozilganligini tuzatish haqida

Toshkent shahar, Akmal Ikromov tuman sudiga
Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumani,
Qodiriy ko`chasidagi 10-uyda istiqomat
qiluvchi Roziya Fathullayevnadan

ARIZA

(Familiyasi noto`g`ri yozilganligi to`g`risida)

Mening familiyam oila qurmasdan oldin Bo`ronova edi. 1990-yilda Damir Fathullayevga turmushga chiqqanimdan buyon erimning familiyasiga o`tganman va familiyam Fathullayeva deb yuritiladigan bo`ldi.

Biroq nikohni rasmiylashtirish chog`ida Toshkent shahar, A.Ikromov tumani fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish bo`limi nikohni qayd qilish daftarida va nikoh guvohnomasida familiyam «Fatulova» deb noto`g`ri yozilgan.

Bu haqda men Toshkent shahar, A.Ikromov tumani fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idorasiga murojaat qilgan bo`lsam-da, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo`limi mudiri 2000-yil 10-apreldagi yozishmasida yo`l qo`yilgan xatolikni to`g`rilashni rad etib, bu haqda sudga murojaat etish huquqidan foydalanishimni maslahat bergan.

Yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 274-moddasiga asosan

So`rayman:

Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumani fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idorasining nikohni qayd qilish daftaridagi yozuvda mening familiyam noto`g`ri yozilgan deb belgilashni va shu fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo`limi yo`l qo`yilgan xatolikni tuzatib, familiyamni «Fatulova» emas, balki «Fathullayeva» deb o`zgartirishni.

Ilova: 1. Mening iltimosimni rad etganligi haqidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idorasining yozishmasi;

2. Nikoh guvohnomasi.

3. Erimning tug`ilganligi haqidagi guvohnoma.

4. Mening va erimning pasportlari sud majlisi jarayonida taqdim qilinadi.

2000-yil 2-sentabr.

R.Fathundayeva

O`zbekiston Respublikasi nomidan hal qiluv qarori

2000-yil 10-sentabr kuni Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumani sudining binosida ochiq sud majlisi bo`lib sudya P.Jumayeva raisligida, A.Sobirova kotibligida Roziya Fathullayevaning familiyasi nikohni qayd qilish daftarida noto`g`r yozilganligi to`g`risidagi arizasi ko`rib, quyidagilar

Aniqlandi:

Roziya Fathullayeva 1990-yil 20-dekabrda Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumani fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idorasida Damir Fathullayev bilan nikohdan o`tib, oilaviy turmush qurganlar va u, erining familiyasiga o`tib, «Fathullayeva» deb yuritila boshlaydi.

Biroq nikohni qayd qilish chog`ida FHDYO xodimlarining aybi bilan arizachining familiyasi «Fathullayeva» o`rniga «Fatulova» deb noto`g`ri yozilib qolingan.

Arizachining arizasida Akmal Ikromov tuman fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idorasining mudiri daftarda yo`l qo`yilgan xatoni to`g`rilash uchun tegishli hujjatlar saqlanmaganligi sababli arizachi Fathullayevaning iltimosini rad etib, bu haqda sudga murojaat qilish mumkinligini aytadi va bunga asos sifatida Oila kodeksining 221-moddasidagi qoidalarga havola qilib, agar yo`qolgan yozuvlarni tiklash mumkin bo`lmagan hollarda fuqarolik holatini qayd qilganlik fakti sud tartibida belgilanishini ko`rsatadi. Shu munosabat bilan R.Fathullayeva sudga ariza bilan murojaat qilib, nikohni qayd qilish daftarchasidagi hamda nikoh guvohnomasidagi yozuvlarning noto`g`ri ekanlab belgilab berishni so`raydi.

Sud ishdagi materiallarni tekshirib, arizachining bayonini tinglab, arizachi R.Fathullayeva iltimosini FPKning 274-moddasiga binoan qanoatlanirishni lozim topadi:

Ishdagi hujjatlarga qaraganda hamda arizachining erining tug`ilganlik haqidagi guvohnomasi, pasporti, harbiy hujjatlari va boshqa taqdim etgan shaxsiy guvohnomalariga qaraganda, uning familiyasi Fathullayeva ekanligi aniqlandi. Sud fuqarolik holati dalolatnomalarini

qayd qilish daftaridan olgan ko`chirmasida nikoh guvohnomasida ham arizachining familiyasi erining yuqorida ko`rsatilgan hujjatlari va pasportiga mos kelmay, «Fatulova» deb ko`rsatilgan.

Oila qonunchiligining 20-moddasiga ko`ra, nikoh tuzish vaqtida er xotin o`z xohishi bilan eri yoki xotining familiyasini umumiy qilib tanlashi mumkinligi qayd qilingan. Qonun boshqa familiyalarni olishni tan olmaydi. Shunga asosan arizachinning familiyasi nikohni qayd qilish daftaridagi yozuvda noto`g`ri yozilgan hisoblanadi.

Sud yuqoridagilarga ko`ra Oila kodeksining 220-221-moddalariga va FPKning 203-208, 274-275-moddalariga asosan

Qaror qiladi:

Toshkent shahar, Akmal Ikromov tuman fuqarolik holati dalolatnomalarni qayd qilish idorasining daftarida 1996-yil 20-aprel kungi 190-raqamli ro`yxatdagi Roziya Fathullayevaning nikohdan o`tganlik haqidagi qayd qilingan familiyasi noto`g`ri deb topilsin.

Akmal Ikromov tumani fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idorasiga nikohni qayd etish daftariga arizachining familiyasini «Fathullayeva» deb o`zgartirib yozish topshirilsin.

Hal qiluv qaroridan norozi taraf 20 kun muddat ichida shu sud orqali Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha sudlov hay'atiga kassatsiya tartibida shikoyat ariza bilan muroojaat qilishga prokuror protest keltirishga haqli.

Sudya: P.Jumayeva

Fuqarolik holati dalolatnomasidagi yozuvni
noto`g`ri deb topish

O`zbekiston Respublikasi hal qiluv qarori nomidan

2000-yil 15-yanvarda Toshkent viloyati, Oqqo`rg`on tuman sudi binosida ochiq sud majlisi bo`lib sudya YO.Haydarova raisligida, X.Shoyzoqova kotibligida prokuror yordamchisi X.Yo`lchiyev shitirokida Ergash Toshboyevning fuqarolik holati dalolatnomasidagi yozuvlar noto`g`riligi to`g`risidagi arizasi bo`yicha fuqarolik ishi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Arizachi Ergash Toshboyev 1934-yil 13-fevralda Toshkent viloyati, Oqqo`rg`on tuman, Oqqo`rg`on qishlog`ida tug`ilgan. Uning otasi Toshboy Shermatov, onasi Inobat Shermatova ekanligi Oqqo`rg`on tumani fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo`limi tomonidan 1964-yil 18-avgustda V-TYU 257523-raqamli tug`ilish guvohnomasida ko`rsatilgan.

E.Toshboyev arizada tug`ilganlik haqidagi guvohnomadagi tug`ilgan vaqti 1929-yil o`rniga 1934-yil, tug`ilgan joyini esa Farg`ona viloyati, Quva tumani Begovat qishlog`ida bo`lishiga qaramay, Toshkent viloyati, Oqqo`rg`on tumani, Oqqo`rg`on qishlog`i deb noto`g`ri yozilganligini ko`rsatgan.

Bu haqda Toshkent viloyati, Oqqo`rg`on tumani nikohni qayd qilish bo`limi arizachining talablarini qanoatlantirish uchun tegishli hujjatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo`limida saqlanmaganligini ko`rsatib, arizani rad qilganligini bildiradi.

Shunga ko`ra E.Toshboyev sudga ariza bilan murojaat etib, tug`ilish guvohnomasida ko`rsatilgan tug`ilgan yili va tug`ilgan joyi noto`g`ri yozilgan deb topishni so`rash bilan arizani asoslash uchun quyidagilarni bayon qiladi:

Arizachi E.Toshboyevning ota-onasi uning yoshligida vafot etganliklarini, o`zi esa birovlarining tarbiyasida qolib, 1940-yilda Toshkent viloyatiga hech qanday hujjatsiz kelib, ishga joylashganini va mehnat daftarchasida taxminan 1934-yilda tug`ilgan deb belgilanganligini, keyinchalik esa o`sha hujjatlarga asosan tug`ilganlik haqida guvohnoma va pasport olganligini, bunga mutlaqo ahamiyat bermasdan ishlab yurganligini, faqat pensiya hujjatlarini rasmiylashtirish paytida bunga e'tibor berganligini tegishli dalillar bilan isbotlaydi.

Sud ish materiallari bilan tanishib chiqib, manfaatdor shaxslarning bayonotini, prokurorning arizani qanoatlantirish to'g'risidagi fikrini tinglab, FPKning 274-moddasiga binoan talabni asosli hisoblashni lozim topadi.

Shu sudning 1999-yil 20-iyundagi ajrimi bilan Farg'ona viloyati, Quva tumani sudiga Ergash Toshboyevning arizasidagi vajlarni tekshirish va uning tug'ilgan joyidagi guvohlarni so'roq qilish sud topshirig'ini yuborgan edi. Quva tumani sudi 1999-yil 10-avgustda guvohlar Mamajon G'oiqov, T.Sulaymonov, U.Soliev, S.Rahmonovlarni so'roq qilganda, haqiqatan Ergash Toshboyev 1929-yili Farg'ona viloyati, Quva tumani, Begovat qishlog'ida tug'ilganligini, u yosh vaqtida ota-onasi vafot etib, birovlarining qo'lida o'sganligini, 1950-yilda Toshkent viloyatiga adashib kelib qolganligini bildirganlar. 1933-yilda tug'ilgan arizachining singlisi Xurniso Nuritdinova ham guvohlarning guvohligini tasdiqlab, arizachining singlisi ekanligini va undan to'rt yosh kichikligini bildirgan.

Sud FPKning 274-moddasida «Agar fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idoralari huquq haqida biron nizo bo'lmasa ham yozuvga tuzatish kiritishni rad etgan bo'lsalar, fuqarolik holati akti daftaridagi yozuvlarning noto'g'riligini belgilash to'g'risidagi ishlarni sudda ko'radi, degan ko'rsatmalarga amal qiladi.

Binobarin, sud yuqoridagilarga ko'ra, Oila kodeksining 226-228-moddalariga hamda FPKning 203-208, 274-275-moddalariga asosan

Qaror qiladi:

Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumani fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish idorasining daftaridagi 1978-yil 18-avgust kungi 257523-raqam bilan ro'yxatga olingan Ergash Toshboyevning tug'ilgan yili va tug'ilgan joyi to'g'risidagi yozuv noto'g'ri deb topilsin.

Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumani fuqarolik holati dalolatnomalarni qayd qilish idorasiga Ergash Toshboyevning tug'ilgan yilini 1934-yil o'rniga 1929-yil 13-fevral deb, tug'ilgan joyini esa Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumani Oqqo'rg'on qishlog'i emas, balki Farg'ona viloyati, Quva tumani, Begovat qishlog'i deb o'zgartirib yozish topshirilsin.

Hal qiluv qaroridan norozi tomon 20 kun muddat ichida shu sud orqali Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga apellatsiya tartibida shikoyat arizasi bilan murojaat qilishga, prokuror protest keltirishga haqli.

Raislik qiluvchi sudya: YO.Haydarov

TAQDIM ETUVCHIGA DEB BERILGAN HUJJATLAR YO QOLGAN TAQDIRDA, ULARGA BO'LGAN HUQUQLARNI TIKLASH HAQIDA

Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo`qolganda, yo`qotilgan hujjatlar yuzasidan bo`lgan huquqlarni tiklashning (chaqirib, ish yuritishning) sud tartibi belgilangan. Bunday tartib hujjat egalari egalarining shaxsiy va mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadlarida o`rnatilgan. Qanday hujjatlar bo`yicha huquqlarning tiklanishi mumkinligi FPKning 101 moddasida belgilangan. Unga ko`ra taqdim etuvchiga deb berilgan qimmatli hujjatni, chunonchi: jamg`arma banki jamg`armaga pul mablag`lari qo`yilganligi haqida bergan omonat daftarchasini yoki qimmatli hujjatlarni yoxud davlat zayomlari obligatsiyalarini saqlab berish uchun qabul qilganlik to`g`risidagi guvohnomani yo`qotgan shaxs, shuningdek qonunda ko`rsatilgan barcha hollarda suddan yo`qolgan hujjatni haqiqiy emas deb topish to`g`risida va yo`qotgan hujjat bo`yicha huquqni tiklash to`g`risida iltimos qilishi mumkin.

Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjat yo`qolgan taqdirda, uni haqiqiy emas deb topish to`g`risidagi ariza hujjatni bergan muassasa joylashgan sudga beriladi.

Bu to`g`rida sudga beriladigan arizaning qanday mazmunda bo`lishi, sudyaning arizani qabul qilganidan so`ng qanday protsessual harakatlar qilishi lozimligi, hujjatning yo`qotilganligi to`g`risida mahalliy gazetada berilgan e`lonning mazmuni. agar yo`qotilgan hujjat biron-bir shaxsning qo`lida bo`lsa-bu shaxsning majburiyati, bundan shaxsga nisbatan da`vo qo`zg`atish tartibi va da`vo qo`zg`atmaslik oqibatlari, umuman ishni ko`rish va hal qilishga oid qoidalar FPKning 301-309-moddalarida ko`rsatilgan.

O`zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1992-yil 13-noyabrda «Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo`qolgan taqdirda, ularga bo`lgan huquqlarni tiklash haqidagi arizalarni sudlar tomonidan ko`rish amaliyoti to`g`risida» qabul qilingan Plenumi qarorlarida taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar e`tiborsizlik bilan saqlanishi natijasida to`lov belgilarini yo`qotganida, masalan, omonat daftarchasi yoki nazorat varaqasida hisob raqamli xat saqlanmaganida va shu kabi boshqa hollarda ham chaqirib, ish yuritish tadbiri etilishi mumkin, deya tushuntirish berilgan.

Omonat daftarini yo`qotganligi sababli uni haqiqiy emas deb topish to`g`risida Toshkent viloyati, Bo`ka tuman sudiga Bo`ka tumani, Rashidov ko`chasining 1-tor ko`chasi 3-uyda yashovchi Odil Mirzayevdan

ARIZA

Men Bo`ka shahridagi 19/270-raqamli omonat bankini 20370-raqamli hisobiga jamg`argan pulimni qo`ygan edim. O`zinning iltimosimga ko`ra qo`yilgan jamg`armani boshqarishni qulaylashtirish maqsadida menga taqdim etuvchiga degan 5578-raqamli jamg`arma daftarchasi berilgan edi. 2000-yil 25-avgust kuni shahar transportida ishga ketayotganimda boshqa hujjatlarim qatori yuqorida qayd qilingan jamg`arma daftarchamni ham yo`qotib qo`ydim. Bu haqda shu ondayoq jamg`arma bankini xabardor qildim.

FPKning 301 va 302-moddalariga asosan

So`rayman:

Bo`ka shahar 19/270-raqamli omonat banki tomonidan taqdim etuvchiga deb berilgan 5578-raqamli jamg`arma daftarchasi yo`qolganligi sababli uni haqiqiy emas deb topilsin va yuqoridagi jamg`arma bankining 20370-hisobidagi pul jamg`armasiga mening huquqim tiklansin.

Ilova: 1. Jamg`arma daftarchasining kontrol (nazorat) varaqasi.

2. 310 so`m davlat boji to`langanligi haqida chipta.

2000-yil 13-noyabr.

O.Mirzayev

Jamg`arma daftarchani haqiqiy emas deb topish haqida

AJRIM

2000-yil 15-noyabr

Bo`ka shahri.

Toshkent viloyati, Bo`ka tuman sudining sudyasi Z.Qambarova taqdim etuvchiga deb berilgan jamg`arma daftarchasi yo`qotilganligi sababdi Odil Mirzayevning uni haqiqiy emas deb topish to`g`risidagi arizasi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

O.Mirzayev arizasida Bo`ka shahridagi 19G`270-davlat jamg`arma banki tomonidan 20370-hisob bo`yicha jamg`argan pulini qo`yilganligini va unga 5578-raqamli taqdim etuvchiga degan jamg`arma daftarchasi berilganligini, daftarchani 2000-yil 25-avgust kuni shahar transportida ketayotganida yo`qotib qo`yganligini ko`rsatgan. Shu munosabat bilan O.Mirzayevga berilgan jamg`arma daftarchasini haqiqiy emas deb topib, qo`yilgan jamg`armaga bo`lgan huquqini tiklashni so`raydi. Sud to`plangan hujjatlarga asoslanib, arizachining iltimosini asosli deb hisoblaydi.

Sud yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 302-moddasiga asosan

Ajrim qiladi:

Bo`ka shahridagi 19/270-davlat jamg`arma bankiga taqdim etuvchiga deb berilgan 20370-raqamli jamg`arma daftariga va 5578-hisob bo`yicha pul to`lash man etilsin.

Jamg`arma daftarini egallab turuvchiga daftarchaga bo`lgan huquqi haqida mahalliy ro`znomada e`lon qilingan kundan e`tiboran uch oy muddat ichida sudga ariza berish taklif etilsin va bu ish O.Mirzayev hisobidan bajarilsin.

Ajrim qat'iy-shikoyatga o`rin yo`q.

Sudya: Z.Qambarova

MAHALLIY RO`YZNOMADA BERILADIGAN E'LONNING NAMUNASI

Toshkent viloyati, Bo`ka tuman sudiga, Bo`ka tumani Rashidov ko`chasining 1-tor ko`chasi, 3-uyda yashovchi Odil Mirzayev tomonidan ariza berilib, unda Bo`ka shahar 19G`270-jamg`arma bankining taqdim etuvchiga deb berilgan 5578-raqamli jamg`arma daftarchasini haqiqiy emas deb topish haqida ko`rsatilgan.

Yuqoridagi jamg`arma daftarchasini egallab turuvchiga shu hujjatga nisbatan qanchalik huquqqa egaligi haqida ushbuni e`lon qilingan kundan e`tiboran 3 oy muddat ichida sudga ariza bilan murojaat etish tavsiya qilinadi.

Arizani ko`rmasdan qoldirish haqida

AJRIM

2000-yil 13-dekabrda Toshkent viloyati, Bo`ka tuman sudining binosida ochiq sud majlisida sudya Z.Qambarova raisligida, D.Zakirova kotibligida Odil Mirzayevning taqdim etuvchiga deb berilgan jamg`arma daftarchasini haqiqiy emas deb topish haqidagi fuqarolik ishi ko`rib, quyidagilar

Aniqlandi:

Odil Mirzayevning arizasida Bo`ka shahridagi 19G`270-raqamli davlat jamg`arma bankiga qo`ygan jamg`arma puli uchun unga 5578-raqamli taqdim etuvchiga deb jamg`arma daftarchasi berilganligi, bu daftarchani 2000-yil 25-avgust kuni shahar avtotransportida ketayotganida yo`qotib qo`yganligi bayon qilingan.

Arizachi o`z arizasida va sud majlisida suddan bu daftarchani haqiqiy emas deb topishni va pul jamg`armasiga bo`lgan huquqini tiklashni so`raydi.

Sud taftishida jamg`arma daftarchani egallab turgan shaxs bo`lib, arizachining jiyani Y.Halilov ekanligi aniqlandi va u FPKning 304-moddasiga rioya qilgan holda bu masala matbuotda e`lon qilingan kundan boshlab 3 oy muddat ichida ariza bilan sudga murojaat qilib, o`z murojaatida jamg`arma daftarchasiga bo`lgan huquqini asoslaydi va tegishli hujjatlarni taqdim etadi.

Yo`lchi Halilov o`z arizasida daftarchani uning do`sti topib, unga berilganligini va jamg`arma pulda uning ham hissasi borligini, arizachini

2001-yil muqaddam qarz olib «pulib yo`q» deb qaytarib bermayotganligini tomonidan asos qilib ko`rsatadi.

Ish yuzasidan har ikki taraf o`rtasida huquq haqida fuqarolik nizosi bo`yicha qo`zg`atish yo`li bilan sudda ko`rilishi lozim. Shuning uchun sud Odil Mirzayevning bergan arizasini ko`rmasdan qoldirishni lozim topadi.

Sud yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 97 va 305-moddalariga asoslanib

Ajrim qiladi:

Odil Mirzayevni Bo`ka shahar 19G`270-davlat jamg`arma banki tomonidan taqdim etuvchiga deb bergan 5578-raqamli jamg`arma daftarchasini haqiqiy emas deb topish haqidagi arizasi ko`rmasdan qoldirilsin.

Odil Mirzayevga Yo`lchi Halilovga nisbatan da'vo qo`zg`atish yo`li bilan jamg`arma daftarchasini talab qilish haqidagi huquqi tushuntirilsin.

Yo`lchi Halilovga esa, Odil Mirzayevdan sudning taqiqlash haqidagi choralari tufayli ko`rgan zararini undirish huquqiga ega ekanligi tushuntirilsin.

Bo`ka shahar 19G`270-davlat jamg`arma bankining 2001-yil 15-fevral kungacha qadar 5578-raqamli taqdim etuvchiga deb berilgan jamg`arma daftarchasi bo`yicha to`lovlarni bajarish man etilsin.

Sudyaning 2000-yil 15-noyabrdagi ajrimi bilan man etish haqidagi choralari bekor qilinsin.

Ajrimdan norozi tomon 10 kun muddat ichida shu sud orqali Toshkent viloyati fuqarolik sudiga shikoyat qilishga prokuror protest keltirishga haqli.

Sudya: E.Qambarova

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha
Chilonzor tumani sudiga

Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Qobulov
ko'chasi, 20-uyda yashovchi Lola Qodirovadan

Manfaatdor shaxslar:

1. Toshkent shahar, Chilonzor tumani ijtimoiy ta'minot bo'limi-Mirtemir ko'chasi, 5-uyda joylashgan;
2. Nuriniso Sharipova-Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Qodiriy ko'chasi, 20-uyda yashagan

ARIZA
(Otalikni belgilash)

Men 1999-yildan buyon 1960-yilda tug'ilgan Ubaydulla Sharipov bilan qonuniy nikohdan o'tmagan holda oilaviy turmush qurib, yuqorida qayd qilingan manzilda birga yashab, umumiy xo'jalik yuritib kelamiz. 2000-yil 15-avgustda G'ulom ismli farzand ko'rdik. Otasi U.Sharipov o'g'lini juda sevar va uni ko'pincha yasliga olib borib, olib kelar edi. Baxtinga qarshi erim-U.Sharipov 2001-yil avgust oyida avtotransport halokatida vafot etdi. Erimning hayotlik davrida qonuniy nikohdan o'tmagan edik, chunki biz bir-birimizni juda ham sevganligimiz sababli nikohni rasmiylashtirish ishiga ikkinchi darajali deb qaraganmiz. O'g'limiz tug'ilish guvoohnomasida mening familiyamda bo'lganligiga ham e'tibor bermagan ekanman. Erimning vafotidan so'ng tuman ijtimoiy ta'minot bo'limiga farzandimizning tarbiyasi uchun nafaqa tayinlatish maqsadida murojaat qilgan edim, nikoh guvoohnomasini talab etib, arizamni rad qildilar, notarial idora esa erimning qolgan mol-mulkka merosxo'r ekanligim haqida guvoohnoma bermadi.

Yuqoridagilarga ko'ra va Oila kodeksining 62-moddasiga va FPKning 283-moddasiga asosan

So'rayman:

Marhum erim Ubaydulla Sharipovning 2001-yil 15-avgustda tug'ilgan o'g'limiz G'ulomga nisbatan otalik fakti belgilab berilishini.

Bu faktni tasdiqlash uchun sudga quyidagi shaxslarni chaqirish mumkin:

1. Nurniso Sharipova-erimning opasi: Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Qodiriy ko'chasi, 20-uyda yashaydi.

2. Anvar Botirov-erimning do'sti: Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Beruniy ko'chasi, 20-uyda yashaydi.
- Ilova: 1. U.Sharipovning o'limi haqidagi guvohnoma.
2. O'g'limiz G'ulomning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi.
3. Marhum erim bilan uyda yashaganligimiz haqida mahalla qo'mitasidan ma'lumotnoma.
4. Dam olish paytida tushgan foto suratimiz.
5. 310 so'm davlat boji to'langanligi haqida chipta.
6. Arizaning ikkita nusxasi.

2001-yil 3-sentabr.

L.Qoriyeva

O'zbekiston Respublikasi hal qiluv qarori nomidan

2001-yil 20-sentabr kuni Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha Chilonzor tumani sudining binosida ochiq sud majlisi bo'lib sudya A.Beknozova raisligida, O.Temirova kotibligida, himoyachi R.Hamidova hamda manfaatdor shaxs Chilonzor tumani ijtimoiy ta'minot bo'limining vakili B.Oqilova ishtirokida Lola Qoriyevaning otalik faktini belgilash haqidagi arizasi bo'yicha fuqarolik ishi ko'rib, tubandagilar.

Aniqlandi:

L.Qoriyeva arizasida 2001-yil avgust oyida vafot etgan Ubaydulla Sharipovning 2001-yil 15-avgustda tug'ilgan G'ulom ismli o'g'lga nisbatan otalikni belgilash to'g'risida iltimos qiladi.

Arizachi marhum U.Sharipov bilan nikohdan o'tmagan holda 1999-yildan buyon birga yashaganliklari, shu davr ichida oilaviy xo'jaliklarini ham birga yurtganliklari va o'g'li G'ulomni birga tarbiyalaganliklari va marhum bolani o'z o'g'li deb qaraganliklarini arizada ko'rsatadi.

Chilonzor tumani ijtimoiy ta'minot bo'limining vakili B.Oqilov arizada ko'rsatilgan talablarni qanoatlanirishga qarshiligi yo'qligini va bunga asos sifatida to'plangan dalillarning to'liqligi yuridik faktni tasdiqlash uchun ahamiyatli ekanligini bildiradi.

Marhumning opasi N.Sharipova sudga tushuntirish berib, haqiqatan ham ukasi L.Qoriyevaga uylanganligini va odatimizga rioya qilgan holda to'y marosimlarini to'liq o'tkazganliklarini va 3-yil davomida birga yashab xo'jalik yuritganliklarini, 2001-yil 15-avgustda bu oila G'ulomjon ismli farzand ko'rganligini va o'g'lini marhum juda ham sevganligini bayon qiladi.

Sud arizachining talabini qanoatlantirish haqidagi prokurorning fikrini eshitib 2001-yil 1-iyundagi «Otalikni belgilash to`g`risidagi ishlarni ko`rishda sudlar tomonidan qonunchilikning tadbiq etilishi haqida»gi Oliy sud Plenumi qarorlariga asoslangan holda arizani qanoatlantirishni lozim deb hisoblaydi.

Sudda guvoh sifatida so`ralgan N.Sharipova, A.Botirovlar marhum U.Sharipov arizachi bilan birga yashab, xo`jalikni ham birga yuritganliklarini, oilaviy turmush davrida G`ulom ismli arzand ko`rganliklarini va marhum U.Sharipov farzandini juda ham sevganligini bayon qiladilar.

Bundan tashqari, 2000-yil mart oyida dam olish paytida marhum U.Sharipov xotini L.Qoriyeva va o`g`li G`ulom bilan tushgan foto-suratlari ularning birga yashaganliklaridan dalolat beradi.

Marhumning opasi N.Sharipova ukasi uning Lola Qoriyevaga haqiqatan ham to`y-tomosha qilib uylanganligini va G`ulomjon har ikkisining farzandi ekanligini tasdiqlaydi.

Sud yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 283, 203-208-moddalariga asosan

Qaror qiladi:

Toshkent shahar, Chilonzor tumanida 1960-yilda tug`ilgan, millati-o`zbek, 2001-yil avgust oyida fajiali halok bo`lgan Ubaydulla Sharipovning 2001-yil 15-avgustda tug`ilgan G`ulom ismli o`g`liga nisbatan otalik fakti belgilansin.

Hal qiluv qaroridan norozi tomon 20 kun muddat ichida shu sud orqali fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar sudiga shikoyat ariza bilan murojaat qilishi, prokuror protest keltirishi mumkin.

Sudya: A.Beknazarova

X. APELLATSIYA SUDIDA ISH YURITISH

Apellatsiya instituti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II chaqiriq to'rtinchi sessiyasida (2000-yil 14-dekabrda) qabul qilingan qonunga ko'ra, FPKga maxsus bob sifatida kiritildi.

Fuqarolik protsessual kodeksiga apellatsiya tartibida ish yuritish institutining kiritilishi protsessual qonunchilikda katta burilish bo'ldi, deyilsa, mubolag'a bo'lmasa kerak, chunki apellatsiya tartibida ish yuritilishining maqsad va vazifalari yuqori turuvchi sudlarning ishlarni mazmunan hal qilish bilan bog'liq vakolatlarini kengaytirish va inson manfaatlarini, ularning haq-huquqlarini har taraflama himoya qilishga qaratilganidadir.

Ikkinchi instansiya tariqasida ish ko'ruvchi apellatsiya sudi birinchi instansiya sudining ko'rgan ishlarini qayta, mazmunan, to'liq ko'radi va ish yuzasidan yangi qaror (ajrim) chiqarishga haqlidir.

Apellatsiya sudida ishlarni qayta mazmunan ko'rishdan maqsad umaldagi FPKga ko'ra, fuqarolik ishlari bo'yicha birinchi instansiya tartibida tumanlararo sudlarida yakka sudyaning o'zi ko'rish tufayli moddiy va protsessual huquqiy me'yorlarni tadbiiq etishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarini hay'at tarkibida yuqori sudda tuzatish imkonini beradigan huquqiy himoya qiluvchi sud bosqichi deb qaralmog'i lozim.

Birinchi instansiya sudining hal qiluv qaroridan norozi bo'lgan manfaatdor shaxs shikoyat qilish huquqidan foydalanadi. Bunday subyektlar jumlasiga ishda ishtirok etuvchi shaxslar kiradi.

Prokuror apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasiga muayyan ishda ishtirok etganligidan qat'iy nazar, nazorat tartibida esa, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ustidan o'z vakolati doirasida protest keltiradi. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilib sudda ishtirok etgan davlat boshqaruvi organlari, muassasalar, korxonalar, jamoat tashkilotlari, shuningdek, ayrim fuqarolar ham shikoyat qilish huquqiga egadirlar.

Shikoyat berish (protst keltirish) huquqi sudning hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin paydo bo'ladi. Bu huquq apellatsiya shikoyati berilishi bilan amalga oshiriladi.

Apellatsiya shikoyati yuqori sud instansiyasiga yozilib, fuqarolik ishiga qo'shilgan holda qaror chiqargan sud orqali yuboriladi.

Sudning qonuny kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari va ajrimlari shikoyat qilish huuqining obyektlari bo'ladi. Apellatsiya shikoyati yoki protesti sud tomonidan hal qiluv qarori chiqarilgan kundan boshlab yigirma kun ichida berilishi mumkin. Ko'rsatilgan muddat o'tgandan

so`ng berilgan shikoyat (protest) ko`rmasdan qoldiriladi va shikoyat (protest) bergan shaxsga qaytaradi. Qonun bilan belgilangan bu muddat o`zgartirilmaydi. Agar bu muddatning o`tkazilishini sud uzrli deb topsa, uni tiklash to`g`risidagi masalani ko`rib, hal etadi. Qonunda apellatsiya muddatini belgilashdan maqsad: ishning ikkinchi instansiya sudida tezda ko`rilishini ta`minlaydi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ko`rilgan ish materiallari bilan tanishish hamda ish yuzasidan chiqarilgan qarorga rozi bo`lmaganida, shikoyat (protest) bildirishga imkoniyat berishdan iborat. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar shikoyat berish huquqidan erkin foydalanishlari, jumladan, bergan shikoyatlaridan voz kechishlari ham mumkin. Ammo uni qabul qilish-qilmaslik sudga bog`liq.

Apellatsiya shikoyati berish (protest keltirish) tartibi FPKning 322-323-moddalarida belgilangan. Ularda ko`rsatilishicha, apellatsiya shikoyatlari va protestlarining mazmunida shikoyat berilayotgan yoki protest keltirilayotgan sudning nomi; shikoyat yoki protest keltirilayotgan shaxsning nomi (famiyasi, ismi va ota ismi); shikoyat qilinayotgan yoki protest keltirilayotgan hal qiluv qarori va uni chiqargan sud; hal qiluv qarorining noto`g`riligi nimadan iborat ekanligi; shikoyat berayotgan yoki protest keltirayotgan shaxsning iltimosi; shikoyat yoki protestga ilova qilingan yozma materiallarning ro`yxati ko`rsatiladi.

Apellatsiya shikoyatiga shikoyat berayotgan shaxs yoki uning vakili tomonidan imzo chekiladi. Protest esa-prokuror yoki uning o`rinbosari tomonidan ushbu ishda ishtirok etganligidan qat`iy nazar keltiriladi va imzolanadi. Vakil tomonidan berilgan apellatsiya shikoyati vakolatnoma yoki shu vakilning huquqini guvohlantiradigan boshqa hujjat ilova qilinishi lozim.

Apellatsiya shikoyati yoki protesti sud protsessida ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab nusxalar bilan qo`shib beriladi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi
sudlov hay'atiga
Toshkent shahar Yunusobod tumani fuqarolik
ishlari bo'yicha sudining 2002-yil 25-sentabrda
chiqargan hal qiluv qaroriga norozi bo'lib,
da'vogar A.Aliyeva tomonidan

Apellatsiya shikoyati

2002-yil 25-sentabrda Yunusobod tumani fuqarolik ishlari bo'yicha sudi mening javobgar T.Odilovga nisbatan nikohni bekor qilish va o'rtamizdagi mol-mulkni bo'lish haqidagi da'vo arizasi bo'yicha fuqarolik ishini ko'rib, da'voni qisman qanoatlantirish haqida hal qiluv qarori chiqardi.

Men hal qiluv qarorining nikohni bekor qilish qismidan emas, balki mol-mulkni taqsimlash qismidan noroziman.

Sud ishini ko'rish vaqtida mol-mulkni noto'g'ri bo'lib bergan. Bahosi 550.000 so'm bo'lgan «LG» rusumli kir yuvish mashinasi va bahosi 400.000 so'm bo'lgan «SONY» rusumli videomagnitafon dadamning shaxsiy mulki bo'lib, u bizga foydalanib turishga bergan edi. Bu mulklarni ham sud teng bo'lib bergan. Bu mulklar bo'linmaydi, chunki ular dadamning mulkidir. Birgalikda olgan boshqa mulklar to'g'ri bo'lingan.

Sud ishni bir tomonlama ko'rib hal etganligini, ishga aloqador shaxslarni chaqirmaganligini, dalillarni to'liq tekshirmaganligini hisobga olib, ishni appellatsiya tartibida atroflicha ko'rib chiqish lozim deb hisoblayman.

Yuqoridagilarga ko'ra va FPKning 320-323-moddalariga asosan

So'rayman:

Yunusobod tumani fuqarolik ishlari bo'yicha sudining 2002-yil 25-sentabrda chiqargan hal qiluv qarori qisman bekor qilinsin.

Ilova: 1. Apellatsiya shikoyatidan nusxa.

2002-yil 27-oktabr

A.Aliyeva

Fuqarolik ishlari bo`yicha Andijon viloyatining
sudlov hay'atiga
Paxtaobod tuman prokurori tomonidan Izboskan
tumanlararo fuqarolik ishlari bo`yicha sudning
2002-yil 2-oktabrda chiqargan hal qiluv qaroriga
nisbatan

Protest

(Apellatsiya tartibida)

Da'vogar A.A.Aliyev javobgar A.Aliyeva bilan qonuniy nikohdan o`tib turmush qurganlar va 2002-yil 20-aprelda Bahromjon ismli farzand ko`radilar, lekin farzandlari 2002-yil 13-iyunda vafot etgan. Ularning murosallari kelishmay qolganligi sababli tez-tez janjallar bo`lib turgan va shu bois 2002-yil 26-iyundan boshlab tomonlar birga yashamaydilar.

Sudning hal qiluv qarorini bekor qilib, uni quyidagi asoslarga ko`ra yangidan ko`rish uchun yuborish lozim deb hisoblayman:

Ish materiallariga ko`ra, sud fuqarolik ishini javobgar A.Aliyevasiz ko`rib, FPKning 34-moddasida ko`rsatilgan huquqlari qo`pol ravishda buzilgan.

Bundan tashqari, sud O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 39-moddasi talablarini buzgan, ya'ni «xotinning xomiladorlik vaqtida va bola tug`ilgandan keyin bir yil mobaynida er-xotinning roziligisiz nikohdan ajratish to`g`risida ish qo`zg`atishga haqli emas» deb belgilab qo`yilgan.

Ushbu holatda sud da'vo arizasini qabul qilishni rad etish lozim edi. Ishni yangidan ko`rishda sud yuqorida ko`rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etib, qonun talablari asosida hal etilishi lozim.

Yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 320-324-moddalariga asosan

So`rayman:

Izboskan tumanlararo fuqarolik ishlari bo`yicha sudning 2002-yil 2-oktabrdag hal qiluv qarorini bekor qilib, ishni yangidan ko`rish uchun yuborishni.

Ilova: 1. Keltirilgan protestdan ikki nusxa.

2002-yil 18-oktabr

Paxtaobod tuman prokurori, adliya
maslaxatchisi M.Kimsanov

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudining fuqarolik sudlov hay'atiga
Toshkent shahar, Mirobod tumanlararo fuqarolik ishlari bo'yicha sudining 2002-yil 15-oktabrda chiqargan hal qiluv qaroriga nisbatan

Protest
(Apellatsiya tartibida)

Da'vogar Shuhrat Abdurahmonov Lola Olimova bilan qonuniy nikohdan o'tib, turmush qurganlar va Mirobod tumani, Chexov ko'chasi 14-uyda yashab kelishgan. 1999-yilda ular o'rtasida nikoh bekor qilingan. Ish bo'yicha da'vogar SH.Abdurahmonov sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, L.Olimovani Chexov ko'chasi, 14-uydan chiqarishni so'ragan.

Toshkent shahar Mirobod tumalararo fuqarolik ishlari bo'yicha sudining 2002-yil 15-oktabrdagi qaroriga muvofiq, da'vogarning talablari qanoatlantirilib, javobgar L.Olimova farzandlari Umid va Irodalar bilan Chexov ko'chasi, 14-uydan boshqa turar joyga ko'chirilgan.

Sud esa, fuqarolik ishini javobgar L.Olimovaning ishtirokisiz ko'rib, O'zbekiston Respublikasi FPKning 34-moddasida ko'rsatilgan huquq va majburiyatlarini qo'pol ravishda buzganligi aniqlandi.

Bundan tashqari, hal qiluv qarorida fuqarolik ishini O'zbekiston Respublikasi FPKning 174-moddasi asosida, javobgarning ishtirokisiz ko'radi deb ko'rsatilgan, holbuki, bu moddaning talablariga ko'ra sud majlisiga uzrsiz sabablarga ko'ra, da'vogar va javobgar kelmasa, sud ish ko'rishni keyinga qoldiradi, ikkinchi marotaba kelmagan taqdirda sud arizani ko'rmasdan qoldirishga haqli ekanligi ko'zda tutilgan.

Bulardan tashqari, da'vogar SH.Abduraxmonov javobgar Olimovani Mirobod tumani, Chexov ko'chasi 14-uydan chiqarish to'g'risida arizasida so'ragan bo'lsada, lekin sudning hal qiluv qarorida «L.Olimova farzandlari bilan Shayxontohur tuman, Tinchlik ko'chasi, 4-uydan chiqarilsin» deb yozilgan.

Ishni yangidan ko'rishga sud qarorida ko'rsatilgan kamchiliklarini bartaraf etib, qonun talablari asosida hal etishi lozimdir.

Yuqoridagilarga va O'zbekiston Respublikasi FPKning 320-moddasiga asosan

So`rayman:

Toshkent shahar Mirobod tumanlararo fuqarolik ishlari bo`yicha sudining 2002-yil 15-oktabrdagi hal qiluv qarorini bekor qilib, ishni yangidan boshqa hay'atdagi sudda ko`rish uchun yuborilsin.

Ilova: Keltirilgan protestdan ikki nusxa.

Toshkent shahar Mirobod tuman prokurori,
adliya katta maslaxatchisi:

S.U.Aliyev

2002-yil 20-oktabr

APELLATSIYA PROTESTINI QAYTARIB OLISH ASOSLARI

Ishning apellatsiya sudida ko`rilishiga qadar ham, ko`rilishi davomida ham apellatsiya shikoyatidan voz kechish, apellatsiya protestini esa sud majlisini boshlanguniga qadar qaytarib olish mumkin bo`lganidek, qonun da'vogarning da'vodan voz kechishga va taraflarning kelishuv bitimi tuzishlariga yo`l qo`yadi. Sudda rais taraflarning bunday huquqlari borligini tushuntiradi. Apellatsiya shikoyat yoki protesti berilgandan so`ng da'vogarning da'vodan voz kechishi va taraflarning kelishuv bitimi tuzishi apellatsiya instansiya sudiga yozma shaklda bildirilishi lozim. Da'vodan voz kechganlikni qabul qilishdan yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin da'vogarga yoki taraflarga ularning bunday protsessual harakatlarning oqibatlarini tushuntiradi.

Da'vogarni da'vodan voz keganligini qabul qilganida yoki taraflarning kelishuv bitimi tasdiqlanganida, apellatsiya instansiya sudi birinchi instansiya sudi chiqargan hal qiluv qarorini bekor qiladi va ish yuritishini tugatadi. Agar da'vogarning da'vodan voz kechganligi yoki kelishuv bitimi qonunga zid bo`lsa yoxud birovlarning huquqlari qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlariga xilof bo`lsa, u holda sud voz kechishlikni rad etib, kelishuv bitimini tasdiqlamaydi, ish apellatsiya tartibda ko`rilaveradi.

BIRINCHI INSTANIYA SUDINING HAL QILUV QARORINI APELLATSIYA SUDIDA BEKOR QILISH, O`ZGARTIRISH YOKI YANGI QAROR CHIQRARISH UCHUN ASOSLAR

Ikkinchi instansiya sudi ishni apellatsiya tartibda ko`rish vaqtida ishga oid va taraflar hamda ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar

tomonidan qo`shimcha ravishda keltirilgan materiallar bo`yicha birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorining shikoyat qilingan qismi ham, shikoyat qilinmagan qismi ham, shuningdek shikoyat bermagan shaxslarga ulagan qanchalik qonuniy va asosli ekanligini tekshiradi.

Sud apellatsiya shikoyatidagi yoki protestidagi dalillar bilan tekklanmasdan, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini to`liq hajmda tekshirishga majbur (FPKning 332-moddasi).

Shuning uchun ham apellatsiya sudi asoslantirilgan qaror chiqarishi uchun ko`riladigan ishni to`la va har tomonlama tekshirishi lozim. Sud amaliyotini o`rganish natijalariga qaraganda sudlar tomonidan asosan to`g`ri qarorlar chiqarilgan. Ammo ayrim hollarda ishdagi materiallar bilan yaxshi tanishmaslik, ularni chuqur tekshirmaslik, qonunni tushunmaslik va to`g`ri tadbiq etmaslik oqibatida asoslantirilmagan va noqonuniy qaror chiqarilishi hollari ham ro`y beradi. Bu esa fuqarolik ishini apellatsiya tartibida ko`rib tekshirishga va ayrim hollarda birinchi instansiya sudining qarorini bekor qilib ishni yana birinchi instansiya sudiga yuborishga olib keladi.

Sudning hal qiluv qarori asoslantirilmagan, deganida ish uchun ahamiyatli holatlarning to`la aniqlanmaganligi va isbotlanmaganligini, sudning hal qiluv qarorida bayon qilingan xulosalarning ish holatlariga muvofiq kelmasligini tushunilmog`i lozim.

Sud hal qiluv qarorining noqonuniyligiuning qonunga, ya'ni ishning ko`rilishi va hal etilishida tadbiq etilishi lozim bo`lgan moddiy va protsessual huquqiy normalariga muvofiq bo`lmasligidir. Moddiy huquq normalari yoki protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto`g`ri tadbiq qilinganligi hal qiluv qarorini bekor qilish va ishni yangidan ko`rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga asos bo`ladi. FPKning 313-moddasida aytilishicha:

- 1) sud tadbiq qilinishi lozim bo`lgan qonunni qo`llamagan bo`lsa;
- 2) sud tadbiq qilinmasligi lozim bo`lgan qonunni qo`llagan bo`lsa;
- 3) qonun noto`g`ri talqin qilingan bo`lsa, moddiy huquq normalari buzilgan yoki noto`g`ri qo`llangan hisoblanadi.

Moddiy huquq normalarining buzilishi yoki noto`g`ri tadbiq etilishiasossiz hal qiluv qarori chiqarilishi hollardagina, jumladan, sudning xulosalari ish holatlariga to`g`ri kelmaganidagina hal qiluv qarorini bekor qilish yoki o`zgartirish uchun asos bo`ladi. Agar birinchi instansiya sudi ish holatlarini to`la va to`g`ri aniqlagan bo`lsa-yu, ammo moddiy huquq normalari tadbiq etishda xatoga yo`l qo`ygan bo`lsa, bunday kamchilik ikkinchi instansiya sudi tomonidan tuzatilishi mumkin. FPKning 316-

moddasida ko`rsatilishicha, apellatsiya, kassatsiya, nazorat instansiyalari ishni ko`rgan sud tomonidan yo`l qo`yilgan qonuni buzilish hollari hal qiluv qarorini bekor qilish, o`zgartirishga yoxud yangi hal qiluv qarori chiqarishga asos bo`lmaydi deb topsalar, bu haqda ajrimda, qarorda yoki maxsus qabul qilinadigan xususiy ajrimda ko`rsatishlari lozim.

Protsessual huquq normalarini buzish yoki noto`g`ri tadbiiq qilish ishni noto`g`ri hal etishga sabab bo`lgan yoki sabab bo`lishi mumkin bo`lgan taqdirdagina hal qiluv qarorini bekor qilishga asos bo`la oladi. Ammo FPKning 314-moddasida ko`rsatilganidek, agar:

1) ish sudning g`ayriqonuniy tarkibda ko`rilgan bo`lsa;

2) ish sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo`lgan, ammo sud majlisining vaqti va joyi to`g`risidagi xabar berilmagan shaxslardan birortasining yo`qligida bo`lsa;

3) ish ko`rilayotganda ish yuritiladigan tilga doir qoidalar buzilgan bo`lsa;

4) sud ishda qatnashishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlariga doir masalani hal qilgan bo`lsa;

5) hal qiluv qarori, ajrim, qaror chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishiga doir qoidalar buzilgan bo`lsa;

6) hal qiluv qarori, ajrim, qaror sudyalardan birortasi (sudya) tomonidan imzolanmagan yoki hal qiluv qarori, ajrim, qaror, ularda ko`rsatilmagan sudyalar (sudya) tomonidan imzolangan bo`lsa;

7) hal qiluv qarori, ajrim, qaror ishni ko`rmagan sudyalar tomonidan chiqarilgan bo`lsa;

8) ishda sud majlisi bayonnomasi bo`lmasa yoki u imzolanmagan bo`lsa, hal qiluv qarori, ajrim, qaror bekor qilinishi shart.

APELLATSIYA INSTANSIYA SUDINING VAKOLATLARI

Apellatsiya instansiya sudining vakolatlari FPKning 343-moddasida belgilangan. Unga ko`ra sud ishni appellatsiya tartibida ko`rib chiqqach, o`z ajrimi bilan:

birinchidan, hal qiluv qarorini o`zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa, qanoatlantirmasligi mumkin. Amaliyotda ayrim sudlar «hal qiluv qarori o`z kuchida qoldirilsin» deb yozish hollari ham uchraydi. Shuning uchun hal qiluv qarorini o`zgarishsiz qoldirish deb ko`rsatilishi qonun talablariga mos keladi va shunday yozilishi kerak.

Hozir sudlarimiz qonunan to`g`ri, asoslangan va adolatli hal qiluv qarorlari chiqarishlari uchun barcha imkoniyatlarga egadirlar. Chiqarilgan

hal qiluv qarorlarining aksariyati haqqoniy va taraflarning haqiqiy huquq va majburiyatlarini belgilab qabul qilinishi sababli shikoyat qilinmaydi va ular yuzasidan prokuror ham protest keltirmaydi. Shikoyat qilingan yoki protest keltirilgan hal qiluv qarorlarining ko'pchiligi odil sudlov talabiga to'la javob berganligi tufayli o'zgarishsiz qoldiriladi;

ikkinchidan, ishni yangidan ko'rish uchun yubormasdan, hal qiluv qarorini o'zgartirishga yoki butunlay yoxud qisman bekor qilish va yangidan hal qiluv qarori chiqarishi mumkin. Agar ish sudda ko'rilishida moddiy yoki protsessual huquq normalari buzilgan yoki noto'g'ri tadbiq etilgan, shuningdek ishning barcha holatlari ham aniqlanmagan bo'lsa va ish yuzasidan haqiqatni belgilash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan dalillar ham to'planmagan bo'lsa, apellatsiya instansiya sudi hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilish va ishni o'sha yoki boshqa sud tarkibida yangidan ko'rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborish mumkin (FPKning 312-313-314-moddalari).

uchinchidan, agar birinchi instansiya sudi yo'l qo'yan xatoni ishda mavjud bo'lgan dalillar va qo'shimchalar bilan bartaraf qilishning imkoni bo'lmasa, hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga va ishni yangidan ko'rib chiqish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishi mumkin, ya'ni FPKning 314-moddasiga qoidalar buzilgan bo'lsa;

to'rtinchidan, agar hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga hamda FPKning 97 va 100-moddalarida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra, arizani ko'rmasdan qoldirishga va ish yuritishni tugatishga haqli.

APELLATSIYA (IKKINCHI INSTANSIYA) SUDINING AJRIMLARI

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlari va prokurorning ish yuzasidan fikri eshutilgandan keyin apellatsiya instansiya sudi ajrim chiqarish uchun maslaxatxonaga kiradi. Apellatsiya instansiya sudining ajrimi ish ko'rilgandan so'ng darhol chiqariladi.

Sudyalarning maslahati, ajrim chiqarish va uni e'lon qilishi FPKning 14-moddalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksining yangi jihatlaridan biri shundaki, bunda alohida hollarda asoslantirilgan ajrim tayyorlash ko'pi bilan uch kunga kechiktirilishi mumkinligi, lekin ajrimning xulosa qismi sud ishni apellatsiya taribida muhokama qilish tamomlangan majlisning o'zidayoq e'lon qilish kerakligi asoslab berilgan. Bunday hollar o'ta muhim ishlar bo'yicha nazarda tutilgan (FPKning 342-moddasi).

Ishning apellatsiya shikoyati yoki protesti bo'yicha qayta ko'rilishi natijasida ikkinchi instansiya sudi tomonidan chiqarilgan qarorga apellatsiya ajrimi deb aytiladi. Apellatsiya ajrimi ham, sudning hal qiluv qarori kabi to'rt qismga bo'linib, mazmunida ajrim chiqarilgan vaqt va joy, ajrim chiqargan sudning nomi va tarkibi, apellatsiya instansiya sudida ishtirok etgan prokuror va ishda qatnashuvchi boshqa shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, ish apellatsiya instansiyada kimning shikoyati yoki protesti bilan ko'rilganligi, shikoyat qilingan yoki protest keltirilgan hal qiluv qarorining nomi va uning qisqacha mazmuni, apellatsiya shikoyatda yoki protestida ifodalangan vajlar, keltirilgan materiallarning qisqacha mazmuni, apellatsiya instansiyasida ishni ko'rishda ishtirok etgan shaxslarning tushuntirishlari, prokurorning fikri, apellatsiya instansiya sudining xulosalariga asos bo'lgan dalillar va sud qo'llagan qonun, sudning qarori ko'rsatiladi.

Sudning hal qiluv qarorini bekor qilib, ishni yangidan ko'rish uchun yuborsa, ishni yangidan ko'rishda qanday holatlarni aniqlash zarurligini, qanday dalillarni talab qilib olish kerakligini, shuningdek, birinchi instansiya sudi boshqa qanday harakatlarni bajarishi lozim ekanligini o'z ajrimida ko'rsatish kerak.

Sud apellatsiya shikoyati yoki protestini rad qilsa, qanday asoslarga ko'ra shikoyat yoki protestdagi vajlarni noto'g'ri deb yoki qarorni bekor qilish, o'zgartirish yoki yangi hal qiluv qarori chiqarish uchun asos bo'lmaydi deb topganligini ham o'z ajrimida ko'rsatishi shart (FPKning 315-moddasi). Apellatsiya tartibda ishni ko'rgan sudning ajrimda bayon qilingan ko'rsatmalari shu ishni yangidan ko'radigan sud uchun majburiydir. Masalan, biron-bir guvohni chaqirib so'ralishi lozim deb topilgan bo'lsa, mazkur guvoh sudga chaqirilishi, agar undan so'roq olish mumkin bo'lmasa, ishning holati boshqa guvohlarning ko'rsatuvlari yoki boshqa dalillar bilan aniqlashi lozim.

Ishni apellatsiya tartibida ko'rayotgan sud hal qiluv qarorida belgilanmagan yoki unda rad qilingan holatlarni belgilashga yoki isbotlangan deb hisoblashga, biror dalilning ishonchli yoki ishonchsizligi to'g'risidagi bir xil dalillarning boshqa xil dalillardan ustunligi to'g'risidagi, shuningdek, moddiy huquqning qanday normasi tadbiiq qilinishi va ishni yangidan ko'rganda qanday hal qiluv qarori chiqarish kerakligi to'g'risidagi masalalarni oldindan belgilab qo'yishga haqli emas. Bu to'g'risidagi tushuntirishlar O'zbekiston Respublikasi Odiy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi qarorida o'z ifodasini topgan.

AJRIMI

2003-yil iyul oyining 20 kunida fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand viloyat sudi apellatsiya sudlov hay'atining ochiq sud majlisida raislik etuvchi viloyat sudi raisining o'rinbosari D.J.Qodirov, hay'at a'zolari: O.M.Qobulova, A.X.Yarashevlardan iborat tarkibda N.Mamajonovning kotibligida, viloyat prokurorining yordamchisi SH.Umarovanning ishtirokida fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand tumanlararo sudining 23-may 2003-yildagi da'vogar Eshonov Mamasiddiqni javogar Veчерova Yelenaga nisbatan uydан ko'chirish to'g'risidagi fuqarolik ishi bo'yicha chiqargan hal qiluv qaroriga javobgar YE.Veчерova tomonidan keltirilgan apellya-siya shikoyati va da'vogar M.Eshonovning e'tiroz arizasi fuqarolik ishi materiallariga qo'shib apellatsiya tartibida ko'rilganda quyidagilar

Aniqlandi:

Da'vogar Eshonov Mamasiddiq sudga da'vo ariza bilan murojaat qilib, u 1980-yildan buyon Samarqand shahar Buzruh dahasi 41-uy 3 xonadonda yashab kelganligini, Ivanov Yevgeniyning onasi Yevdokiya 1990-yilda vafot etganligini, YE.Ivanov kasalvand bo'lib, uning tutqanoq kasalligi borligini, shu sababli u 1-guruh nogironligini, da'vogar uning qo'shnisi bo'lganligi uchun unga rahmi kelib, o'z xomiyligiga olib, doimiy ravishda qarab kelganligini, YE.Ivanov 1996-yili 2-fevral kuni Samarqand shahar 3-sonli davlat notarial idorasi orqali unga o'z uyini vasiyat qilganligini, 2003-yilga kelib vafot etganligini, vasiyat haqida uning vafotidan keyin xabar topganligini, uning dafni bilan bog'liq barcha marosimlarni o'tkazganidan so'ng notarial tartibda uyni rasmiylashtirib olganligini, ushbu uyni Samarqand uy-joy kadastri tomonidan uning nomiga o'tkazilganligini, da'vogar Eshonov Mamasiddiq ushbu uyda fuqaro Veчерova Yelenani bir nafar farzandi bilan turar joyi yo'qligi sababli, vaqtincha yashash uchun ruxsat berganligini, lekin YE.Veчерova u yerda bema'ni ishlar qilganligi uchun haydab yuborganligini, marxum YE.Ivanovga fuqaro YE.Veчерovanning hech qanday aloqasi yo'qligini, uning vafotidan so'ng nizoli uy-joyga eshikni buzib kirib olib, hech kimning ruxsatisiz u yerda hozirgi kunga qadarli yashayotganligini, bundan tashqari YE.Veчерova sudga marhumning qaramog'ida bo'lgan faktni tasdiqlashlik haqida da'vo kiritganligini, sud ushbu da'vosini asossiz bo'lganligi sababli qanoatlantirilmaganligini ko'rsatib, yuqoridagilarni

hisobga olgan holda javobgar Vecherova Yelenani uydan majburiy ko'chirish haqida hal qiluv qarori chiqarishni so'ragan.

Sud majlisida javobgar Vecherova Yelena da'voni tan olmay, marhum YE.Ivanov bilan 1997-yilda tanishib, unga tegishli bo'lgan Samarqand shahar Buzruh dahasi 4-uyning 4-xonadonida ijarada turishlikni so'raganligini, YE.Ivanov rozi bo'lib, ushbu nizoli uyda 6 oy turganligini, so'ngra YE.Ivanov unga turmushga chiqishni so'raganida, javobgar roziligini bildirib, u bilan er-xotin bo'lib yashaganliklarini, YE.Ivanovning pasporti da'vogar M.Eshonovlarda bo'lganligi sababli ulari nikohini qonuniy rasmiylashtira olmaganligini, YE.Ivanov bilan uning vafotiga qadarli birga bo'lib, unga qarab, uni parvarishlab yurganligini, marosimlarni o'zi o'tkazganligini, marhum hech kimga nisbatan hech qanday vasiyat qoldirmaganligini, qoldirgan taqdirda albatta uni xabari bo'lishi kerakligini, u haqiqatdan ham qaramog'ida bo'lganlik faktini tasdiqlashlik uchun sudga murojaat qilganligini, lekin sud da'vosini qanoatlantirmaganligini, hozirda yashash uchun turar joyi yo'qligini ma'lum qilgan hamda M.Eshonovning da'vosini rad etishni so'ragan.

Birinchi instansiya sudi da'vo qanoatlantirib, javobgar YE.Vecherovani 1995-yil tug'ilgan Maftuna ismli farzandi bilan Samarqand shahar Buzruh dahasi 4-uyning 4-xonadonidan boshqa turar joy bermagan holda majburiy tarzda ko'chirish haqida hal qiluv qarorini chiqargan.

Ushbu hal qiluv qaroriga nisbatan javobgar YE.Vecherova fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand viloyat sudining apellatsiya sudlov hay'atiga apellatsiya shikoyati keltirib, muqaddam qaramog'ida bo'lganlik faktini tasdiqlashlik haqidagi fuqarolik ishini sud atroflicha o'rganmasdan, kerakli guvohlarni chaqirmasdan hal qiluv qarori chiqarganligini, uydan ko'chirish to'g'risidagi fuqarolik ishi yuzasidan ham ayni shu qarorga asoslangan holda hal qiluv qarori chiqarganligi, undan boshqa marxum YE.Ivanovga hech kim qaramaganligini, nizoli uyni o'ziga qoldirish maqsadida u bilan yashaganligini, u bilan faktik nikohda birga turmush qurganligini, sud da'vogar M.Eshonov tomonidan taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiyiligini tekshirilmaganligini aytib, hal qiluv qarorini bekor qilib, da'voni rad qilishni yoki o'zaro kelishtirib qo'yishni so'ragan.

Sudlov hay'ati ish bo'yicha sudya A.X.Yarashevning ma'ruzasini, javobgarning vakili C.Boqiyevni apellatsiya shikoyatini qanoatlantirish haqida tushuntirishi prokuror SH.Umarovning hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirish haqidagi fikrini tinglab, ish materiallarini atroflicha

o'qib chiqib, quyidagi asoslarga ko'ra hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirishni lozim topadi.

Ish holatlaridan ma'lum bo'lishicha, Samarqand shahar, Buzruh dahasi, 4-uy, 4-xonadon marhum YE.Ivanoga tegishli bo'lib, ushbu uy-joyini YE.Ivanov 2-fevral 1999-yil kunidagi notarial idora orqali tasdiqlanib qoldirilgan vasiyatnomaga (i.v 8) asosan da'vogar M.Eshonovga qoldirilganligi, notarial idorasi tomonidan tasdiqlangan 29-yanvar 2003-yil kuni R-5-38-sonli (i.v 9) vasiyatnoma bo'yicha merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomaga asosan Eshonov Mamasiddiqqa tegishli bo'lganligini ko'rinadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 182-moddasiga asosan da'vogar M.Eshonov uyni meros tariqasida qabul qilib, nizoli xonadonning mulkdori hisoblanadi.

Ish materiallarining 10-varaqasida nizoli xonadon 6-mart 2003-yil da'vogar M.Eshonovni nomiga davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqida guvohnoma nusxasi mavjud.

Bunday holatda Samarqand shahar, Buzruh dahasi, 4-uy, 4-xonasi da'vogar M.Eshonovning xususiy mulki bo'lib, u ushbu xonadonning o'z manfaatlarini ko'zlab tasarruf etishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 164-moddasida mulk huquqi shaxsning o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining mulk huquqini kim tomonidan bo'lmasin har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir deb ko'rsatilgan.

Javobgar YE.Vechereva o'zining apellatsiya shikoyatida marhum YE.Ivanov bilan er-xotin bo'lib yashab kelganligini bildirsa-da, Jomboy tumanlararo sudining (i.v 17) 12-dekabr 2002-yildagi hal qiluv qarori bilan da'vogar YE.Vecherevaning qaramog'ida bo'lganlik faktini belgilash haqidagi arizasi asosiz deb topilib rad qilingan va ushbu hal qiluv qarori hozirda qonuniy kuchga ega.

YE.Vechereva hozirgi kunda nizoli xonadonda ro'yxatda turmasdan noqonuniy ravishda yashab kelayotgan bo'lib, bunday holatda da'vogar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 228-moddasi tartibida o'z mol-mulkini boshqa shaxslarning qonunsiz egaligidan talab qilib olishga haqli hisoblanadi.

Shunga ko'ra birinchi instansiya sudi da'vogar M.Eshonovning da'vosini qanoatlantirish haqida qonuniy to'xtamga kelgan.

Sudlov hay'ati yuqoridagilarga ko`ra, ish bo`yicha keltirilgan apellatsiya shikoyatidagi vajlar bilan kelishmaydi va bu keltirilgan vajlar birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini o`zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bo`la olmaydi degan xulosaga kelib, hal qiluv qarorini o`zgarishsiz, apellatsiya shikoyatini qanoatlantirmasdan qoldirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Binobarin, apellatsiya sudlov hay'ati O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 342, 343-moddalarini qo`llab,

Ajrim qiladi:

Fuqarolik ishlari bo`yicha Samarqand tumanlararo sudining 23-may 2003-yildagi da`vogar Eshonov Mamasiddiqning javobgar Vecherova Yelena ga nisbatan uydan ko`chirish to`g`risidagi fuqarolik ishi bo`yicha chiqargan hal qiluv qarori o`zgarishsiz, keltirilgan apellatsiya shikoyati qanoatlantirilmagan qoldirilsin

Raislik qiluvchi: -

Hay'at a'zolari: - 1.
- 2.

BIRINCHI INSTANSIYA SUDINING AJRIMLARI USTIDAN SHIKOYAT BERISH VA PROTEST KELTIRISH

Apellatsiya instansiya sudi birinchi instansiya sudi u tomondan ish ko`rinishda yo`l qo`ygan kamchiliklari, jumladan, qonun buzilishi hollarini ko`rsatib, FPKning 19-moddasiga asosan xususiy ajrim chiqarishi mumkin.

Birinchi instansiya sudi chiqargan ajrim ustidan manfaatdor shaxsning beradigan shikoyatiga xususiy shikoyat, prokurorning keltirgan protesti esa-xususiy protest deb aytiladi.

Qonun birinchi instansiya sudining chiqargan barcha ajrimlari ustidan shikoyat berish yoki protest keltirish mumkinligini ko`rsatmaydi. Birinchi instansiya sudi ajrimlari ustidan shikoyat berish yoki protest keltirish masalasi, avvalo, ajrimlar qaysi sud tomonidan chiqarilgan bo`lishligiga qarab hal qilinadi. Bu belgiga ko`ra O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi chiqargan ajrimlar ustidan shikoyat berib bo`lmaydi.

Boshqa hamma sudlarning ajrimlari ustidan shikoyat berish, protest keltirish mumkin bo'ladigan va mumkin bo'lmaydigan ajrimlarga bo'ladi.

Shikoyat berilishi yoki protest keltirilishi mumkin bo'lgan ajrimlar qonunda, masalan: FPKning 108-moddasida sud harajatlari bo'yicha chiqarilgan ajrimlar, 125-moddasida jarima solish to'g'risidagi ajrimi ustidan shikoyat qilish, 130-moddasida protsessual muddatlarni kechiktirish va tiklash, 147-moddasida ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish tartibi, 152-moddasida arizani qabul qilishni rad etish, 256-moddasida da'voni to'xtatish masalasi to'g'risida chiqarilgan ajrimlar ustidan xususiy shikoyat keltirish; 213-moddasida hal qiluv qaroriga tuzatish to'g'risida sudning qarorini ustidan xususiy shikoyat berish; 214-moddasida qo'shimcha hal qiluv qarorini chiqarishni rad etish haqida chiqarilgan ajrim ustidan xususiy shikoyat berish; 215-moddasida hal qiluv qarorini tushuntirish; 216-moddasida hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish va uni bo'lib-bo'lib ijro etish, hal qiluv qarorini ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish ustidan xususiy shikoyat berish; 220-moddasida hal qiluv qarorining darhol ijro etilishiga sudning yo'l qo'yish huquqi ustidan xususiy shikoyat; 95-moddasida ishni to'xtatish ajrimi ustidan xususiy shikoyat; 374-moddasida ijro varaqasining dublikatini berish to'g'risida sud ajrimi ustidan xususiy shikoyat berish va boshqalar ko'rsatilgan. Bularidan tashqari, sudning ajrimi ishning kelgusidagi harakatiga to'sqinlik qiladigan hollarda ham, masalan arizani yoki apellatsiya shikoyati qabul qilish to'g'risidagi dltimos rad qilinishi, ishning yuritilishini to'xtatish va boshqa ba'zi hollarda chiqarilgan ajrimlar ustidan ham xususiy shikoyat (yoki protest) berilishi mumkin. Birinchi instansiya sudining ba'zi boshqa ajrimlari ustidan xususiy shikoyat berilmasligi yoki protest keltirilmasligi qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan. Bunday hollarda ajrimlarga qarshi e'tirozlar apellatsiya shikoyati yoki protestiga kiritilishi mumkin. Xususiy shikoyat berish va protest keltirish hamda ularni ko'rish tartibi FPKning 37-38-boblarida ko'rsatilgan. Xususiy shikoyat yoki protestlarni ko'rishda apellatsiya instansiyasining vakolati FPKning 348-moddasida belgilangan.

Bu qoidada ko'rsatilishicha:

- 1) ajrimni o'zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka;
- 2) ajrimni bekor qilishga va ishni mazmunan ko'rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga;
- 3) ajrimni butunmay yoki qisman o'zgartirishga yoxud bekor qilishga va masalani mazmunan hal qilishga haqli.

Xususiy shikoyat yoki protest bo`yicha apellatsiya instansiya sudi chiqargan ajrimi ustidan shikoyat berish mumkin emas, bunday ajrimni chiqarilishi bilan darhol qonuniy kuchga kiradi.

XUSUSIY AJRIM

2002-yil 13-oktabrda fuqarolik ishlari bo`yicha Namangan viloyati sudining apellatsiya sudlov hay'atini ochiq sud majlisi bo`lib, raislik etuvchi U.Bakirov, hay'at a'zolari S.Baxriyev, R.Xotamovlardan iborat tarkibda, Alishevning kotibligida da'vogar U.Zokirovning javobgar Namangan tuman Vino zavodiga ishga tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun haq undirish to`g`risidagi Namangan tumanlararo sudining 2001-yil 25-avgustda chiqargan hal qiluv qarori yuzasidan Namangan tuman vino zavodining apellatsiya tartibida keltirgan shikoyat arizasi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Namangan tumanlararo sudining 2001-yil 25-avgustdagi hal qiluv qaroriga ko`ra, javobgar Namangan tumani Vino zavodidan da'vogar U.Zokirov foydasiga noilojdan bekor yurgan vaqti uchun 1213 so`m undirilgan hamda ishga tiklash to`g`risidagi da'vosi qanoatlanirilgan. Namangan viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha sudi apellatsiya sudlov hay'atining 2001-yil 18-sentabrdagi ajrimi bilan sudning hal qiluv qarori bekor qilingan. Sud bunga asos qilib, birinchi instansiya sudning ushbu fuqarolik ishini ko`rishda ko`plab protsessual xatoliklarga yo`l qo`ygani yig`ilgan dalillarni tahlil qilmay tayyorlov bosqichida bajariladigan protsessual harakatlarga e'tibor bermay, FPKning 161-moddasidagi talablarga rioya qilmay, ishni mazmunan ko`rishda shoshma-shosharlik bilan xulosaga kelganligini, shuningdek FPKning 15, 203-208-moddalari talablarini qo`pol ravishda buzganligi ko`rsatilgan.

FPKning 206-215-moddalarida sud hal qiluv qarorining mazmuni va uni e'lon qilish tartibi to`g`risida ko`rsatilgan bo`lib, qonun talabiga ko`ra, sud hal qiluv qarorini maslahat xonada yozgandan so`ng sud zalida to`liq o`qib eshittirilishi lozim bo`lsa-da, sudya maslahat uyida bir necha daqiqagina bo`lib chiqadi va raislik qiluvchi U.Bozorov hal qiluv qarori «uch kundan keyin e'lon qilinadi» deb og`zaki ravishda e'lon qiladi. Raislik qiluvchi bu barakati bilan FPKning 205-moddasidagi talablarini buzganligi aniqlanadi. Hal qiluv qarorining to`liq matni bilan uch kundan so`ng tanishtirish to`g`risidagi qoida buzilgan. Bundan tashqari, hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida sud protsessual huquq normalarini ham

noto'g'ri qo'llagan, jumladan: «sud O'zbekiston Respublikasi FPKning 179) 282-moddalarini qo'llab qaror qiladi», deb ko'rsatgan.

Sudlov hay'ati ushbu fuqarolik ishini sud majlisida ko'rishda raislik qiluvchi sudya U.Bozorov tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni alohida ta'kidlash bilan uning harakatlarini fuqarolik ishlari bo'yicha Namangan viloyat sudi qoshidagi malaka hay'ati yig'ilishida muhokama etilmog'i lozim deb hisoblaydi.

Yuqoridagilarga ko'ra sudlov hay'ati FPKning 348¹¹-moddasini qo'llab,

Ajrim qiladi:

Namangan viloyati, fuqarolik ishlari bo'yicha Namangan tumanlararo sudining 2001-yil 25-sentabrdagi da'vogar U.Zokirovni javobgar Namangan tuman Vino zavodiga nisbatan qo'zg'atilgan fuqarolik ishini ko'rishda ish bo'yicha raislik qilgan sudya U.Bozorovning yo'l qo'ygan kamchiliklari haqida fuqarolik ishlari bo'yicha Namangan viloyati sudi qoshidagi malaka hay'ati xabardor qilinsin.

Ko'rilgan chora-tadbirlar haqida ushbu xususiy ajrimining nusxasini olgan kundan boshlab bir oy muddat ichida fuqarolik ishlari bo'yicha Namangan viloyati sudi rahbariyatini xabardor qilib, tegishli chora ko'rish uchun masalani hal qilinishi maqsadga muvofiq.

Raislik qiluvchi:	U.Bakirov
Hay'at a'zolari	S.Baxriyev
	R.Hotamov

XI. ISHNI KASSATSIYA TARTIBIDA KO`RISH ASOSLARI

Agar ishning dastlabki sudda ko`rilishida qonun talablariga rioya qilinmagan, ish holatlarining murakkabligi yoki boshqa sabanlarga ko`ra xatolarga yo`l qo`yilgan bo`lsa, bunday xatolar kassatsiya tartibida ko`rib, aniqlanishi va tuzatilishi mumkin.

Ishning ko`rilishi natijasidan norozi bo`lgan shaxslar yuqori sudga shikoyat yoki protest bilan murojaat qilib, ishning tekshirilishini iltimos qilishlari mumkin. Yuqori sudlar o`z navbatida birinchi instansiya tariqasida ish ko`rgan sudlarning qabul qilgan qarorlari qanchalik to`g`ri va asosli bo`lganligini tekshirishga majbur.

FPKning 348¹-moddasida ko`rsatilganidek, qonuniy kuchga kirgan, apellatsiya tartibida ko`rilmagan hal qiluv qarorlari ustidan sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e`tiboran bir yil ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar tomonidan kassatsiya shikoyati berilishi va prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

Tuman (shahar) sudlarining fuqarolik ishlari yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari, ajrimlari ustidan shikoyatlar berilganda, ular albatta yuqori turuvchi sudlar tomonidan tekshiriladi. Ayrim fuqarolik ishlar bo`yicha kassatsiya tartibda shikoyat berilmasa-da, ular qonunda ko`rsatilgan hollarda nazorat tartibida tekshirilishi, qayta ko`rilishi mumkin.

Yuqori sudlar kassatsiya shikoyati va protestlarni ko`rish bilan birinchi instansiya sudlarining xatolarini tuzatadi va shu bilan odil sudlovning to`g`ri amalga oshirilishiga, fuqarolik huquqiy munosabatlarda qatnashuvchilarning huquqlarini himoya qilishga yordam beradi, quyi sudlarning qarorlarini tekshirish bilan ularni to`g`ri va qonuniy hal qiluv qarorlarini chiqarish uchun yo`llaydi, ulardan qonunlarni to`g`ri tadbiq etishni talab etadi va ular ustidan nazorat olib boradi.

Shikoyat qilish huquqi sudning hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin qonuniy kuchga kirishi bilan paydo bo`ladi. Bu huquq kassatsiya shikoyat berilishi bilan amalga oshiriladi. Kassatsiya shikoyat yuqori sudning nomiga yozilib, fuqarolik ishiga qo`shilgan holda qaror chiqargan sud orqali yuboriladi.

Kassatsiya shikoyat yoki protest sud tomonidan hal qiluv qarori chiqarilgan kundan boshlab bir yil ichida berilishi mumkin. Ko`rsatilgan muddat o`tgandan so`ng berilgan shikoyat yoki protest ko`rilmasdan qoldiriladi va shikoyat yoki protest bergan shaxsga qaytariladi. Qonun bilan belgilangan bu muddat o`zgartirilmaydi.

Kassatsiya shikoyat yoki protestning mazmuni va uni berish tartibi FPKning 348⁴-moddasida belgilangan.

Kassatsiya shikoyat yoki protest sud jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab nusxalari bilan qo`shib beriladi.

Sudya, zarur hollarda, kassatsiya shikoyat bergan shaxsga yoki protest keltirgan prokurorga kassatsiya shikoyatga yoki protestga ilova qilingan yozma materiallarning ishda ishtirok etuvchi shaxslar soniga qarab nusxalari bilan topshirish majburiyatini yuklay oladi.

Sudning hal qiluv qaroriga keltiriladigan kassatsiya shikoyatidan nizoli summa bo`yicha da`vo arizalari uchun belgilangan miqdorning 50 foizi miqdorida davlat boji olinadi. Agar kassatsiya shikoyati yoki protesti berishda FPKning 348³-348⁴-moddalarining talablari buzilgan bo`lsa yoki davlat bojini to`lashdan ozod qilinmagan shaxs bojni to`lamagan bo`lsa, kassatsiya shikoyati harakatsiz qoldiriladi.

Fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar sudiga
Toshkent shahar, A.Ikromov tuman sudining 2001-yil
3-fevralda chiqargan hal qiluv qaroridan norozi
bo`lib, javobgar Shavkat Rahmatullayev tomonidan

KASSATSIYA SHIKOYATI

1999-yil 3-fevralda A.Ikromov tuman sudi da`vogar Durdona Rahmatullayevaning menga nisbatan nikohni bekor qilish va o`rtamizdagi mol-mulkni bo`lish haqidagi fuqarolik ishini ko`rib, da`voni qisman qanoatlantirish haqida hal qiluv qarori chiqaradi.

Men hal qiluv qarorining nikohni bekor qilish qismidan emas, balki mol-mulkni taqsimlash qismidan noroziman.

Sud ish ko`rish vaqtida mol-mulkni bo`lish qismiga ahamiyat bermadi. 5580 so`mga olingan gilamni to`yimizdan avval o`z pulimga olib, uyning devoriga osib qo`yganmiz, bu onamning shaxsiy mulki bo`lib, o`zbek odatiga ko`ra, kelin tushirganlaridan so`ng bizga foydalanish uchun bergan edilar. Sud onamning bu shaxsiy mulkini da`vogarning foydasiga undirish haqida hal qiluv qarori chiqardi. Bundan tashqari, onam kelinga 5580 so`mlik beshta dur ko`zli nikoh uzugi va vaqtincha taqib yurishi uchun o`zining 1200 so`mlik yoqut ko`zli uzugini bergan edi, sud bu uzuklarni ham da`vogarning foydasiga undirib berdi. Bu qarordan men qat`iy noroziman, chunki bu mulklar onamning o`z puliga olingan shaxsiy

mulkidir. Axir, men ham kelinning o`z uyidan olib kelgan (ya'ni ota-onasi tomonidan qilingan) narsalaridan olayotganim yo`qku.

Da'vogar bilan birgalikdagi turmushimizda biz quyidagi narsalarni olgan edik: 3 ta qizil gulli palos-umumiy bahosi 412 so`m; 2 ta qandil umumiy bahosi 2050 so`m, 1 ta 880 so`mlik gilam, 1 ta ayollarning norka telpagi-bahosi 5200 so`m, ayollar ko`ylagi-bahosi 2200 so`m, ayollar plashi-bahosi 4200 so`m, ayollar soyaboni-bahosi 945 so`m, ayollar pidjagi-bahosi 1050 so`m, ayollar yozgi kostum-yubkasi-bahosi 3065 so`m, ayollar sumkasi-bahosi 825 so`m va boshqa mayda-chuyda narsalar.

Birgalikda olingan bu narsalarning umumiy qiymati 20979 so`mni tashkil etadi. Sudning qaroriga asosan yuqoridagi narsalardan faqat 2318 so`mlikini (2 ta palos va 1 ta qandil) menga berildi. Qolgan 18478 so`mlik narsa da'vogarning foydasiga qaror qilindi. Sud ishni bir tomonlama ko`rib hal etganligini, ishga aloqador guvohlarni chaqirmaganligini, mening da'voimni hisobga olib, ishni kassatsiya tartibida atroflicha ko`rib chiqish lozim deb hisoblayman.

Yuqoridagilarga ko`ra, FPKning 348¹, 348¹⁵-moddalariga asosan

So`rayman:

Toshkent shahri, A.Ikromov tuman sudining 2001-yil 3-fevraldagi hal qiluv qarorini bekor qilib, ish shu sudga boshqa hay'atda qayta ko`rish uchun yuborishni.

Ilova: Kassatsiya shikoyatidan nusxa.

2002-yil 10-yanvar.

SH.Rahmatullayev

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent viloyat sudining sudlov hay'atiga
Toshkent viloyati prokurori
Toshkent viloyati Qibray tuman sudining 2001-yil 26-oktabrda chiqargan hal qiluv qaroriga nisbatan

PROTEST
(Kassatsiya tartibida)

Da'vogar Turg'unboi Yo'ldoshev Mohira Safarova bilan qonuniy nikohdan o'tib, turmush qurganlar va Qibray tuman, Matqobulov nomli qishlog'i, Sheraliyev ko'chasidagi 33-uyda yashab kelishgan. 1997-yilda ular o'rtasidagi nikoh sud tomonidan bekor qilingan.

Ish bo'yicha da'vogar Turg'unboi Yo'ldoshev sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, M.Safarovani Sheraliyev ko'chasidagi 33-uydan chiqarishni so'ragan.

Qibray tumani sudining 2001-yil 26-oktabrdagi qaroriga muvofiq, da'vogarning talablari qanoatlantirilib, javobgar M.Safarova bolalari Saodat va Shahodatlar bilan Sheraliyev ko'chasidagi 33-uy-joydan boshqa turar joy berilmagan holda ko'chirilgan.

Sudning hal qiluv qarorini bekor qilib, uni quyidagi asoslarga ko'ra yangidan ko'rish uchun yuborish lozim deb hisoblayman:

Ish materiallariga ko'ra, sud javobgar M.Safarovaga bir necha marotaba chaqiruv xatlari jo'natilgan deyilgan bo'lsa-da, ammo chaqiruv xatlarini javobgar M.Safarovaning olganligi haqida ishda biron-bir ma'lumot ko'rsatilmagan.

Sud esa fuqarolik ishini javobgar M.Safarovaning ishtirokisiz ko'rib, FPKning 34-moddasida ko'rsatilgan huquq va burchlarini qo'pol ravishda buzganligi aniqlandi.

Bundan tashqari, sud hal qiluv qarorida fuqarolik ishini FPKning 179-moddasi asosida, javobgarning ishtirokisiz ko'radi deb ko'rsatgan, holbuki, bu moddaning talablariga ko'ra sud majlisiga uzrsiz sabablarga binoan kelmagan da'vogar yoki javobgarga nisbatan jarima solinishi, ikkinchi marotaba kelmagan taqdirda ish ko'rmasdan qoldirilishi ko'zda tutilgan (O'z kuchini yo'qotgan Kodeksga havola qilgan).

Bulardan tashqari, da'vogar T.Yo'ldoshev arizasida javobgar M.Safarovani Matqobulov qishloq Sheraliyev ko'chasida joylashgan 33-uydan ko'chirish to'g'risida so'ragan bo'lsa-da, lekin sudning hal qiluv

qarorida «M.Safarova bolalari bilan Matqobulova qishlog'i Sheraliyev ko'chasida joylashgan 28-uydan ko'chirilsin» deb yozilgan.

Ishni yangidan ko'rishda sud yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etib, qonun talablari asosida hal etishi lozim.

Yuqoridagilarga ko'ra va FPKning 348¹-moddasiga asosan

So'rayman:

Fuqarolik ishlari bo'yicha Qibray tuman sudining 2001-yil 26-oktabrdagi hal qiluv qarorini bekor qilib, ishni yangidan shu sudga boshqa hay'atda ko'rish uchun yuborilsin.

Ilova: Keltirilgan protestdan ikki nusxa.

2001-yil 30-dekabr

Toshkent viloyati prokurori,
3-darajali davlat maslahatchisi
A.Qurbonov

KASSATSIYA SHIKOYATI BO'YICHA SUD AJRIMI HAQIDA

Kassatsiya instansiya sudining ajrimi ish ko'rilgandan keyin darhol chiqariladi.

Ishning kassatsiya shikoyat yoki protest bo'yicha qayta ko'rilishi natijasida kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan chiqarilgan qarorga kassatsiya ajrimi deb aytiladi. Kassatsiya ajrimi ham sudning hal qiluv qarori kabi to'rt qismga bo'linib, mazmunida ajrim chiqarilgan vaqt va joy; ajrim chiqargan sudning nomi va hay'ati; prokuror va ishda qatnashuvchi boshqa shaxslarning ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotlar; ish kassatsiya insansiyada kimning shikoyati yoki protesti bilan ko'rilganligi; shikoyat qilingan yoki protest keltirgan hal qiluv qarorining nomi va uning qisqacha mazmuni; kassatsiya shikoyatida yoki protestda ifodalangan vajlar; keltirilgan materiallarning qisqacha mazmuni; kassatsiya instansiyada ishni ko'rishda ishtirok etuvchi shaxslarning bayonotlari va prokurorning fikri, kassatsiya instansiya sudining xulosalariga asos bo'lgan dalillar va sud qo'llagan qonun; sudning qarori ko'rsatiladi.

Sud hal qiluv qarorini bekor qilib, ishni yangidan ko'rish uchun yuborsa, ishni yangidan ko'rishda qanday holatlarni aniqlash zarurligini, qanday dalillarni talab qilib olish kerakligini, shuningdek, birinchi

mansiyasi sudi boshqa qanday harakatlarni bajarishi lozim ekanligini o'z qirimida ko'rsatishi kerak.

Sud kassatsiya shikoyat va protestni rad etsa, qanday asoslarga ko'ra shikoyat yoki protestdagi dalillarni noto'g'ri deb yoki hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asos bo'lmaydi deb topganligini ham o'z ajrimida ko'rsatishga majbur. Kassatsiya tartibda ishni ko'rgan sudning ajrimida buyon qilingan ko'rsatmalar shu ishni yangidan ko'radigan sud uchun majburiydir.

Ishni kassatsiya tartibda ko'rayotgan sud hal qiluv qarorida belgilanmagan yoki uni rad qilingan holatlarni belgilashga yoki isbotlangan deb hisoblashga, biror dalilning ishonchli yoki ishonchsizligi to'g'risidagi, shuningdek moddiy huquqning qanday normasi tadbir qilinishi lozimligini va ishni yangidan ko'rganda qanday hal qiluv qarori chiqarish kerakligi to'g'risidagi masalani oldindan belgilab qo'yishga haqli emas.

Kassatsiya shikoyatini qanoatlantirish haqida
ajrim namunasi

AJRIM

2002-yil 23-iyunda fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudining ochiq sud majlisida sudya B.U.Norov raisligida, K.Saidov va S.Komilovalardan iborat hay'atida, Toshkent shahar, Sobir Rahimov tuman sudining 2002-yil 7-fevralda ko'rgan 600-raqamli fuqarolik ishi bo'yicha chiqargan hal qiluv qaroriga javobgar Baxtiyor Do'stmuhammedov tomonidan norozi bo'lib keltirilgan kassatsiya shikoyat arizasi ko'rib, ish bo'yicha hay'at a'zosi S.Komilovanning ma'ruzasi tinglanib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da'vogar N.T.Do'stmuhammedova sudga da'vo arizasi bilan murojaat etib, 1989-yili javobgar Baxtiyor Do'stmuhammedov bilan qonuniy nikohdan o'tib, turmush qurgani, o'rtalarida ikki nafar farzandlari: qizi Hilola 1990-yil 20-iyulda, Zizola 1994-yil 10-oktabrda tug'ilganligini, turmushlarining boshida yaxshi yashaganligini, lekin keyinchalik javobgarning muomalasi o'zgarib, tez-tez janjal qila boshlaganini, so'ng sudga ajralish uchun ariza berganligini, avvaliga u bolalarini yetim qilmaslik uchun ajralishga norozi bo'lganligini, keyinchalik esa javobgar boshqa ayolga uylanganini bilgandan so'ng u bilan birga yashashga ko'zi

yetmaganligini sababli o'rtalaridagi nikohni bekor qilishni, shuningdek turmush davrida olingan mol-mulklar borligini, shulardan LUAZ-969 markali davlat raqami 10 D 2705 avtomashinani uning foydasiga qoldirishni, qolgan mulklarn esa javobgarga qoldirishni so'ragan.

Javobgar B.Do'stmuhammedov ajralishga rozi ekanligini, turmush davrida olingan mol-mulklarning hammasini da'vogarga qoldirib, LUAZ-969 markali avtomashinani esa o'ziga foydalanish uchun qoldirishni so'ragan.

Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanlararo sudining 2002-yil 7-fevraldagi chiqargan hal qiluv qaroriga ko'ra, Do'stmuhammedovlar o'rtalaridagi nikoh bekor qilinib, nikohni bekor qilishda javobgar Do'stmuhammedovdan davlat boji 1000 so'm undirilib, tomonlarning turmush davrida olingan mol-mulklari ular o'rtasida taqsimlanib, da'vogar N.T. Do'stmuhammedovaga LUAZ-969 markali davlat raqami 10 D 2705 avtomashina qoldirilib, javobgar Do'stmuhammedovga esa 19820 so'mlik mol-mulk qoldirilishi belgilangan

Javobgar B.Do'stmuhammedov tomonidan yozilgan shikoyat arizasida sudning hal qiluv qarorining mol-mulk masalasida noto'g'ri qaror chiqargan hisoblab, avtomashinani da'vogarga emas, balki unga qoldirish lozim ekanligini, chunki unga juda ham transport zarur ekanligini ko'rsatib, sud qarorining mol-mulkn taqsimlash qismini bekor qilishni so'ragan.

Sudlov hay'atining majlisiga tomonlardan B.Do'stmuhammedov o'zi kassatsiya shikoyati yozgan bo'lsa-da, sud tomonidan hay'at majlisining bo'lish vaqti, soati ko'rsatilgan sud chaqiruvini olishiga qaramay, noma'lum sabablarga ko'ra sudga kelmagan. Shuning uchun FPKning 348¹⁴-moddasi 2-bandiga ko'ra fuqarolik ishini tomonlarsiz ko'rish mumkin deb hisoblaydi.

Sudlov hay'ati ishini atroflicha ko'rib, shikot arizasida yozilgan vajlarni muhokama qilib, quyidagilarga ko'ra birinchi nstansiya sudning chiqargan hal qiluv qarorini to'g'ri deb topadi va uni bekor qilish uchun asos yo'q deb hisoblaydi.

Ish materiallariga ko'ra taraflar-Do'stmuhammedovlar 1989-yil 19-iyunda nikohdan o'tib, turmush qurishgan, turmushlari davrida ikki nafar farzand ko'rishgan. Sud taraflarning nikohlarini bekor qilish uchun sabab bo'lgan holatlarni atroflicha tekshirib, nikohni bekor bo'lishida javobgarni sababchi deb topgan, chunki da'vogar Do'stmuhammedovaning ko'rsatmalariga qaraganda, taraflar farzandlari tug'ilgunga qadar yaxshi yashashgan, bolalar tug'ilgach, ular ko'p kasal bo'lganlar, natijada

da'vogar bolasi bilan kasalxonalarda yotib, javobgarni va uning otalarini xizmatini qila olmagan. Natijada ular o'rtasida janjallar boshlangan, javobgar Do'stmuhammedov ikkita voyaga yetmagan norasida farzandlari bo'lishiga qaramay, g'ayriqonuniy boshqa ayolga uylanib olgan. Shuning uchun sud har ikki tarafning kelgusida turmush qurib ketishlari mumkin emasligini hisobga olib, ular o'rtasidagi nikohni bekor qilib to'g'ri qaror chiqargan. Shikoyatchi Do'stmuhammedov qarorining nikohni bekor qilish qismiga qarshi shikoyat keltirmagan.

Taraflar o'rtasida mol-mulkni taqsimlanishiga kelganda hay'at hal qiluv qarorining bu qismini ham to'g'ri deb baholaydi, chunki sud avtomashinani da'vogar Do'stmuhammedovga qoldirishga, uni avtomashina haydash kursida o'qiyotganini, shuningdek, ikki yosh bolalarini N.Do'stmuhammedova tarbiyasida qolayotganini hisobga olib, qonun talabiga ko'ra, mol-mulkning hajmi, qaymati, narxi ko'prog'ini da'vogarga qoldirgan. Javobgar Do'stmuhammedovga esa magnitofon, televizor, gilam, ko'rpa-yostiqlar va hokazolar-umumiy miqdori 19820 so'mlik mol-mulk qoldirgan. Hozirda Do'stmuhammedov yangi oila qurgan, shuning uchun sud o'z qarorida da'vogarga avtomashinani qoldirishda Oila kodesining 27-modasiga ko'ra ikkita yosh bolalarini hisobga olgan holda, chiqargan hal qiluv qarorini hay'at asosli deb hisoblaydi.

Fuqarolik sudlov hay'ati yuqoridagilarga ko'ra va FPKning 348¹-348¹⁶-moddalariga asosan

Ajrim qiladi:

Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanlararo sudining 2002-yil 7-fevralda da'vogar N.T.Do'stmuhammedovanning javobgar B.Do'stmuhammedovga nisbatan nikohdan ajratish va mol-mulkni taqsimlash haqidagi da'vo arizasi bo'yicha ko'rilgan fuqarolik ishi yuzasidan chiqargan hal qiluv qarori o'zgarishsiz qoldirilsin.

Kassatsiya shikoyati qanoatlantirilmay qoldirilsin.

Ajrim ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

Raislik qiluvchi:	B.U.Norov
Sudyalar:	K.Saidov
	S.Komilov

BIRINCHI INSTANSIYA SUDINING AJRIMIGA NISBATAN SHIKOYAT, PROTEST KELTIRISH HAQIDA

Qonun birinchi instansiya sudining chiqargan barcha ajrimlari ustidan shikoyat berish yoki protest keltirish mumkinligini ko`rsatmaydi.

Shikoyat berilishi yoki protest keltirilishi mumkin bo`lgan ajrimlar qonunda, masalan, FPKning 105, 109, 114, 136, 143, 158, 221-224, 228, 239, 281, 287-moddalarida to`g`ridan to`g`ri ko`rsatilgan. Bulardan tashqari, sudning ajrimi ishning kelgusidagi harakatiga to`sqinlik qiladigan hollarda ham, masalan, arizani yoki kassatsiya shikoyatni qabul qilish to`g`risidagi iltimos rad qilinishi, ishning yuritilishini to`xtatish va boshqa ba`zi hollarda chiqarilgan ajrimlar ustidan xususiy shikoyat berilmasligi yoki protest keltirilmasligi qonunda to`g`ridan-to`g`ri ko`rsatilgan bo`ladi. Bunday hollarda ajrimlarga qarshi e`tirozlar kassatsiya shikoyati yoki protestda ko`rsatilishi mumkin.

Xususiy shikoyat yoki protestlarni ko`rishda kassatsiya instansiyaning vakolati FPKning 348¹-moddasida belgilangan. Bu qonunga binoan kassatsiya instansiya sudi xususiy shikoyat yoki protestni ko`rayotganda, ajrimlarni o`zgartirmasdan qoldirib, shikoyat yoki protest anoatlantirmaslikka yoki ajrimni bekor qilib, masalani yangidan ko`rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga yoxud ajrimni to`la va qisman bekor qilib, masalani mazmunan hal qilishga haqlidir.

Xususiy shikoyat yoki protest bo`yicha kassatsiya instansiya sudi chiqargan ajrim ustidan shikoyat berish mumkin emas. Bunday ajrim chiqarilishi bilan darhol qonuniy kuchga kiradi (FPKning 347-moddasi).

Kassatsiya instansiya sudi birinchi instansiya sudining ish ko`rishida yo`l qo`yilgan kamchiliklari, qonun buzilishi hollarini ko`rsatib xususiy ajrim chiqarishi mumkin (FPKning 348¹⁷-moddasi).

XUSUSIY AJRIM

2002-yil 20-avgustda fuqarolik ishlari bo`yicha Jizzax viloyat sudining sudlov hay`atining ochiq sud majlisi bo`lib, raislik qiluvchi sudya T.G`Norqulov, sudyalar K.S.Rustamova, R.Po`latjonovalar hay`atida da`vogar V.G`ofurovning javobgar Jizzax paxta tozalash zavodidan 5500 so`m undirish to`g`risidagi ishi yuzasidan Jizzax tuman sudining 2001-yil

17 sentabr kuni chiqargan hal qiluv qarori ustidan javobgar Jizzax shahar paxta tozalash zavodining kassatsiya shikoyati ko`rib, quyidagilar

Aniqlandi:

Fuqarolik ishlari bo`yicha Jizzax tumanlararo sudining 2001-yil 27-sentabrdagi hal qiluv qaroriga ko`ra javobgar Jizzax shahar paxta tozalash zavodidan da`vogar V.G`afurov foydasiga 5500 so`m undirish to`g`risidagi da`vo arizasi ko`rib hal etilgan.

Kassatsiya tartibida ishni ko`rishda sud tomonidan hal qiluv qarorini chiqarishda uni bekor qilish uchun asos bo`ladigan darajada kamchilik bo`lmas-da, ayrim protsessual qonunlar buzilishiga yo`l qo`yilganligi aniqlandi.

Ishda to`plangan hujjatlar shuni ko`rsatadiki, sudga fuqarolik ishi 2001-yil 30-iyunda kelib tushgan bo`lsa-da, FPKning 131-moddasida ko`rsatilgan 1 oylik muddatga rioya qilmay, ish mazmunan 2001-yil 27-sentabr kuni ko`rilgan. Bunga sabab ishni ko`rishga yetarli darajada tayyorgarlik ko`rmaganidir. Ishni mazmunan ko`rish uchun FPKning 160-161-moddalarida ko`rsatilgan protsessual harakatlar aniqlanmagan va bu haqda sud ajrimi chiqarilmagan. Buning natijasida ish ikki marta mazmunan ko`rishga tayinlangan bo`lishiga qaramay, turli sabablarga ko`ra qoldirilgan; jumladan, 2001-yil 28-avgust kuni ko`rilgan ish bo`yicha javobgarning keltirgan zararni aniqlash maqsadida ayrim hujjatlarni talab qilib ishga qo`shish zarurligi ajrimda ko`rsatilgan bo`lsa-da, 2001-yil 2-sentabr kuni bo`lgan sud majlisida bu hujjatlar talab qilib olinmaganligi va buning ijrosini raislik qiluvchi sudya N.K.Qobulov o`z nazoratiga olmaganligi aniqlandi. Shu sababga ko`ra ish ko`rish yana 2001-yil 6-sentabr kuniga qoldirilgan. Keyingi sud majlisida javobgar taraf ham da`vogarning ayrim nojo`ya harakatlarini ko`rsatib uni asoslash uchun guvohlar A.Xidirov, V.Toshpulatovni chaqirib so`roq qilishni talab qiladi. Bu holatlarni tekshirish uchun sud ish ko`rishni tayyorlash bilan bog`liq harakatlarga jiddiy e`tibor berish lozimligi to`g`risidagi qonun talablariga rioya qilmaganligi tufayli, sudda ish ko`rish muddati asossiz ravishda cho`zilgan, bu esa sudga chaqirilgan guvohlarning asosiy mehnat vazifalarini o`z vaqtida bajarishga ta`sir ko`rsatganligi sababli da`vogarni norozi bo`lishiga va shikoyat qilishiga asos bo`lgan.

Sud hay'ati yuqoridagi holatlarga ko`ra FPKning 19 va 348¹⁶-moddalariga asosan

Ajrim qiladi:

Da`vogar Vali G`afurovning javobgar Sirdaryo paxta zavodidan 5500 so`mlik keltirilgan zararni summasini undirish to`g`risidagi fuqarolik

ishini sud majlisida ko`rilishida raislik qilgan shu tuman sudining sudyasi N.K.Qobulovning protsessga yetarli darajada tayyorgarlik ko`rmaganligi va ishni ko`rish muddatini sababsiz o`tkazib yuborganligi haqidagi harakatlari bo`yicha Jizzax viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha malaka komissiyasi xabardor qilinsin.

Ko`rilgan chora-tadbirlar haqida Jizzax viloyat sudi ushbu xususiy ajrim nusxasini olgan kundan boshlab bir oy muddat ichida xabardor qilinsin.

Raislik qiluvchi:	T.G`.Noqulov
Sudyalar:	Q.S.Rustamov
	R.Po`latjonova

Qoraqalpog`iston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik ishlari bo`yicha sudlov hay'atining

AJRIMI

2002-yil 13-oktabrda Qoraqalpog`iston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik ishlari bo`yicha sudlov hay'atining ochiq sud majlisida raislik qiluvchi A.B.Turabov, hay'at a'zolari K.G.Soatov va A.K.Ilyosovlardan iborat ha'yatda, Qoraqalpog`iston Respublikasi prokurorining yordamchisi K.S.Rasulovanning ishtirokida Fuqarolik ishlari bo`yicha Qoraqalpog`iston Respublikasi Oliy sudining 2001-yil 20-avgustda ko`rgan fuqarolik ishi bo`yicha chiqargan hal qiluv qaroridan Q.O`tegenovning norozi bo`lib keltirgan kassatsiya shikoyati ko`rildi.

Hay'at tomonidan ish bo`yicha Qoraqalpog`iston Respublikasi Oliy sudining sudyasi A.B.Turoboyevning ma'ruzasi tinglanib, tubandagilar Aniqlandi:

Qayipboy O`tegenov bilan Marziya Abdijakbarovna Qarshiyeva 1992-yil 18-avgustda nikohdan o`tib oila qurganlar. Shu davr ichida 1993-yilda tug`ilgan Berik, 1985-yilda tug`ilgan Jadra, 1997-yilda tug`ilgan Janibek ismli farzandlar ko`rganlar. M.A.Qarshiyeva 2000-yil may oyida nikohdan ajralgan bo`lib, onasining uyiga ketgan.

Q.O`tegenov sudga murojaat etib, M.A.Qarshiyeva 1996-yildan buyon spirtli ichimlik iste'mol qilishga moyil bo`lib qolganligi tufayli oilada tez-tez janjallar bo`lib turganligini, uning nasihatlariga quloq solmasligini ko`rsatib, nikohni bekor qilishni, uch nafar farzandlarini o`z tarbiyasida qoldirishni so`rangan.

M.A.Qarshiyeva da'voning nikohni bekor qilish haqidagi qismiga rozi bo'lib, da'vogarning o'zi muttasil ravshda spirtli ichimlik iste'mol qilishini, shu bilan unga ham majbur qilib ichirishini, da'vogardan qo'rqib biror joyga murojaat qilmay kelganligini ko'rsatib, bolalarni o'z tarbiyasiga olib berishni va O'tegenovdan nafaqa undirib berishni so'ragan.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik ishini birinchi instansiya tartibida ko'rib 2001-yil 20-avgustdagi hal qiluv qarori bilan taraflar o'rtasidagi nikoh bekor qilinib, 1993-yilda to'g'rilgan Berik ismli o'g'li otasi-Q.O'tegenovning tarbiyasida qoldirilgan, 1995-yilda tug'ilgan Jadra va 1997-yilda tug'ilgan Janibeklar esa onasi-M.Qarshiyevaning tarbiyasiga berilib, bu ikki nafar bolaning ta'minoti uchun Qarshiyeva foydasiga O'tegenov daromadlaridan uchdan bir qismi miqdorida nafaqa undirilgan.

Q.O'tegenov sudning hal qiluv qaroridan norozi bo'lib, keltirgan kassatsiya shikoyat arizasida vasiylik va homiylik organining xulosasini, shahar xalq ta'lim bo'limining vakili fikrini, narkologik dispanserning Qarshiyevaning spirtli ichimlik ichishga ruju qo'yanligi haqida bergan ma'lumotini va uning spirtli ichimliklar ichib yurganini ko'rgan guvohlarning ko'rsatuvlarini va boshqa ish holatlarini e'tiborga olmay, ikki nafar bolannq Qarshiyevaga noto'g'ri olib berilganligini va u bolalarni tarbiya qila olmasligini bayon qilgan.

Kassatsiya shikoyatiga bildirilgan e'tirozida M.Qarshiyeva O'tegenovning vajlari noto'g'ri ekanligini ko'rsatib, sudning hal qiluv qarorini o'zgarishsiz qoldirishni so'raydi.

Sud hay'ati ish materiallarini tekshirib, kassatsiya shikoyatida keltirilgan vajlarni muhokama qilib, taraflarning bayonotlari prokurorning fikrini eshitib, hal qiluv qarorini qisman o'zgartirishni lozim topadi.

Sud O'tegenov bilan Qarshiyeva o'rtasida bir-biriga hurmat, e'tibor qolmagan deb hisoblab, ularning nikohini bekor qilish masalasida to'g'ri xulosaga kelgan, deb hisoblaydi.

Sud shuningdek besh yoshli Jadra va uch yoshli Janibeklarni Qarshiyevaning tarbiyasiga olib berganligini maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi, chunki Oila kodeksining 71-moddasiga ko'ra, ota bilan ona o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga ega. Agar ota-ona alohida turganlarida voyaga yetmagan bolalarning kim bilan turishi masalasida ular o'rtasida kelishuv bo'lmaganida, nizoni faqat bolalarning manfaatlarini hisobga olgan sud holda hal qiladi. Ishni ko'rishda sud Jadra bilan Janibekni onasining tarbiyasiga olib berishda ularning hali juda yosh

ekanliklarini, ona mehri va muomalasiga muhtoj ekanliklarini, shu kungacha qadar ularni tarbiya qilib kelganligini e'tiborga olgan. Bundan tashqari, O'tegenov ertadan kechgacha ishda bo'lib, yosh bolalarning tarbiyasiga, ularga oziq ovqat tayyorlash, usti-boshlarini yuvish, tozalash kabi ishlarga vaqti va imkoniyati yo'qligini ham sud e'tiborga olgan.

Q.O'tegenovning: «M.Qarshiyeva bolalarni tarbiyalay olmaydi», degan vaji bilan kelishib bo'lmaydi, chunki vasiylik va homiylik organining xulosasiga qaraganda, Qarshiyeva yashayotgan turar joy uch xonali, sharoiti yaxshi ekanligi ko'rsatilgan. Qarshiyevaning qo'shnilari R.Buxriyeva, Z.Jariyekapbayevalar da'vogarni sirtli ichimlik ichib kelishi va janjal chiqarib, javobgarga tinchlik bermay kelishini ko'rsatganlar.

Nukus shahar xalq ta'lim bo'limining vakili o'z ko'rsatmasida bolalarni Q.O'tegenovning onasi yoki yangasining tarbiyasida qoldirib bo'lmazligi, ota-onalar boshqa shaxslarga ko'ra o'z bolalarini tarbiyalashda ustunlik huquqiga ega ekanligi haqida fikr bildirgan.

Qonun bo'yicha bolalariga ta'minot berishga ota-onaning har ikkovi ham majbur bo'lib, agar bola ona tarbiyasida bo'lsa-otadan, ota tarbiyasida bo'lsa-onadan aliment undirilishi va bunda ularning moddiy ahvoli inobatga olinishi belgilangan.

Sud 1993-yilda tug'ilgan Berik ismli bolani Q.O'tegenovning tarbiyasida qoldirgani holda, uning ta'minoti uchun ta'minot berish onaning ham majburiyati ekanligini e'tiborga olmagan va M.Qarshiyevaning tarbiyasidagi ikki nafar bolaning ta'minoti uchun Q.O'tegenovning oylik daromadining uchdan bir qismi miqdorida nafaqa undirgan. Ish materiallariga qaraganda, Q.O'tegenov va M.Qarshiyevalarning oylik maoshlari deyarli tengdir. Shu sababli O'tegenovdan uning tarbiyasida bir bola qoldirilishini e'tiborga olib, ikki nafar bolaning ta'minoti uchun to'rtadan bir qism miqdorida nafaqa undirilishi lozim edi. Sud tomonidan yo'l qo'yilgan bu holatni to'g'rilashni hay'at lozim topadi.

Binobarin, sudlov hay'ati FPKning 348¹-348¹⁵-moddalariga asosan

Ajrim qiladi:

Fuqarolik ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudining 2001-yil 20-avgustdagi mazkur ish yuzasidan chiqargan hal qiluv qarori qisman o'zgartirilib, Qayipboy O'tegenovdan undirilgan aliment daromadning to'rtadan bir qismi miqdorida deb belgilansin.

Hal qiluv qarorining qolgan qismi o'zgarishsiz qoldirilsin.

Raislik qiluvchi: A.B.Turaboyev
Hay'at sudyalari: K.G.Soatova
A.K.Ilyosov

XII. SUDNING QONUNY KUCHGA KIRGAN HAL QILUV QARORLARI, AJRIMLARI VA QARORLARINI NAZORAT TARTIBIDA QAYTA KO`RISH

Agar birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori, ajrimi ustidan taraflar shikoyat bermasalar, prokurorning protesti bo`lma-sa, bunday qarorlar qonuniy kuchga kiradi. Ammo fuqarolik ishini har tomonlama tekshirish natijasida sud nazorati organlari birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori, apellatsiya, kassatsiya instansiya sudlarining esa ajrimlari ayriqonuniy, asoslantirilmasdan chiqarilgan degan xulosaga kelsalar, ishni nazorat tartibida qayta ko`rish uchun vakolatli shaxslar protest keltiradilar va ish nazorat tartibida ko`rilishi mumkin.

Ba'zi hollarda ishning murakkabligi tufayli birinchi instansiya sudining xatosi apellatsiya, kassatsiya instansiyasida tuzatilmay qoladi. Bunday hollarda qonuniy bo`lmagan, asossiz hal qiluv qarorlari va ajrimlari qonuniy kuchga kirgan bo`lsa, ish nazorat tartibida qayta ko`rib, xatolar tuzatilishi mumkin.

FPKning 312-moddasiga ko`ra, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari yoki ajrimlarini nazorat tartibida bekor qilishga ularning asossizligi, qonunning qo`pol buzilishi yoki davlat va fuqarolarning manfaatiga ochiqdan-ochiq zid kelishi asos bo`la oladi.

Fuqarolik ishlarining nazorat tartibida qayta ko`rilishining istisno xarakterga ega bo`lishi shundan iboratki, nazorat tartibida ishni qayta ko`rish majburiy va albatta zarur bosqich emas. Taraflar tomonidan keltirilgan shikoyatlar o`z-o`zidan ishni nazorat tartibida qayta ko`rishga asos bo`la olmaydi. Nazorat bochqichida ish faqat sud va prokuratura idoralarning qonun bo`yicha protest keltirish huquqiga ega bo`lgan mansabdor shaxslari protestlariga asosangina ko`riladi.

Sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari va ajrimlariga nazorat tartibida protest keltirish huquqiga ega bo`lgan shaxslar doirasi qonun bilan qat'iy cheklangan (FPKning 349-moddasi).

Kassatsiya ish yuritishdan sudning hal qiluv qarorlari va ajrimlarini nazorat tartibida qaytadan ko`rishning farqi shundaki, bunda faqat nazorat tartibida protest keltirishga huquqli bo`lgan mansabdor shaxslar tomonidan keltirilgan protestlar bo`yichagina ish nazorat tartibida qayta ko`riladi.

Keltirilgan protestga, nazorat tartibida protest kiritish huquqiga ega bo`lgan shaxslarning o`zlari imzo qo`yishlari lozim. Ularning nomidan keltirilgan protestlarga protest keltirish huquqiga ega bo`lmagan shaxslar

imzo qo`ysa, bunday protestning nazorat tartibida ko`rilishiga yo`l qo`yilmaydi.

Qonun tuman va shahar prokuraturalariga protest keltirish huquqini bermagan. Biroq tuman va shahar prokurorlari sudlarda fuqarolik ishlarining ko`rilishida qonunlarning bajarilishi yuzasida nazorat olib berish bilan FPKning 351-moddasiga asosan tegishli suddan fuqarolik ishlarini talab qilib olib, protest keltirish uchun asoslar borligi masalasini ko`rib chiqish huquqiga egadirlar.

Ishni chaqirib olgan tuman (shahar) prokurori sudning ish yuzasidan chiqargan hal qiluv qarori yoki ajrimi ustidan protest keltirilishini lozim deb topsa, yuqori prokurorga ishni nazorat tartibida ko`rish zarurligi to`g`risida taqdimnoma kiritadi. Bunday hollarda protest kiritish yoki kiritmaslik masalasini yuqori prokuror hal qiladi.

Amaldagi qonunda sud qarorlari yoki ajrimlariga nazorat tartibida shikoyat berish huquqiga ega bo`lgan shaxslar ko`rsatilmagan bo`lsa-da, bu hol sudlarning hal qiluv qarori yoki ajrimini noto`g`ri deb hisoblagan har bir fuqaro yoki tashkilotga sud nazorati instansiyasiga shikoyat yoki ariza bilan tegishli sud, prokuraturaga murojaat qilish imkoniyatidan mahrum etmaydi.

Aksariyat hollarda vakolatli shaxslar tomonidan ishni chaqirib olib, sudning hal qiluv qarori yoki ajrimini qonuniy va asosli bo`lishini tekshirishga taraflarning, uchinchi shaxslarning hamda ishda qatnashgan davlat idoralarining va jamoat tashkilotlarining shikoyatlariga asos bo`ladi.

Fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar sudining raisiga

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha M.Ulug`bek tuman sudining da'vogar Dilbar Hidoyatovanning javobgar Baxtiyor Hidoyatov bilan tuzilgan nikohni bekor qilish haqidagi da'vo arizasi bo`yicha ko`rilgan fuqarolik ishi yuzasidan 2001-yil 24-iyulda chiqargan ajrimiga nisbatan nazorat tartibida protest keltirish haqida

ILTIMOSNOMA

Fuqarolik ishlari bo`yicha M.Ulug`bek tuman sudining ish yurituvida mening da'vo arizamga asosan erim Baxtiyor Hidoyatov bilan tuzilgan nikohni bekor qilish to`g`risidagi fuqarolik ishi bo`lib, bu ish bizga

noma'lum sabablarga ko'ra 2001-yil mart oyidan buyon ko'rilmasdan keldi. Keyinchalik, ya'ni 2001-yil avgust oyining 10 kunida xabar olsam, sudya: «sudga kelmaganlik sababli da'vo ariza ko'rilmasdan qoldirildi», deb aytdilar.

Sud ajrimida ishni ko'rmasdan qoldirishga asos qilib, taraflarning uzrsiz sabablarga ko'ra bir necha bor sud majlisiga kelmaganlik holatlari ko'rsatilgan.

Sudning bu fikri asossiz ekanligini quyidagicha ta'kidlayman:

1) men da'vogar sifatida, javobgar-erimni ham biror marotaba sud majlisiga chaqirilmaganmiz, agar chaqirilgan bo'lsak edi, chaqiruv qog'ozlarini qachon va kimga topshirganliklarini aniqlab berishlari lozim;

2) FPKning 97-moddasi 5-bandiga asosan agar taraflar ikkinchi chaqiruv bo'yicha ham uzrsiz sabablarga ko'ra kelmasalar va sud bu ishni ko'rib hal qilish mumkin emas, deb hisoblasagina, arizani ko'rmay qoldirish mumkinligi ko'rsatilgan.

Sud yuqoridagilarga ko'ra va FPKning 132-140-moddalariga rioya qilmagan deb hisoblayman.

Shuning uchun ham fuqarolik ishlari bo'yicha M.Ulug'bek tumani sudining 2001-yil 24-iyulldagi ajrimi bilan kelishmasdan, FPKning 349, 350, 351-moddalariga asosan

So`rayman:

Ushbu fuqarolik ishi yuzasidan chiqarilgan ajrimni qonuniy va asosli ekanligi tekshirilib, nazorat tartibida protest keltirishini va ishni qayta ko`rish uchun yuborilishini.

Ilova: 1. Tumanlararo sudning ajrimidan nusxa;

2. Ish ko`rish jarayonida xizmat vazifamni bajaranim haqida ma'lumot.

2001-yil 30-sentabr.

D.Hidoyatova

PROTEST KELTIRISH TARTIBI HAQIDA

Sud va prokuratura idoralarining protest kiritishga huquqli bo`lgan mansabdor shaxslaridan har bir shikoyatni o`z vaqtida va unda keltirilgan vajlarni to`la va chuqur tekshirish talab qilinadi.

Agar ish materiallarini o`rganish natijasida chiqarilgan hal qiluv qarori yoki ajrimga protest keltirish lozim degan xulosaga kelinsa, protest kiritish huquqiga ega bo`lgan shaxsning nomidan uning topshirig`i bilan tegishli sud nazorati nomiga protest tuziladi.

Protestda, protest yo`llangan sudning nomi va protest kiritgan shaxsning nomi, protest qilinayotgan qaror yoki ajrim va bu qaror yoki ajrimni chiqargan sud qarorining noto`g`riligi nimalardan iboratligi va qanday qonunlar buzilganligi albatta ko`rsatilishi hamda protest asoslantirilgan bo`lib, unda ishning haqiqiy holatlariga huquqiy tahlil berilgan bo`lishi lozim.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Samarand viloyat sudining rayosatiga

Fuqarolik ishlar bo'yicha Samarqand viloyat sudi sudlov hay'atining 2001-yil 6-martda da'vogar «Shakar» tikuvchilik fabrikasining Azizxon Botirovani turar joydan ko'chirish to'g'risidagi da'vosi bo'yicha chiqargan ajrimi ustidan nazorat tartibida

PROTEST

Samarqand shahar kommunal xo'jalik bo'limining bergan ma'lumotiga ko'ra A.Z.Botirova Domboy ko'chasi 37-uyning ikkidan bir qismining egasi bo'lib hisoblangan. Uning yer uchastkasi ham boshqa yerlar kabi tuman hokimiyatining qaroriga asosan «Shakar» fabrikasiga ko'p qavatli turar-joy qurish uchun ajratib berilgan.

Da'vogar «Shakar» fabrikasi A.Z.Botirovaga alohida bo'lmagan 12 metr kvadratli xonaga ko'chib o'tishni taklif qilganda, javobgar bu taklifni rad etadi. Bulung'ur tuman sudining 2000-yil 3-martda chiqargan hal qiluv qaroriga ko'ra javobgar A.Botirovaning turar joydan majburiy ko'chirish to'g'risidagi fabrikaning da'vosi qanoatlanirilmaydi. Fabrikaning kassatsiya shikoyatiga ko'ra, Samarqand viloyat sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati 2000-yil 10-martdagi ajrimi bilan sudning hal qiluv qarori bekor qilingan.

Sudlov hay'ati ajrimida A.Botirovani umumiy kvartiraga ko'chirish uning manfaatlariga zid bo'lmasligi, fabrika javobgarga alohida kvartira bermasa ham bo'lishi va bu holat qonunda ko'rsatilgan degan vajlarni keltirgan.

Sudning bunday asoslanirilmagan xulosasi bilan kelishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham sudlov hay'atining ajrmini quyidagi asoslarga ko'ra bekor qilishni lozim deb hisoblayman.

Fuqarolarga qarashli yer uchastkalarini davlat manfaati uchun olib qo'yilayotganda, fuqarolarga uy-joyning narxi to'lanishi yoki ularning xohishiga ko'ra alohida kvartira berilishi to'g'risidagi amaldagi qonun talablar buzilib, A.Z.Botirovaga alohida kvartira o'rniga umumiy kvartiradan bitta xona berilgan. Bu bilan A.Botirovaning turar joyga bo'lgan huquqi poymol qilinganligi ko'rinadi.

Yuqoridagilarga ko'ra va FPKning 349, 351-moddalariga asosan

So`rayman:

Fuqarolik ishlari bo`yicha Samarqand viloyat sudi sudlov hay'atining 2000-yil 10-martda chiqargan ajrimi bekor qilinib, Bulung`ur tumani sudining 2000-yil 3-martdagi hal qiluv qarori o`zgartirilmasdan qoldirishu

Ilova: 1. 2-163-raqamli fuqarolik ishi.

2. Taraflar uchun protestning 2 nusxasi.

Samarqand viloyati prokurori, 3-darajali
adliya maslahatchisi: F.E.Mahkamov

2001-yil 15-mart.

Birinchi instansiya sudi chiqargan ajrimiga nisbatan nazorat tartibida berilgan protest

TOSHKENT SHAHAR FUQAROLIK ISHLARI BO`YICHA SUDINING RAYOSATIGA

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha sudi raisining Toshkent shahar, M.Ulug`bek tuman sudining da'vogar Dilbar Hidoyatova bilan javobgar Baxtiyor Hitoyatovlar o`rtasida tuzilgan nikohni bekor qilish haqidagi da'vo arizasi bo`yicha ko`rilgan fuqarolik ishi yuzasidan 2001-yil 24-iyulda chiqarilgan ajrimiga

PROTEST

Da'vogar Dilbar Hidoyatova javobgar Baxtiyor Hidoyatov bilan o`rtalardagi tuzilgan nikohni bekor qilishni so`rab, sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilganlar.

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha M.Ulug`bek tumani sudining 2001-yil 24-iyul kuni chiqargan ajrimiga asosan da'vo ariza ko`rilmagan qoldirilgan.

Ish bo`yicha chiqarilgan ajrimni noto`g`ri hisoblab, quyidagi asoslarga ko`ra bekor qilinmog`i, ishni esa mazmunan qayta ko`rish uchun yuborilmog`i lozim deb hisolayman.

Sud ajrimida arizani ko`rmasdan qoldirishga asos qilib, taraflarning uzrsiz sabablarga ko`ra bir necha bor sudga kelmaganlik holatlari ko`rsatilgan.

Sudning bu fikri bilan kelishib bo`lmaydi, bunga asos bo`lib FPKning 97-moddasi 5-bandiga asosan, «agar taraflar ikkinchi chaqiriq bo`yicha ham uzrsiz sabablarga ko`ra kelmasalar va sud ishni ko`rib hal qilish mumkin emas deb hisoblasa, arizani ko`rmay qoldirishi mumkin».

Ish materiallariga qaraganda, ish ko`rish uchun bir necha marta tayinlangan bo`lishi va taraflar kelmaganligi sababli boshqa kunga qoldirilgan bo`lishi va taraflar kelmaganligi sababli boshqa kunga qoldirilgan bo`lishi talab etiladi. Biroq javobgar B.Hidoyatovni FPKning 132-140-moddalariga xilof ravishda biror marta ham sudga chaqirtirilmaganligi ishda to`plangan materiallaridan ko`rinadi.

Da'vogar D.Hidoyatova nazorat tartibida protest keltirishni so`rab yozgan arizasida bu holatni asoslab, ajrim chiqarilgan kuni, ya'ni 2001-yil 24-iyulda sudga chaqirilmaganligini va chaqiruv qog`ozini olmaganligini bayon etadi.

Bunday holatda sudning mazkur ishi bo`yicha da'vo arizasini ko`rmasdan qoldirish haqidagi ajrimini asosli deb bo`lmaydi.

Ishni mazmunan qayta ko`rishda FPKning 132-140-moddalariga rioya qilish asosida taraflar tegishli tarzda xabardor qilinmog`i va ishni ularning ishtirokida hal qilish choralarini ko`rmoqlik lozim bo`ladi.

Yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 349-moddasiga asosan

So`rayman:

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha M.Ulug`bek tumani sudining da'vogar Dilbar Hidoyatovanning javobgar Baxtiyor Hidoyatovga nisbatan nikohni bekor qilish haqidagi da'vo arizasi bo`yicha ko`rilgan fuqarolik ishi yuzasidan 2001-yil 24-iyulda chiqarilgan ajrimi bekor qilinishi.

2001-yil 29-noyabr.

Toshkent shahar fuqarolik ishlari
bo`yicha sudning raisi:
A.B.Abrorov

PROTEST KELTIRISHNI ILTIMOS QILISH HAQIDA BERILGAN SHIKOYAT ARIZA

Agar tegishli vakolatli shaxslar protest keltirish uchun asoslar topmaganlarida nazorat tartibida protest keltirishni so`rab bergan shikoyatga xulosa xati tuzadilar. Xulosa xati shikoyat qilish vajlarining har biriga qoniqarli va asosli javob berib unda shikoyatni oqibatsiz qoldirish sabablari va ish bo`yicha chiqarilgan hal qiluv qarori yoki ajrimning mazmunan to`g`riligi va boshqa holatlarini o`z ichiga olishi lozim.

Protest kiritish uchun asos topilmagan hollarda ishni chaqirib olgan va ish bo`yicha tegishli hal qiluv qarori yoki ajrimning ijrosini to`xtatgan mansabdor shaxs ijroning to`xtatilish haqida qarorini bekor qiladi va bu haqda manfaatdor shaxslarga xabar beradi.

Uchqo`rg`on shahar, Qambarov ko`chasi, 1-uyda yashovchi Sanobarxon Polvonovaga

Namangan viloyati Uchqo`rg`on

Nusxasi: tumanlararo sudiga

XULOSA XATI

Sizning Uchqo`rg`on tumanlararo sudining 2001-yil 4-iyunda chiqarilgan hal qiluv qaroridan norozi bo`lib berilgan arizangiz O`zbekiston Respublikasi Oliy sudida ko`rib chiqildi.

Ish holatlaridan ko`rinishicha, Rashid Qurbonov bilan 1982-yildan boshlab qonuniy nikohda yashab kelgansiz. R.Qurbonov siz bilan nikohdan o`tgunga qadar Uchqo`rg`on shahari, Dzerjinskiy ko`chasidagi 18-uyning liter «A», «G», «V», qismlarini qurgan. Siz bilan birgalikda esa liter «B» va liter «A-1»dagi uchta yashash xonasini qurgan.

Shunga ko`ra, sud uy-joyning «B» va «A-1» literdagi qismini sizlarning birgalikdagi umumiy mulkingiz deb to`g`ri xulosa chiqargan.

Oila kodeksining 27-moddasiga ko`ra, er-xotinning birgalikdagi umumiy mulklari bo`linganda, ularning hissalarini teng taqsimlanadi, shunga asosan sud uy-joydagi hissangizni pul barobarida undirib bergan.

O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2001-yil 14-sentabridagi “Uy-joy nizolari bo`yicha sud amaliyoti haqida”gi qarorida er-xotindan biri uydagi o`z hissasi uchun pul kompensatsiyasi olishga rozi bo`lgan taqdirda uy ikkinchisiga qoldirilishi mumkinligi ko`rsatilgan.

Aniqlanishicha, hal qiluv qarori qonuniy kuchga kiringach, uy-joydagi hissangizni pul miqdorida olgansiz. Yuqoridagi qarorga ko`ra, siz pul kompensatsiyasini olishingiz bilan uydagi hissangizga nisbatan o`z huquqingizni yo`qotgansiz.

Yuqoridagilarga ko`ra sudning hal qiluv qarorini bekor qilish yoki o`zgartirish haqida protest keltirishga asos topilmadi.

Ilova: 1. 90 varaqli fuqarolik ishi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Raisining
o`rinbosari O.B.Egamov

NAZORAT TARTIBIDA SUDNING HAL QILUV QARORI, AJRIM VA QARORLARINI BEKOR QILISH UCHUN ASOSLAR

FPKning 350-moddasida nazorat tartibida keltirilgan protestlarni ko`ruvchi sudlar aytib o`tilgan.

Fuqarolik ishlari bo`yicha keltirilgan protestlarni ko`ruvchi sudlar O`zbekiston Respublikasi sudlar to`g`risidagi qonunning 17, 19, 24-25, 30-32-moddalarida ham ko`rsatilgan.

FPKning 353-moddasida ko`rsatilishicha, taraflarga va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga ularning ishi bo`yicha keltirilgan protestning nusxasi yuboriladi. Zarur bo`lgan hollarda taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ishni ko`rish vaqti va joyi to`g`risida xabardor qilinadilar.

Oliy sudning fuqarolik sudlov hay`ati nazorat tartibida ko`riladigan ishlar yuzasidan qabul qilinadigan aktlari-ajrim shaklida chiqariladi. Toshkent shahar sudi, viloyat sudlari, Qoraqalpog`iston Respublikasi Oliy sudining Rayosatlari, O`zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi nazorat tartibida ko`rilgan ishlar bo`yicha qaror chiqaradi.

Nazorat tartibida ish ko`ruvchi sud hal qiluv qarorini, apellyatsiya, kassatsiya instansiya ajrimlarini va quyi sud nazorati idoralarining qarorlarini bekor qilib, yangi qaror chiqarishi mumkin. Nazorat instansiya sudi keltirilgan protestni sud majlisida ko`rib, uni rad etsa, o`z qarorida (ajrimida) protest vajrlarining noto`g`riligini batafsil ko`rsatib, protest berilgan sud qarorini o`zgarishsiz qoldiradi.

Agar ish bo`yicha bir necha hal qiluv qarori, ajrim va qarorlari bo`lsa, nazorat sudi ulardan bittasini to`g`ri qonuniy topib, o`zgarishsiz qoldirib, qolgan hamma hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorlarni bekor qila oladi.

Sudning hal qiluv qarorlari, ajrimlari yoki qarorlarini nazorat tartibida bekor qilish asoslari FPKning 97-100, 313-314-moddalarida ko`rsatilgan.

Fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent viloyat sudi Rayosatining qarori

2001-yil 13-dekabrda Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha sudining Rayosati majlisida raislik qiluvchi S.N.Nahanov, Rayosat a'zolari V.S.Yolqinov, D.L.Po`latov, R.M.Qodirov, A.B.Nabivlarning hay'atida Toshkent viloyati prokurori vazifasini bajaruvchi A.N.Mirzayevning ishtirokida ish yuzasidan Rayosat a'zosi A.S.Qambarovning ma'ruzasini tinglab, da'vogar A.A.Ibrohimovning javobgar M.A.Ahmedovaga nisbatan sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilish haqidagi fuqarolik ishi bo`yicha 2001-yil 28-avgustda Toshkent viloyati, fuqarolik ishlari bo`yicha M.Ulug`bek tumanlararo sudi chiqargan ajrimiga Toshkent viloyati prokurorining keltirgan protesti ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

A.A.Ibrohimov sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, «Rossiyskaya kultura» ro`znomasida javobgar M.A.Ahmedovaning maqolasi chop etilib, unda keltirilgan faktlarning asossiz ekanligini va bu uning sha'ni, qadr-qimmatini kamsitishga sababchi bo`lganligini ko`rsatib, O`zbekiston Respublikasi FKning 99-100-moddalariga ko`ra, o`z sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilishini so`ragan.

Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha M.Ulug`bek tumanlararo sudining 2001-yil 28-avgustda chiqargan ajrimiga ko`ra, ushbu fuqarolik ishi ko`rilmasdan qoldirilgan.

Ish bo`yicha keltirilgan protestda sudning ajrimini bekor qilish to`g`risida masala qo`yilgan bo`lib, bunga asos qilib da'vogarni sudga kelmaganlik sabablari aniqlanmaganligi ko`rsatilgan.

Sud Rayosati majlisida ish materiallari atroflicha tekshirilib, protestda keltirilgan vajlar tahlil qilinib, Toshkent viloyati prokurorining bayon qilingan fikri eshitilib, birinchi instansiya sudining chiqargan ajrimi bekor qilinishi va ishni qayta ko`rishga yuborilib, protest qanoatlantirishi lozim deb hisoblaydi.

Sudning fuqarolik ishini ko`rmasdan qoldirish to`g`risidagi ajrimida da'vogarning sudga kelmaganligini asos qilib ko`rsatilgan.

Ish materiallariga ko`ra da'vogar Ibrohimov sudga 14-mayda murojaat qilgan bo`lishiga qaramay, sud O`zbekiston Respublikasi FPKning 131-moddasiga xilof ravishda ishni 2001-yil 17-iyulda ko`rgan.

Sud majlisida javobgar advokat yordamiga muhtojligini bildirgani uchun ish ko`rishni 2001-yil avgust oyining 18 kuniga qoldirgan.

Ishni sudda ko`rish asossiz ravishda kechiktirilib, 2001-yil 28 avgustga tayinlangan. Sud da'vogarni sud majlisiga kelmagan deb, ishni ko`rmasdan qoldirish to`g`risida ajrim chiqaradi. Lekin da'vogar Ibrohimovning 2001-yil 28-avgustda sudga chaqirilganligi biron-bir hujjat bilan tasdiqlanmagan.

Sud bu harakatlari bilan O`zbekiston Respublikasi FPKning 132-147-moddalariga xilof ish tutgan, bundan tashqari, FPKning 174-moddasida ko`rsatilganidek, ishda ishtirok etuvchi shaxslar yoki ular vakillarining birontasi sudning chaqiruv xatini olgani to`g`risida ma'umot bo`lmasa, ular sud majlisiga kelmagan taqdirda, sud ishni ko`rishni qoldirishi lozimligi to`g`risidagi qoidaga rioya qilmagan va da'vogarning 2001-yil 28-avgustda sudga nima sababdan kelmaganligi to`liq aniqlanmay, ushbu fuqarolik ishini asossiz ravishda ko`rmasdan qoldirgan deb hisoblab, sud Rayosati ajrimni bekor qilishni lozim topadi.

Kelgusida ishni qayta mazmunan ko`rishda, taraflarni ishga jalb qilgan holda, ularning vajjarini qonun talablariga ko`ra tekshirib, ishda to`plangan dalillar va hujjatlarga tayanib, nizoli ish hal etilmog`i lozim.

Toshkent viloyati sudining Rayosati yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 361-moddasiga asosan

Qaror qiladi:

Toshkent viloyati prokurorining keltirgan protesti qanoatlantirilsin.

Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha M.Ulug`bek tumanlararo sudining 2001-yil 28-avgustda da'vogar A.A.Ibrohimovni javobgar M.A.Ahmedovaga nisbatan sha'ni, qadr-qimmatini himoya qilish haqidagi fuqarolik ishi bo`yicha chiqargan ajrimi bekor qilinsin va ishni boshqa hay'atda qayta ko`rish uchun shu tuman sudiga yuborilsin.

Toshkent viloyati fuqarolik ishlari
bo`yicha sudi Rayosati

Fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent viloyat sudi Rayosatining qarori

2001-yil 13-dekabrda Toshkent viloyat sudi Rayosatining majlisida raislik qiluvchi viloyat sudining raisi A.B.Abrorov, Rayosat a'zolari N.S.Hakimov, M.N.Niyatov, A.S.Ibrohimova, S.X.To`xtayevalarning hay'atida, viloyat prokurori S.Mirzayevning ishtirokida ish yuzasidan

sudya A.B.Abrorovning ma'ruzasi tinglanib, Chilonzor tumani sudining 2001-yil 24-iyuldagi da'vogar D.Hidoyatovanning nikohdan ajratish to'g'risidagi fuqarolik ishi yuzasidan Toshkent viloyat sudi raisining nazorat tartibida keltirgan protesti ko'rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da'vogar D.Hidoyatova sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, da'vogar B.Hidoyatov bilan o'rtalaridagi nikohdan ajratishni so'ragan. Toshkent viloyati Chilonzor tumani sudining 2001-yil 24-iyul kuni shu ish yuzasidan chiqargan ajrimiga asosan da'vogar arizasi ko'rilmagan qoldirilgan.

Ish yuzasidan keltirilgan protestda sudning ajrimini bekor qilish to'g'risidagi masala qo'yilgan bo'lib, da'vogarni sudga kelmaganlik sabablari to'liq aniqlanmaganligi bunga asos qilib ko'rsatilgan.

Sud Rayosatining majlisida ish materiallari atroflicha tahlil qilinib, Toshkent viloyati prokurorining fikrini eshitilib, birinchi instansiya sudining chiqargan ajrimi bekor qilinishi va ishni qayta ko'rishga yuborilib, protest qanoatlantirilishi lozim deb topildi.

Tumani sudining fuqarolik ishini ko'rmasdan qoldirish to'g'risidagi ajrimida taraflarni uzrsiz bir necha bor sudga kelmaganlik holatlari asosiy sabab qilib ko'rsatildi. Sudning bu fikri bilan kelishib bo'lmaydi.

FPKning 97-moddasi 5-bandiga asosan, agar taraflar ikkinchi chaqiriq bo'yicha ham uzrsiz sabablarga ko'ra sudga kelmasalar, sud esa ishga oid materiallarga ko'ra da'vo arizasini taraflarsiz ko'rib, hal qilish mumkin emas deb hisoblasa, arizani ko'rmasdan qoldirish mumkin.

To'plangan materiallarga ko'ra, ish sudga ko'rish uchun bir necha marta tayinlanib, taraflar kelmaganligi tufayli boshqa kunga qoldirilganligi ko'rsatilsa-da, javobgar B.Hidoyatov o'z arizasida sud FPKning 132-147-moddalariga xilof ravishda biror marta ham sudga chaqirtirmaganligini bildirgan. Bu holat ish materiallari hamda tegishli chaqiruv xatlarini ishda mavjud emasligi bilan ham tasdiqlanadi.

Bu vajlarni da'vogar D.Hidoyatova nazorat tartibida protest keltirish iltimos qilib yozgan shikoyat arizasida ham bayon etadi.

Sud Rayosati mazkur ish bo'yicha da'vo arizasini ko'rmasdan qoldirish haqidagi sudning ajrimini qonun talablariga xilof deb hisoblaydi.

Kelgusida ishni mazmunan ko'rishda FPKning 132-147-moddalariga asosan, taraflar tegishli tarzda xabardor qilinmoqligi va ishni ularning ishtirokida hal qilish choralarini ko'rmog'i lozim bo'ladi.

Sud Rayosati yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 361-moddasiga asosan

Qaror qiladi:

Fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent viloyati sudi raisining keltirgan protesti qanoatlanirilsin.

Toshkent viloyati, Chilonzor tuman sudining da`vogar Dilbar Hidoyatovanning javobgar Baxtiyor Hidoyatovga nisbatan nikohdan ajratish haqidagi da'vo arizasi bo`yicha ko`rilgan fuqarolik ishi yuzasidan 2001-yil 24-iyul kuni chiqargan ajrimi bekor qilinsin.

Ishni boshqa hay'atda mazmunan ko`rish uchun shu tuman sudiga yuborilsin.

Sud Rayosati majlisida raislik qiluvchi: A.B.Abrorov
(451-454 betlar) kiradi.

NAZORAT SUDLARIDA XUSUSIY AJRIM (QAROR) CHIQRISH UCHUN ASOSLAR

FPKning 19 va boshqa moddalarida nazarda tutilgan asoslar bo`lganda O`zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi, Qoraqalpog`iston Respublikasi Oliy sudi, viloyat sudlari va Toshkent shahar sudining fuqarolik ishlari bo`yicha Rayosatlari hamda O`zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo`yicha sudlov hay'ati ishni nazorat tartibida ko`rib, xususiy ajrim chiqarishi mumkin.

Toshkent shahar sudi Rayosatining xususiy qarori

2001-yil dekabr oyining 13 kunida fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar sudi Rayosatining majlisida Rayosat raisi K.P.Bakirov, Rayosat a'zolari A.Pelev, M.Qobulov, V.Nazarov, V.Xolov va Toshkent shahar prokurori Z.Mardayev ishtirokida Toshkent shahari fuqarolik ishlari bo`yicha Chilonzor tuman sudining 2001-yil 8-iyul kuni chiqargan hal qiluv qaroriga keltirgan protesti ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar sudi Rayosatining 2001-yil 13-dekabrda chiqargan qaroriga ko`ra, fuqarolik ishlari bo`yicha Chilonzor tuman sudining da`vogar S.A.To`laganovanning javobgar E.V.Hoshimova bilan oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas, Hoshimovani

esa nizoli uyda yashash huquqini yo`qotgan deb topish haqidagi 2001-yil 8-iyulda chiqargan hal qiluv qarori bekor qilinib, ishni qayta ko`rish uchun Qibray tumani sudiga yuborilgan.

Sudning qarorni bekor qilishga asos bo`lib sud tomonidan FPKning 242-moddasining talabi buzilgan bo`lib, nizoli hovli-joy Toshkent shahar Qibray tumani hududida joylashgan bo`lsa-da, nizo mulk turgan joyda ko`rilishi qonunda ko`rsatilgan bo`lishiga qaramay, sud javobgarning yashab turgan joyiga qarab, ish Chilonzor tumani sudida ko`rilgan. Natijada sudlovlik haqidagi qoida buzilib, ish yuzaki, qonun talabiga xilof ravishda ko`rilgan.

Ushbu ishni ko`rishda raislik qiluvchi fuqarolik ishlari bo`yicha Chilonzor tumani sudining sudyasi S.P.Azrorov tomonidan yo`l qo`yilgan protsessual xatolik natijasida ishni bir suddan boshqa sudga o`tkazish tufayli sudga chaqirilgan shaxslarning vaqtlarini behuda sarf qilinishiga sababchi bo`lgan.

Fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar sudi Rayosati, sudya S.P.Ahrorovni kelgusida ishni ko`rishda yuqorida ko`rsatilgan xatolarni qaytarmasligini oldini olish maqsadida xususiy ajrim chiqarishni va undagi holatlarni muhokamaga yuorishni lozim topadi.

Fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar Rayosati yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 316-moddasiga asosan

Qaror qiladi:

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha Chilonzor tuman sudining da'vogar S.A.To`laganovani javobgar E.V.Hoshimova bilan oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy deb, Hoshimova esa nizoli uyda yashash huquqini yo`qotgan deb topish to`g`risidagi fuqarolik ishini ko`rishda shu tuman sudining sudyasi ish bo`yicha raislik qilgan S.P.Ahrorov yetarli darajada tayyorgarlik ko`rmasdan ishni kurganligi va sudlovlik to`g`risidagi qonunni buzganligi haqida fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar sudi huzuridagi malaka hay'ati xabardor qilinsin.

Ko`rilgan chora va tadbirlar haqida fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar sudi rahbariyatiga ushbu xususiy ajrim nusxasini olgan kundan boshlab bir oy muddat ichida ma'lum qilinsin.

Raislik qiluvchi: K.P.Bakirov

XIII. QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUDNING HAL QILUV QARORI VA AJRIMLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO`YICHA QAYTA KO`RISH

Yangidan ochilgan holatlar bo`yicha sud qarorlarini qaytadan ko`rish faqat ish bo`yicha qaror qabul qilinishida ma'lum bo`lmagan va e'tiborga olinmagan, ish uchun muhim ahamiyatga ega bo`lgan holatlarning ochilishi munosabati bilan ishni qaytadan ko`rish zarur bo`lgan hollardagina qo`llanilishi mumkin.

Yangidan ochilgan holatlar bo`yicha sud qarorlarini qaytadan ko`rish, fuqarolik ishlarini sud nazorati tartibida ko`rishdan, uning yo`l qo`yilishi shartlari, amalga oshirilishining protsessual tartibi, sud qarorlarining qaytadan ko`rilishi to`g`risida masala qo`zg`atishga haqli bo`lgan shaxslar doirasi bo`yicha farqlanadi.

Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarning yangi ochilgan holatlar bo`yicha qaytadan ko`rilishiga oid asosiy qoidalar FPKning 362-369-moddalarida berilgan. Ularda ko`rsatilishicha, hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarini yangidan ochilgan holatlar bo`yicha qaytadan ko`rishda quyidagi to`rt guruhga bo`lingan asoslar mavjud bo`ladi:

Birinchi guruhga-arz qiluvchiga ma'lum bo`lmagan va ma'lum bo`lishi mumkin bo`lmagan, lekin ish uchun muhim ahamiyatga ega bo`lgan holatlar kiradi. Masalan, qonuniy vorislar o`rtasida meros mulkining taqsimlanishi to`g`risidagi da'vo ish yuzasidan qaror chiqarilganidan so`ng, meros mulkining yoki unga bir kishining boshqa shaxs (yoki shaxslar)ga vasiyat qilganligi to`g`risida tegishli rasmilashdirilgan vasiyanomaning keltirilishi-yangidan ochilgan va muhim ahamiyatga ega bo`lgan holat sifatida ko`riladi.

Ikkinchi guruhga-sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan va hal qiluv qarorining g`ayriqonuniy yoki asossiz chiqarishga sabab bo`lgan holatlar kiradi. Bular: birinchidan, guvohlarning bila turib atayin yolg`on ko`rsatmalari, ekspertning xulosalari; ikkinchidan, bila turib noto`g`ri qilingan tarjma; uchinchidan, hujjatlar yoki ashyoviy dalillarning qalbakiligidir. Ammo bunday hollarda agar qarorning asosiga qo`yilgan yuridik faktlar boshqa dalillar bilan yetarli darajada tasdiqlangan bo`lsa, bu asoslar bo`yicha ish qaytadan ko`rmasligi ham mumkin.

Uchinchi guruhga-sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan taraflarning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning yoki ularning vakillarini amalga oshirgan jinoiy faoliyatlar kiradi.

To`rtinchi guruhga-shu hal qiluv qarori yoki ajrimni chiqarishga asos bo`lgan sud hal qiluv qarori, hukmi, ajrimining yoki qarorining yoxud boshqa organ qarorining bekor qilinganligi asos bo`lib kiradi.

Yangi ochilgan holatlar bo`yicha hal qiluv qarorlari, ajrimlarni yoki qarorlarni qaytadan ko`rish haqidagi ariza ishda ishtirok etuvchi shaxslar yoki prokuror tomonidan shu hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni chiqargan sudga beriladi.

Yangi ochilgan holatlar bo`yicha ishni qayta ko`rish haqida

Samarqand viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha Bulung`ur tuman sudiga

Arizachi: Po`lat Qodirov-Samarqand viloyati, Bulung`ur tumani, Go`zal jamoa xo`jaligi, Lochin ko`chasi, 10-uyda yashaydi.

Bulung`ur shahar qurilish boshqarmasining zararni undirish to`g`risidagi da'vo ishi bo`yicha

ARIZA

Fuqarolik ishlari bo`yicha Bulung`ur tumanlararo sudida da`vogar Po`lat Latipovni Bulung`ur shahar qurilish boshqarmasiga nisbatan ishga tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun ish haqi undirish to`g`risidagi fuqarolik ishi qo`zg`atilgan.

Fuqarolik ishlari bo`yicha Bulung`ur tumanlararo sudining 2002-yil 23-avgustdagi hal qiluv qarorga asosan da`vogar P.Latipov Bulung`ur shahar qurilish boshqarmasiga duradgorlik vazifasiga qayta tiklanib, Bulung`ur shahar qurilish boshqarmasi hisobidan noilojdan bekor yurgan 14 kunlik vaqti uchun uning foydasiga jami bo`lib 11104 (o`n bir mingbir yuz to`rt) so`m undirilgan.

Sud hal qiluv qarorida P.Latipovni ishdan g`ayriqonuniy ravishda bo`shatilgan degan xulosaga kelgan va korxonra rahbari sifatida meni aybdor hisoblagan. Shunga ko`ra, Bulung`ur shahar qurilish boshqarmasi xodimining noilojdan bekor yurgan vaqti uchun to`langan 11104 (o`n bir mingbir yuz to`rt) so`m zararni mendan qaytarma da'vo tariqasida undirib olgan.

Hal qiluv qarorini sud quyidagi yangi ochilgan holatlarga ko`ra qayta ko`rib chiqishi lozm deb hisoblayman:

Da'vogar P.Latipov ishga qayta tiklash to'g'risida bergan arizasida uzrli sabablarga ko'ra ishga kechikib kelganini, xotini ning kasal bo'lib qolganini va bu holat shahar poliklinikasining 2001-yil 2-avgustdagi ma'lumotnomasi bilan tasdiqlanishini asos qilib ko'rsatgan. Sud da'vogar ning keltirgan vajlarini asosli deb topgan edi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Bulung'ur tumanlararo sudida shu yil 15-sentabrda bo'lib o'tgan sud jarayonida shahar poliklinikasi bosh vrachining jinoiy ishi ko'rilib, unda boshqa g'ayriqonuniy harakatlar bilan bir qatorda Po'lat Latipovga ham «xotini kasal» deb bergan ma'lumoti asossiz ekanligi aniqlandi. Bu holat sudning hukmida ham qayd qilingan. FPKning 362-moddasiga ko'ra sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan va hal qiluv qarorini asossiz chiqarishga sabab bo'lgan holatlar ishni yangidan ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishga asos bo'ladi.

Shularga asoslangan holda fuqarolik ishlari bo'yicha Bulung'ur tumanlararo sudining 2001-yil 23-avgustda P.Latipovni ishga tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun 11104 so'm miqdorda keltirgan zararni qaytarma da'vo tariqasida qurilish boshqarmasi foydasiga mening hisobimdan undirish haqidagi fuqarolik ishi yangi holat bo'yicha qaytadan ko'rilishi lozim deb hisoblayman.

Yuqoridagilarga ko'ra hamda FPKning 362, 363-moddalariga asosan
So'rayman:

1. Fuqarolik ishlari bo'yicha Bulung'ur tumanlararo sudining 2001-yil 23-avgustdagi Bulung'ur qurilish boshqarmasining da'vosiga ko'ra P.Latipovni ishdan bo'shatish va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun keltirilgan 11104 so'm zararni mendan qaytarma da'vo asosida undirish to'g'risida chiqarilgan hal qiluv qarorini yangidan ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rib bekor qilinishini.

2. Fuqarolik ishlari bo'yicha Bulung'ur tumanlararo sudining 2001-yil 23-avgustdagi chiqargan hal qiluv qarorini qaytarma jirosini ta'minlab, Bulung'ur qurilish boshqarmasi tomonidan ushlab qolingan 11104 so'm zararni mening foydamga undirib berilishini.

3. Ish bo'yicha quyidagi guvohlar chaqirilsin:

1. M.Bozorov-Bulung'ur tuman, Michurin nomli jamoa xo'jaligi Proletar ko'chasi, 10-uyda yashaydi.

2. A.Forikov-Bulung'ur tuman, markaz-6, 17-uyda yashaydi.

Ilova: 1. Bulung'ur tuman sudining 2001-yil 15-sentabrdagi hukmi-dan nusxa.

2. Bulung`ur qurilish boshqarmasining mendan 11104 so`mni ushlab qolganligi haqidagi ma'lumotnoma.

3. Arizaning nusxasi.

2002-yil 30-sentabr.

P.Qodirov

YANGIDAN OCHILGAN HOLATLAR BO`YICHA ISHNI QAYTA KO`RUVCHI SUDLAR

Apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyasi chiqargan ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo`yicha qayta ko`rib chiqishda (birinchi instansiya sudining qarori o`zgargan yoki yangi qaror qabul qilingan taqdirda) avvalgi hal qiluv qarorini o`zgartirgan yoki yangi qaror chiqargan sud tomonidan qayta ko`riladi.

Hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni yangi ochilgan holatlar bo`yicha qaytadan ko`rish to`g`risidagi arizani sud ariza beruvchini va ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda ko`radi, lekin ularning kelmasligi arizani ko`rishga to`sqinlik qilmaydi.

Sud hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni yangi ochilgan holatlar bo`yicha qayta ko`rish to`g`risidagi arizani tekshirib, uni qanoatlantirishi hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni bekor qilishi yoki ishni yangidan ochilgan holatlar bo`yicha qayta ko`rishni rad qilishi mumkin.

Hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni yangi ochilgan holatlar bo`yicha qaytadan ko`rish haqidagi arizani qanoatlantirish to`g`risidagi sudning chiqargan ajrimi ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

Yangi ochilgan holatlar bo`yicha hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni qaytadan ko`rish haqidagi arizani rad etish to`g`risidagi ajrim ustidan FPKning 346-347-moddalarida ko`zda tutilgan tartibda xususiy shikoyat qilish, prokuror protest keltirishi mumkin.

Yangidan ochilgan holatlar bo`yicha qayta ish ko`rish haqidagi arizani qanoatlantirish haqida sud ajrimi

AJRIM

Samarqand viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha Bulung`ur tumanlararo sudining 2001-yil 5-oktabrda ochiq sud majlisi bo`lib, F.E.Mahkamov raisligida, G.Qodirovaning kotibligida javobgar Po`lat Qodirovning fuqarolik ishlari bo`yicha Bulung`ur tumanlararo sudining 2001-yil 23-avgustdagi hal qiluv qarorini yangidan ochilgan holatlar bo`yicha qayta ko`rish to`g`risidagi arizasi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Ish bo`yicha da`vogar P.Latipov Bulung`ur qurilish boshqarmasida duradgor bo`lib ishlab kelgan. Boshqarma boshlig`i Po`lat Qodirovning buyrug`iga asosan, u 2001-yil 4-avgustda Mehnat kodeksining 97-moddasiga asosan, ichki mehnat tartib qoidasini muntazam ravishda buzganligi uchun ishdan bo`shatilgan.

Sud hal qiluv qarorida «P.Latipov ishdan g`ayriqonuniy ravishda bo`shatilgan» degan xulosaga kelib, noilodan bekor yurgan vaqti uchun qurilish boshqarmasidan 11104 so`m ish haqi undirilgan. Yetkazilgan bu zarar aybdor shaxs-boshqarma boshlig`i P.Qodirovdan qaytarma da`vo tariqasida boshqarma foydasiga undirib berilgan.

P.Qodirov arizasida sudning hal qiluv qarorini quyidagi yangidan ochilgan holatlarga ko`ra qayta ko`rib chiqishni so`raydi:

Sud ish materiallari bilan tanishib, tomonlarning bayonotlarini tinglab, quyidagi asoslarga ko`ra arizaning qanoatlantirishini lozim topadi.

Da`vogar P.Latipov o`sha vaqtdagi arizasida ishga kechikib kelish sababini xotinininng kasal bo`lib qolgani va bu holat 2001-yil 2-avgustda shahar poliklinikasining 2001-yil ma`lumoti bilan tasdiqlanganini yozdi.

Fuqarolik ishlari bo`yicha Bulung`ur tumanlararo sudining shu yil oktabr oyida bo`lib o`tgan sud jarayonida shahar poliklinikasining bosh vrachi K.Xojimurodovning jinoiy ishi ko`rilib, unda sudlanuvchi mansabiga nisbatan suiste`mol qilganlikda ayblanib, jinoiy javobgarlikka tortilgan. Bu ishda boshqalar qatori P.Latipovga ham «xotini kasal» deb noto`g`ri ma`lumot yozib bergan, vrach K.Xojimurodovning harakatlari jinoiy ishlar bo`yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmida o`z ifodasini topgan.

Sud FPKning 362-moddasiga ko`ra, fuqarolik ishlari bo`yicha Bulung`ur tumanlararo sudining 2001-yil 23-avgustdagi P.Latipovni ishga qayta tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun keltirilgan zararni undirish to`g`risidagi hal qiluv qarorini yangidan ochilgan holatlar bo`yicha qayta ko`rish uchun asos borligini aniqlab, FPKning 362 va 369-moddalariga asosan

Ajrim qildi:

Arizachi Po`lat Qodirovning fuqarolik ishlari bo`yicha Bulung`ur tumanlararo sudining 2001-yil 23-avgustdagi hal qiluv qarorini yangidan ochilgan holatlar bo`yicha qayta ko`rish haqidagi arizasi qanoatlantirilsin.

Fuqarolik ishlari bo`yicha Bulung`ur tumanlararo sudining 2001-yil 23-avgustda Po`lat Latipovni Bulung`ur shahar qurilish boshqarmasiga ishga qayta tiklash va noilojdan bekor yurgan vaqti uchun to`langan 11104 so`mni Po`lat Qodirovdan qaytarma da`vo tariqasida undirish to`g`risidagi hal qiluv qarori bekor qilinsin.

Ishni mazmunan ko`rish 2001-yil 15-oktabr soat 10:00 ga tayinlansin.

Sudya: F.E.Mahkamov

XIV. SUDNING HAL QILUV QARORINI IJROSI HAQIDA

Sudning hal qiluv qarorlari shikoyat qilish va protest keltirish mudati o'tgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi. Sud qarorlari, shuningdek, fuqarolik ishlari to'g'risida boshqa organlarning qarorlari, odatda, ixtiyoriy ravishda ijro etiladi. Agar bunday qarorlarni ijro etishga (tegishli summani to'lashga, narsalarni topshirishga, muayyan ishlarni bajarishga) majbur bo'lgan shaxs (yoki shaxslar) ixtiyoriy ravishda ijro etmasalar-sud va boshqa organlarning qarorlari (FPKning 377-378-moddalari va «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tartibi to'g'risida»gi qonun bilan belgilangan tartibda majburiy ijro etiladi.

Sud ijrochisi o'z tashabbusi bilan hal qiluv qarorini tez va belgilangan tartibda ijro etish uchun hamma qonuniy choralarni ko'rishga va taraflarga, ularning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda faol yordam berishga majbur.

Sud ijrochisining ijro harakatlari bilan bog'liq barcha talablari hamma mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir.

Sud ijrochilari sudning hal qiluv qarorlarini ijro qilishning birdan-bir yagona organi emas, ba'zi hollarda chunonchi, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini maddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti hududiy bo'limlari, sud ijrochilari tuman (shahar) bo'linmalarining sud ijrochilari zimmasiga yuklatilgan.

Pul mablag'larini undirish to'g'risidagi sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarining talablarini ijro etish qonunda nazarda tutilgan hollarda soliq organlari, banklar hamda boshqa kredit tashkilotlari tomonidan amalga oshiradi.

Sud hujjatlarining va boshqa organlar hujjatlarining talablari qonunda nazarda tutilgan hollarda o'zga jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi («Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi 2001-yil 29-avgustdagi qonuniga qarang).

Har bir hal qiluv qarori bo'yicha bitta ijro varaqasi beriladi. Lekin agar ijro turli joylarda o'tkaziladigan bo'lsa yoki hal qiluv qarori bir qancha da'vogarlarining foydasiga yoxud bir necha javobgarlarga nisbatan chiqarilgan bo'lsa, undiruvchilarning iltimosi bo'yicha sud ijro joyini yoki hal qiluv qarorining ijro etilishiga tegishli qismini aniq qilib ko'rsatib, bir necha ijro varaqasi berishi mumkin.

Ijro harakatlarini bajarayotganida sud ijrochisi, agar undirish uchun zarur bo`lsa, qarzdorning binolari va omborlarini ko`zdan kechirishga ham haqli bo`ladi.

Sud qarorlarini ijro qilishda qarzdorning shaxsi daxlsizdir. Sud ijrochisi qarzdorning sudga majburiy keltirish huquqiga ega emas va uning turar-joyini cheklab qo`ya olmaydi hamda ijro qilishi jarayonida har ikki tarafning huquqlarini qo`riqlash majburdir. U hal qiluv qarorining ijrosiga kirishishidan oldin qarzdorga hal qiluv qarorini 5 kunlik muddat ichida ixtiyoriy ravishda ijro qilishi to`g`risida taklif yuboradi.

Sud hal qiluv qarorining to`g`ri va o`z vaqtida ijro etilishi ustidan nazoratni sud ijrochisi bo`ysungan tartibda yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs) departament amalga oshiradi.

Taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar sud ijrochisining harakatlari ustidan shikoyatni shikoyat qilinayotgan harakatlar sodir etilgan kundan boshlab besh kun ichida berishlari mumkin.

Sud ijrochisining harakatlari ustidan shikoyatlarni sud manfaatdor shaxslarni chaqirib hal qiladi, lekin ularning kelmasligi shikoyatni ko`rish uchun to`sqinlik qilmaydi.

Sud ijrochisining harakati yuzasidan berilgan shikoyat bo`yicha sudning chiqargan ajrimi ustidan xususiy shikoyat berish, prokuror protest keltirishi mumkin.

Sud ijrochilarining harakatlari ustidan shikoyat qilish tartibi

Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo`yicha Angren tumanlararo sudiga

Toshkent viloyati, Angren shahar, Qodirov ko`chasi, 12-uyda yashovchi Aminjon Ergashevich Abzalovdan

SHIKOYAT (Ijro harakatlari ustidan)

Fuqarolik ishlari bo`yicha Angren tumanlararo sudining 2002-yil 10-iyunda chiqargan hal qiluv qaroriga ko`ra, trestning men ishlagan sovutkichi (xolodilnigi)ni ishdan chiqarganligim uchun Ohangaron umumiy ovqatlanish tresti foydasiga mendan 1860 so`m yetkazilgan zararni undirish to`g`risida hal qiluv qarori chiqarilgan.

Angren shahar sud departamentining sud ijrochisi M.Berdiyev hal qiluv qarorini ijro qilish uchun yekazilgan zararni undirish maqsadida 2002-yil 25-iyunda mening uyimdagi bir dona sigirimni va «Elektron» rangli televizorni ro`yxatga oldi.

Oilamda 6 nafar maktab yoshidagi bolalarim borligi, ularni sut bilan ta'minlash zarurligi haqida sud ijrochisiga aytib, sigirni ro`yxatga olish maslik haqida iltimos qilsam-da, uni asossiz rad etdi.

Keltirilgan zarar summasini «Elektron» televizorning bahosi bilan (186000 so`m) qoplanishiga qaramasdan, sud ijrochisi bir dona 20000 so`mlik sigirni ro`yxatga noto`g`ri olgan deb hisoblayman.

Yuqoridagilarga ko`ra, Ijro qonunining 52-53-moddalariga asosan

So`rayman:

Sud ijrochisining qayd qilingan harakatlarini asossiz deb, uni bekor qilishni va mendan undirish lozim bo`ladigan 186000 (bir yuz sakson olti ming) so`m zarar ijrosini faqat «Elektron» televizoriga nisbatan qaratib, bir bosh sigir esa ro`yxatdan chiqarilishini.

2002-yil 22-iyul.

A.E.Abzalov

HUJJATLARNI IJROGA BERGAN ORGANLARNING AYRIM HARAKATLARI HAQIDA

Ijro jarayonida vujudga kelgan bir qator masalalar sud yoki qarorni ijroga bergan organ tomonidan hal qilinadi. Masalan, qarorni sir saqlash, qarorning ijrosini keyinga qoldirish, ijro hujjatlarini olish yoki uni ijro qildirish bo`yicha o`tib ketgan muddatini tiklash, qarzdorning umumiy mulkdagi hissasini belgilash, taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash, qarorning ijrosini to`xtatish va bekor qilish, ijro varaqasining dublikatini berish va shu kabi boshqa masalalarni hal qiladi.

FPKning 380-moddasida va Ijro Qonunida hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish yoki qismlarga bo`lib bajarish, hal qiluv qarorini ijro etish usuli va tartibini o`zgartirish, ijro harakatlarini to`xtatib qo`yish va tugatish to`g`risida umumiy qoidalar berilgan. Sud ijrochisi hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirishga, qismlarga bo`lib bajarishga yoki ijro etish usuli va tartibini o`zgartirishga bo`l to`g`rida ijrochining tavsiyasiga ko`ra sudning ajrimi bo`lsagina haqli bo`ladi.

Hal qiluv qarorining ijrosini qiyinlashtiradigan yoki bajarib bo`lmaydigan qilib qo`yadigan holatlar mavjud bo`lsa (qarzdor yoki uning

oila a'zolari kasal bo'lsa, undirilgan mulk natura holda bo'lmasa va shu kabi boshqa hollarda), ijrochi sudga ijroni kechiktirish yoki qismlarga bo'lib bajarish, shuningdek, hal qiluv qarorini ijro etish usuli va tartibini o'zgartirish masalasini hal etish to'g'risida murojaat qiladi.

Ish bo'yicha ijro harakatlarini to'xtatib turish muddatlari «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi qonunning 36-moddasida ko'rsatilgan.

Ijro harakatlarni qarzdorning qudratsizligi tufayli to'xtatib turish haqida

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha
Chilonzor tumanlararo sudiga
Undiruvchi: Aziza Botirova-Sirdaryo viloyati,
Guliston shahar, Gagarin ko'chasi, 30-uyda
yashaydi.

ARIZA

(Ijro harakatlarini to'xtatish to'g'risida)

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha Chilonzor tumanlararo sudining 2002-yil 15-oktabrdagi hal qiluv qaroriga ko'ra, javobgar Eshmat Qodirovdan keltirgan 15000 so'm zararni mening foydamga undirish to'g'risidagi qarorni ijro etish 2002-yil 25-oktabrga tayinlangan edi.

Shu yil 18-oktabr kuni qarzdor E.Qodirovning uyida baxtsiz hodisa yuz berib, gaz balonining yorilib ketishi natijasida yong'in paydo bo'lgan va qarzdorning uy-joyining ko'p qismi yonib ketganligi tufayli, u juda ko'p moddiy zarar ko'rgan. Qarzdorning oilasiga tushgan bunday og'ir sharoitda yuqoridagi summani hozircha talab qilishni lozim hisoblamayman. Shuning uchun ham FPKning 380-moddasiga asosan

So'rayman:

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha Chilonzor tumanlararo sudining 2001-yil 15-oktabrdagi hal qiluv qarorini ijro qilish bilan bog'liq bo'lgan harakatlari 2002-yil oktabr oyiga qadar to'xtatilib turilsin.

2002-yil 20-oktabr.

A.Botirova

MULKNI XATLASH HAQIDA

Haq undirish qarzdorning mulkini xatlash va uni sotish yo`li bilan amalga oshiriladi. Mulknı xatlash ikki turdagi harakatlardan: birinchidan, mulknı xatlash (ro`yxatga olish) va ikkinchidan, qarzdorga bu mulknı tasarruf qilishning man etilganligini bildirishdan iborat bo`ladi. Shu ikki harakat qilinganidagina mulk xatlangan hisoblanadi. Mulknı ro`yxatga olish hamma vaqt uni xatlash bilan bog`liq bo`lmaydi. Masalan, er xotinning umumiy mulklarini bo`lishda, agar da`voni ta`minlash to`g`risida ajrim chiqarilmagan bo`lsa, qancha mulk borligini bilish uchun mulk ro`yxatga olinishi, lekin bu mulknı xatlash degan so`z emas. Mulknı xatlash (arest) sudlar tomonidan chiqarilgan hukm, qaror va ajrimlarning ijrosini ta`minlashga qaratilgan choralardan iboratdir. Xatlash (arest) faqat sud ijrochisi tomonidagina emas, fuqarolik da`vosini ta`minlash maqsadida prokuratura organlari tomonidan, soliqlar va majburiy sug`urta bo`yicha boqmandalarnı undirish bo`yicha, to`lovlarnı undirish bo`yicha posyolka, qishloq yig`inlari tomonidan, shuningdek, vafot etganlardan qolgan mulklarning saqlanishini ta`minlash maqsadida notarial idoralar tomonidan ham qilinishi mumkin.

Sud ijrochisi mulknı xatlashdan oldin qarzdorni ijro hujjati bo`yicha undirilishi mumkin bo`lmagan mulk ro`yxati bilan tanishtirishi lozim. Bunday qilish qarzdarda sud ijrochisi harakatlarining qonuniyligi to`g`risida ishonch tug`diradi va shikoyat qilishning oldini oladi.

Qarzdorning yo`qligida mulk xatlanadigan bo`lsa, bunday harakatlar xolislarining, uylar boshqarmasi yoxud ma`muriyat vakilining ishtirok etishi bilan muhrlanadi va bu haqda ro`yxat aktida ko`rsatiladi.

Mulknı xatlash to`g`risidagi akt ikki nusxada tuzilib, uning biri qarzdorga beriladi. Agar mulk saqlash uchun boshqa shaxslarga topshiriladigan bo`lsa, akt uch nusxada tuziladi va biri saqlovchiga beriladi. Mulknı xatlangandan (arest solingandan) keyin uni tasarruf qilish mumkin emas.

Xatlangan mulkka nisbatan uchinchi shaxslar bu mulknı o`zlariga tegishli ekanligi haqida bildirishlari mumkin. Bunday hollarda qonun bo`yicha mazkur mulknı boshqa shaxsga tegishliligi aniq bo`lgandagina u xatlanmaydi. Shuning uchun, agar mulk boshqa shaxsga tegishli bo`lishi to`g`risida asos bo`lmasa u, sud ijrochisi mulknı xatlashi va uchinchi shaxslarning e`tirozlarini aktda ko`rsatishi lozim. Shu bilan birga sud ijrochisi shaxsga mulknı xatlashdan chiqarish to`g`risida da`vo bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega ekanligini tushuntirilishi lozim.

Ro'yxatga olingan mol-mulkning noto'g'riligi haqida

Sirdaryo viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzacho'l tumanlararo sudiga

Da'vogar:-Rajaboy Jumayeva-Sirdaryo viloyati, Mirzacho'l tumani, Zoir nomli jamoa xo'jaligining 10-brigadasida yashaydi.

Javobgar:-Sirdaryo viloyati, Mirzacho'l tumani moliya bo'limi.

Javobgar:-Abdujabbor Jumayev Sirdaryo viloyati, Mirzacho'l tumani, Zoir nomli jamoa xo'jaligining 10-brigadasida yashaydi.

DA'VO ARIZA (Mol-mulkni xatlashdan chiqarish)

Men-Rajaboy Jumayeva ish bo'yicha javobgar Abdujabbor Jumayev bilan 1987-yil 31-martda Mirzacho'l tumani nikohni qayd qilish bo'limida qonuniy nikohdan o'tib, oilaviy turmush kurganmiz, bu haqda nikoh guvohnomamiz mavjud.

Javobgar bilan oilaviy turmushimiz davrida 7 nafar farzand ko'rdik, jumladan:

- 1) Jahongir Jumayev-1988-yil;
- 2) Abdug'affor Jumayev-1991-yil;
- 3) Nodira Jumayeva-1993-yil;
- 4) Muborak Jumayev-1995-yil;
- 5) Sirojiddin Jumayev-1998-yil;
- 6) Mehriniso Jumayeva-1999-yil;
- 7) Nargiza Jumayeva-2001-yil.

Abdujabbor Jumayev 2001-yilda Zoir nomli jamoa xo'jaligi boshqaruvi tomonidan Mirzacho'l tuman paxta qabul qilish zavodida paxta topshiruvchi-vakil qilib yuborildi.

Sirdaryo viloyat sudining 2002-yil 25-martdagi hukmiga asosan turmush o'rtog'im jamoa xo'jaligining raisi Mirzacho'l paxta qabul qilish zavodining direktori va boshqa shaxslar bilan jinoiy til biriktirib, davlatning ko'p miqdordagi pullarini talon-taroj qilgan va o'zlashtirgan deb sudlanib jazo olgan.

Lekin qo`shib yozilgan pullarni boshqa shaxslar olganligi va erimning ular bilan jinoiy til biriktirmaganligi, balki yuqori tashkilotli rahbarlarining majburlashi natijasida g`ayriqonuniy ishlar sodir bo`lganligi sudda aniqlandi.

Javobgar Abdujabbor Jumayev sotilgan paxta pullarining biton so`midan manfaatdor bo`lmaganligi ham sudda isbotlandi.

Men 1999-yildan buyon jamoa xo`jaligida ishlayman, 0,12 pu tomorqa yerimiz bor. 2002-yilda ikki bosh qoramolni bolalarim bilan boqib jamoa xo`jaligi hisobiga go`shtga topshirganmiz, undan tushgan pulni esa Mirzacho`l tumani davlat jamg`arma bankidan olishimiz kerak edi, biroq shu davrda Abdujabbor Jumayevning ustidan tergov harakatlari boshlangan edi. Tergov organi Abdujabbor Jumayevning nomidagi Mirzacho`l tumani 3585-raqamli davlat jamg`arma bankidagi 14400 (o`n to`rt ming to`rt yuz) so`m oilamizning jamg`arma puli ham xatlangan ekan. Bu pullar bizning umumiy mulkimiz hisoblanib, oilaviy turmushimiz davrida to`plangandir, chunki mollarni boqish bilan faqat biz shug`ullanganmiz. Shuning uchun ham bu pulning ikkidan bir qismi menga tegishli deb hisoblayman. Oila kodeksining 27-28-moddalari hamda FPKning 38-moddalariga asosan

So`rayman:

Dastlabki tergov davrida xatlangan Abdujabbor Jumayev nomidagi 3585-raqamli Mirzacho`l tuman davlat jamg`arma bankidagi 14400 (o`n to`rt ming to`rt yuz) so`m pulning ikkidan bir qismi, ya`ni 7200 (yetti yuz yigirma) so`mi menga tegishli deb topilishini va ro`yxatdan chiqarilishini.

Ilova:

1. Yashash joyimdan ma'lumotnoma.
2. nikoh guvohnomadadan nusxa;
3. bolalarimning tug`ilish guvohnomalaridan nusxa;
4. hukm nusxasi;
5. go`shtga topshirilgan mollar to`g`risida ma'lumotnoma;
6. da'vo arizasining nusxasi;
7. davlat bojining to`langanligi haqida chipta.

2002-yil 3-aprel.

R.Jumayeva

QARZDORNI QIDIRISH HAQIDA

Aliment undirish to'g'risidagi va mayib bo'lish yoki sog'liqqa ahvost yetishi, shuningdek, boquvchisining o'limi natijasida yetkizilgan aliment undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha qarzdorning turar joyi, yoki turar joyi ma'lum bo'lmasa, sudya qarzdorni ichki ishlar organlari orqali qidirish to'g'risida ajrim chiqarishi lozim.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoa xo'jaliklari, kooperativ tashkilotlar, ularning birlashmalari va boshqa xil jamoat tashkilotlarining fuqarolarga nisbatan bo'lgan da'volari bo'yicha qarzdorning haqiqiy turadigan joyi noma'lum bo'lsa, sud qarzdorni ichki ishlar organlari orqali qidirish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin.

Qidirish xarajatlari qarzdor ustiga yuklanadi.

Alimentlar to'lash to'g'risidagi ishlar bo'yicha, basharti, voyaga yetmagan bolalarning ota-onalarini qidirish davrida ularga nafaqa to'lab kelinayotgan bo'lsa, sudya aliment to'lash bo'yicha hosil bo'lgan qarz to'g'risida sud ijrochisi bergan taqdimnomaga asoslanib, qarzdordan ana shu to'langan nafaqalarning summasini undirib olish uchun ijro varaqasi berish haqida ajrim chiqaradi, bunda ana shu summaga qonunda belgilangan 10 foiz haq qo'shib yoziladi.

Ichki ishlar organining arizasiga binoan, sudya qarzdorni qidirishga ketgan xarajatlarni undirish uchun ijro varaqasi berish to'g'risida ham ajrim chiqaradi.

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha
M.Ulug'bek tumanlararo sudiga
Toshkent shahar, M.Ulug'bek tumani, Timiryazov
ko'chasi, 15-uyda yashovchi Go'zal
Doniyorovadan

ARIZA

(Qarzdorni qidirish to'g'risida)

Toshkent shahar, M.Ulug'bek tuman sudining 2001-yil 5-apreldagi hal qiluv qaroriga asosan 1970-yilda Toshkent shahar, Chilonzor tumanida tug'ilgan A.X.Doniyorovdan mening foydamga qizim ta'minoti uchun javobgarning barcha daromadlarining to'rt dan bir qismi miqdorida aliment undirish lozim edi. Biroq qarzdor A.X.Doniyorov aliment to'lashdan bo'yin tovlab, shu kunga qadar hal qiluv qarorini bajarmay, noma'lum

tomonlarda qochib yuribdi. Uni qidirib Toshkent va Andijon shahridagi qarindoshlarining uylariga ham bordim, lekin hech qanday natija bo`lmadi. Qarzdor oxirgi vaqtlarda Toshkent «Malika» fabrikasida duradgor bo`lib ishlab kelgan.

Biz moddiy tomondan juda ham qiynaldik. Shularni nazarda tutib, FPKning 140-moddasiga asosan

So`rayman:

Toshkent shahar, Chilonzor tumanida 1970-yil 15-noyabrda tug`ilgan, millati o`zbek Azim Xolmatovich Doniyorovga nisbatan qidiruv e`lon qilishni.

2001-yil 10-dekabr.

G.Doniyorova

Aliment ishlari bo`yicha qarzdorni qidirish
haqida sud ajrimi

AJRIM

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha M.Ulug`bek tumanlararo sudining sudyasi X.Mirzayeva sud kotibi M.Axrarovaning ishtirokida 2001-yil 15-dekabr kuni Go`zal Doniyorovanning aliment undirish haqidagi muqaddam chiqarilgan sudning hal qiluv qarorini ijro etish to`g`risidagi arizasi ko`rilib, quyidagilar

Aniqlandi:

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo`yicha M.Ulug`bek tumani sudining 2001-yil 5-apreldagi hal qiluv qaroriga asosan, 1970-yilda Toshkent shahrining Chilonzor tumanida tug`ilgan Azamat Xolmatovich Doniyorovdan, javobgar Go`zal Doniyorovanning foydasiga 1996-yil 10-fevralda tug`ilgan Iroda ismli qizining ta`minoti uchun har oyda uning barcha daromadlarining to`rt dan bir qismi miqdorida aliment undirish lozim edi.

Biroq qarzdor A.X.Doniyorov aliment to`lashdan bosh tortib, shu kunga qadar hal qiluv qarorini bajarmay, noma`lum tomonlarga ketib qolganligi va 7 oydan buyon aliment to`lamasdan kelayotganligi aniqlandi. Qarzdor oxirgi vaqtlarda Toshkent «Malika» fabrikasida duradgor bo`lib ishlab, shu fabrikaning Usta Shirin ko`cha 10-uydagi yotoqxonasida istiqomat qilgan.

Sud yuqoridagilarga ko`ra va FPKning 140-moddasiga asosan

Ajrim qiladi:

Toshkent shahar Chilonzor tumanida 1970-yil 15-noyabrda tug`ilgan, millati o`zbek Azamat Xolmatovich Doniyorovga nisbatan qidiruv e`lon qilinsin.

Ajrimning ikki nusxasi ijro qilish uchun Toshkent shahar, M.Ulug`bek tuman ichki ishlar bo`limiga yuborilsin.

270-raqamli ijro ishi qarzdor topilgunga qadar to`xtatilsin.

Sudya: X.Mirzayeva

HAL QILUV QARORINI O`ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH HAQIDA

Hal qiluv qarorini chiqargan sudning o`zi hal qiluv qarorini bekor qilishga yoki o`zgartirishga haqli emas. Bu huquq faqat hal qiluv qarorining to`g`riligini manfaatdor tarafning shikoyati yoki prokurorning protesti bo`yicha tekshiradigan yuqori sudga berilgan.

Sud ishni hal qilganda o`zining hal qiluv qarorida da`vogarning barcha savollariga to`la javob berishi lozim. Sud o`z fikricha asosli deb topilgan talablarini qondirishi va asossiz talablarni rad qilishi qonunda ko`rsatilgan.

Sudning hal qiluv qarori shunday yozilishi kerakki, uning mazmuni taraflarga ham, sud qarorini ijro qiluvchiga ham tushunarli bo`lsin. Agar sudning hal qiluv qarori ijro qilganda qarorning ma`nosi taraflarga yoki sud ijrochisiga anglashilmasa hamda uni ijro qilish qiyin bo`lsa yoki mumkin bo`lmasa, taraflar yoki sud ijrochisi qarorni chiqargan sudga murojaat qilib, hal qiluv qarorini tushuntirishni (sharhlashni) so`rashlari mumkin.

Hal qiluv qarorini tushuntirishga, agar u ijro qilinmagan bo`lsagina va hal qiluv qarorini majburiy ijro qilish muddati o`tmagan bo`lsagina, yo`l qo`yiladi.

Fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar sudi Rayosatining qarori

2003-yil 4-oktabr kuni fuqarolik ishlari bo`yicha Toshkent shahar sudining Rayosat majlisida B.K.Norov raisligida, a`zolari-V.Ochilov, A.Ergashev, S.Qodirov, D.Mirxodiyev, G.Nazarovlar Toshkent shahar prokurori S.Jo`rayev ishtirokida, Toshkent shahar sudining raisi B.K.Norov tomonidan da`vogar Adiba Sharipovaning javobgarlar N.Sharipova, Z.Sharipov va boshqalarga uyga kiritish haqida 2001-yil 15-

noyabrda Akmal Ikromov tuman sudining chiqargan hal qiluv qarori ustidan keltirilgan protestiga asosan, ish yuzasidan sudya D.Qodirovaning ma'ruzasi tinglanib, quyidagilar

Aniqlandi:

Da'vogar A.Sharipova sudga ariza bilan murojaat qilib, uni ikki nafar farzandi bilan Toshkent shahar, Akmal Ikromov tuman, Dadil ko'chasi 9-uyga kirgizib qo'yishni so'raydi, bunga asos qilib javobgar Z.Sharipov bilan 1996-yil 10-oktabrda qonuniy nikohdan o'tib turmush qurganini, shu nizoli hovli joyda yashab 2 nafar farzandli bo'lganligini, lekin turmush o'rtog'i uni hamisha urib qiynab kelgani va 1997-yili iyun oyida uydan haydab chiqarganini, bolalari bilan yashaydigan boshqa uy-joyi yo'qligini, hozirda esa qo'shnisining uyida yashayotganligini ko'rsatadi.

Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha A.Ikromov tumanlararo sudining 2000-yil 15-noyabrda chiqargan hal qiluv qaroriga ko'ra da'vogar A.Sharipova 2 nafar farzandi bilan nizoli uy-joyga kiritib qo'yilgan.

Ushbu hal qiluv qaroriga shikoyat ariza yozilmaganligi tufayli ish apellatsiya, kassatsiya tartibida ko'rilmagan.

Ish bo'yicha keltirilgan protestda sudning chiqargan hal qiluv qarorini bekor qilib, qayta ko'rish uchun yuborish so'ralgan.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudining Rayosat majlisida ish materiallari atroflicha ko'rib, sud quyidagilarga asosan keltirilgan protest qanoatlantirishni lozim deb hisoblaydi.

Sudning hal qiluv qarorida da'vogar A.Sharipova ushbu nizoli uy-joyda oila a'zosi sifatida 1996-yildan beri yashaganligi, turmushlaridan 2 nafar farzandlari borligi inobatga olinganligi ko'rsatilgan bo'lsa-da, lekin sud o'z qarorida da'vogar ikki nafar farzandlari bilan 5 xonali uy-joyning qaysi xonalaridan foydalanishi lozimligi, ilgari da'vogarning mol-mulkleri xonalarning qaysi birida saqlanganligi, birga yashagan vaqtlarida xonalardan foydalanish tartibi oila a'zolari o'rtasida qanday bo'lganligi tekshirilganligi haqida ishdagi materiallardan va hal qiluv qaroridan ko'rinmaydi.

Da'vogar A.Sharipova o'zini nazorat tartibida protest keltirishni so'rab bergan arizasida sudning chiqargan ushbu hal qiluv qarorining ijro qilinishi qiyinlashganligini, bunga sabab sud ijrochilari da'vogarni uyga kirgizib qo'yishgandan so'ng, javobgarlar qaysi xonaga kirsam, haydab chiqarib, «senga yashaydigan xona yo'q», deya janjal qilib, yashashga imkoniyat bermayotganini, da'vogar ikki nafar farzandi bilan qiyinalib

qolpanligini va da'vo arizasida uy-joyni qanday taqsim qilish lozimligi aniq ko'rsatilgan bo'lsa-da, sud unga e'tibor bermaganini ko'rsatgan.

Tumanlararo sudning hal qiluv qarorida ilgari taraflar nizoli uydan qay tarzda foydalanib kelishgani, da'vogarning mol-mulki turgan xona qaysi birida bo'lganligi va bolalari bilan qaysi xonalardan foydalanishi lozimligi ko'rsatilmaganligi sababli hal qiluv qarorining ijrosi qiyinlashgan. Shunga ko'ra sud Rayosati ushbu hal qiluv qarorini bekor qilishni lozim deb hisoblaydi.

Kelgusida ishni qayta ko'rish jarayonida sud taraflar birga yashagan vaqtlarda nizoli uy-joydan qay tarzda foydalanib kelishkanini, da'vogar bolasi bilan qaysi xonalardan foydalanishi lozimligini aniqlamog'i lozim.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudining Rayosati yuqoridagilarga ko'ra, FPKning 361-moddasiga asosan

Qaror qildi:

Fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudi raisining keltirgan protesti qanoatlantirilsin.

Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumanlararo fuqarolik sudining 2000-yil 15-noyabrda da'vogar Adiba Sharipovning uyga kiritish haqidagi da'vosi bo'yicha chiqargan hal qiluv qarorini bekor qilib, ishni shu tumanlararo sudning boshqa hay'atida ko'rish uchun yuborilsin.

Toshkent shahar sudi Rayosat majlisida
raislik etuvchi: B.K.Norov

MUNDARIJA

Muallifdan.....	3
I. Sud ajrimi tushunchasi va uni qabul qilish asoslari	5
II. Keltirilgan zararni undirish tartibiga oid hujjat namunalari.....	23
III. Uy-joy munosabatlariga doir ayrim protsessual hujjatlar	39
IV. Nikoh va oila huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolar bo`yicha hujjat namunalari nikohdan ajratish ishlarini ko`rish	56
V. Aliment undirish, otalikni belgilashga oid protsessual hujjatlar alimentni ixtiyoriy to`lash xususida.....	102
VI. Sirdan hal qiluv qarori chiqarish haqida umumiy tushuncha	109
VII. Aliment undirish, otalikni belgilashga Oid protsessual hujjatlar	118
VIII. Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo`yicha ishlarni yuritish	193
IX. Alohida tartibda ko`riladigan ishlar.....	211
X. Apellatsiya sudida ish yuritish.....	263
XI. Ishni kassatsiya tartibida ko`rish asoslari	280
XII. Sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlarini nazorat tartibida qayta ko`ri	293
XIII. Qonuniy kuchga kirgan sudning hal qiluv qarori va ajrimlarini yangi ochilgan holatlar bo`yicha qayta ko`rish.....	308
XIV. Sudning hal qiluv qarorini ijrosi haqida	314

SHO-AKBAR SHORAXMETOV

**FUQAROLIK ISHLARINI SUDDA
KO`RISHGA OID PROTSESSUAL
HUJJAT NAMUNALARIGA
SHARH**

Muharrir: *M. Bolliyeva.*

Texnik muharrir: *A. Boymamatov.*

Kompyuterda sahifalovchi: *T. Ashirov.*

Kompyuterda teruvchi: *S. Ergashev.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.07.2009.

Hajmi: 20,4 b.t. Adadi: 300. Buyurtma: № 95.

TDYI kichik bosmaxonasida bosildi.

Tashkent shahri, Sayilgoh 35.